

# QISHLOQ XO‘JALIGI MASHINALARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

---

**M. SHOUMAROVA, T. ABDILLAYEV**

# **QISHLOQ XO'JALIGI MASHINALARI**

**Kasb-hunar kollejlari uchun darslik**

*To 'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri*

**«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2005**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan  
derslik sifatida tavsiya etilgan

*Osiyo Taraqqiyot Banki kredit  
mablag'lari hisobidan nashr etilgan*

**Shoumarova M., Abdillayev T.**

Qishloq xo'jaligi mashinalari: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik / M. Shoumarova, T. Abdillayev; Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: «Sharq», 2005. — 192 b.

**BBK 40.72 ya 72**

Ushbu darslikda Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga moslangan qishloq xo'jaligi mashinalariniň asosiý turлari, jumladan, yerni ekin ekishga tayyorlash mashinalari g'alla kombayni, kartoshka kavlash, paxt terish, don tozalash va boshqa mashinalarining umumiy tuzilishi, sozlanishi hamda texnologik jarayon asoslari bayon qilingan. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar hamda o'quvchilarning har bir bob yuzasidan olgan bilimlarini tekshirish uchun namunaviy test topshiriqlari havol qilingan.

Darslik qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini uchun mo'ljallangan bo'lib undan oliy o'quv yurtlarining «Agronomiya» yo'nalishi talabalari, fermerlar, qishloq xo'jaligi shohasiga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

## K I R I SH

Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi sohasi muhim o'rincutadi. Zero, milliy daromadning katta qismini aynan agrar sektor bermoqda. Ma'lumki, aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyati qishloq xo'jaligida yetishtiriladi. Shu sababli qishloq xo'jaligini zamonaviy ilg'or texnologiyalar asosida rivojlantirish respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi. Ilg'or texnologiyalarni joriy qilish mahalliy sharoitlarga moslangan zamonaviy texnikadan samarali foydalanishni talab qiladi. Bu esa murakkab agregatlar da ishlaydigan mutaxassislarning maxsus kasbiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlariga bog'liq.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan maxsus fanlar orasida «Qishloq xo'jaligi mashinalari» muhim o'rinni egallaydi.

Mazkur darslikda respublikamiz qishloq xo'jaligi sohalarida foydalilaniladigan mashinalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishchi qismlari, to'ntarma plugging mexanizmlari va sozlanishlari, ekish mashinalari miqdorlagichi va ekkich turlarini mahalliy sharoitga moslab tanlash, pylonka ostiga chigit ekadigan seyalkalarning ishlash jarayonlari to'liq tavsiflangan.

Don mustaqilligiga erishgan respublikamiz dalalarida samarali ishlatilayotgan aksial-rotorli kombayn va don tozalash mashinalarining tuzilishi, ishlatilishi, g'alla hosilini yig'ishtirish texnologiyasi batafsил yoritilgan.

Darslikning «Paxta terish mashinalari» bobida yuksak texnologiya asosida tayyorlangan gorizontal shpindelli paxta terish mashinasining tuzilishi va ishlashi, hosilni yig'ishtiradigan boshqa mashinalar turi, ularga qo'yiladigan agrotexnik talablar borasida ham ma'lumotlar berilgan.

Shu bilan birga mazkur kitobda respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga moslangan (o'g'itlash, o'simliklarni himoya qilish, melioratsiya, yem-xashakni yig'ishtirish, kartoshka kavlash) mashinalar turkumi namunalarining tuzilishi, texnologik jarayoni, ularni ishga tayyorlash, ish sifatini nazorat qilish, turli operatsiyalarni muayyan sharoitda sifatlari bajarish uchun tegishli ishchi qismini tanlash bo'yicha maslahatlar, ayrim mashinalar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, har bir bobdan keyin esa xulosalar va test savollari o'rinni.

## I b o b.

### TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH MASHINALARI

Kollej o'quvchilari ekindan mo'l hosil olish uchun urug'dan unib chiqqan niholning tez va baquvvat bo'lib o'sishiga erishish zarurligini yaxshi tushunadilar. Shu maqsadda urug'ni yetarli chuqurlikda sifatli maydalangan tuproqqa ko'mish kerakligini, unib chiqqan o'simlik ko'chati yaxshi rivojlanishi uchun (sug'orish va o'g'itlashga qo'shimcha) uning ildizi tarqalayotgan yerni sayoz yumshatib (chopiq qilib), u yerda yetarli suv va havoni saqlash lozimligini ham biladilar.

Respublikamiz sharoitida yerni ekin ekishga tayyorlashda plug bilan chuqur (20 sm dan ko'proq) haydash texnologiyasi qabul qilingan. Plug yerning ustki qatlamini ag'darib, begona o't va hasharotlarni chuqur ko'madi va tuproqni yumshatib beradi. Kutilayotgan hosilning taqdiri yerni tuproq turi va holatiga mos keladigan plug bilan qulay muddatlarda shudgorlashga bog'liq. Shu bois plugdan sifatli foydalanish uchun uning tuzilishini, mahalliy sharoitlarga moslab ishlashni kollejda tahsil olayotgan har bir o'quvchi yaxshi bilishi lozim.

Mazkur bobni o'zlashtirish natijasida o'quvchi plug ishiga qo'yiladigan agrotexnik talab (ATT) larni, plug turlarini, tuzilishini, ish jarayonini va ularni mahalliy sharoitlarga moslab sozlashni o'rganadi. Rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar orqali plugni traktorga to'g'ri ulash bo'yicha ko'nigmaga ega bo'ladi.

O'qituvchi mashg'ulot o'tkazishda plugging tuproqqa ishlov beradigan boshqa mashinalardan tub farqiga, uning asosiy vazifasi tuproq palaxsasini ag'darishdan iboratligiga, qanday shart buzilganida palaxsa yetarli darajada ag'darilishi va natijada begona o'tlarga qarshi ta'siri past bo'lismiga, qanday sabablarga ko'ra har xil shakldagi ishchi sirtga va qamrov kenglikka ega bo'lgan korpuslar ishlatalishiga, plug ravon harakatlanishi uchun uni traktorga to'g'ri ulashga e'tibor berishi lozim. Shu bilan birga yer ekoliyayisini himoya qilish nuqtayi nazaridan plugdan kamroq foydalanish maqsadga muvosiqligiga urg'u berishi kerak.

Bob bo'yicha mashg'ulotlar tugatilayotganida, o'quvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashuv va babs-munozarani tashkillashtirish maqsadga muvosiqidir.

#### 1-§. TUPROQQA ISHLOV BERISH USULLARI

Har qanday ekin hosildorligini oshirish uchun ekiladigan yerga ishlov berish zarur. Bunda asosiy e'tibor tuproq unumidorligini tiklashga qaratiladi. Shu maqsadda, mahalliy sharoitga qarab, tuproqqa ishlov berishning an'anaviy va resurstejamkor usullari qo'llaniladi.

**An'anaviy usulda** plug bilan yerni kamida 20 sm chuqurlikda haydar, asosiy, so'ngra turli tirma, kultivator, plug, freza kabi mashinalar bilan sayoz ishlov beriladi. Plugda ishlov berishda yerning ustki qatlami qirqilib ajratiladi va yon tomonga siljilib, ma'lum burchakka burib ag'dariladi. Qirqilgan palaxsa qatlami ag'darilishi natijasida may-dalanadi, tuproqning strukturasi tiklanadi, begona o't urug'lari va qoldiqlari hamda hasharotlar ko'miladi, yer yuziga esa tuproqning pastki, ya'ni chirindiga boy qatlami chiqarib tashlanadi. Bu usuldan foydalanib, yerni chuqur va o'ta chuqur (27 sm va undan ortiqroq) shudgorlab, begona o'tlarni keskin kamaytirish mumkin. Ammo, yerni ag'darib haydash tuproqqa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki yer yuzasiga chiqarilgan qatlamidagi organik moddalar quyosh nuri va turli omillar (yomg'ir, shamol) ta'sirida parchalanib, uglerodning atmosferaga uchib ketishi hamda tuproq eroziysi kuchayish ehtimoli bor.

Sug'oriladigan yerlardan 2—3 marta hosil olish uchun tuproqqa ishlov berishning intensiv texnologiyasidan foydalaniladi. Bu esa, dalada mashina-traktor agregatlarining, shu jumladan, plugli agregatlarining ko'p marta ishlatalishiga olib keladi. Natijada, **tuproq ustki qatlamingning uvalanib changga aylanishi, pastki qatlaming esa zichlanganishi kuchayadi**. Bundan tashqari, plug bilan yillar davomida bir xil chuqurlikda ishlov berilganda shudgor tubida o'ta zichlangan «plug tovoni» paydo bo'lib, ekin ildizining rivojlanishiga va suvning shimalishiga to'sqinlik qiladi. Yerga solingan mineral o'g'itning samarasini kamayib, yuqori hosil olib bo'lmaydi. Shu sababli, so'nggi vaqtida dunyoda yerga ishlov berishning resurstejamkor (resurslarni tejovchi) va tuproqni himoyalovchi texnologiyalari keng tatbiq etilmoqda.

**Respublikamiz Yer kodeksi talablariga binoan har bir fermer o'zil foydalanayotgan dala tuprog'i-ning unumdarligini kamaytirmaydigan texnologiyalarni to'g'ri tanslashi lozim.**

tuproq zichlanishining oldini olish.

G'alladan so'ng, takroriy ekinni yuqori texnologiya asosida ekishda, poyalarni balandroqdan o'rib, ular massasining 30 foizini ang'iz sifatida qoldirish kerak. Ekish uchun ang'izning faqat urug' ko'miladigan qismigina turli chizel, kultivator, chuqurtilgich, chuquryumshatkich kabilar yordamida yumshatib tayyorlanadi. Tishi yon tomonga qiya engashgan ustunga o'matilgan «paraplav» chuquryumshatkichidan foydalanish yaxshi natija berishini alohida ta'kidlash joiz.

Chuquryumshatkich — tilgich har uch-to'rt yilda bir marta 1,5—2,5 m oraliq qoldirib 0,5—0,6 m chuqurlikkacha ishlov berish uchun qo'llaniladi. Natijada, ildiz rivojlanadigan joy kengayadi. Bunday usul «yo'laklab» ishlov berish deb yuritiladi.

Nul yoki kimyoviy texnologiyalar shudgorlamasdan yoki bevosita ekish ham deyiladi. Bu usulda dalaning 25 foizigagina mexanik ishlov berilib, qolgan joylardagi begona o'tlar gerbitsid yordamida yo'qotiladi.


Resurstejamkor texnologiyadan foydalanilsa, tuproqni ekish uchun tayyorlashga sarflanadigan katta mablag'lar tejaladi, tuproqning shimuvchanligi yaxshilanib, chuvalchanglar ko'payadi, yerning unumdarligi va hosildorligi ortadi. Shu sababli bu texnologiya istiqbolli hisoblanadi.

**Resurstejamkor texnologiya** ba'zan nul, kimyoviy, minimal, alternativ, mulchalab, pushtalab ishlov berish deb ham yuritiladi. Ularning asosiy ko'rsatichi — yerga ishlov berishda har yili plugdan foydalanmay, bir necha texnologik operatsiyalarni kombinatsiyalashtirilgan agregatning bir yurishida bajarib,

Tuproqqa asosiy ishlov beradigan har qanday plug ramaga o'rnatilgan qismlar, g'ildiraklar, ularni turli sharoitga moslovchi mexanizmlar va traktorga ulaydigan moslamadan tuzilgan. Plugning texnologik ish jarayoni 1-rasmida ko'rsatilgan bo'lib, uning ishchi qismi pichoq 1, chimqirqar 2, asosiy korpus 3 dan iborat. Pichoq shudgorlanayotgan yerni tik tekislikda ma'lum chuqurlikda kesib ketadi. Asosiy korpus yerdan kengligi b, qalinligi a bo'lgan ABCD to'rtburchagiga o'xshagan tuproq palaxsasini o'ng tomonga surib ag'daradi. Agar yerning ustki qatlami serildiz bo'lsa, asosiy korpus oldiga chimqirqar o'rnatiladi. U ABCD palaxsaning OCME bo'lagini ajratib olib, shudgor tubiga tashlaydi. Palaxsaning o'z joyida qolgan G shaklidagi ABOEMD qismini asosiy korpus shudgor tubidan ajratib olib, ilgari to'ntarilgan OSMEning ustiga ag'darib, ko'mib ketadi.

**Agrotexnik talablar.** Yerga plug bilan ishlov berishda **tuproq palaxsasini ag'darish talab qilinadi**. Har yili ekin ekiladigan yerlarni kuzgi shudgorlashda hamda qo'riq yerlarni birinchi marta shudgorlashda chimqirqar (yoki burchakqirqar) o'rnatilgan plugdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sochilgan go'nngi ko'mish uchun chimqirqarsiz plug ishlataladi. Serildiz joylarda palaxsani ag'darib, kesaklarni maydalamasdan shudgorlash kerak (kesaklar boshqa quollar yordamida keyinchalik maydalananadi). Sertosh yerlar saqlagichli plug bilan haydaladi.

Tuproqning namligi 16—18 foiz bo'lganda yer 20 sm (makkajo'xori va paxta uchun kamida 30 sm) chuqurlikda shudgorlanadi. Yillar davomida bir xil chuqurlikda haydash natijasida hosil bo'lgan «plug tovoni»ni buzish uchun har 2—3 yilda chuqurlatkich bilan ishlov berish talab qilinadi.



1-rasm. Plugning texnologik ish jarayoni:

1 — pichoq; 2 — chimqirqar; 3 — korpus; A — shudgorlash chuqurligi;  
B — korpusning qamrov kengligi; D — palaxsaning engashish burchagi.

Shudgorlash chuqurligining amaldagi o'zgarishi agronom tayinlagan miqdordan ( $\pm 5$  foiz) oshmasligi, plugning qamrov kengligi konstruktiv kengligiga nisbatan  $\pm 10$  foizdan ortiq farq qilmasligi lozim. Shudgorlash natijasida o'simlik qoldiqlari va sochilgan go'ng to'liq ko'milishi shart. Har bir korpus ag'dargan palaxsalardan paydo bo'ladi dan do'ngchalar balandligi 5 sm dan oshmasligi, shudgorlangan joylarda baland tuproq uyumilari va o'ta keng ochilgan marzalar bo'lmashligi kerak.

Dala chetida plugli agregat burilishi uchun haydalmasdan qoldirilgan yo'lakchalar ko'ndalangiga to'liq chuqurlikda shudgorlanadi. Bunda o'lchami 1—10 mm bo'lgan kesaklar hosil bo'ladi. Tuproq 0,25 mm dan kichikroq zarrachalarga maydalansa eroziya kuchayishini e'tiborga olib, uni ezib maydalashga yo'l qo'ymaslik kerak.

**Pluglar tasnifi.** Pluglar vazifasi, traktorga ularish usuli, konstruksiyasi, korpuslar soni va mo'ljallangan ish tezligiga qarab har xil turlarga bo'linadi. Korpusining tuzilishiga ko'ra lemezli, diskli, chizelsimon, rotatsion va qurama (kombinatsiyalashtirilgan) pluglar farqlanadi. Diskli pluglardan og'ir (o'ta qattiq va zinch) tuproqli dalalarni haydashda foydalaniadi. Rotatsion va qurama pluglar ekish hamda parvarishlash agro-texnikasi talablariga qarab ishlataladi. Lemexli pluglar eng ko'p tarqalgan bo'lib, o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Oddiy pluglar. Bu guruhga har yili haydaladigan yerlarga ishlov berish uchun mo'ljallangan pluglar kiradi (2-rasm).


2. Maxsus pluglar. Bu guruhga changalzor-botqoqbop, plantatsiyabop, bog'bop, tokzorbop, o'rmonbop, tekis shudgorlaydigan (3-rasm) va boshqa pluglar kiradi.

**Mahalliy tuproq holatiga mos keladigan plugdan foydalanish sa'marali bo'ladi.** Traktorga ularish usuli bo'yicha pluglar tirkalma, osma va yarimosma turlarga bo'linadi.

**Tirkalma plug** traktorga maxsus tirkagich yordamida ularib, to'liq og'irligi g'ildiraklarga tushadi.

Plugni ishchi va transport holatlariga keltirish maxsus mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi (2-b rasm).

**Osma plug** traktoring osish moslamasiga o'rnatiladi, transport holatida uning to'liq og'irligi traktorga, ish jarayonida esa tayanch g'ildiraklarga tushadi. Osma pluglar traktoring osish moslamasi mexanizmlari yordamida ish va transport holatiga keltiriladi.




2-rasm. Oddiy pluglar:

a — osma; b — tirkalma. 1 — korpus; 2 — rama; 3 — g'ildirak; 4 — osish moslamasi; 5 — tirkagich.

Plugning tayanch g'ildiragi shudgorlash chuqurligini o'zgartirish uchun xizmat qiladi (2-a rasm).

**Yarim osma plug** traktorning osish moslamasiga o'rnatilib, transport holatda og'irligining bir qismi orqa g'ildirakka tushadi.

Texnologik jarayonni bajarish usuliga ko'ra, pluglar dalada tuproq uyumi va jo'yaklar hosil qiladigan, **tekis shudgorlaydigan** turlarga bo'linadi. Tuproq uyumi va jo'yaklar hosil qilib shudgorlaydigan oddiy pluglarga faqat bir tomonga ag'daradigan korpuslar o'rnatiladi. **Tekis shudgorlaydigan** plugga bir vaqtning o'zida chapga va o'ngga ag'daradigan korpuslar o'rnatib, ularni navbatma-navbat ishlatalish hisobiga tuproq palaxsalari bir tomonga ag'dariladi, natijada yer tekis shudgorlanadi (3-rasm).



3-rasm. Tekis shudgorlaydigan maxsus pluglar:

a — to'ntarma; b — posongili.

1—o'ng tomonga ag'daradigan korpuslar; 2—chap tomonga ag'daradigan korpuslar.

Plugning ishchi qismalarini joylashtirish tartibi 1- va 4-rasmlarda ko'rsatilgan.

**Pichoq 1** korpusning oldiga joylashtiriladi va tuproq qatlamini vertikal tekislikda haydalmagan dala tomonidan belgilangan joyda tilib ketadi hamda shudgor devorining silliq bo'lislini ta'minlaydi. Natijada, orqaga o'rnatilgan chimqirqar yoki korpus tuproq palaxsasini uzib olganida shudgor devori notejis bo'lib qolmaydi va energiya sarfi kamayadi. Pichoqdan foydalaniilganda, begona o'tlar qoldig'i to'liqroq ko'miladi, plugning harakati ravonroq bo'lib, belgilangan chuqurlikning o'zgaruvchanligi kamayadi.

**Chimqirqar 2** serildiz, chim bosgan yerlarni haydashda ishlataladi va korpus bilan pichoq o'rtasiga o'rnatiladi. U asosiy palaxsaning dala chetidan 8—12 sm chuqurlikdag'i, korpus qamrov kengligining 2/3 qismiga teng kenglikdagi bo'tagini qirqib olib, shudgor tubiga tashlab beradi. Bunda yerning serildiz ustki qatlami to'liqroq ko'miladi va chirindiga aylanadi. Ayrim sharoitlarda maxsus pluglarda chimqirqar o'rniغا undan kichikroq bo'lgan burchakkesar ham ishlatalishi mumkin.

**Korpus 3** plugning asosiy ishchi qismidir. U a chuqurlikdagi, b kenglikdagi palaxsani yerdan ajratib oladi va uni 130°—150° burchakka burib ag'daradi. Natijada, tuproq palaxsasi deformatsiyalanib maydalanadi, shudgorlangan tomonga a masofaga suriladi (1-a rasm). Shudgorlash sifati korpus ishchi sirtining geometrik shakli va o'lchamlariga bog'liq.

**Chuqurlatkich 4** asosiy korpusdan keyin, unga nisbatan chuqurroq o'rnatiladi. Korpus lemaxining «plug tovoni»ni tilib buzib ketishi suv almashinuvini yengillashtiradi.

Tuproq xossalari va shudgorlashga bo'lgan agrotexnik talablar e'tiborga olinib, har xil konstruksiyadagi korpuslar ishlab chiqariladi.

Respublikamiz sharoitida asosan **ag'dargichli korpus** keng tarqalgan bo'lib, u lemek 1, ag'dargich 2 va tirak taxtasi 4 o'rnatiladigan ustun 3 dan tashkil topgan (5-rasm). U tuproq palaxsasini ag'darib maydalash maqsadida ishlatiladi. Ustunga bikr o'rnatilgan lemek va ag'dargich yagona ishchi sirtni tashkil qiladi.

Plug korpusi qamrov kengligi  $a$  shudgorlash chuqurligi, lemek tig'ining shudgor devoriga engashish burchagi  $\gamma_0$  va lemekning shudgor tubiga engashish burchagi  $a_{ch}$  hamda ishchi sirtining shakli bilan tavsiflanadi (4-rasm). Oddiy pluglardagi korpusning qamrov kengligi  $b$  asosan 30; 35 va 40 sm, maxsus pluglarda 45; 50; 60; 75, hatto 100 sm bo'lishi mumkin. Mahalliy tuproq sharoitlari va ekiladigan ekinning turiga qarab, yerlarni turli chuqurlikda shudgorlash talab qilinadi. Shuni hisobga olib, qamrov kengligi turlicha bo'lgan korpuslar ishlab chiqariladi. Maksimal haydash chuqurligi korpus qamrov kengligining 79 foizidan oshmasligi, ya'ni kamida  $B \geq 1,27 a_{max}$  bo'lishi kerak. Aks holda, palaxsa sifatli ag'darilmaydi. Demak,  $a = 27$  sm chuqurlikda shudgorlanadigan bo'lsa,  $b = 1,27 \cdot a = 1,27 \cdot 27 = 35$  sm li, agar  $a = 30$  sm bo'lishi talab qilinsa  $b = 1,27 \cdot 30 = 40$  sm li korpus o'rnatilgan plugni ishlatish lozim.


Ag'dargichli korpusning ish sifatini tuproq palaxsasini ag'darish darajasi va maydalash jadalligi belgilaydi. Bu omillar ishchi sirtning turiga bog'liq.


Silindrsimon sirtli korpus ag'dargichining qanoti buralmagan bo'lib, tuproq qatlamini yetarli ag'darmaydi, ammo yaxshi maydalaydi. Bunday korpuslardan deyarli foy-dalanilmaydi.

**Madaniy korpusning** (4-rasmidagi lemek tig'ining engashish burchagi  $\gamma_0 \geq 40^\circ$ ) sirti kamroq buralgan silindroid shakilda bo'lib, tuproq palaxsasini yetarli darajada ag'darib,

4-rasm. Plug ishchi qismlarini joylashtirish sxemasi:

1—pichoq; 2—chimqirqar; 3—korpus; 4—chuqurlatkich;  $a$  — shudgorlash chuqurligi;  $a_{ch}$  — chimqirqarning ishlov berish chuqurligi;  $a_{ch}$  — chuqurlatkichning ishlov berish chuqurligi; N — rama balandligi;  $\sigma$  — korpusning qamrov kengligi;  $\Delta b$  — korpus qamrov kengligining qoplanishi;  $b_1$  — chimqirqarning qamrov kengligi;  $b_{ch}$  — chuqurlatkich qamrov kengligi;  $t$ ,  $t_1$ ,  $t_{ch}$  — chimqirqarning pichoq o'qi va chuqurlatkichning asosiy korpusga nisbatan bo'y-lama yo'naliш bo'yicha joylashishi;  $l$ ,  $l_1$  va  $l_{ch}$  — chimqirqar, pichoq va chuqurlatkichning asosiy korpusga nisbatan ko'ndalang yo'naliш bo'yicha joylashishi;  $\Delta l$  — pichoq gupechagi bilan yer satni oralig'i.





*5-rasm.* Korpus qismlari:

1—lemez; 2—ag'dargich;

3—ustun; 4—tirak taxta.

yaxshi maydalaydi. Undan doim ishlov berib kelinayotgan dalaarni shudgorlashda foydalanilgani ma'qul. Madaniy korpus uch turda tayyorlanib, har xil tezlikda ishlataladi: (7,7—9, 9—12 km/soat-gacha).

**Universal korpusning ( $\gamma_0 \geq 37-40^\circ$ ) sirti ko'proq buralgan silindroid shaklda bo'lib, tuproqni yaxshi ag'daradi, ammo kamroq maydalaydi. Bunday korpuslarni changalzor-botqoqbop, ba'zan oddiy pluglarga qo'yib, serildiz va qo'riq yerlarni shudgorlashda ishlataladi.**

**Tezkor korpus ( $\gamma_0 < 37^\circ$ )** 9—12 km/soat tezlikda ishlataligandagi texnologik jarayon yaxshiroq bajariladi. Bunday korpusning ag'dargichidan irg'itilayotgan tuproq 30—40 sm uzoqlikdagi yerga otilgan holda yoyilib tushadi, zarb bilan yerga urilishi hisobiga kesaklar maydalaniib, shudgor yuzasi tekisroq chiqadi. Agar tezkor korpus me'yordan (8 km/soat) kam tezlikda ishlatisa, uning tuproqni deformatsiyalashi va irg'itish tezligi o'zgarib, shudgor sifati yomonlashadi.

Tezkor korpusning shudgor chet qirqimi ag'darilgan tuproqqa tegmasligi uchun egri chiziq shaklida yasaladi. Ko'kragi tezroq yeyilishi sababli, yangisiga almashtirib turiladi. Bunday korpusga balandroq tirak taxta o'matiladi. Agar tirak taxta past bo'lsa, katta kuch ta'sirida shudgor devoriga botib, korpus ravon harakatlanmaydi. Vintsimon sirtli korpus boshqalariga qaraganda uzunroq, uning ag'dargichi ko'proq buralgan bo'ladi. Tuproq palaxsasi korpus bo'ylab ko'tarilganda o'ta kam maydalaniadi, lekin yaxshi ag'dariladi.

**Lemex** tuproq palaxsasini tagidan kesib yerdan ajratadi, biroz ko'tarib uni ag'dargichga uzatadi (*6-rasm*). Ish jarayonida zichlangan tuproq lemex sirti bo'ylab katta bosim bilan siljiganda uning tig'i tez yeyilib, ensiz bo'lib qoladi. Lemexni qizdirib, orqa tomondagi bo'rtiq metall zaxirasi (magazin) bolg'a bilan urilib tig' tomonga siljiltsila, uning dastlabki kengligi tiklanadi. Tiklangan tig' 25°—35° ostida, qalinligi 1,0 mm ga yetguncha charxlanadi, magazindagi metall zaxirasi tig'ni 4—5 marta cho'zib, tiklashga yetadi.

Lemexlari o'tmaslashib qolgan plugning sudrashga qarshiliqi keskin (30 foizgacha) ortib, uning belgilangan chuqurlikkacha botishi qiyinlashadi, ravon harakatlana olmaydi. Lemexdan uzoqroq foydalanish uchun u yeyilishga chidamli bo'lgan maxsus po'latdan tayyorlanadi. Ularni o'z-o'zidan o'tkirlanadigan qilib yasash ham mumkin. Bunda

*Tig'i o'z-o'zidan o'tkirlanadigan lemexdandan ko'proq foydalaning!* tig'ning tagiga 1,5 mm qalinlikda yeyilishga chidamli maxsus qotishma (masalan, sormayt) payvandlanadi yoki uni ikki qatlamlil po'latdan yasaladi. Ish jarayonida tig'ning ustki yumshoqroq qatlami tezroq yeyilib, pastki o'tkir qatlamin ochib berishi natijasida tig'ning o'tkirligi uzoq vaqt tiklanib turadi. Oddiy lemexga nisbatan, qotishma payvandlangan lemex 10—12, ikki qatlamlil po'latdan yasalgani esa 20—25 marta ko'proq xizmat qiladi.


Lemexning shakli shudgorlanadigan tuproq turiga moslab tanlanadi. Tuproq turlari ko'p bo'lganligi sababli, lemex ham har xil shaklda: trapetsiyasimon, iskanasimon, uchburchaksimon, almashtiriladigan tumshuqli bo'ladi.

**Trapetsiyasimon lemex** juda sodda tuzilgan bo'lib, uni tayyorlash va ta'mirlash arzon (6-a rasm). U qattiq tuproqqa qiyin botadi, tez yeyiladi. Shu sababli yengil tuproqli yerlarga ishllov berishda qo'llaniladi.

**Iskanasimon lemexning** iskanaga o'xhash cho'ziq tumshug'i pastga 10 mm va yon tomonga 5 mm egilgan bo'ladi (6-b rasm). U trapetsiyasimon lemexga nisbatan qimmat, ammo yeyilishga chidamli va qattiq tuproqqa oson botadi. Iskanasimon lemexli plug ravon harakatlanadi.

**Ag'dargich** lemex kesib ko'tarib bergan palaxsasini haydalmagan yerdan uzib oladi (agar pichoq o'rnatilmagan bo'lsa), uni ko'tarayotib yon tomonga surib siljitudi, maydalaydi va ag'daradi. Katta bosim bilan siljiyotgan palaxsadagi abraziv zarrachalar ta'sirida ag'dargich tez yeyilishi va tuproqning qarshilik bosimi ta'sirida egilib sinishi ham mumkin. Yuzasini yeyilishga, qanotini egilishga chidamli qilish maqsadida ag'dargich ikki yoki uch qatlamlı maxsus po'latdan tayyorlanadi. Ag'dargich ishchi sirtini 1—2 mm chuqurlikka sementatsiya qilib, uning yeyilishga qarshiligini oshiriladi. Bunday ag'dargichning ishchi sirti abraziv yeyilishga, o'rtta va tuproqqa tegmaydigan ortqi sirtidagi yumshoq qatlamlar egilishga chidamli bo'ladi. Ko'pincha ag'dargichning ko'kragi tez yeyilishi sababli, u almashtiriladigan qilib tayyorlanadi. Yuzasi bo'ylab siljiyotgan tuproqning ishqalanish kuchini kamaytirish maqsadida ag'dargich o'ta mayin qilib jilvirlanadi. Plugni saqlashga qo'yganda bunday sirt korroziyaga uchrab, gadir-budir bo'lib qolmasligi uchun uni maxsus moy bilan qoplanadi. Aks holda, ishlatish vaqtida zanglagan joyga tuproq yopishib qoladi va siljiyotgan palaxsa tuproq bo'ylab sirpanadi. Ma'lumki, tuproqning tuproq bo'ylab ishqalanish koeffitsienti tuproqning po'lat bo'yicha ishqalanish koeffitsientidan 1,5—1,8 marта katta bo'lganligi sababli plugning sudrashga qarshiliği ortadi.

**Tirak taxta** shudgor devoriga bosilib, sirpanib harakatlanadi, ag'darilayotgan tuproq palaxsasining qarshilik kuchi ta'sirida korpus yon tomonga burilib ketmasligi uchun suyanchiq bo'lib, uning to'g'ri yo'nalishda barqaror harakatlanishini ta'minlaydi. Ya'ni, tirak taxta shudgor devoriga tiralib, korpusga yon tomondan tushadigan bosimni yengadi, uning ravon harakatini ta'minlaydi. Bosim kuchi ta'sirida tirak taxta shudgor



6-rasm. Lemexlar:

1 — tumshuq; 2 — magazin; 3 — tig'; a — trapetsiyasimon; b — iskanasimon.

devoriga ko'p botib, korpusning yonboshlab harakatlanishiga yo'l qo'ymasligi uchun uning tayanch maydoni yetarli bo'lishi kerak. Korpus tirak taxtasiga tushadigan bosim uning yeyilishiga sabab bo'ladi, shuning uchun tirak taxtaga ishqalanishga chidamli materialdan tayyorlangan, almashtiriladigan tovon o'rnatish kerak. Tirak taxtaning uchi yeyilganida u  $180^\circ$  ga o'girib qo'yiladi va shudgor tubiga  $2^\circ$ — $3^\circ$  engashtirib, shudgor devoriga nisbatan ham  $2^\circ$ — $3^\circ$  burib o'rnatiladi.


**Korpus ustuni** plunning ishchi qismi hisoblanmasa ham, shudgor sifatiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ustunning shakli, o'chamlari plunning ish sharoitiga moslanib qabul qilinadi va sifatli cho'yan yoki po'latdan quyiladi, ayrim vaqtida shtampovkalanib payvandlanadi. Agar plunning ramasi yassi bo'lsa, korpuslar «baland», agar rama gryadilari pastga bukilgan bo'lsa, «past» ustunga o'rnatiladi. Ustun pastki qismining shakli ag'dargich, lemex va tirak taxtani o'rnatishga moslangan egarsimon boshmoqqa o'xshab ketadi.

Quvursimon ustunlar o'rnatilgan plugda esa, uni korpusning harakat yo'nalishiga nisbatan ustuni bilan burib qo'yib, korpusning  $\gamma_0$  burchagini o'zgartirish mumkin. Natijada, qamrov kengligini birmuncha o'zgartirish imkoniy yuzaga keladi. («Kverneland» to'ntarma pluglarida).



Plug pichog'i yer haydashda hosil bo'ladigan shudgor devorini tik va tekis bo'lishini ta'minlash maqsadida ishlataladi. Haydalayotgan yer serildiz bo'lsa, plug korpusi ta'sirida shudgor devoridagi ildizlarni kesib ketish uchun har bir korpus oldiga, har yili ekin ekiladigan yerlarni shudgorlashda esa, faqat orqadagi korpus oldiga pichoq o'rnatiladi. Pichoq shudgor devorini silliq kesib ketsa, shudgor tubiga kamroq tuproq to'kilaadi. Plug o'tganidan keyin, shudgor tubining toza bo'lishi muhim hisoblanadi.

Pluglarga o'rnatiladigan pichoqlarning disksimon, chopqisimon va yassi turlari mavjud.



7-rasm. Plug pichoqlari:

a — disksimon; b — chopqisimon; 1 — disk; 2 — ayri; 3 — tojsimon gayka; 4 — tirsaklı ustun; 5 — qisqich; 6 — chopqisimon pichoq tig'i; 7 — pichoq yuzasi; 8 — dastak.

**Disksimon pichoq** oddiy va maxsus pluglarda ishlatiladi. Disk qaljin bo'lib bukil-maydi (*7-a rasm*). Radiusi ishlov berishdagi maksimal chuqurlikning 60—70 foizini tashkil etishi, tig'i ikki tomonidan 15°—20° burchak ostida charxlanishi kerak.

Disk 1 ayriga 2 o'rnatilgan o'qda erkin aylanadi. Ayri esa tirsakli ustunga 4 bir-kitilgan va ustun tirsagining burilishi hisobiga diskning asosiy korpusini dala chet qirqimiga yaqinlashtirishi yoki uzoqlashtirishi mumkin. Ayri tirsakka nisbatan gorizonttal tekislikda 10°—15° ga erkin burilishi sababli disk plug harakat yo'naliishing o'zgarishiga monand burila oladi. Ayrim vaqtida tig'i burmalangan disklardan ham foydalani-ladi («Kverneland» to'ntarma pluglarida).

**Chopqisimon pichoq** plantatsiyabop, o'rmonbop, changalzor-botqoqbop kabi maxsus pluglarda ishlatiladi (*7-b rasm*), chunki yo'g'on ildizlarni disksimon pichoq kesa olmay, ko'tarilib ketadi. Bunday joylarda chopqisimon pichoq qo'l keladi: tuproq va mayda ildizlarni kessa, yo'g'onlarini turtib yer yuzasiga chiqarib ketadi. Sertosh yerlarga ishlov berishda ham chopqisimon pichoqdan foydalinish mumkin.

Chopqisimon pichoqning 7 dastasi 8 plug ramasiga bikr qilib mahkamlanadi, tig'i esa 10°—15° ostida 0,5 mm qalinlikkacha charxlanadi. Uning uchi asosiy korpus lemek tumshug'iga nisbatan 3—4 sm baland va ilgarilatib, tig'i esa shudgor tubiga nisbatan 70°—75° ostida qiya o'rnatiladi. Bunday pichoq asosiy korpusning dala chet qirqimiga nisbatan haydalmagan tomonga 0,5—1,0 sm surib qo'yiladi.

**Chimqirgar 2** shaklan asosiy korpusga o'xhash ishchi qism bo'lib, ustunga o'rnatilgan kichik lemek va ag'dargichdan tuzilgan. U har bir korpus oldiga o'rnatilgan bo'lib, asosan begona o'tlarni yo'qotishda ishlatiladi (*4-rasm*). Tuproq qatlaminini ag'darishda halaqit bermasligi uchun unga tirak taxta o'matilmaydi. Chimqirgarli plunning asosiy korpuslari katta chuqurlikda ham tuproq palaxsasini to'liqroq ag'darib yerni sisatli shudgorlaydi. Chimqirgar asosiy korpus olayotgan tuproq palaxsasining serildiz bo'lgan yuza qatlaminini qirqib olib, shudgor tubiga to'liq ag'darib tashlashi kerak. Bu bo'lak shudgor tubining ochiq qismiga to'liq sig'ishi uchun chimqirgar qamrov kengligi  $b_{ch}$ , albatta, asosiy korpus qamrov kengligi v dan kichikroq, ya'ni  $b_{ch} = 2/3 b$  bo'lishi lozim.

Asosiy korpus ag'dargan palaxsalarning bir-biriga tekan chegaralaridan begona o'tlar chiqmasligi uchun u yerga tushadigan ildizlarni chimqirgar asosiy korpusdan oldin kesib ketishi kerak. Shu sababli, chimqirgar asosiy korpusning oldiga, ya'ni haydalmagan dala tomoniga (agar korpus tuproqni o'ng tomoniga ag'daradigan bo'lsa, uning chap tomoniga) o'rnatiladi.


**Chimqirgar** begona o'tlar ildizini asosiy qismi joylashgan sathidan birmuncha past-roqdan, ya'ni sharoitga qarab  $a_{ch} = 8—12$  sm chuqurlikda kesib olishi kerak. Bedapoya haydalganida esa, u beda ildizlaridagi azotli tugunaklarni kesib ketadigan chuqurlikda ( $a_{ch} = 7—10$  sm) o'rnatiladi. Lekin  $a_{ch} > 12$  sm bo'lsa, shudgor tubiga to'ntarib tashlangan serildiz qatlaming ustini to'liq ko'mish uchun asosiy korpus tashlayotgan tuproq yetmay, yomon ko'milishi mumkin. Agar  $a_{ch} < 8$  sm bo'lsa, chimqirgar lemeki eng serildiz sathda harakatlanib, ildizlarni to'liq kesolmasdan tuproqni uyumlab suradi, plunning sud rashga qarshiligi ortib ketadi.

Plugga chimqirqar o'rnatilsa, uning korpuslari kattaroq chuqurlikda ishlatalisa ham tuproq palaxsasini to'liq eg'daradigan bo'ladi.

asosiy korpus sidirib buzishi, uning qarshiligi ortishi mumkin. Dalaga go'ng sochilgandan keyin shudgorlash talab qilinganda hamda begona o'tlar bo'limgan yerlarni haydashda chimqirqar ishlatalmaydi.

**Burchakkesar** ham chimqirqarga o'xshab korpus bilan ag'darilgan tuproq palaxsalarining bir-biriga tekkan chegaralaridagi begona o'tlarni yo'qotish vositalaridan biri. U ham har bir korpus oldiga o'rnataladi va asosiy korpus bo'ylab ko'tarila boshlagan tuproq palaxsasining haydalmagan dala tomonidagi ustki serildiz joyini  $a_b = 6-8 \text{ sm}$  chuqurlikda uchburchak shaklida kesib olib, shudgor tubiga tashlaydi. Palaxsaning qolgan bo'lagini asosiy korpus ag'darib, maydalangan tuproqni to'liq ko'mib ketadi. Burchakkesar o'rnatilsa, asosiy korpus tuproq palaxsasini to'liqroq ag'daradi.

Rama, g'ildiraklar, tirkagich yoki ulagich, ramani ko'tarib-tushiruvchi mexanizmlar va saqlagichlar plugning yordamchi qismlari hisoblanadi. Plug ramasiga hamma ishchi va yordamchi qismlar hamda mexanizmlar o'rnataladi. Tuzilishiga ko'ra rama yassi, ilgakli va qurama turlarga bo'linadi.



8-rasm. Plug tirkagichi:

1—sirga; 2—ko'ndalang planka; 3—kergich; 4—saqlagich bolti; 5—shtift; 6—bo'ylama tortqi.

Chimqirqarning dala chet qirqimi asosiy korpusning dala chet qirkimiga nisbatan haydalmagan tomonga  $l_{ch} = 0,5-1,5 \text{ sm}$  ga surib qo'yiladi. Aks holda, chimqirqar hosil qilgan shudgor devorini orqadagi

asosiy korpus sidirib buzishi, uning qarshiligi ortishi mumkin. Dalaga go'ng sochilgandan keyin shudgorlash talab qilinganda hamda begona o'tlar bo'limgan yerlarni haydashda chimqirqar ishlatalmaydi.

**Burchakkesar** ham chimqirqarga o'xshab korpus bilan ag'darilgan tuproq palaxsalarining bir-biriga tekkan chegaralaridagi begona o'tlarni yo'qotish vositalaridan biri. U ham har bir korpus oldiga o'rnataladi va asosiy korpus bo'ylab ko'tarila boshlagan tuproq palaxsasining haydalmagan dala tomonidagi ustki serildiz joyini  $a_b = 6-8 \text{ sm}$  chuqurlikda uchburchak shaklida kesib olib, shudgor tubiga tashlaydi. Palaxsaning qolgan bo'lagini asosiy korpus ag'darib, maydalangan tuproqni to'liq ko'mib ketadi. Burchakkesar o'rnatilsa, asosiy korpus tuproq palaxsasini to'liqroq ag'daradi.

**Ilgakli rama** gryadilining oxirgi uchi quyi tomonga bukilgan bo'lib, maxsus pluglarda ishlataladi va past ustunli korpuslarni o'rnatishga mo'ljallangan.

**Yassi rama** bo'laklari bir tekislikda joylashgani uchun plug qismlarini o'rnatishga qulaydir. Bunday rama bo'laklardan yig'iladi yoki yaxlit payvandlangan bo'ladi. U bittadan korpus o'rnataladigan gryadillar va ularni o'zaro birlashtirib turuvchi bikrlik to'sinidan yoki o'ta baquvvat quvursimon yaxlit to'sindan iborat. Ko'p korpusli plug ramasidan oxirgi korpuslarni yechib olib uning qamrov kengligini kamaytirish mumkin.

**Plug g'ildiraklari** ishiga ko'ra, bir nechta turga bo'linadi. Osma pluglarga bitta yoki ikkita tayanch g'ildiraklari o'rnatalib, ular plugning transport holatida yerga tegmasdan, shudgorlash vaqtida esa, dala yuzasiga tayanib korpuslarning yerga botib ketishini cheklab turadi, ya'ni belgilangan shudgorlash churqilagini ta'minlaydi. Tirkama plug g'ildiraklari transport holatida dalada plug og'rligini to'liq ko'tarib yuradi. Plugning ishchi holatida esa g'ildiraklar turli balandlikda joylashgan bo'lib, plug rama-

sini gorizontal holatda, korpuslarning esa belgilangan chuqurlikda bo'lishini ta'minlaydi.

**Tirkagichdan** tirkalma plugni traktorga ulashda foydalaniladi (*8-rasm*). Plug ramasining pasaytirgichi 6 dagi teshiklar bo'ylab joyni o'zgartirish hisobiga tirkagich tortqisi 7 ning qiyaligi o'zgartirilib, plugning ravon harakati, ya'ni hamma korpuslarning belgilangan chuqurlikda ishlashi ta'minlanadi.


Tirkagichni rama pasaytirgichining ko'ndalang plankasi 2 dagi tegishli teshiklarga o'rnatib, plugning yon tomonga burilmasdan uni sudrayotgan traktor yo'naliishiغا parallel harakatlanishi ta'minlanadi.

**Ulagich** osma plugni traktoring osish moslamasiga ulash vositasidir (*9-rasm*). U plug ramasiga nisbatan ko'ndalang yo'naliishda surilishi hisobiga g'ildiraklar oralig'i turlicha bo'lgan traktorlarga plugni to'g'ri ulash imkonini beradi. Traktor osish moslamasining pastki tortqilar 2 ga, markaziy tortqisi esa ustunning 10 yuqorigi teshigi 4, 5 yoki 12 ga ulanadi. Og'ir va o'ta zinch tuproqli yerni yarim osma plug bilan haydashda birinchi hamda oxirgi korpuslar bir xil chuqurlikda yurishini ta'minlash uchun bosgich 8 ning uzunligini o'zgartirib, plugning orqa g'ildiragiga tushadigan bosim o'zgartiriladi.

Avtomatik ulagichning g'ilof qismi 1 plugning ramasiga o'rnatiladi, ulagichning ramasi 3 esa traktoring osish moslamasiga oldindan biriktirilgan bo'лади. Plugni traktorga ulash uchun yordamchi talab qilinmaydi, chun-

**Har qanday osma mashina tirkalma nisbatan arzonroq bo'лади.** Ki traktorni orqa tomonga yurgizib, ulagich ramasini g'ilof ichiga kiritish yetarli. Bunda quifning tili g'ilofdag'i teshikka kirib qoladi. Plugni traktordan ajratish uchun richag 6 yordamida quif tilini joyidan chiqarish kerak.

**Plug saqlagichlari** ish jarayonida biron to'siqqa uchragan korpusni shikastlanishdan saqlaydi. Har qanday mashinaga saqlagich o'rnatib, uning qismlarini nozikroq, yupqa-




*9-rasm. Ulagichlar:*

a — avtomatik ulagich; b — yarim osma plug ulagichi; 1—g'ilof; 2—barmoq; 3—avtoulagich ramasi; 4, 5—markaziy tortqini ulaydigan yumaloq va cho'zinchoq teshiklar; 6—richag; 7—plug to'sini; 8—bosgich; 9—shtok; 10—ustun; 11—ko'ndalang to'sin; 12—markaziy tortqi ulanadigan teshik.

**Qismiiga saqlagich o'rnatilgan** hamda qanday mashina qimmatroq bo'lsa ham; undan foydalanib bajariladigan ishning tannarhi pasayadi.

shtiftli, prujinali, gidropnevmatik turlari bor.

**Individual shtiftli saqlagich** o'rnatilsa, korpusning ustuni ikki bo'lakli bo'ladi (*10-a rasm*). Uning ustki kronshteyni ramaga bikr mahkamlanadi. Ustunning pastki qismiga



*10-rasm.* Individual saqlagichlar:

- a – shtiftli; b – prujinali; 1 – korpus; 2 – ustun; 3 – rama;
- 4 – shtift; 5 – bolt; 6 – prujina; 7 – ikki yelkali richag; 8 – sharnir; 9 – rolik tushadigan o'yiq; 10 – o'q; 11 – rolik.

o'q 10 atrofida burila oladi (*10-rasm, b*). Ikki yelkali richag 7 kronshteynga sharnir 8 yordamida o'rnatilgan. Ishlayotgan korpus to'siqqa uchraganda, ustunning quyi qismi o'q 10 atrofida burilib prujina 6 ning qarshiligini yengib, rolik 19 ni o'yiq 9 dan turtib chiqaradi. Korpus to'siqdan o'tganidan so'ng, rolik 19 prujina 6 ta'sirida korpusni dastlabki holatiga qaytaradi. Bunda prujina tarangligini sozlab, saqlagichni ishga tushiradigan kuch miqdorini o'zgartirish imkonini bo'lib, qo'l mehnati talab qilinmaydi.

Tirkalma plugning umumiy ko'rinishi 2-b va 11-rasmida ko'rsatilgan bo'lib, ishchi qismi o'rnatilgan ramasi uchta g'ildirakka tayanib turadi. Plug ramasining chap tomoniga dala g'ildiragi (DG'), o'ng tomoniga shudgor g'ildiragi (SHG') va orqa g'ildirak (OG') o'rnatiladi.

Hamma korpuslari bir xil chuqurlikda ishlayotgan plugning dala g'ildiragi haydal-magan dala, shudgor g'ildiragi plugning oldingi yurishidan qolgan shudgor tubi bo'ylab, orqa g'ildiragi esa orqa korpus qoldirayotgan shudgor tubi bo'ylab harakatlanadi. Demak, DG' satbi bilan SHG' va OG' sathlarining farqi haydash chuqurligi a ga teng.

Korpuslar ag'darayotgan tuproqning qarshilik kuchi ta'sirida plugning haydal-magan chap tomoniga burilishiga tirak taxtalar hamda OG' yo'l qo'ymaydi. Shu sababli, OG' ning to'g'i shudgor devorining pastiga tiralib yuradigan tarzda sozlanadi. Orqa g'ildirak esa gorizontga nisbatan  $70^{\circ}$ – $80^{\circ}$  qiya holda o'rnatiladi.

roq qilib tayyorlab, ya'ni mashinaning vazni va sud rashga qarshiligini kamaytirib foydali ish koeffitsientini oshirish mumkin. Saqlagichlar yakka korpusni (individual) yoki korpuslar guruhini saqlash uchun qo'yiladi. O'z navbatida individual saqlagichning

korpus o'rnatilib, u kronshteynga yo'g'on bolt 5 hamda yurn shoq va ingichkarroq shtift (bolt) 4 bilan qotiriladi. Ishlayotgan korpus to'siqqa uchrasa shtift 4 qirqiladi, korpus 5 bolt atrofida burilib, to'siq ustidan oshib o'tadi. So'ngra korpus dastlabki holatga keltirilib yangi shtift o'rnatiladi. Bunday saqlagich sodda va arzon, ammo shtiftni qirqib saqlagichni ishga tushiradigan kuch miqdorini o'zgar-tirib bo'lmaydi.

**Individual prujinali saqlagich** o'rnatilgan korpus ustuni ham ikki bo'lakdan iborat: ustunning quyi qismi o'q 10 atrofida burila oladi (*10-rasm, b*). Ikki yelkali richag 7 kronshteynga sharnir 8 yordamida o'rnatilgan. Ishlayotgan korpus to'siqqa uchraganda, ustunning quyi qismi o'q 10 atrofida burilib prujina 6 ning qarshiligini yengib, rolik 19 ni o'yiq 9 dan turtib chiqaradi. Korpus to'siqdan o'tganidan so'ng, rolik 19 prujina 6 ta'sirida korpusni dastlabki holatiga qaytaradi. Bunda prujina tarangligini sozlab, saqlagichni ishga tushiradigan kuch miqdorini o'zgartirish imkonini bo'lib, qo'l mehnati talab qilinmaydi.

Plugning kinematik sxemasi 12-rasmida ko'rsatilgan. Plug transport holatida yurganda OG' 5°–6° gacha o'ng va chagpa burilib, harakat yo'naliishing o'zgarishiga qisman moslanib turishi maxsus stopor bolt 20 yordamida sozlanadi. Ish vaqtida esa, OG' ning burilishi deyarli to'liq cheklanishi lozim (stopor bolt 20 qotiriladi). Aks holda, u plugni yon tomonga surayotgan kuchni qabul qila olmasdan, tirak taxtalarga yordam bera olmaydi. OG' ni sozlovchi bolt 21 yordamida plug og'irligining bir qismini o'ziga olib, shudgor tubiga 10–15 mm gacha botib yuradigan qilib o'rnatiladi.

Transport holatidagi plugging hamma g'ildiraklari bir tekislikda harakatlanadi (*12-b rasm*). Bu holatda barcha korpuslar yer yuzasiga nisbatan transport tirkishi (h) balandligida bo'lishi talab qilinadi.  $h > 20 \text{ sm}$  bo'lishi kerak.

Plugdan foydalanishda, paykalni shudgorlashdagi birinchi, ikkinchi, uchinchi yurishlarda har bir korpusning yer yuzasiga nisbatan turlicha yoki hammasining bir xil chuqurlikda (balandlikda) yurishini ta'minlash talab qilinadi. Yuqorida jarayonlar mexanizmlarning plug g'ildiraklarini ramaga nisbatan turli holatda ushib turishi hisobiga bajariladi.

Tirkalma plug oltita mexanizm bilan jihozlangan (*12-a rasm*).

**1—2—3—4—1 — ko'tarish mexanizmi** ishlayotgan plugni transport holatiga ko'tarib, ish holatiga tushirish uchun xizmat qiladi. Bosim ostida yuborilgan moy ta'sirida gidrotsilindr shtogining ichkariga tortilishi natijasida, 3—4 bo'g'in qisqarib, 1—2 ni ilgari buradi. 1—2 tirakka T tekidan so'ng gidrotsilindr ramaga nisbatan DG' ni pastga tushirib, ramani korpuslari bilan birgalikda dala yuzasiga nisbatan yuqoriga ko'taradi.


**1—5—6—7—1 — DG' mexanizmi** shudgorlash chuqurligini o'zgartirish va kerak bo'l-ganda qo'l bilan vint A yordamida plugni transport holatiga keltirishga xizmat qiladi.

**8—9—10—11—8 — SHG' mexanizmidan** rama o'ng tomonining balandligini yerga nisbatan o'zgartirish hisobiga uni gorizontal holatga keltirish, ya'ni korpuslarni bir xil chuqurlikda ishlashda foydalaniadi.

**15—16—17—18—15 — OG' mexanizmi** ramaning orqa qismini (korpuslarni) transport holatiga ko'tarib tushiradi.


**1—9—10—11—1 — DG' ni SHG' bilan bog'lash mexanizmi** plugda yetaklovchi hisoblangan DG' holatining o'zgarishiga xizmat qiladi. 8 sharmirni ishga tushiradigan vint V joylashgan kulisaning ma'lum holatidagina bu mexanizmning ishi qoniqarli bajariladi.

**1—13—14—15—1 — DG' ni OG' bilan bog'lash mexanizmi** DG' holati o'zgartirilganda, unga moslab OG' holatini o'zgartiradi. 13—14 ~~korpuslarni~~ <sup>korpuslarni</sup> surayotgan



*11-rasm. Tirkalma plugging umumiyo ko'rinishi:*

**1—asosiy korpus;** **2—chimqirqar;** **3—rama;** **4—chuqurlikni sozlovchi DG' mexanizmi;** **5—korpuslarni bir xil chuqurlikka o'matuvchi SHG' mexanizmi;** **6—OG' mexanizmi;** **7—tirkagich;** **8—shudgor g'ildiragi (SHG');** **9—dala g'ildiragi (DG');** **10—orqa g'ildirak (OG').**



12-rasm. Tirkalma plugning kinematik sxemasi:

a — ishchi holati; b — transport holati; d — orga g'ildirak holati; e, f — orqa g'ildirak holatini sozlash.

tanjanishi kerakki, DG' plug ramasini  $a/2$  balandlikka ko'targanidan so'ng, u to'liq taranglashib OG' mexanizmini ishga tushiradi. Bu holda DG' mexanizmi avvaliga plugning old tomonini  $a/2$  balandlikka ko'tarib ulgurganidan so'nggina OG' mexanizmi orqa korpuslarni ko'tara boshlaydi va plungi ko'tarish yengillashadi. Shunday qilib, DG' va OG' mexanizmlari tirkalma plugning old va orqa korpuslarini bir xil chuqurlikda o'matib ishlatish imkonini beradi.

Tirkalma plugni agregatlashda aksariyat holda uni traktorga simmetrik ulamasdan haydalgan tomonga surib qo'yib ishlatish lozim. Bu holatda traktorning boshqaruv-chanligi birmuncha qiyinlashsa, uning g'ildiraklarini shudgorlangan yerda emas, balki dala yuzasida harakatantirish mumkin. Natijada, shudgorlangan joy zichlanmaydi. Bu tirkalma plugging afzalligidir.

Yuqoridagilardan tashqari, bo'ylama yo'nalishdagi notejis yerda traktorning engashishlari tirkalma plugga ta'sir ko'rsatmaydi. Shu tufayli plug harakatining ravnoli-gi ta'minlanib, shudgorlash chuqurligi bir tekis bo'ladi. Maxsus pluglarning aksariyati tirkalma ko'rinishda ishlataladi.

Osma plug (2-a rasm) traktorga uning osish moslamasi yordamida ulanadi. Shudgorlashning turli bosqichlarida plug korpuslarini har xil chuqurlikka o'rnatish, uni transport holatiga keltirish traktorning osish moslamasi yordamida amalga oshiriladi. Osma plugda bitta tayanch g'ildiragi va uning ramaga nisbatan balandligini o'zgartirib, haydash chuqurligini sozlaydigan mexanizm mavjud. Kengligi bo'yicha tirkalma plugga teng, bo'lsa ham osma plugging og'irligi 35—40 foizgacha yengil bo'lib, arzon, ishlatishga kam quvvat sarflaydi, foydali ish koeffitsienti yuqori bo'ladi. Undan tuzilgan agregat tor joylarda ham bernalol burila oladi. Umumiy tuzilishi bo'yicha osma plug tirkalmadan farq qilmaydi.

Traktorning osish moslamasi negizini ikkita pastki tortqi 1'—2', 1"—2" hamda markaziy tortqi 3—4 tashkil qiladi (13-a rasm). Sharnirlar 1, 4 traktorga biriktiriladi. 2', 2" va 3—sharnirlar hosil qiladigan «ulash uch burchagi»ga esa plug o'rnataladi. 1—2—3—4—1 to'rt bo'g'inli osish mexanizmi deyiladi.


Gidrotsilindr o'rnatalgan 7—8—9—10—7 ko'tarish mexanizmi osilgan plugni ko'tarib-tushiradi, uning kuchini 1—2 tortqiga 1—5—6—7—1 uzatish mexanizmi yetkazadi.

Markaziy tortqi 3—4 va kashaklar 5—6 o'rtasida ularning uzunligini o'zgartiradigan vintli mustalar o'rnatalgan. Agar osish mexanizmining ust ko'rinishida 1—sharnir ikki joyda, 13-rasmdag'i (b) 1' va 1" ko'rinishda o'rnatalgan bo'lsa, osish mexanizmi traktorga uchta joyda, ya'ni 1', 1" va 4—sharnirlarda biriktirilib, uch nuqtali osish moslamasi ko'rinishiga keltiriladi. Agar pastki tortqilarning ikkalasi ham bir joyda 1' (13-d rasm) o'rnatsilsa, ikki nuqtali osish moslamasi, agar 1', 1" va 4' sharnirlar birlashtirilib bir joyda traktorga ulansa, bir nuqtali osish moslamasi ko'rinishiga keltiriladi.

Uch nuqtali osish moslamasiga osilgan mashina traktorga bikr ulangan bo'lib, ish vaqtida ko'ndalang yo'nalishda erkin siljib burila olmaydi. Shu sababli, uch nuqtali osish moslamasidan asosan seyalka va kultivatorlarni, ayrim vaqtarda esa kam korpusli pluglarni osib ishlatish uchun foydalilanadi.

Ikki nuqtali osish moslamasiga ariqavlagich, tekislagich, plug kabilar o'rnataladi. Chunki bu mashinalarni agregatlayotgan traktorning o'ng yoki chap tomonga qisman burilishi, ishlayotgan mashinani burilishga majbur qilmasligi kerak. Bir nuqtali osish moslamasiga o'rnatalgan mashinalarga traktorning burilishi halaqt bermaydi.

Ulash uchburchagini 2'—3—2" balandligi h<sub>u</sub> va asosining l<sub>u</sub> uzunligi plug ishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ulash uchburchagini balandligi plug ulagichining



13-rasm. Traktor osish moslamasining sxemasi:

a – yon ko'rinishi; b – uch nuqtaga osish; d – ikki nuqtaga osish.

balandligiga bog'liq. Markaziy 3—4 va pastki 1—2 tortqilarning davomida kesishadigan nuqta  $\pi_1$ , 2—3 ustunning old tomonida bo'lishini ta'minlashi kerak.  $\pi_1$  — plugging vertikal tekislikdagi oniy aylanish markazidir. Uning joyini o'zgartirish uchun deyarli hamma pluglarda ustun balandligi 2—3 ni o'zgartirish kerak bo'ladi: **markaziy tortqi ulanadigan sharnir 3 ning joyini o'zgartirish uchun plug ulagichida bir nechta teshiklar yasalgan**. Aksariyat ulagichlarda teshiklar yumaloq va cho'zinchoq bo'ladi. Yer yuzasi holatiga ko'ra traktoring old yoki orqa tomonga engashishining plug ishiga salbiy ta'siri (xususan, chuqurlikning o'zgaruvchanligi)ni kamaytirish maqsadida shudgorlashda cho'zinchoq teshikdan, transport holatida esa yumaloq teshikdan foydalangan ma'qul. Ayrim traktorlarda esa sharnir 4 ning balandligini o'zgartirib,  $\pi_1$  ning kerakli joyini tan-

lash ko'zda tutilgan. Korpuslar bir xil chuqurlikda ishlashi uchun plugning ramasi horizontal holatda bo'lishi kerak. Transport holatiga ko'tarilgan plugning ramasi old tomonga engashgan bo'lishi lozim, chunki ko'tarilgan plug ish holatiga tushirilayotganida birinchi korpusning uchi yer yuzasiga ( $\varepsilon=4^\circ-8^\circ$ ) burchak ostida tushishi shart. Plug oldinga sudralganda korpuslar chuqurlashayotib, engashish burchagi  $\varepsilon$  uzuksiz kamayib boradi, tayinlangan chuqurlikka yetganida esa bu burchak yo'qolib ( $\varepsilon=0$ ), rama gorizontal holatga keladi. Agar ustun balandligi h<sub>n</sub> noratsional tanlansa, 3—4 va 1—2 tortqilar o'zaro parallel,  $\pi$ , cheksiz uzoqlikda bo'lib qolishi mumkin. Bunday holatdagi osish mexanizmi parallelogrammlı deb yuritiladi, uning yordamida ko'tarilayotgan mashina doimo o'zining dastlabki holatiga parallel ko'chadi. Bu mexanizmga plugni osish mumkin emas, chunki u ko'tarilib tushayotganida engashish burchagi ye o'zgarmas bo'lib qoladi. Parallelogrammlı mexanizmga kultivator, seyalka kabi mashinalarning ish qismlari o'rnatilgani ma'qul.

Oniy aylanish markazi  $\pi$ , qanchalik uzoqda bo'lsa, plug to'liq chuqurlikka botishi uchun ko'proq yo'l bosib o'tadi va ko'p joy chala haydaladi. Ustun balandligi to'g'ri tanlansa, plug 2—3 m davomida to'liq chuqurlikka botib ulguradi.

**Mashg'ulotni o'tkazishdan maqsad:** talabalarga tirkalma va osma plugni traktorga to'g'ri ulashning ahamiyati (to'g'ri ulanmagan plug ish sifatining pasayishi va sudrashga qarshiligining oshishini tahlil qilish asosida) ni uqtirish, bilim berish; ularda bunday ishlarni amalda bajarish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

**Mashg'ulot joyimi jihozlash:** zanjir — tasmali va g'ildirakli traktorlar; tirkalma va osma pluglar; agregat tuzish uchun maxsus tayyorlangan maydoncha; ustiga traktor va plug g'ildiraklari chiqariladigan qalinligi 15, 20, 25 va 30 sm bo'lgan tagliklar; ruletka; 10 m uzunlikdagi shpagat; 20 kN lik dinamometr; darslikdan tashqari ma'lumotlar man-bayi bo'ladigan plakatlar, reklama prospektlari, kitoblar; bevosita dalada plugli agregat ishlini namoyish qilish uchun 0,30 ga yer, shudgor chuqurligini o'lchagich; 10 dona baland qoziqlar; gayka kalitlari to'plami.

**Mashg'ulotni bajarish tartibi:** o'qituvchi jihozlangan maydonchada talabalarga tirkalma va osma plugni traktorga ulash tartibini, ish joyidagi xavfsizlik qoidalarini tushuntiradi va misol uchun bitta plugni traktorga ulab ko'rsatadi.

Mashg'ulotga kelgan talabalar 4 guruhg'a bo'linadi. 1-guruh pluglarni 15 sm, 2-guruh 20 sm, 3-guruh 25 sm va 4-guruh 30 sm chuqurlikda ishlay oladigan qilib traktorga ulash topshirig'ini oladilar. O'qituvchi mashg'ulot bo'yicha qo'yiladigan ballni e'lon qiladi. Topshiriqqa binoan 1-guruh plugni g'ildirakli traktorga, 3-guruh zanjirtasmali traktorga ulaydi va bajarilayotgan ishlarni og'zaki izohlab turadi. 2-guruh 1-guruh ishlini kuzatib, izohlarni muhokama qilib turadi. 4-guruh esa 3-guruh bilan birgalikda ishlaydi.

Keyinchalik, navbat bilan guruhlar joy almashtirib, topshiriqni to'liq bajaradilar.

Oddiy plug bilan yer haydashda agregatni dala chetidan burishdagi salt yurishini kamaytirish maqsadida katta maydonli dala kichik paykallarga bo'linadi. Paykal o'rtasi

yoki chetlarida tuproq uyumlari va shudgor jo'yaklari paydo bo'lib qoladi. Ularni keyinchalik tekislash talab qilinadi.

Maydonchadagi ishlar tugaganidan so'ng, traktorga to'g'ri ulangan tirkalma plugli agregatga dinamometr o'rnatilib, ajratilgan tajriba dalasiga olib chiqiladi. Oldindan tayyorlangan shudgor devoriga har 10 m masofada 5 ta qoziq qoqiladi. Agregat bilan 100 m uzunlikdagi yer haydalib talabalarga ko'rsatiladi. O'qituvchi talabaning e'tibori ni tuproq palaxsasining korpus bo'ylab siljish jarayoniga, uning uvalanib ag'darilishiga qaratadi.

Agregat ilgari qoqilgan qoziq ro'parasiga kelganida talaba plugning sudrashga qarshiligi  $P_{pl}$  ni dinamometr dan yozib oladi. Agregat o'tib ketganidan so'ng, ilgari qoqib qo'yilgan qoziqlar ro'parasiga ya'ni so'nggi yurishida qoldirgan shudgor devoriga ham 5 ta qoziq qoqiladi. Qoziqlar oralig'i, ya'ni plugning amaldagi qamrov kengligi  $B_{pl}$  o'lchab yoziladi. Birinchi va oxirgi korpuslarning shudgorlash chuqurliklari  $a_1$  va  $a_n$  o'lchab olinadi.

$P_{pl}$ ,  $B_{pl}$ ,  $a_1$  va  $a_n$  o'rtacha arifmetik qiymatlari topilib, hisobot yoziladi.

Keyin, plug sozlangan chuqurligini o'zgartirmasdan traktorga noto'g'ri ulanib, yana agregat ishlataladi va  $P'_{pl}$ ,  $B'_{pl}$ ,  $a'_1$ ,  $a'_n$  lar aniqlanadi haqnda tajribadagi ko'rsatkichlardan farqi topiladi. Tegishli tahlildan so'ng xulosalar yoziladi. Tahlil qilishda har bir o'quvchi o'z fikrini asoslab, himoya qiladi. Berilgan topshiriqni bajarish sifati, muhokama bildirgan fikri va hisobot mazmuniga qarab o'quvchilarga tegishli ball qo'yiladi va e'lon qilinadi.

**O'qituvchi quyidagilarni tushuntiradi.** Traktorga noto'g'ri ulangan plug korpuslari bir xil va belgilangan chuqurlikda ishlamasdan, traktor sudrayotgan yo'nalishga nisbatan yonboshlab yurishi, ya'ni qamrov kengligini hisoblanganga qaraganda o'zgartirishi, sudrashga qarshiligini ko'paytirishi mumkin. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun, birinchidan ko'p vaqt ketadi, ikkinchidan dalaning tajriba o'tkazilgan qismi sifatsiz shudgorlangan bo'ladi. Shu sababli, plugni dalaga chiqarib ishlata boshlaganda uning hamma korpuslari birdaniga belgilangan chuqurlikda ishlay oladigan qilib traktorga ularash kerakligini tushuntiradi.

**Plug traktorga noto'g'ri ulansa,** u «yonboshlab» yuradi. Natijada, ishlayotgan korpuslarning ishchi sirti go'yo boshqa turga aylanib qolgandek bo'ladi, ularning tuproqqa ta'siri o'zgarib qoladi.

**Tirkalma plugni sozlash.** Agrotexnik talablarga ko'ra, plugni oldindan maxsus maydonchada belgilangan a chuqurlikka o'rnatish kerak. Plugni tekis maydonga qo'yib, DG' ning tagiga balandligi a ga teng bo'lган qistirma qo'yiladi va DG' mexanizmi yordamida korpuslar maydoncha yuzasiga to'liq tushiriladi

(14-rasm). Keyin SHG' mexanizmi yordamida plug ramasi ko'ndalangiga gorizontal holatga keltiriladi. Ishlayotgan plugning orqa g'ildiragi shudgor tubiga 1,0—1,5 sm ga botib yurishni e'tiborga olib oxirgi korpusning tagiga 1,0—1,5 sm li qistirma qo'yiladi va vint yordamida orqa g'ildirakning to'g'ini maydonchaga to'liq tegadigan qilib o'rnatiladi.

Plugning ramasi gorizontal holatga keltirilganidan so'ng, uning tirkagichi sozlanadi. Shu maqsadda traktor (sirg'asining balandligi  $h_s$ ) plug oldiga keltiriladi va g'ildiragi yoki zanjir tasmasi tuproqqa 1—2 sm botib yurishini e'tiborga olib, uni  $a + (1-2 \text{ sm})$  ga teng bo'lgan taglik ustiga chiqariladi. Natijada, traktoring sirg'asi A nuqta (14-a rasm)  $h_s + a + (1-2 \text{ sm})$  balandlikda joylashib, u yerga tirkagich

ulanadi. Tirkagichning orqa tomoni plug ramasining pasaytirgichidagi teshik (B) ga birlashtiriladi.


Pasaytirgichdagi B nuqtani to'g'ri belgilash uchun, avvaliga plugging og'irlik markazi (POM) topiladi va lemexlar tig'i joylashgan gorizontal tekislikka proeksiyasi tushirilib, POMning izi POMI S nuqta belgilanadi. A va S nuqtalar shpagat-ip bilan birlashtirilib, rama pasaytirgichidagi B teshik topiladi. Aslida, B ni topish uchun A ni plugging vertikal tekislikdagi qarshilik kuchlari markazi (PVQM) bilan birlashtirish lozim. Ammo, PVQM ni topish qiyin bo'lganligi sababli, unga yaqin joylashadigan POMI dan foydalaniлади.

Tirkagich shu tartibda o'rnatilsa, plug vertikal tekislikda ravon harakatlanib, berilgan  $\alpha$  chuqurlikni o'zgartirmasdan ishlaydi. Agar AB ning davomi PVQM ning old tomonida joylashsa, plugging old tomoni ko'tarilib, birinchi korpus chuqurlikni o'z-o'zidan kamaytirib yuradi, aksincha bo'lsa, orqa korpus yerni sayozroq haydaydi, shudgorlash sifati pasayadi.

#### **Gorizontal tekislikda plugni traktorga ulash quyidagicha bajariladi (14-b rasm).**

Maydonchada turgan plugni birinchi korpusdagi lemex oxiridan ichkariga  $+ \Delta b = 25$  mm qoldirib, tirak taxtalarga deyarli parallel (aniqrog'i tirak taxtani botishini e'tiborga olib,  $2^\circ - 3^\circ$  soat miliga ya'ni shudgor devoriga teskari) bo'lgan chiziq o'tkaziladi. Bu chiziq shudgor devori deb qabul qilinadi.

To'g'ri ishlayotgan plugging o'ng tomonida chala haydalgan ensiz yo'lakcha qolmasligi uchun, uning birinchi korpusidagi lemex SHD ga  $+ \Delta b = 25$  mm botib turishi qabul qilingan. Korpuslar plug ramasida joylashtirilganida hamma korpuslar lemexti birlashtiriladi.



14-rasm. Tirkalma plugni berilgan chuqurlikka sozlash sxemasi:

a — vertikal tekislikda; b — gorizontal tekislikda.

Keyin, traktorni SHD ga nisbatan  $m=15-20 \text{ sm}$  (agar traktor og'ir yoki tuproc yumshoq bo'lsa ko'proq qoldiriladi) masofada joylashtirib, plug tirkagichining gorizontal tekislikdagi o'rni topiladi. Shu maqsadda korpus lemeklari tegib turgan maydonchadagi POMI ga, ya'ni S nuqtadan SHD ga parallel qilib shpagat-ip tortiladi va uning ostidagi A' va V' teshiklarga tirkagich o'rnatiladi. Shu tartibda topilgan A' traktorning simmetrik o'qidan o'ng tomonda bo'lishi mumkin, chunki traktor g'ildiraklari oralig'i G' aksariyat holda o'zi sudray oladigan n korpusli plugning qamrov kengligi  $B_{pl}=nb$  dan katta bo'ladi. To'g'ri, bu holda, traktor g'ildiraklari bir xil yuklanmasdan uni boshqarish birmuncha qiyinlashadi, ammo plug to'g'ri ishlaydi. Agar tirkagich noto'g'ri o'rnatilsa, plug yonboshlab yuradi: yoki o'z-o'zidan haydalgan tomonga surilib, uning haqiqiy qamrov kengligi kamayib ketadi yoki shudgorlanmagan tomonga surilishga intiladi, tirak taxtalardagi bosim ortib ketadi (hatto ular egilib qolishi mumkin), natijada, plugning sudrashga qarshiligi keskin ortib ketadi.

**Osma plugni sozlash** uni traktorga gorizontal tekislikda to'g'ri ulashdan boshlanadi (*15-rasm*). Bu ish ham maxsus tayyorlangan maydonchada bajariladi.

Gorizontal tekislikda osma plugni zanjir-tasmali yoki g'ildirakli traktorga ulash quyidagicha bo'ladi.


Osma plug zanjir-tasmali traktorga shudgor devori (SHD) chizig'iga nisbatan o'rnatib ulanadi. Birinchi korpus lemeki SHD ga  $+ \Delta_B = 25 \text{ mm}$  ga kiritilib, traktorning o'ng tomondagi zanjir-tasmasi esa haydalmagan yerda, SHD ga  $m=15-20 \text{ sm}$  yetmasdan joylashtiriladi.

Zanjir-tasmali traktorlarda 1'-—2' va 1''—2'' pastki tortqilarni ko'ndalangiga surib, plugning gorizontal tekislikdagi oniy aylanish markazi  $H$ , ni traktor simmetriya o'qiga nisbatan o'ng tomonga siljitim imkonii ko'zda tutilgan. Shu sababli,  $H$ , nuqtasini surilib, uning ustiga tushiriladi va mahkamalanadi.


Plug bunday ulanganda traktorning boshqaruvchanligi birmuncha qiyinlashadi, uning o'ng zanjir-tasmasi ko'proq toyishi hisobiga u asta-sekin o'ng tomonga burilib ketaveradi. Traktorchi esa vaqt-i-vaqt bilan uni chap tomonga burib, agregatning to'g'ri yurishini ta'minlab turadi.

Osma plugni zanjir-tasmali traktorga vertikal tekislikda ulashda (*15-rasm, a*) ham traktor  $a + (1-2 \text{ sm})$  balandlikdagi taglik ustiga chiqariladi. Plug esa yerga to'liq tushiriladi. Plugning oniy aylanish markazi  $H$ , traktor zanjirining oldingi g'altagi atrofida joylashadigandek qilib markaziy tortqi 3—4 plug ustunidagi teshkilarning biriga ulanadi. Keyin, markaziy tortqi va kashaklarning uzunligi o'zgartirilib, plugning hamma korpuslari lemeki maydoncha yuzasiga tushirib qo'yiladi.

Traktor g'ildiraklarining yer bilan tishlashish kuchi zanjir-tasmaga nisbatan kamroq bo'lganligi sababli, uning sudrash kuchi ham cheklangan. Traktor sudray oladigan plugning qamrov kengligi  $B_{pl}$ , uning g'ildiraklari tashqi sirti oralig'i  $B_{tr}$  dan kam bo'ladi ( $B_{pl} < B_{tr}$ ). Bu hol ayniqsa respublikamizda og'ir tuproqli dalalarни chuqur haydashda yaqqol ko'zga tashlanadi. Plugning birinchi korpusini SHD ga nisbatan  $\Delta_B = 25 \text{ mm}$  ga kiritib sudrash kerakligi sababli, plugni traktorga nosimmetrik ulash mumkin. Ammo, bunday holda o'ng tomondagi yetaklovchi orqa g'ildirak ko'proq toyishi hisobiga traktor o'ng tomonga uzlusiz burilishga intiladi. Oldingi g'ildiraklarining yer bilan tishlashish kuchi yetarli bo'limganligi uchun, bunga to'siq bo'la olmaydi. Shu sababli, osma plugni g'ildirakli traktorga ulash boshqacha bajariladi, ya'ni traktorning o'ng g'ildiragi



a



b

15-rasm. Osma plugni belgilangan shudgor chiqurligiga o'matish.

a — vertikal tekislikda zanjir tasmali traktor bilan; b — gornizontal tekislikda g'ildirakli traktor bilan.

shudgorlangan yerda yuritiladi (*15-b rasm*). Shuning uchun g'ildirakli traktorda  $\Pi$ , ni ko'ndalang tomonga siljitchish ko'zda tutilmaydi.

Plug SHD ga nisbatan to'g'ri o'matiladi va uning POMI dan tirak taxtalarga deyarli parallel bo'lgan shpagat-ip tortiladi.  $\Pi$ , markazi shu ip ustiga tushadigandek qilib traktor plugga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda joylashtiriladi. Traktor orqa g'ildiraklari oralig'ini o'zgartirish imkoniyati bo'lgani sababli, o'ng g'ildirak bilan SHD chizig'i orasida 3—4 sm gacha joy qoldiriladi.

Ayrim osma pluglarda ko'ndalang to'sin 2'—2" sharnirlariga nisbatan birmuncha surilishi hamda burilishi mumkin. Bu narsa dastlabki sozlashga aniqlik kiritish imkonini beradi.

Osma plugni vertikal tekislikda g'ildirakli traktorga ulash uchun chap g'ildirak  $a + (1-2 \text{ sm})$  balandlikdagi taglik ustiga chiqarilib, hamma korpuslar maydoncha yuzasiga bir tekis tegadigandek qilib markaziy tortqi va kashaklar uzunligi o'zgartiriladi.

Maxsus pluglar plantatsiyabop, bog'bop, o'rmonbop, changalzor-botqoqbop, yerni yaruslab shudgorlaydigan, dalani tekis shudgorlaydigan turlarga bo'linadi.

Plantatsiyabop pluglar yangi tokzor va bog'larni o'ta chuqur (40—80 sm) haydash uchun ishlataladi. Yeri sertosh va tuprog'i zinch bo'lgan qir-adirlarni haydashda, korpusiga katta kuch, qum ta'siri tufayli uning qismlari tez yeyiladi. Shu sababli, plug ramasi baquvvat, korpusi esa abraziv yeyilishga chidamli qilib yasaladi. Bu plug ko'pincha tirkalma bo'lib, unga chimqirqar, chopqisimon pichoq hamda baland tirak taxta o'matiladi.

Bog'bop plugdan daraxt qator oralariga ishlov berishda foydalaniladi. Pastki shoxshabbalarni sindirmaslik uchun traktor iloji boricha daraxtlardan uzoqroq yurgiziladi. Daraxtlar qator oralig'idagi joylarni yumshatish maqsadida plug maxsus sektorli tirkagich bilan jihozlangan (*8-b rasm*). Bunday tirkagich yordamida plugni traktorga nisbatan yon tomonga 2,5 m gacha surib qo'yib, daraxtga yaqin bo'lgan joylarga ham ishlov beriladi.

Changalzor-botqoqbop plug o'zlashtirilayotgan to'qaylarni birlamchi shudgorlash uchun ishlataladi.

Yaruslab shudgorlaydigan plugdan esa unumдорлиги past bo'lgan yerlarda foydalanadi. U yerdan qirqib olinadigan tuproq qatlarni 2 yoki 3 yarus (palaxsa) ga bo'lib, ularni kerakli tartibda almashtirib ag'darishi mumkin. Natijada, tuproq unumдорлиги yaxshilanadi. **Paxtachilikda ham yerni yaruslab chuqur shudgorlanadi, sababi, ikki yaruslab chuqur (30...40 sm. gacha) shudgorlash begona o'tlarga qarshi kurashish imkonini beradi.** Bu usulda shudgorlash uchun ramaga qamrov kengliklari bir xil bo'lgan ( $\epsilon = 35 \text{ sm}$ ) ustki va pastki korpuslar bir-biriga nisbatan 450—550 mm oraliqda ketmat o'matiladi.

Yarusli plugdan so'ng qoladigan shudgor devori pog'onasimon ko'rinishda bo'ladi. Yaruslab shudgorlashdagi ustki qatlarni yuzasidagi begona o'tlarning qoldiqlari to'liq va chuqur ko'miladi, keyinchalik ularning unishi qiyinlashadi. Bu usulni qo'llashning yana bir afzalligi, o'rib olinmagan g'o'zapoya va boshqa ekinlar ham chuqur ko'miladi.

Korpus ta'sirida tuproq palaxsasi to'liqroq ag'darilishi uchun korpus qamrov kengligi  $\epsilon$  ning shudgorlash chuqurligi  $a$  ga nisbati 1,3 dan kam bo'lmasligi ( $\epsilon/a > 1,3$ ) ma'lum.

**Tekis shudgorlaydigan pluglar.** Tuproq palaxsalarini doimo bir tomonga ag'darib dalani tekis shudgorlash uchun to'ntarma, seksiyali, klavishasimon va balansirli pluglar-

**Nistaban qimmatroq bo'lgan ikki yarusli plug bilan paxtazorni haydash natijasida daladagi begona o'tlar keskin kamayadi.** dan foydalaniladi (*3-rasm*). Ularga chap va o'ng tomonga ag'daruvchi korpuslar o'matiladi.

**To'ntarma plug** tekis shudgorlaydigan pluglarning eng keng tarqalgan turidir. Korpuslar bir-biriga nisbatan 180° ostida ramaga o'matilgan bo'ladi. Maxsus mexanizm yordamida plug ramasi 180° ga burilib, chap yoki o'ng korpuslar ishga tushiriladi.

To'ntarma plugning tuzilishi va uni sozlash tartibini respublikamizda keng tarqalgan «Kverheland» LD-100 plugi misolida ko'rib chiqamiz. Plug g'ildirakli traktorga osish moslamasi yordamida ulanadi (*16- va 17-rasmlar*).

**Tekis shudgorlaydigan qimmat-roq bo'lgan plug bilan ishlov berilgan dalada tuproq uyumlari va shudgor jo'yaklari paydo bo'lmashligi natijasida uni ekin ekishga tayyorlash oson va arzon boladi. Dalaning tekisligi uzoqroq saqlanadi. Bu sug'oriladigan dehqonchilikda katta shamiyatga ega.**


1,5–2 m yo'l bosib o'tganda plugning to'liq chuqurlikka botib ulgurishini ta'minlaydi. Plugning ramasi ustundagi sharnir 18 atrofida maxsus gidrotsilindr yordamida  $180^\circ$  ga aylanib, korpuslarni to'ntarib almashtiradi. Plugni aylantiruvchi o'q 18 traktoring bo'ylama simmetriya tekisligida joylashgan (plug traktorga «simmetrik» ulanadi). «Simmetrik» ulangan plug har safar to'ntarilganda g'ildirakka nisbatan kerakli holatni egallaydi.

Tayanch g'ildiragi 17 ning tirsagi 17, 22 ga o'rnatilgan tirak 13 ga chuqurlikni sozlovchi vint 23 ning ayrisimon uchi tiralib turgani uchun g'ildirak korpusga nisbatan ma'lum balandlikda ushlanib turadi. Plug  $180^\circ$  ga to'ntarilayotganda tayanch g'ildirak ham ma'lum balandlikka ko'tarilib, keyin o'z og'irligi ta'sirida pastga tushadi. Shunday holatni hisobga olib, zarbani yumshatish maqsadida g'ildirak tirsagiga dempfer o'rnatiladi.


Korpuslarni shikastlanishdan saqlash uchun bikr saqlagichlar o'rnatilgan. Har bir korpus o'z ustuniga ikkita bolt 11, 12 yordamida biriktiriladi. Yumshoq po'latdan yasalgan bolt 12 korpusdagi qarshilik me'yordan oshganda, kesilib ketishi natijasida korpus 11-bolt atrofida burilib, to'siqdan o'tib ketadi. Kesilgan boltni 12 o'ziga o'xshagan bolt bilan almashtirish lozim.

Ishlayotgan plug mikroreleyefga moslanib, traktorga nisbatan ko'ndalang yo'nalihsda birmuncha engashishi uchun kashak 5–6 ning ustki uchidagi cho'zinchoq teshik

Plugga tezkor korpuslar o'rnatilgani sababli, u  $V=8\text{--}10 \text{ km/saat}$  tezlikda ishlatsagina shudgorlash sifatli bo'ladi. Plug ustuni 2–3 ko'ndalang kergich 2<sub>1</sub>–2<sub>2</sub> ga bikr mahkamlangan. Ulash uchburghagini 2<sub>1</sub>–3–2<sub>2</sub> asosi 2<sub>1</sub>–2<sub>2</sub> va balandligi 2–3 ning o'lchamli shunday tanlanganki, plugning oniy aylanish markazlari 2–3 ustunning old tomonida ratsional uzoqlikda joylashadi. H, ning joyi agregat



16-rasm. Tekis shudgorlaydigan pluglar:  
To'ntarma plugma plugni traktorga ularshning yon ko'rinishi.



17-rasm. To'ntarma plugni traktorga ulashning ust ko'rinishi.

bo'ylab 6 sharnirning siljishini cheklab turuvchi barmoqni yechib qo'yish kerak. Orqa tomonidan qaraganda traktor o'ng tomonga engashib tursa ham, korpuslar biriktirilgan ustunlar vertikal holatda bo'lishi kerak. Bunga tirak vintlarning uzunligini o'zgartirish hisobiga erishiladi. Bu yetarli bo'lmasa, o'ng kashak 5—6 ning uzunligi ham o'zgartiriladi.

**To'ntarma plugni sozlash.** Shudgorlash chuqurligiga o'rnatish maxsus maydonchada bajariladi. Agar o'ng tomonga ag'daradigan korpuslar sozlanayotgan bo'lsa, traktoring chap g'ildiraklari qalinligi a — (1—2 sm) bo'lgan taglik ustiga chiqarib qo'yiladi. Chuqurlikni o'rnatish jarayoni ikki qismdan iborat.

Plug belgilangan shudgorlash chuqurligiga o'rnatilganda, pastki tortqining 2-sharniri yer yuzasiga nisbatan  $h_0$  balandlikda joylashgan bo'ladi:

$$h_0 = (h_2 - a) - (1 - 2 \text{ sm}),$$

bu yerda  $h_2$  — 2-sharnir bilan korpus lemxlari joylashgan tekislik orasidagi o'zgarmas masofa.

Birinchi qismini bajarishda, plugni agregatlaydigan «Magnum» traktori kabinasida gi maxsus richag yordamida 2-sharnir maydoncha sathiga nisbatan yuqoridagi  $h_0$  balandlikka tushirib to'xtatiladi. Traktordagi kompyuter xotirasida pastki tortqi 1,2 larning ushbu holati saqlanib qoladi. Keyinchalik, operator plugni richagni emas, kerakli tugmani bosganda plug har doim  $h_0$  balandlikda to'xtaydi. Natijada, birinchi korpus berilgan a chuqurlikda ishlaydigan bo'ladi. Markaziy tortqi 3—4 ning uzunligini o'zgartirib, plug ramasini gorizontal holatga keltiriladi.

Ikkinci qismida plugning orqasidagi tayanch g'ildiragi holatini o'zgartirish bilan orqa korpuslar berilgan a chuqurlikka o'rnatiladi. Buning uchun traktor gidrotsilindri

**Ishlayotgan osma plugga traktorning yon tomonga kichik burilishlari ta'sir qilmasligi uchun, osish moslamasining pastki tortqlari 10'-15' gacha erkin burila oладиган holatga keltirilishi kerak.**

chuqurlikka sozlaganda, chap tomonga to'ntarilgan plug ramasi tegib to'xtaydigan tayanch vintining uzunligini o'ng tomondagi vintning uzunligiga teng qilib o'rnatish kifoya.

Birinchi korpusni traktor g'ildiragiga nisbatan o'rnatish katta ahamiyatga ega. Shudgor sifatlari bo'lishi uchun birinchi korpus lemaxi g'ildirakning ichki sirtiga  $+Δ\delta = 25 \text{ mm}$  gacha botib turishi kerak (*17-rasm*). Agar lemax tegmasa, plugning qamrov kengligi ko'payib, agregat yurishlari orasida ariqcha paydo bo'ladi. Buning uchun, suruvchi vint 21 ni aylantirib, ko'ndalang brusni sharnir 8 bilan birqalikda plugni g'ildirak tomonga suradi. Agar birinchi korpusning kerakli holatini o'rnatish uchun vint 21 ning uzunligi yetarsiz bo'lsa, traktor g'ildiraklari oralig'ini kamaytirish kerak.

**To'ntarma plugning qamrov kengligini o'zgartirish.** Respublikamizdagi og'ir tuproqli dalalarini chuqur shudgorlashda, to'ntarma plugning hamma korpuslarini katta tezlikda ( $V=8\dots10 \text{ km/soat}$ ) sudrashga traktorning kuchi yetmasligi mumkin. Bunda gidrotsilindr 9—10 yordamida plug ramasini sharnir 8 atrofida burib, haydalgan tomonga surish orqali plugning haqiqiy qamrov kengligi kamaytiriladi. Har bir korpus ustunining ramaga qotirilgan boltlari bo'shatiladi, korpus ustuni bilan birqalikda tirak taxta aggregatning harakat yo'nalishiga deyarli parallel holatga kelguncha burilib, sektor 20 dagi to'g'ri kelgan teshikka qotiriladi. Natijada, plugning umumiy qamrov kengligi kamayib, traktorning uni katta tezlikda sudrashga kuchi yetarli bo'ladi.

**Plugni transport holatga keltirish** va uzoq masofaga olib borish uchun uning tayanch g'ildiragini sozlash kerak. Plug traktor gidrotsilindri yordamida 1,0 m gacha ko'tariladi. Natijada, orqa g'ildirak o'z og'irligi bilan sharnir 24 atrofida burilib pastga tushadi, 15-teshik 14-teshikning ustiga to'g'ri kelganda, g'ildirakni yon tomonga burilishdan cheklab turuvchi barmoq 16 joyidan olinib, bir-birining ustiga tushgan 14, 15 teshiklarga o'tkazib qo'yiladi (*16-rasm*). Keyin plug erkin holatga tushirilsa, uning orqadagi korpuslarini yerga tushgan orqa g'ildirak ko'tarib qoladi. Markaziy tortqining sharniri 3 ni ajratib, plugni tirkalma holatda traktorning osish moslamasini zo'riqtirmasdan uzoq masofaga sudrash mumkin. Barmoq 16 joyidan olinganligi sababli g'ildirakni yon tomonga burish mumkin bo'ladi. U keskin burilishlarda harakat yo'nalishining o'zgarishiga moslanib, yon tomonga sirpanib surilmaydi va shinasi kamroq yeyiladi.

**Traktorni plugni aggregatlashga tayyorlash.** Plugning o'ng va chap korpuslari bir xil chuqurlikda ishlashini ta'minlash maqsadida, traktor g'ildiraklari shinasiidagi bosim bir xil bo'lishi kerak. Orqa g'ildiraklarining ichki oralig'i 110—150 sm, oldingi g'ildiraklar oralig'i ulardan 2—10 sm ortiqroq o'rnatiladi.

yordamida plugni taxminan  $a$  balandlikka ko'tarib, g'ildirakning ostiga  $a - (1-2 \text{ sm})$  qalinlikdagi taglik qo'yilib, plug tushiriladi va vint 23 ning uzunligi sozlanadi. Chap korpuslarni sozlaydigan vintning uzunligi ham 23 — vintnikiga tenglashtiriladi.

Chap tomonga ag'daradigan korpuslarni  $a$

1. Butun dunyoda ekin ekish uchun yerni tayyortashda uni ustki qatlamini ag'darmasdan yumshatib, tuproqqa minimal ishlov berish kabi resurstejamkor texnologiyalar keng tarqalmoqda.
2. O'zbekiston sharoitida yerni shudgorlash asosan plug bilan bajariladi. Ammo, vaziyatga qarab iloji bo'lsa yerni chuqur yumshatishda plugdan kamroq foydalanib, chuquryumshatkich, chizel-kultivator kabi mashinalarni ishlatish maqsadga muvofiq.
3. Yerga plug bilan ishlov berishda korpus sirti shaklining tuproq xossalariiga mos keladigan turini tanlash lozim.
4. Plugning asosiy vazifasi tuproq palaxsasini ag'darib, maydalananayotgan tuproq bilan begona o'tlami chuqur ko'mishdir.
5. Tuproq palaxsasini sifatlari ag'darib ketishi uchun plug korpusining qamrov kengligi mo'ljallanayotgan haydash chuqurligidan kamida 1,27 barobar katta bo'lishi kerak.
6. O'zbekiston sharoitida ikki yarusli plugdan foydalanish yerni chuqurroq haydab, tuproq palaxsasini to'liqroq ag'darib, begona o'tlarga qarshi kurashish imkonini beradi.
7. Respublikamizda ko'p tarqaigan «tezkor» korpusli pluglarni kamida 8 km/soat tezlik bilan sudrab, shudgor sifatliroq bo'lishiha erishish mumkin.
8. Sug'oriladigan yerlarni tekis shudgorlaydigan to'ntarma plug bilan haydash uning mikrorelyefiga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadi.
9. Osma plug sudralmaga nisbatan sodda va yengil bo'lganligi sababli, uning sudrashga qarshiliqi kam, foydali ish koefitsienti esa yuqoriq bo'ladi.
10. Korpuslariga saqlagich o'rnatilgan plug yengilroq bo'ladi.
11. Faqat traktorga to'g'ri ulangan plug mo'ljallangan chuqurlikda ravon harakatlanib, sudrashga qarshiliqi minimal bo'ladi.
12. Qildirakli traktoring g'ildiraklar oraliq'i o'zi sudray oladigan plugning qamrov kengligidan kattaroq bo'lishi sababli, yer haydashda uning bir g'ildiragi shudgorlangan yerdan yuradi.

1. Yuqorida keltirilgan 12 ta xulosaning har birini asoslab bering.
2. Plug korpusining sirti qanday sababga ko'ra murakkab bo'ladi?
3. Chimqirqar yoki burchakkesar plugga qanday maqsadda o'rnatiladi?
4. Chimqirqar asosiy korpusga nisbatan qanday joylashtiriladi?
5. Korpusga tirak taxta qanday maqsadda o'rnatiladi?
6. Shudgorlash jarayonining sifat ko'rsatkichlarini izohlab tushuntiring?
7. Nima uchun plug bilan ishlov berishda tuproq palaxsasini ag'darish talab qilinadi?
8. Qanday sabablarga ko'ra sirtining shakli har xil bo'lgan korpuslardan foydalanish talab qilinadi?
9. Qanday sabablarga ko'ra ko'p turdag'i pluglardan foydalangan ma'qul?
10. Nima uchun turli qamrov kenglikka ega bo'lgan korpuslardan foydalanish sarmalni sanaladi?
11. Korpusning maksimal shudgorlash chuqurligi qanday ko'rsatkich bilan cheklangan?

12. Tezkor plugning afzalliklarini tushuntiring.
13. O'z-o'zidan o'tkirlanadigan tig'li lemexni ifodalang?
14. Qanday sabablarga ko'ra ko'p turdag'i lemexlar ishlataladi?
15. Nima uchun rama pasaytirgichida bir nechta teshiklar yasalgan?
16. Plug pichoqlari qanday ish bajaradi?
17. Tirkalma plug mexanizmlari qanday vaziyatlarda ishlataladi?
18. Ishlayotgan tirkalma plugning g'ildiraklari nega har xil balandlikda yumalaydi?
19. Nega tirkalma plugning orqa g'ildiragi tik o'matilmaydi?
20. Nima sababdan tirkalma plug tirkagichining ko'ndalang plankasida bir necha teshik yasalgan?
21. Traktorga to'g'ri ulanmagan plug shudgorlash vaqtida belgilangan chuqurlikni qay tarzda o'zgartirib yuboradi?
22. Qanday sababga ko'ra traktorga noto'g'ri ulangan plugning sudrashga nisbatan qarshiliqi ortib ketadi?
23. Qanday maqsadda plug ramasi uzunasiga hamda ko'ndalangiga gorizontal holatda bo'llishi talab qilinadi?
24. Osma plugning afzalliklari va kamchiligini izohlang.
25. Qanday imkoniyatlari ko'ra osma plugli agregat tor joyda burila oladi?
26. Ikki yarusli plugning qaysi xususiyati chuqur va sifatli haydash imkonini beradi?
27. Qanday maqsadda to'ntarma «Kverneland» plugi ramasini burib, uning qamrov kengligini kamaytirib ishlatish ma'qul?
28. To'ntarma «Kverneland» plugini uzoq masofaga transportlashda qanday chora ko'rish lozim?
29. Qanday qilib to'ntarma «Kverneland» plugi yerni shudgorlayotganda uni sudrab ketayotgan traktor yoniga engashib yuradi?
30. Osma plug ustunidagi teshik qanday maqsadda yasalgan?

## M. A. O.

Plug bilan shudgorlangan yerlarda yirik kesaklar, g'ovaklar paydo bo'lib, dala yuzasi yetarli darajada tekis bo'lmaydi. Bunday yerlarga urug'ni sifatli ekish qiyin. Shu sababli, shudgorlangan yerdagi tuproqni ag'darmasdan qo'shimcha sayoz ishlov berib, kesaklarni maydalash, yumshatish, tekislash lozim. Kuzda shudgorlangan yerlarda bahorgi ekish mavsumigacha ayrim begona o't nihollari o'sib chiqqan bo'lsa, ularni yoppasiga yo'qotish, ildizi bilan sug'urib dala chetiga chiqarib tashlash kerak. Erta bahorda esa tuproq tabiiy namlikni saqlab, ekilgan urug'ni bexato undirib olish uchun yumshatiladi.

Shunday qilib, plug bilan shudgorlangan yermi ekin ekishga tayyorlashda yuqorida-  
gi ishlarni bajarish uchun disksimon va tishli tirmalar, yoppasiga ishlov beradigan kultivatorlar,  
tuproq frezasi, mola, g'ildiraksimon g'altaklar va tuproqqa sayoz (16 sm  
chuqurlikkacha) ishlov beradigan mashinalar ishlatiladi.

Bundan tashqari, ekilgan urug' unib chiqayotgan bahorning issiq kunlarida kuchli  
yomg'ir yog'ib, havo harorati ko'tarilib ketsa, dalalarda qatqaloq hosil bo'ladi va unib  
chiqayotgan nihollarni bo'g'ib qo'yadi. Shu bois yosh ko'chatlarni siqilib qolishidan  
saqlash uchun tezda qatqaloqni buzish kerak bo'ladi. Bu yengil tirmalar, kultivatorlar  
yordamida bajaradi.

Sug'oriladigan dehqonchilik yordamida yoz davomida ekinzorni har bir sug'orish-  
dan so'ng tuproqdagi namlikning bug'lanib ketishini kamaytirish, begona o'tlarni qirib  
tashlash, tuproqni yumshatib, o'simlik ildizlarining rivojlanishini yengillashtirish maqsadida  
chopiq kultivatori bilan qator oralig'iga ishlov beriladi.

O'tloq yerlarda pichan hosilini ko'paytirish maqsadida tabiiy o'simlik ildizi rivoj-  
lanishini ko'paytirish uchun yer ustı sayoz yumshatiladi.

Plug bilan shudgorlanmagan yerlarga resurstejamkor texnologiyalar asosida minimal  
ishlov berishda ham sayoz ishlov beradigan mashinalardan foydalaniladi.

Tuproqqa sayoz ishlov beradigan mashinalar O'zbekistonning sug'oriladigan  
dehqonchiligidagi o'ta muhim o'rinnegallaydi. Shu sababli, mazkur bobni o'rganishdan  
maqsad, bo'lajak yosh mutaxassislarga tuproqqa sayoz ishlov beradigan mashinalarning  
turlari, tuzilishi, ularni mahalliy sharoitga moslab tanlash va sozlash negizlarini  
tushuntirishdir. Bobda mo'ljallangan amaliy mashg'ulotni bajarish natijasida chopiq kultivatori  
o'quvchi ishchi qismlarini ma'lum tartibda joylashtirish bo'yicha ko'nikmalar  
oladi.

O'qituvchi mashg'ulotlarni o'tkazishda tirma, kultivator va freza tishlari tuproqni  
qanday deformatsiyalashini tushuntiradi. Ulardan to'g'ri foydalanish va texnika xavfsi-

zligiga rioya qilish zarurligini uqtirishga harakat qiladi. O'quvchilar e'tiborini o'qitila-yotgan mashinalar ta'sirida tuproqning ekologik holati buzilmasligining oldini olishga qaratadi.

Bob bo'yicha mashg'ulotlar tugatilayotganida o'rgatilgan muhim ma'lumotlar bo'yicha o'quvchilar orasida o'zaro fikr almashuv, munozarani tashkillashtirish maqsad-ga muvosiqdir.


**Tishli tirma (18-rasm) larning** bitta tishga tushadigan og'irligiga ko'ra, og'ir (16—20 N), o'rta (12—15 N) va yengil (6—10 N) turlari mavjud. Tishli tirma yordamida shudgordagi kesaklarni maydalab tuproqni yumshatish, dala yuzasini ekishdan oldin tekislash, qatqaloqni buzish, sepilgan urug' va sochilgan o'g'itni tuproq bilan aralashtirib ko'mish, begona o'tlarni yo'qotish, o'tloq yerkarni qisman yumshatish kabi ishlar bajariladi.

Dala yuzasining mikrorelyefiga moslanib, yerga bir tekis ishlov berilishi uchun tirmaning qamrov kengligi birmuncha ensiz ( $1,0\text{ m}$  atrosida) yasaqgan bo'sib, ular bir-biriga yon tomonlari bilan erkin ulangandan keyin qamrov kengligi enli bo'lgan agregat tuziladi.


Tishlar konstruksiyasi bo'yicha tik (*A*), o'q-yoysimon (*E*), bukilgan prujinasimon (*D*) kabilarga bo'linadi. Tishlarining ko'ndalang kesimi kvadrat (*A*), yumaloq (*B*), oval-simon (*D*), to'rburchaksimon, uchburchaksimon va h.k. bo'lishi mumkin (19-rasm).

Kesimi kvadrat shakldagi tishning uchi bir tomonidan qiyiq kesilgan bo'ladi. Agar tirma tishi qiyiq kesilgan tomoni bilan harakatlansa, tuproqning qarshilik kuchi ta'sirida tish yuqoriga ko'tarilib yerni sayoz yumshatadi va aksincha, tirma qiyiq kesilgan tomoniga teskari harakatlansa yerga chuqurroq botadi.

Tishli tirma bilan tuproqqa 3—10 sm chuqurlikda ishlov berilganda, yumshatilgan yerdagi kesaklar o'lchami 5 sm dan, tish qoldirgan izning chuqurligi 3—4 sm dan oshmasligi kerak.



18-rasm. Tishli tirma: 1-tish; 2-planka.



19-rasm. Tirmanning ishchi qismi:

A, B, D — ko'ndalang kesimi kvadrat, yumaloq va ovalsimon bo'lgan tishlar; E — o'q-yoysimon tish; F — to'rsimon tirmanning tishi; G — rotatsion yumshatkich.

**Har qanday tirma dalada bajariладиган түрлига, тупроqning тарқиби ва ҳолатига мөs танланishi lozim.**

foizdan kamroq qismi shikastlanishi mumkin.

Tishning ko'ndalang kesimi kvadrat bo'lsa uning qirrasi, ovalsimon bo'lsa ensiz tomoni harakat yo'naliishiga tomon qaratib o'rnatiladi. Tirmanning yerga botishi uning og'irligi va tish qiyiq kesimining harakat yo'naliishiga nisbatan tegishli tartibda o'rnatilishiga bog'liq.

**Tishli og'ir tirmadan** shudgorlangan yerdagi yirik kesaklarni maydalashda, qoshimcha yumshatishda, begona o'tlarni sidirib yig'ishtirishda, o'tloq joylarni yumshatishda foydalaniladi.

**Tishli o'rta og'irlikdagи tirma** dala yuzasini yumshatib tekislash, kesaklarni maydalash, begona o'tlarni yo'qotish, sochilgan o'g'itni tuproqqa aralashtirib ko'mish, eklarni tirmalash uchun ishlataladi.

**Tishli yengil tirma** bilan tuproq qatqalog'ini buzish, sochilgan o'g'itni tuproqqa aralashtirib ko'mish kabi ishlar bajariladi.

**Prujinimon tishli tirma** yer yuzasini yumshatib, begona o'tlarni sidirib yo'qotish uchun ishlataladi. Undan sertosh dalalarda foydalanilsa yaxshi natija beradi.

**Rotatsion yumshatkich** kuzgi ekin ekilgan yerlarni erta bahorda yumshatish, qatqaloqni buzish, begona o'tlarni yo'qotish uchun qo'llaniladi (19-e rasm). Uning ishchi qismi — uzun bukilgan o'tkir tishli diskdir. Bir necha disklarni yagona o'qqa kiydirilib, batareya tashkil qilinadi. Bunday batareya  $1 \text{ m}^2$  maydonda 150 ta teshik ochib qatqaloqni sislati yumshatadi. Disklar rasmdagi M yo'naliishda sudralsa, tishlar tuproqqa oson kirib uni chuqurroq yumshatadi, begona o'tlarni butunlay yo'qotadi. Disklar K yo'naliishda sudralsa, tishlar sustroq ta'sir etib, nihollarni kamroq shikastlantiradi.

Tuproqqa ishlov berishning zamonaviy texnologiyalarida disksimon rotatsion ishchi qismiga ega bo'lgan tirma, sayoz yumshatkich (lushchilnik) lar muhim o'rinni egalaydi.


**Disksimon tirmalar (20-rasm)** har bir diskka tushadigan og'irligiga qarab botqoqbop (450—600 N), dalabop (180—350 N) va bog'bop (180—450 N) turlarga bo'linadi.

**Republikamiz tuproq sharoitida plus bilen ishlov berganda yirik kesakdar ko'proq paydo bo'llishi ni e'tiborga olib, dalani ekin ekishga tayyorlashda disksimon ishchi qiamterdan foydalanish samarali bo'ladi.**

ko'mib ketadi. **Dalabop tirmalar** serildiz, kesakli shudgor tuprog'ini 10 sm chuqurlikkacha maydalab, ang'izli yer yuzasini va o'tloq yerlar tuproq qatlamini deyarli ag'darmasdan yumshatadi. Uning ishchi qismi sferik disk shakliga ega, diametri 450—510 mm.

Ko'ndalang kesimi kvadrat shaklida bo'lgan o'qqa bir necha disklar batareyasi 2 kiydirilib, yagona batareya tuziladi. Disklarni kerakli oraliqda ushlab turish uchun kerghichlar o'rnatiladi. Batareyalar tirma ramasiga ikki qatorlab o'rnatiladi. Birinchi qatordagagi disklar tuproqni chetga, ikkinchi qatordagilar, aksincha, o'rtaga suradi. Birinchi va ikkinchi qatordagagi disklar alohida-alohida iz qoldiradi. Disk aggregatning harakat yo'naliishi V ga nisbatan hujum burchagi  $\alpha$  ostida qo'yiladi. Hujum burchagini  $10^\circ$ — $25^\circ$  oralig'ida o'zgartirgan holda disklarning yerga botish chuqurligini, tuproqni yon tomonga surish darajasini o'zgartirish mumkin. Nam va yengil tuproqqa ishlov berishda a katta, burchak ostida quruq va og'ir tuproqda kichik burchak ostida qo'yiladi.

Oldinga sudralayotgan tirmaning disklari, tuproq bilan tishlashishi hisobiga aylanma harakatga keladi. Disk tuproq palaxsasini kesib olib, ichki sferik sirti bo'ylab ko'taradi. Ko'tarilgan tuproq ma'lum balandlikdan yon tomonga ing'itiladi. Natijada, tuproq maydalana di, qisman ag'dariladi va aralashtiriladi. Hujum burchagi katta qo'yilsa, disklar



**20-rasm. Disksimon tirma:**  
a — umumiy ko'rinishi; b — yengil tirma disk; d — og'ir tirma disk; 1 — osish barmoqlari; 2 — disklar batareyasi; 3 — rama; 4 — brus.


chuqur botib, tuproqni kuchli maydalaydi. Disklar tuproqqa chuqur botishi uchun tirma ramasiga ballast yuk qo'yish ham mumkin. Tishli tirmaga nisbatan disklar oralig'iga kesak va o'simlik qoldiqlari kam tiqiladi. Ular yirik va quruq kesaklarni to'liq maydalaydi, yo'g'on ildizlar ustidan yumalab o'tayotib, oson kesib ketadi.

## 2-2. ISHCHI QISMIGA SHAROITLAR

Ishchi qismi majburan aylantiriladigan rotatsion plug, tuproq frezasi, yaganalagich kabilar faol ishchi qismlari mashinalar hisoblanadi. O'zbekiston tuproq sharoitida tuproq frezasi juda keng ishlatisa maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Freza** (21-rasm) tuproqni intensiv maydalab aralashtirish, begona o'tlarni yo'qotish maqsadida ishlataladi. Undan og'ir tuproqli yerni ekin ekishga tayyorlashda, ayniqsa, plyonka ostiga chigit ekishda tuproqni o'ta mayin holatga keltirish uchun foydalanish maqsadga muvofiq. Yerga ishlov berish uchun freza oldinga sudratilib, barabani majburan aylantiriladi. Natijada, uning pichoqlari katta tezlikda tuproq qatlamini yupqa qirindi ko'rinishida qirqib maydalaydi va aralashtiradi, lekin ko'p quvvat sarflanadi. Agar freza oldiga tuproqni 10—18 sm chuqurlikda yumshatadigan tishlar qo'yilsa (ayniqsa, paxtachilikda) quvvat sarfi birmuncha kamayadi.

Freza barabani gorizontal yoki vertikal joylashgan o'q atrofida aylanadi. U traktoring quvvat olish vali (QOV)dan aylanma harakatga keltiriladi. Aylanish tezligini keraklicha o'zgartirib, tuproqning sifatli maydalanishiga erishiladi. Ishchi qismi uchi bukilgan pichoq 2, disk 3, barabandan iborat (21-rasm). Disklar 3 barabanni aylantiridigan valga 1 erkin kiydirilgan, ularni bir-biridan ajratib turadigan friksion disklar 4 esa, mazkur valga shponka yordamida mahkamlangan. 3, 4 disklarning bir-biriga siqilib turish darajasini maxsus prujina yordamida o'zgartirish mumkin. Demak, harakat val 1 dan pichoqli disk 3 ka friksion disk 4 ning ishqalanish kuchi hisobiga uzatiladi. Agar biron diskdagagi pichoq to'siqqa uchrasha, diskning toyishi hisobiga vaqtincha aylanmay qoladi va pichoq sinishining oldi olinadi. Pichoq to'siqdan o'tgandan so'ng, disk yana aylanib ketadi.



21-rasm. Tuproq frezasi:

- a — freza barabani; b — texnologik ish jarayoni; 1 — val;
- 2 — pichoqlar; 3, 4 — disklar; 5 — osish ustuni; 6, 7 — reduktorlar;
- 8 — g'ilof; 9 — xaskash; 10 — chuqurlikni sozlagich;
- 11 — tayanch g'ildiragi.

Freza pichog'ining tezligi katta bo'lganligi sababli, u tuproq qirindisini yuqori tezlikda uzoqqa irg'itadi. Irg'itilgan tuproqni kerakli joyga yotqizish maqsadida freza barabani maxsus g'ilof 8 bilan yopilgan. G'ilofning pastki cheti xaskash 9 bilan tugagan bo'lib, pichoqlar irg'itayotgan tuproq xaskash 9 ga urilib, qo'shimcha maydalanadi. Traktor QOVidan barabanga harakat 6, 7 reduktorlar orqali uzatiladi.

Faol ishchi qismlarni majburan aylantirish uchun, quvvat traktor-

ning motoridan olinishi sababli, ularni serquvvat traktor bilan agregatlash maqsadga muvofiqdir.

Tuproq palaxsasini ag'darib, yerga ishlov berish ko'pincha salbiy oqibatlarga, ya'ni bug'lanib namlikning hamda uglerodning kamayishi, shamol va suv eroziyasining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tuproqni ag'darmasdan yumshatish tabiiy namlikni saqlab qolish, begona o'tlarga qarshi kurashish, ekilgan urug'ning unib chiqishi uchun optimal sharoit yaratish kabi maqsadlarda yerga ishlov berish uchun kultivatorlardan keng foydalaniladi.

Kultivatorlar yerga yoppasiga ishlov beradigan, maxsus va chopiq qiluvchi turlarga bo'linadi.

**Yerga yoppasiga ishlov beradigan kultivatorlar** yerni yumshatish va begona o'tlarni yo'qotish maqsadida ishlataladi.

**Maxsus kultivatorlardan bog'** va o'rmonlarda daraxtlar oralig'iga hamda eroziyaga uchragan joylarga ishlov berishda foydalaniladi. Bu guruhga chuquryumshatkich-keskich kultivatorlari ham kiradi.

**Chopiq kultivatori** sug'oriladigan dehqonchilikda ekinlar qator oralig'idagi yerga ishlov berish, begona o'tlarni yo'qotish va o'g'itlash uchun ishlataladi.

Kultivator bilan ishlov berishda quyidagi agrotexnik talablarga rioxalish kerak: tuproqning pastki nam qatlamini yer yuzasiga chiqarmaslik, eroziyani kuchaytiradigan changsimon zarrachalarining hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Yumshatilayotgan chuqurlik tayinlanganidan  $\pm 1,0$  sm dan ortiq farq qilmasligiga va begona o'tlarning 98...99 foizi yo'qotilishiga erishish kerak.


**Chopiq kultivatoriga o'rnatilgan ishchi qismlari va ularni joylashtirish tartibi** bajariladigan ish turiga va qatordagi o'simlikning vegetatsion davriga, tuproq holatiga qarab tanlanadi.

Kultivator ishchi qismlari bajaradigan ishchi ga qarab, asosan, to'rt turga: yumshatuvchi, o'toq qiluvchi, yotiq o'q-yoysimon va chuqur yumshatuvchi tishlarga bo'linadi.

**Yumshatuvchi tishlar** iskanasimon (22-d rasm), to'ntarma (22-e rasm) va nayzasimon kabi xillarga bo'linadi. Iskanasimon tishning qamrov kengligi  $\sigma = 20 \text{ mm}$ ,  $\alpha_0 = 40^\circ$ , ishlov berish chuqurligi  $a = 16 \text{ sm}$  gacha bo'ladidi. Tuproqning pastki, nam qismini yuzaga chiqarmaydi. To'ntarma tish uchinining kengayish burchagi  $2\gamma = 60^\circ - 70^\circ$ , qamrov kengligi  $\sigma = 35 - 65 \text{ mm}$  bo'ladidi. Uning ishlatalayotgan uchi o'tmaslashib qolsa, tish  $180^\circ$  ga to'ntarilib o'rnatiladi. Nayzasimon tish ko'pyillik begona o'tlarni yo'qotishda qo'l keladi.

**O'toglovchi yotiq tishlar** ekin qator oralig'idagi begona o'tlarni yo'qotish maqsadida ishlataladi (22-a rasm). Shu sababli, uning yumshatish burchagi o'ta kichik ( $a = 9^\circ - 10^\circ$ ) o'rnatiladi va tuproq deyarli maydalanmaydi. Bunday tishning tig'i begona o'tlar ildizini yengil kesishi uchun  $\gamma$  burchagining kattaligi sirpanib kesishni ta'minlashi kerak. Shu sababli, o'toq qiluvchi yotiq tish qamrov kengligi  $\sigma = 85 - 165 \text{ mm}$ ,  $\gamma = 28^\circ - 32^\circ$  va  $a = 4 - 6 \text{ sm}$  bo'ladidi.

**O'q-yoysimon (universal) tishlar** begona o'tlarning ildizini kesib yo'qotish va tuproqni qoniqarli darajada yumshatish uchun ishlataladi,  $\gamma = 28^\circ - 30^\circ$ ,  $\sigma = 220 - 385 \text{ mm}$ . ishlov berish chuqurligi  $a \leq 12 \text{ sm}$  gacha qo'yiladi (22-b rasm).




22-rasm. Kultivator ishchi qismlari:

a – o'toqlovchi yotiq tish; b – o'q-yoysimon tish; c – iskanasimon tish; d – to'ntarma tish;  
e – chuqur yumshatuvchi tish.

**Chuqur yumshatuvchi tish yerni 30–40 sm chuqurlikkacha yumshatadi (22-e rasm).**  
Bunday tish shaklan o'q-yoysimon bo'lib, boshmoq, unga o'rnatilgan iskanasimon

tumshuq va ikkita lemexdan tashkil topgan. Qamrov kengligi 110 sm va undan ko'p bo'lishi uchun  $\gamma = 38^{\circ} - 60^{\circ}$  qabul qilinadi. Iskana  $\alpha = 17^{\circ} - 25^{\circ}$ , lemex esa  $\alpha = 25^{\circ}$  burchak ostida horizontal yo'nalishga engashgan bo'ladi. Tuproq palaxsasi lemex ta'sirida 10 sm gacha ko'tarilib, oldingi joyiga tushiriladi. Natijada, tuproq ag'darilmasdan birmuncha yumshatilib, begona o't il-dizlari kesiladi.

Yerga yoppasiga ishlov beradigan kultivator (23-rasm) begona o'tlarini yo'qotish va yerni sayoz yumshatish



23-rasm. Yoppasiga ishlov beradigan tirkalma kultivator:  
1, 12—tirkagich; 2—chuqurlikni o'zgartirgich; 3—g'ildirak;  
4—rama; 5, 9—gryadil; 6—tish; 7—jilov; 8—tirmani  
osish ilgagi; 10—gidrotsilindr; 11—markaziy tortqi; 13—  
ulagich; 14—tirkak; 15—transportlovchi tortqi; 16—ustun.

uchun ishlataladi. Ko'pincha kultivatsiya bilan bir vaqtida tishli tirma va mola yordamida shudgor yuzasi tekislanadi. Kultivatsiyalash agregatini plugning shudgorlashdagi harakat yo'naliishiga ko'ndalang yuritiladi.

Kultivator ramasiga 4 osish moslamasining markaziy tortqisi 11 hamda 1, 12 tirkagichlar, tayanch g'ildiraklari 3 va ularning holatini o'zgartiruvchi vintli mexanizm 2, tishlar o'rnatiladigan gryadillar 5, 9, tirmani osish ilgagi 8, kultivatorni ko'tarib-tushiradigan gidrotsilindr 10 va ulagich 13 rama o'rnatilgan.

**Kultivator ishchi qismi** paralelogrammsimon osish moslamasiga o'rnatilsa, ularning tuproqqa kirish burchagi ishlov berish chuqurligi o'zgartirilsa ham, bir me'yorda saqlanib qoladi.

kengliklari bir-birini 4—5 sm qoplab turadi.


Yerni yumshatish uchun tishlar uch qator qilib joylashtiriladi. Ishlov berish chuqurligi vint 2 yordamida ramaga nisbatan g'ildiraklarni ko'tarish hisobiga o'zgartiriladi.

**Chizel kultivatorlar** yumshatuvchi tishlar bilan jihozlangan bo'lib, tuproqni chigit ekishdan oldin 12—15 sm chuqurlikda ag'darmasdan yumshatish uchun ishlataladi (*24-rasm*). Shu bilan bir vaqtida u yerga mineral o'g'it solib ketadi. Chizel kultivatorga tishli tirma va mola ularishi mumkin.


Kombinatsiyalangan (qurama) agregatlar. Shudgorlangan yerni ekishga tayyorlash uchun vaziyatga qarab, turli texnologik operatsiyalar bajarilishi lozimligi va shu maqsadda dalaga ko'p marta tegishli agregatlar kiritilishi yuqorida qayd etildi. Buning oqibatida traktor va mashina g'ildiraklari ta'sirida tuproq me'yordan ortiq zichlanib, zararli, changsimon holatdagi qismi ko'payadi, suvni shimuvcchanligi o'zgaradi. Ayniqa, qurg'oqchil mintaqalarda, chirindilar kam bo'lgan yerlarda agregatlarni dalaga ko'p marotaba kiritish katta zarar keltiradi. Organik moddalarning namlik bilan birga bug'lanishi, suv bilan yuvilib ketishi kuchayadi. Shu sababli, dalaga minimal ishlov berish (resurstejamkor texnologiyalar) usuli keng tatbiq etilmoqda.

Dalaga turli agregatlarning kiritilishini kamaytirish maqsadida, bir yurishda bir necha operatsiyalarni bajara oladigan kombinatsiyalangan mashinalardan foydalilanadi.

Masalan, *25-d rasmda* tasvirlangan qurama agregat qurg'oqchil mintaqalarda tuproqni ag'darmasdan asosiy ishlov berish bilan birga g'alla ekishga tayyorlaydi. U rama 10, disk-simon qurollar 11, yotiq chuquryumshatkich 12, mola 13 va qoziqchali g'altak 14 lardan tashkil topgan. Disklar tuproqni 8 sm chuqurikchacha yumshatsa, yotiq tishlar 16 sm chuqurlikda begona o't ildizlarini kesib, tuproqni yumshatadi. G'altak qoziqchalari kesaklarni ezib maydalaydi va zichlaydi.



*24-rasm. Chizel kultivator:*  
1—yumshatuvchi tish; 2—o'g'it solgich; 3—tirma;  
4—o'g'it qutisi; 5—mola.



25-rasm. Kombinatsiyalashgan agregat:

a — yerga urug' ekadigan agregat; b — shudgorlangan yerni urug' ekishga tayyorlaydigan agregat; d — shudgorlanmagan yerga ishlov berib, urug' ekib ketadigan agregat; 1—freza; 2—fartuk; 3—seyalka; 4, 6, 9, 14—g'altaklar; 5, 7—yumshatuvchi tish; 8—teklislovchi to'sin; 10—rama; 11—disk; 12—chuquryumshatkich; 13—mola; 15—ballast.

Qurama agregatning boshqa turi bir yurishda tuproqni  $15\text{ sm}$  chuqurlikkacha kultivatsiyalaydi, kesaklarni maydalab, tekislaydi, zichlaydi (*25-b rasm*). U prujinasimon ustunli yumshatuvchi tishlar 5, qoziqcha-shporali g'altak 6, ikkinchi qatorda yana yumshatuvchi tishlar 7, teklislovchi to'sin 8 va g'altak 9 dan tashkil topgan.

*25-a rasmida* ko'rsatilgan qurama agregat bir vaqtida yerni ekishga tayyorlaydi va bevosita urug' ni qadaydi. Bu usulda yumshatib tekislangan tuproq namligi kamaymasdan urug' ekilgani sababli, nihollar bir tekis rivojlanadi. Agregat frezali kultivator 1, uning fartugi 2, oddiy don seyalkasi 3 va zichlovchi g'altakcha 4 dan tuzilgan. Ish jaryonida freza barabani tishlari tuproqni maydalab yumshatadi, fartuk tuproqni bir tekis yoyadi, seyalka urug'larni ekib, o'g'itlaydi, g'altakchalar urug' ustidan tuproqni zichlab ketadi.

Sug'oriladigan ekini ( $g'o'za$ , makkajo'xori va hokazo) parvarishlashda uning qator oraliq'ini yumshatish, begona o'tlar ildizini kesib yo'qotish, o'g'itlash, jo'yak ochish kabi ishlar chopiq kultivatori yordamida bajariladi. Qatoragi ko'chatlarga zarar yet-kazmaslik uchun ularga nisbatan kultivator tishlarini birinchi kultivatsiyalashda  $\sigma_x = 8-12\text{ sm}$ , keyingilarida  $\sigma_x = 14-15\text{ sm}$  himoya zonasini qoldirilib joylashtiriladi.

**Ishchi qismalari.** Chopiq kultivatorida (*27-rasm*) ham yerga yoppasiga ishlov beradigan kultivatorning ishchi qismalari va ulardan tashqari, *26-rasmida* keltirilgan o'g'it ko'mgich, rotatsion yulduzcha, jo'yak olgich hamda panjarasimon qanotli jo'yak olgich,

oziqlantirib jo'yak olgich, sferik disk va boshqalar ishlatiladi. Har bir qator oralariga ketma-ket ishlov berish uchun kerak bo'lgan barcha ishchi qismlar bitta gryadilga o'rnatiladi.


**Gryadil** 20 qator oralari o'rtasida joylashtirilib, ishchi qismlar uning o'ng va chap tomoniga kerakli masofa va chuqurlikda o'rnatiladi. Har bir ishchi qism ustuni gryadilga tutqich va qulflar yordamida, uning kerakli holatini ta'minlaydigan qilib mahkamlanadi.

**O'toq qiluvchi va o'q-yoysimon tishlar** begona o'tlar ildizini kesib yo'qotish va yerni qisman yumshatish uchun ishlatiladi. Ular tig'ining qalinligi 1,0 mm dan kamroq bo'lishi kerak. Ish jarayonida o'tkiranib turishi va yeyilishga chidamli bo'lishi uchun tig'ga qattiq qotishma (masalan, sormayt) payvandlangan bo'ladi. Bunday tishlarning yerni yumshatish darajasi engashish burchagi  $\alpha$  ga bog'liq bo'lganligi sababli, ularni ustunga  $\alpha = 12^\circ - 18^\circ$  qilib bolt bilan o'rnatish imkon mavjud.

Sug'oriladigan jo'yakni yumshatish uchun kengligi 35 mm li **yumshatuvchi tishlar** ishlatiladi. Ko'pincha bunday tishlar ikki tomonlama bo'lib, bir tomoni o'tmas bo'lib qolganda, uni  $180^\circ$  ga to'ntarib, ikkinchi o'tkir tomonini ishlatish imkon bor. Bunday tishning ustunga engashish burchagini  $\alpha = 36^\circ - 40^\circ$  qilib o'rnatish mumkin.

**Rotatsion yulduzcha** qatqaloqni yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish va himoya zonasini kamaytirish maqsadida ishlatiladi. Ulardan ko'chatlarning bo'y 30—40 sm ga yetgunicha foydalilaniladi. Rotatsion yulduzchaning barmoqlari 5—8 sm gacha tuproqqa botib yurishi mumkin. Agar barmoq bukilgan tomonga aylantirilsa, uning ishlov berish chuqurligi ortadi. O'g'it ko'mgich 16 sm chuqurlikkacha yumshatib o'g'itlaydi. Uning iskanasimon tumshug'i orqasida o'g'it to'kadigan jo'mrak o'rnatilgan bo'ladi. Jo'yak olgich 16 sm chuqurlikkacha ishlov berib, begona o'tlarni yo'qotib maydalaydi, tuproqni ko'tarib, ko'chatlar tagini ko'mib ketadi. Qanoniting holatini o'zgartirib tuproqni ko'tarib ko'mish balandligi sozlanadi. Oziqlantirib jo'yak olgich tuproqqa 20 sm chuqurlikkacha ishlov beradi. **Sferik disklar himoya zonasini kamaytirish uchun ishlatiladi.**

**Agrotexnik talablar.** Ishlov berish sifati yuqori bo'lishi uchun sug'orilgan yerlarda tuproq namligi 16—18 foizgacha kamayganidan so'ng kultivator dalaga kiritilgani ma'qul. Kultivator tishlari nam tuproqni yer betiga chiqarmasligi kerak. Yerni yumshatish chuqurligi belgilanganidan  $\pm 2$  sm dan ortmasligi, begona o'tlarning 98—99 foizi yo'qotilishi kerak. Kultivator bilan ishlov berish natijasida shikastlangan ko'chatlarning miqdori 1,0 foizdan oshmasligi zarur. Traktor g'ildiraklari va gryadildagi ishchi qismlar ko'chatlarga tegib, ularni shikastlantirmasligi uchun g'ilof va to'siqlar bilan yopiladi. Ish vaqtida turli sabablarga ko'ra gryadilning yon tomonga burilishi 1—2 sm dan oshmasligini ta'minlash maqsadida u bikr o'rnatiladi.



26-rasm. Chopluk kultivatoriga o'rnatiladigan ayrim qo'shimcha ishchi qismlar:

- a — o'g'it solgich; b — rotatsion yulduzcha;
- d — jo'yak olgich (ikki ko'rinishda).


O'toq qiluvchi tish tig'inining o'tkirligi 0,4—0,5 mm dan ortmasligi, oziqlantirish uchun solinayotgan o'g'it miqdori va uni ko'mish chuqurligi tayinlanganidan yo 10—15 foizdan ko'p farq qilmasligi kerak. Umuman olganda, **kultivatordan foydalanishda birinchi o'rinda mahalliy tuproq sharoiti e'tiborga olinishi lozim**.

Chopiq kultivatorining tuzilishi (27-rasm). Kultivator qismi maxsus chopiq traktorining old (oldingi seksiyasi) va orqa (orqa seksiyasi) tomonlariga o'rnatiladi. Oldingi seksiya ramasi 3 traktorning o'ng va chap tomonidagi lonjeronlariga o'matiladi. Rama 3 ga pasaytirgich 26 orqali seksiyaning to'rt bo'g'inli (parallelogrammi) osish mexanizmi 4 biriktirilgan. Ularga, o'z navbatida gryadil 20 lar, gryadillarga ishchi qismlar mahkamlanadi. Orqa seksiya ramasi, traktorning orqa g'ildiragi bort uzatmasi qutisiga kronshteyn 22 yordamida biriktirilgan.

**Chopiq kultivatorining ishchi qismlari faqat operator mo'hallagan yerga ishlov berib, o'simlikka zarar tekizmasligi uchun, traktorni osish moslamasini yon tomonga deyarli burila olmaydigan holatga keltirilib ishlatalish kerak.**

mahkamlangan shaybaga 10 tiralib, uni jilov bilan birqalikda, jilov esa gryadilni 20 va unga o'rnatilgan ishchi qism 24 larni yuqoriga ko'taradi. Tayanch g'ildirakcha 21 lar gryadilni yer yuzasiga nisbatan ma'lum balandlikda ko'tarib, ishlov berish chuqurligini

Kultivatorga beshta o'g'itlash apparati 13, 18 (ularning ikkitasi old, uchtasi orqa seksiyalarda) o'rmatilgan bo'lib, ular harakatni traktorning qvvat olish validan oladi. Gidrotsilindr 14 ning ta'sirida ko'tarish vali 15 burilib, tortqilar 12, 16 orqali ikki yelkali richag ko'targich 8 yordamida jilov 5 dagi gryadilni yuqoriga ko'taradi. Sirpang'ich 9 jilov 5 ga



27-rasm. Chopiq kultivatorining kinematik sxemasi:

1—traktor g'ildiragi; 2, 23—g'ildirak g'iloflari; 3—oldingi seksiya ramasi; 4—osish mexanizmi; 5—jilov; 6—tirak; 7—pruina; 8, 17—ko'targich; 9—sirpang'ich; 10—shayba; 11—shtift; 12, 16—tortqi; 13, 18—o'g'itlash apparati; 14—gidrotsilindr; 15—ko'tarish vali; 19—o'g'it o'tkazgich; 20—gryadil; 21—tayanch g'ildirakcha; 22—kronshteyn; 24—ishchi qism; 25—quif; 26—pasaytirgich.


me'yorida ushlab turadi. Ishlov berish chuqurligini o'zgartirish uchun ishchi qism ustunini gryadilga mahkamaydigan qulflar yechilib, uning g'ildirakchaga nisbatan balandligi o'zgartiriladi.

Tirak 6 ning joyini jilov 5 bo'ylab o'zgartirib, prujina 7 ning siqilish darajasini sozlash mumkin. Prujinaning siqilish kuchi jilov orqali gryadilga, unga o'matilgan qism-larga uzatiladi va ularni pastga bosib, tuproqqa botiradi. Tuproqning qarshilik kuchi zichroq yerlarda ko'paysa, ishchi qismlar birmuncha sayozlab, prujinani siqib bunday joydan o'tib ketadi. Keyin esa, prujina bosimi ta'sirida ishchi qismlar belgilangan ishlov berish chuqurligini egallaydi.


**Mashg'ulot o'tkazishdan maqsad:**  
bajariladigan ishning turiga qarab chopiq kultivatori ishchi qismlarini to'g'ri joyfashtirish hamda kultivator o'g'itlash apparatini belgilangan miqdordagi mineral o'g'itni ajratish uchun sozlash qoidalari asoslarini o'quvchilarga o'rgatish mo'ljallangan, ularda bunday ishlarni amalda bajarish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

#### **Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan jihozlar.**

Kollej tajriba hududida g'o'za (mak-kajo'xori) ekish uchun qator oraliqlarini kengligi  $\sigma$  ga moslangan uch g'ildirakli chopiq traktori; universal g'o'za kultivatori (hamma turdag'i ishchi qismlari komplekti va o'g'itlash apparatlari bilan); agregat tuzish uchun maxsus tay-yorlangan maydonchcha ( $100 \text{ kv.m}$ ); sozlangan kultivatorni ishlatalib tekshirish uchun  $15 \times 30 \text{ m}$  o'lchamdag'i yer; darslikdan tashqari ma'lumotlar manbaasi bo'ladigan plakatlar, prospektlar; kultivator ishchi qismlarini uch turdag'i ishni bajarish uchun joylashtirish shabloni; gayka kalitlarining komplekti; ruletka; metall lineyka;  $20 \text{ kg}$  mineral o'g'it; o'lchash aniqligi  $\pm 5\%$  bo'lgan tarozi; chelaklar, paketlar.



28-rasm. 90 sm bo'lgan qator oralig'iga rotatsion yulduzchalar, o'toqlovchi va chuquryumshatuvchi tishlarni joylashtirish sxemasi.



29-rasm. 90 sm bo'lgan qator oralig'iga sferik disk, o'toq qiluvchi va chuquryumshatuvchi tishlarni joylashtirish sxemasi.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.**  
Mashg'ulotga tayyorlanish jarayonida chiqpiq kultivatorining ishchi qismlarini joylashtirish tartibini ko'rsatuvchi uchta plakat (28, 29, 30-rasmlar) va ular asosida beton maydonchaga bo'yoq bilan chizib uchta shablon tayyorlanadi (misol tariqasida  $\sigma = 90\text{ sm}$  uchun):


1-shablon. Rotatsion yulduzcha, o'toqlovchi va chuqur yumshatuvchi tishlarni joylashtirish (28-rasm);

2-shablon. 29-rasm asosida sferik disk, o'toqlovchi va chuqur yumshatuvchi tishlarni joylashtirish (31-rasmdagi kabi disk va birinchi o'toq qiluvchi tishlarni oldingi gryadilga ko'chirib);

3-shablon. 30-rasm asosida yumshatuvchi tishlarni tuproqni pog'onalab yumshatish uchun joylashtirish (bu yerda ham to'rtta tishni oldingi gryadilga ko'chirib).

O'qituvchi mashg'ulotga kelgan talabalarning hammasiga shablonlarning biri yordamida tishlarni joylashtirishni hamda o'g'ilash apparatini ma'lum miqdordagi o'g'itni ajratib berishi uchun sozlashni ko'rsatadi. Sozlashning har bir pog'onasida bajarilayotgan ishning ma'nosini talabalarga tushuntirib beradi.

Keyin, o'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi. O'qituvchi 1- va 2-guruhlarga foydalani masdan qolgan ikkita shablon bo'yicha ishchi qismlarini joylashtirish va o'g'ilash apparatini har xil miqdordagi o'g'it ajratish uchun, kultivatorni bir gektarga belgilangan miqdordagi o'g'it soladigan qilib sozlashga topshirishni beradi. Baho qo'yish mezonlari-



30-rasm. 90 sm bo'lgan qator oralig'ini pog'onalab yumshatish sxemasi.


ni tushuntiradi. Topshiriqni bajarishda o'quvchilar qilayotgan ishlarini izohlab, ularni kuzatayotgan 3- va 4-guruh o'quvchilari bilan muhokama qilishadi. Keyin guruhlar joylarini almashtirib, topshiriqni bajarish jarayonida tegishli hisobot tayyorlashadi. Topshiriqni bajarishdagi faolligi va hisobot sifatiga qarab, o'quvchilarga tegishli ball qo'yiladi.

#### O'qituvchi talabalarga quyidagi larni tushuntiradi:

Ishchi qismilarni joylashtirish tartibi ular bajaradigan texnologik jarayonga qarab aniqlanadi. Kultivator ishchi qismilarni to'g'ri joylashtirish uchun maxsus shablondan foydalaniлади. Shablon betonlanib tayyorlangan tekis maydonchada chizilgani ma'qul. Traktorni uning ustiga chiqarib, gryadil va ishchi qismilar rasmdagidek o'rnatiladi. 31-rasmda kultivator ishchi qismilarni 90 sm qator oralig'iga joylashtirish shabloni (begona o'tlarni yo'qotish uchun) keltirilgan. Agar shablon tayyorlash imkonи bo'lmasa, traktorni tekis joyda uning g'ildiraklariga nisbatan ip tortib, hamma qatorlardagi himoya zonalari belgilanadi va gryadillar hamda ishchi qismilar gorizontal teklislikda joylashtiriladi.

Vertikal tekislikda tishlar har bir gryadilda alohida-alohida o'rnatiladi. Shu maqsadda gryadil g'ildirakchasi ning ostiga qalinligi tishlarni tuproqqa maksimal botirish chuqurligiga teng bo'lgan taglik qo'yiladi. Ishchi qismilarni kerakli chuqurlikka o'rnatishda, gryadil bo'ylama yo'nalishda gorizontal holatda bo'lishi kerak. Bunga parallelogrammlı mexanizm ustki tortqisining uzunligini o'zgartirib erishiladi. Tishning uchi g'ildirakcha tegib turgan sathga nisbatan berilgan chuqurlikka tushirilib, uning ustuni qulf yordamida mahkamlanadi. Ishchi qismilari shablon yordamida o'rnatilgan agregatning ishi dala-da tekshiriladi, kerak bo'lsa o'zgartirishlar kiritiladi. Shu sinov vaqtida (zich tuproqli joyda) tishlarning ishlov berish chuqurligi belgilanganiga nisbatan kamayib qolaversa, jilovdagи prujinani ko'proq siqib qo'yish kerak. Prujinaning siqilish kuchi me-yordan ortiq bo'lsa, yumshoq joylarda gryadildagi g'ildirakcha va tishlar tuproqqa chuqurroq botib qoladi.

Gryadilga ishchi qismilar ma'lum ketma-ketlikda o'rnatiladi. Birinchi



31-rasm. Kultivator ishchi qismilarni 90 sm qator oralig'iga joylashtirish shabloni.

qatorga yulduzcha yoki disklar mahkamlanadi. **Rotatsion yulduzchalar g'o'za qatori o'qiga eng yaqin oraliqda (3—5 sm) qo'yilib, himoya zonasini keskin toraytirish imkonini beradi.** Birinchi kultivatsiyada yulduzcha 3—5 sm, keyingilarida 5—8 sm chuqurlikka tushadigan qilib o'rnatiladi. Tuprog'i zich bo'lgan yerkarni kultivatsiyalashda rotatsion yulduzchalar o'mniga sferik disklar ishlatilgani ma'qil, chunki u o'tkir tig'i bilan zich yerni tilib, himoya zonasini chegarasini aniqlab beradi. Natijada, orqada kelayotgan boshqa tish ta'sirida ajratilib olinayotgan katta kesaklar ko'chat ildizlari joylashgan tuproqni ko'chirmaydi, ildizlarni shikastlantirmaydi. Bundan tashqari, tuproqqa botgan diskлarni yon tomonga surish qiyin bo'lganligi sababli, ular zich tuproqlarda gryadilning to'g'ri yo'nalishdan burilmay yurishini ta'minlaydi. Sferik diskлarni ko'chatlar qatorining o'qiga 6—8 sm oraliqda (bu himoya zonasining yarmidir) va 6—8 sm chuqurlikda o'rnatish kerak. Gryadildagi ikkinchi qatorga disk yoki rotatsion yulduzchadan so'ng, yassi o'toqlovchi tishlar ko'chat qatorni o'qidan 10 sm qoldirib va 6—8 sm chuqurlikda, uchinchi qatorda (ortki gryadilda) o'toq qiluvchi tishlardan so'ng, o'q-yoysimon tish jo'yakning o'tasida 12—14 sm chuqurlikda va eng oxirida, o'g'itlash soshnigi tuprog'i yumshatilgan joydagi qatorga o'rnatiladi. Agar asosiy vazifa yerni yumshatish bo'lsa, kichik yumshatuvchi tishlarning har birini 4—6 sm chuqurlikda jo'yak profiliga moslangan holda pog'onalab o'rnatib ishlov berish maqsadga muvofiqdir.

Ishchi qismlarni gryadilda joylashtirishda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Ekin qator oralig'idagi yerga ishlov berishda keyinchalik qo'l mehnati sarfini kamaytirish maqsadida, iloji boricha himoya zonasini ko'chat ildiziga zarar keltirmaydigan qilib kamaytirish talab etiladi.
2. Jo'yak chetida, ya'ni ko'chatlarga yaqin joylashgan ishchi qism eng sayoz, jo'yak o'tasidagi tish esa eng katta chuqurlikka, qolganlari esa jo'yakning profili (ko'ndalang kesimining shakli)ga moslab, pog'onalab o'rnatiladi.
3. Gorizontal yo'nalishda esa, begona o't ildizlarini to'liq kesib ketishi uchun o'toqlovchi va universal o'q-yoysimon tishlar qamrov kengliklari o'zaro +Dv ga qoplanadigan qilib joylashtiriladi. Yumshatuvchi tishlarni esa, ularning ta'sirida tuproq deformatsiyalaniib yumshashini e'tiborga olgan holda o'rnatish lozim. Demak, tishlarni gorizontal yo'nalishda joylashtirishda, ularning qator oralig'idagi sonini aniqlashda qamrov kengligining miqdori e'tiborga olinishi kerak.


#### **4. Har qanday tishning yerga ishlov berish chuqurligini tayinlashda mahalliy tuproq xossalari e'tiborga olish zarur.**

Qator oralig'i 90 sm bo'lgan paxtazordagi begona o'tlarni yo'qotish va tuproqni qisman yumshatish maqsadida kultivator ishchi qismlarini har bir jo'yakda joylashtirish sxemasi 28-, 29-, 30-rasmarda misol tariqasida keltirilgan.

Yerga mineral o'g'it solish maqsadida kultivatorga **likopsimon o'g'itlash apparatlari o'rnatiladi (32-rasm).** U bunker 2, ustki sidirgich 3, konusli silindr 4, halqasimon shesternya 5, asos 6, tushirgich 7, nov 8, qopqoqdan 1 iboratdir. Likop 9 asos 6 ichiga payvand qilinib, uning o'tasidagi teshikka tushirgich 7 va ustuncha 10 o'rnatilgan. Likop 9 bilan asos 6 orasida aylanasimon tirkish 11 paydo bo'ladi. Tirkish 11 orqali o'g'it nov 8 ga tushib turadi. Nov 8 tushayotgan o'g'it oqimini bir yoki ikki bo'lakka ajratib, o'g'it o'tkazgichlarga yo'naltiradi. Tushirgich 7 lar konussimon shesternya 5 yordamida uzuksiz aylantirilib turiladi. Asos 6 ga simmetrik holatda ikkita vtulka 12 o'rnatilgan.

Silindr 4 da vint chizig'iga o'xshash uchta ensiz va cho'zinchoq o'yiq uyacha yasalgan bo'lib, ularga tayanch boltlarining bo'sh uchlari kirib turadi. Bunker 2 silindr 4 ga sharnirli ulangan, shu sababli unga nisbatan ag'darilib ochiladi. Silindr 4 bunker bilan birgalikda vertikal o'q atrofida ma'lum burchakka erkin burilish imkoniga ega. Shu burilish hisobiga konusning pastki cheti bilan likop 9 orasidagi o'g'itni to'kish tirqishini o'zgartirib, o'g'it sochish me'yori sozlanadi. Asos 6 da fiksator o'rnatilgan bo'lib, uning bo'rtiq tishi silindr 4 dagi teshik 14 larga kiritilsa, silindrni o'z-o'zidan aylanib ketishdan saqlab turadi. Teshiklarning 14 har biri o'g'itlashning ma'lum me'yorini ta'minlaydi. Traktor QOVIDan kela-yotgan harakat ustuncha 10 orqali siringich 3 ni aylantiradi. Siringich ta'sirida o'g'it konus 4 ning teshigi orqali tushirgich 7 ga tushadi. Tushirgich 7 lar aylanib uni konusning pastki cheti bilan likop orasidagi aylanasi-mon tirqishdan siqib chiqaradi. Chiqqan o'g'it o'tkazgichlarga yo'naltiriladi. O'g'itni bevosita tuproqqa aralashtirish uchun kultivator gryadillariga ikkitadan o'g'it ko'mgich o'rnatiladi. Qator oralig'i 60 sm bo'lgan paxtazorga ishlov berishda ko'mgichlarni gryadilga birinchi kultivatsiyalash uchun ko'chatlar qatoridan 15—18 sm oraliqda 12—14 sm chuqurlikka, ikkinchi kultivatsiyalash uchun 18—20 sm oraliqda 12—14 sm chuqurlikka o'rnatish tavsiya qilinadi. Eng so'nggi oziqlantirishda ko'mgichni qatorlar o'rtasiga o'rnatish lozim. Qator oralig'i 90 sm bo'lgan yerlarda birinchi kultivatsiyalashda ko'mgichni qatoridan 15—18 sm, ikkinchisida 20—22 sm, eng so'nggisida 28—30 sm oraliqda 12—14 sm chuqurlikda o'rnatgan ma'qul.

Tayinlangan miqdordagi mineral o'g'itni yerga solish uchun kultivatorga o'rnatilgan o'g'itlash apparatlari quyidagicha sozlanadi. Ekin qator oralig'inинг kengligi v bo'lsa n qatorli kultivator bilan gektariga tayinlangan o'g'it miqdori  $Q_e$  ni kerakli aniqlikda solish uchun, avvaliga 1 metr yo'lni (masalan,  $l = 10$  m) bosib o'tilganda hamma apparatlar to'kkan o'g'it miqdori q aniqланади. Shu maqsadda hamma o'g'it o'tkazgichlar ajratilib olinadi va ular uchiga xaltachalar kiydirib qo'yiladi. Xaltachalardagi o'g'itni



32-rasm. O'g'itlash apparati:  
1-qopqoq; 2-bunker; 3-ustki siringich; 4-konusti silindr;  
5-halqasimon shesternya; 6-asos; 7-tushirgich; 8-nov; 9-likop;  
10-ustuncha; 11-aylanasimon tirqish; 12-vtulka;  
13-fiksator o'qi; 14-teshik.

alohida-alohida tarozida tortib, ularning bir-biridan farqi ±10 foiz bo'lganicha miqdorlagichlar qayta sozlanadi va o'g'it o'tkazgichlardan to'kilgan o'g'itning o'rtacha miqdori q aniqlanadi. Keyin bir gektarga sochilayotgan o'g'it massasi Q hisoblab topiladi:

$$Q = 10000 \frac{q}{nbl}, \text{ kg/ga}$$

Agar Q berilgan Q<sub>i</sub> dan ±8% dan ko'proq farq qilsa, tirkish 11 ni tegishli tomonaga o'zgartirib, tajriba takrorlanadi.



1. Respublikamizda sug'oriladigan hamda lalmi dehqonchilikning hamma sohalarida tuproqqa sayoz ishlov beradigan mashinalardan keng foydalaniladi.

2. **Dalaga sayoz ishlov berish uchun tuproqning xossalariiga mos bo'lgan mashina turi va ishchi qismini tanlash kerak.**

3. Yerni ekin ekishga tayyorlashda ishlatalidigan mashinalar ichida eng arzon va sudrashga qarshiligi oz bo'lgani tishli tirmadir.

4. **Qurg'oq va serkesak, ayniqsa, bug'doy o'rimidan so'ng yozda shudgorlangan yerning tuprog'ini maydalab yumshatish uchun disksimon tirmadan foydalanish yaxshi natija beradi.**

5. **Tuproqni o'ta mayin holatga keltirib maydalash uchun tuproq frezasidan foydalangan ma'qul.**

6. Kuzda shudgorlangan yerga bahorgi ekin ekishdan oldin tuproqqa yoppasiga ishlov beradigan kultivator, xususan, chizellar bilan ishlov berish juda yaxshi natija beradi.

7. Resurstejamkor texnologiyalar asosida g'alla ekishda plug bilan shudgorlanmaygan yerga bir yurishda bir nechta ishni bajarib, urug' ekip keta oladigan kombinatsiyalashtirilgan agregatdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

8. Sug'oriladigan ekin (paxta, makkajo'xori, kartoshka, sabzavot va hokazo) qatorlari oralig'idagi tuproqni yumshatib namlikni saqlash, begona o'tlarni yo'qotish, o'g'itlash kabi ishlarni universal chopiq kultivatori sifatli bajara oladi.

9. Chopiq kultivatori bilan ekinzorga ishlov berganda iloji boricha himoya zonasini, kamaytirib ishlov berish keyinchalik begona o't qoldiqlarini yo'qotish uchun qo'shimcha sarflanadigan qo'l mehnatini keskin kamaytiradi.

10. Chopiq kultivatoridan sifatli foydalanish o'smay qolgan ekin rivojlanishini jadalashtirish imkonini beradi.

11. Chopiq kultivatorining ishchi qismlarini maxsus shablon yordamida joylashtirish samarali natija beradi.

12. Qator oralig'i jo'yagining shakliga moslab, u yerdagi tuproqni pog'onalab yumshatish juda foydali.

1. Yuqorida keltirilgan o'n ikki ta xulosaning har birini asoslab bering.
2. Har bir tishiga turilcha og'irlik tushadigan tirmalar qanday maqsadda yasaladi?
3. Tirma tishlarining ko'ndalang kesimi qanday maqsadda turli shaklda qilinadi?
4. Tishli tirmanning qamrov kengligi nima sababdan nisbatan kichik qilingan?
5. Tirma tishining uchi nima uchun qiyiq kesilgan bo'ladi?
6. Nega disksimon tirma kesaklarni to'liqroq maydalaydigan imkoniyatga ega?
7. Nega ayrim tirma disklarining chetlarida o'yiq joylar yasalgan?
8. Nega diskning hujum burchagi o'zgartirilsa, uning tuproqqa ta'siri ham o'zgaradi?
9. Tuproq frezasi qanday xususiyatiga ko'ra tuproqni o'ta mayin holatga keltirib maydalay oladi?
10. Tuproq frezasining tuproq ekologiyasiga salbiy ta'sirini qanday kamaytirish mumkin?
11. Yerga yoppasiga ishlov beradigan kultivatoridan qanday sharoitda foydalanish ma'qul hisoblanadi?
12. Kultivator tishlarining tuproqqa botish chuqurligi qanday sozlanadi?
13. Qanday maqsadda kultivator ayrim tishlarining qamrov kengliklari bir-birini qoplaydigandek qilib ramaga o'rnatiladi?
14. Nima uchun kultivator ishchi qismlari bir qatorda emas, 2, 3 va undan ko'p qatorlar (ko'ndalang) ga yoyib joylashtiriladi?
15. Chopiq kultivatori tishlarini kichik himoya zonasini qoldiradigandek qilib joylashtirishni nima cheklaydi?
16. Kultivator gryadili prujinasining siqlish darajasi qanday omillarga bog'liq?
17. Chopiq kultivatori gryadillariga o'rnatiladigan ishchi qismlar turini tanlash nimaga bog'liq?
18. Qator oralig'iga solinayotgan mineral o'g'itni ko'mish joyi nimaga bog'liq?
19. Chopiq kultivatori o'g'itlash apparati ajratib berayotgan o'g'it miqdori qanday omillarga bog'liq?
20. Qanday sabablarga ko'ra ekin qator oralig'ini birinchi va keyingi kultivatsiyalash har xil rejimda bajarilishi kerak?

### III б о б. **O'G'ITLASH MASHINALARI**

Dehqonchilikda yig'ib olinadigan hosil qisman ekinning tuproq tarkibidagi har xil moddalarini o'zlashtirishiga bog'liq bo'lib, buning natijasida tuproqdagagi organik va mineral moddalar yildan yilga kamayib boradi. Tuproqning unumdorligini tiklash uchun unga muntazam ravishda turli o'g'itlar solish talab qilinadi. Ekinzorga keng ko'lamda solinadigan o'g'itlar mineral, organik va organik-mineral aralashma kabi turlarga bo'linadi.

Bu o'g'itlar tarkibida o'simlikning o'sishi, rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan fosfor, kaliy, azot, uglerod va mikroelementlar bo'tishi kerak.

Buni har kim o'zining kundalik hayotida kuzatgan, chunki hatto tomorqaga ekilgan ekinga ham vaqt-vaqt bilan o'g'it solinadi. Demak, katta-katta dalalarga o'g'it solish mashinalari kerak. Shu sababli, o'g'itlaydigan mashinalar dehqonchilikni mexanizatsiyalashda juda zatur.

Mazkur bobni o'qitishdan maqsad, bo'lajak yosh mutaxassislarga o'g'itlash mashinalarining turlari, tuzilishi, ishi, ularni mahalliy sharoitga moslab tanlash va sozlash bo'yicha bilimlar asosini berishdir. Mo'hallangan amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarga eng ko'p tarqalgan markazdan qochirma apparatli mineral o'g'it sochadigan mashina ning kollejda mavjud turini ishga tayyorlashni o'rgatib, ularda ko'nikmalar shakllantiriladi. O'qituvchi mashg'ulot o'tkazish jarayonida o'g'itlash mashinalarining ishiga nisbatan agrotexnik talablarni izohlab, bu talablarga rioya qilmasdan mashinani ishlatish ekologik vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatishini tushuntiradi.

Bob bo'yicha mashg'ulotlar tugatilayotganida o'rnatilgan muhim ma'lumotlar bo'yicha o'quvchilar orasida fikr almashuvini joriy qilish ma'qul bo'ladi.

**O'g'itlash usullari.** O'g'itlar yerga ekin ekishdan oldin (asosiy), ekish vaqtida, ekishdan keyin (toziqlantirishda) solinadi. Asosiy o'g'itlashda organik o'g'itning yillik me'yori to'liq, mineral o'g'it yillik me'yoring yarmidan ortiqroq qismi dalaga sochilib, tuproqqa ishlov beradigan mashinalar (freza, plug, kultivator, tirma) yordamida 10—20 sm chuqurlikkacha tuproq bilan aralashtiriladi. Ekish vaqtida esa, o'g'it universal seyalka yordamida urug' bilan bir vaqtida, ammo keyinchalik nihol ildizi kuymasligi uchun urug'larga nisbatan yon tomonini chuqurligini 5—10 sm oraliqda, chuqurligini 5—10 sm qilib solinadi. Ekinlar sing'orishdan oldin oziqlantiriladi.

O'g'itlashda o'g'itni maydalaydigan, uni yoppasiga sochadigan, o'simlik qatoriga nisbatan uzlusiz yoki lokal joylarga soladigan mashinalardan foydalananildi. Yerga mineral o'g'itni yoppasiga sochish uchun seyalkalar, markazdan qochirma sochgichlar, go'ng sochgichlar va shilta sepgichlar ishlatiladi. Suyuq ammiakli o'g'itlarni qazilgan

ensiz ariqchaga quyib, zudlik bilan 10—15 sm qalinlikdagi tuproq bilan ko'mish kerak, aks holda uning ko'p qismi bug'lanib ketadi.


**Agrotexnik talablar (ATT).** Yerga solinayotgan mineral o'g'itning bir-biriga yopishib qolgan bo'laklari 1—5 mm li zarachalar ko'rinishida maydanishi, namligi 15 foizdan ortmasligi lozim. Mashinalar mineral o'g'itni 50—1000 kg/ga, organik o'g'itni esa 5—60 t/ga sochadigan bo'lishi kerak. Mashina o'g'itni tayinlangan chuqurlikka ko'mishi (farqi ±15 foiz) shart. Foydal elementlari parchalanmasligi uchun mineral o'g'it sepilgandan 12 soat keyin, organik o'g'it esa 2 soat ichida tuproqqa ko'milishi kerak.

### 1-3. O'G'IT MIQDORLAGICHHLAR


Har qanday o'g'itlash mashinasiga qo'yiladigan talablarning eng muhimmi belgilangan miqdordagi o'g'itni maydonga bir tekis solishdir. Bu ish o'g'it miqdorlagichlar yordamida bajariladi. Sochiladigan mineral o'g'it turiga qarab **mexanik, pnevmatik yoki gidravlik miqdorlagichlardan foydalaniлади**. Mexanik miqdorlagichlarning shtift (tish)li g'altaksimon, likopsimon, diskimon va transportyorli turlari keng tarqalgan. Ular o'g'itlarni oz-ozdan me'yorlab berish uchun qo'llaniladi.

**Shtiftli g'altaksimon o'g'it miqdorlagichlar** universal seyalkalarda ishlataladi (33-rasm). Undagi quti ichiga g'altak 2, uni aylantiradigan val 3, g'altakning ostiga esa taglik 5 o'rnatilgan. Sevakkadagi hamma tagliklarni maxsus o'q 6 yordamida birmuncha burib, taglik bilan g'altak orasidagi tirkishni o'zgartirish ko'zda tutilgan. Bu tirkish kengligi donadorlashtirilgan mineral o'g'itlarning o'lchaniga moslab qo'yiladi. O'g'itlash miqdori g'altakning aylanish tezligini va suriladigan qopqoq I yordamida g'altakka o'g'it tushadigan darcha ko'zini o'zgartirish hisobiga sozlanadi. O'g'it miqdorlagichchning texnologik ish jarayoni quyidagi tartibda bajariladi. Qutidagi o'g'it darcha orqali g'altakka o'zi tushadi. Aylanayotgan g'altak fishlari o'g'itni taglik bo'ylab surib o'g'it o'tkazgichga tushiradi.

**Likopsimon o'g'it miqdorlagich** kultivatorga o'rnatilib donadorlashtirilgan va kukumlangan mineral o'g'itlarni ajratish uchun ishfataladi. Likopsimon idish 4 ning bir qismiga o'g'it qutisi 5 o'rnatilsa, ikkinchi qismi ochiq qoldiriladi (34-a rasm). Likopsimon idish majburan aylantiriladi va ishqalanish hisobiga o'g'itni quti tagidan ochiq joyga olib chiqadi. U yerdagi aylanadigan disk yoki oddiy sidirigich 2 likopsimon idishdagi o'g'itni surib, irg'itib yuboradi. O'g'it to'siq 3 ga tegib, kerakli tomoniga yo'naladi. Devorining titrab turishi hisobiga o'g'it quti tubiga uzlusiz tushib turadi. O'g'itlash me'yori likopsimon idishning aylantish tezligini hamda uning tubi bilan quti devorining pastki cheti orasidagi tirkish o'lchami o'zgartirib sozlanadi.



33-rasm. Shtiftli g'altaksimon o'g'it miqdorlagich:  
1—suriluvchan qopqoq; 2—g'altak; 3—val;  
4—tarmoq; 5—sozlovchi taglik; 6—o'q.



34-rasm. O'g'it muqdarlagichlar sxemasi.

a—likopsimon; b—diskli; 1—devor; 2—sidiргich; 3—to'siq; 4—likop; 5, 6—quти; 7—to'zitkich; 8—qirg'ich; 9—nov; 10—harakat yuritmasi; 11—disk; 12—sath ko'rsatkich.



gi belgilar ko'rsatadi. Undan tashqari, sath ko'rsatkich qutining devorlariga yopishgan o'g'itni sidirib pastga tushiradi. Aylanayotgan to'zitkichning prujinasimon barmoqlari ta'sirida qutidagi o'g'it uzlusiz pastga tushirilib, qirg'ich va diskni yopishgan o'g'itdan tozalab turadi.

O'g'it sochish miqdori diskning aylanish tezligini o'zgartirish va qirg'ichlarni quti ichiga surib qo'yish hisobiga sozlanadi.

## 2-5. O'G'IT SOCHISH APPARATLARI

Sochish apparatlari organik va mineral o'g'itni me'yorlab, tuproqqa ishllov berishdan oldin yer yuzasiga yoppasiga sochish uchun ishlataladi. Sochilgan o'g'it, keyinchalik plug, kultivator, diskli tirma kabi qurollar yordamida tuproqqa aralashtiriladi.

**Organik o'g'itlarni sochish uchun transport vositasi kuzoviga o'rnatilgan rotor ko'rinishidagi qurilmalardan foydalaniлади (35-a rasm).** Kuzovning tubiga chiviqli trans-



35-rasm. O'g'it sochgichlar:

a, b—rotorti organik o'g'it sochgich; v—mineral o'g'it uchun disksimon sochgich; 1—rotor; 2—kuzov; 3—ku-rakeha; 4—val; 5—transportiyor; 6—maydalovchi biter; 7—parak; 8—kuzov borti; 9—nov; 10—io'siq; 11—disk.

portyor 5 o'rnatilgan bo'lib, u solingan o'g'itning pastki qatlamini sidirib, rotor kurak-chalari 3 ga uzlusiz yetkazib turadi. Kurakcha 3 lar rotor vali 1 ga vint chizig'i bo'ylab o'rnatilganligi tufayli, ular aylanayotib, o'g'itni maydalab, yon tomonlarga irg'itib sochadi. Maydalashni kuchaytirish uchun rotoring tagiga unga nisbatan sekinroq aylanadigan biter 6 o'rnatilgan.

**Barabanli sochgich** ham rotorliga o'xhash bo'lib, kuzovdagi o'g'itni transportyor parraklariga keltirib beradi. Aylanayotgan parraklar o'g'itni irg'itib, kuzov bortidan tushirib yuboradi.


Mineral o'g'itni sochish uchun **markazdan qochirma apparatdan** keng foydalaniladi (*35-b rasm*). Bitta yoki ikkita disk 11 ning ustki sirtiga kurakechalar o'rnatilgan. Aylanayotgan disk ustiga qutidagi o'g'it nov 9 lar bo'ylab tayinlangan me'yorda kelib tushadi. Markazdan qochirma kuchlar ta'sirida o'g'it zarrachasi kurakcha qirralari bo'ylab diskdan otilib chiqib ketadi. Novlar bir-biridan tunuka to'siq 10 bilan ajratilgan.

### 3-8. O'FITLABH MASHINALARINING UMUMIY TUZILISHI

Omborlarda saqlanayotgan gigroskopik mineral o'g'it vaqt o'tishi bilan bir-biriga yopishib qotib, yirik bo'laklarga aylanib qoladi. Shu sababli yerga solishdan oldin ularni maydalash talab qilinadi. Maydalash uchun ishlatalidigan agregat turli qopda hamda ochiq holda qotib qolgan bo'laklarni maydalaydi va transport vositalariga yuklaydi, qop qoldiqlarini esa ajratib tashlaydi.

Qoplanib qotib qolgan mineral o'g'it agregat bunkeriga solinadi. Tebranib turadigan ta'minlagich 2 ularni bir-biriga teskari aylanayotgan baraban 3 lar orasidagi tirkishiga uzatadi. Barabanlar o'g'itni qo'zg'almas pichoq 4 ga siqb, ezadi, maydalaydi. Maydalangan o'g'it qiya o'rnatilgan va tebranib turadigan g'alvir 5 da elanadi, qopning qoldiqlari ajratiladi va aylanuvchan yash-kash 6 yordamida yerga irg'itiladi. G'alvirdan o'tgan mayda o'g'it transportyor 7 yordamida transport vositasiga yuklanadi.

*36-rasmida* sodda va eng ko'p tar-qalgan mineral o'g'it sochgich ko'rsatilgan. Uning markazdan qochirma appara-ti yordamida yetarli aniqlikda dona-dorlashtirilgan mineral o'g'it va siderat (yashil o'g'it)lar urug'ini sepish mum-kinit (ayrim joylarda hatto don urug'ini ham sepishayapti).



*36-rasm* Markazdan qochirma o'g'it sochgich  
1, 14—reduktor; 2—kardan vali; 3—krivoship-shatunli mechanizm; 4—obkash; 5—srang'ich; 6—richag; 7—bunker; 8—to'zitkich; 9—tebrantiruvchi val; 10—to'siq; 11—to'kvuchi planka; 12—sochuvchi disklar; 13—tirkagich; 15—harakat uzatmasi

To'zitkichi 8 bunker 7 ga solingan o'g'itni pastga uzliksiz tushirib berish uchun xizmat qiladi. Sochilayotgan o'g'it miqdorini o'zgartirish uchun riebag 6 yordamida to'siq 10 lanu bir-biriga yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish orqali o'g'it to'kiladigan tarmov teshigini o'zgartirish mumkin.

Bunker tubi bilan to'siqlar orasiga zigzag ko'rinishidagi to'kuvchi planka 11 o'matilgan bo'lib, u val 9 yordamida tebramma harakatga ketirilsa, tarmov teshigidan o'g'itni siqib chiqaradi. Chiqarilgan o'g'it to'rt parrakli ikkita sochuvchi disk 12 taiga tushadi. Sochuvchi disk reduktor 14 yordamida aylantiriladi. Tebrantiruvchi val 9 to'kuvchi planka 11 va to'zitkichi 8 konusimon reduktor 1 orqali harakatga keladi. To'kuvchi planka 11 ning tebranish amplitudasini o'zgartirib, sochilayotgan o'g'it miqdorini ham o'zgartirish mumkin. Shu maqsadda sir pang'ich 5 obkash 4 bo'ylab siljitiadi. Disklar o'g'itni markazdan qochirma kuch ta'sirida sochub tarqatadi.

Demak, kerakli miqdorda o'g'it sochish uchun o'g'it tarmovi yoki to'kuvchi plankaning tebranish amplitudasini o'zgartirish kerak. Bunday mashina o'g'itni 10—11 m kenglikdagi yerga sochib ketadi.

Organik o'g'it (go'ng, torf, kompostni sochish uchun, asosan, **kuzovli pritsep** ko'rinishidagi mashinalar ishlataladi. Mashinadagi apparatni yechib olib, o'miga orqa bor o'matilsa, bu mashinadan transport vositali sifatida ham foydalaniш mumkin.

#### **4-8. O'G'IT SOCHGICHINI ISHGA TAYYORLASH (amally mashg'ulot)**

**Mashg'ulotni o'tkazishdan maqsad:** Ko'p tarqalgan markazdan qochirma o'g'it sochgichni agronom belgilagan me'yorda turli mineral o'g'itni bir gektarga sochadigan qilib sozlashni o'quvchilarga tushuntirish va ularda bunday ishni amalda bajarish bo'yicha ko'nikmalarни shakllantirishdir.

##### **Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan jihozlar.**

Kollej joylashgan hududda shudgorlashdan oldin yerga sochiladigan o'g'it turi (50 kg), traktorga osilgan markazdan qochirma o'g'it sochgich (har qanday rusumli); agregat yordamida tajriba o'tkazish maydoni ( $15 \times 15$  m); qop; tarozi; ruletka; gayka kalitlari; plakatlar, prospektlar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Albatta hozirda dehqonlar juda ko'plab turdag'i mineral o'g'itlarni sotib olishlari mumkin. Ularning tarkibidagi ta'sir etuvchi modda miqdori, zichligi, to'kiluvchanligi va boshqa xossalari ham har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli, bir xil o'g'itni turli me'yorda sochish kerak bo'ladi. Demak, o'g'it sochgichni ishga tayyorlash uchun unga yopishtirilgan jadvallarga aniqlik kiritish kerak. Shu maqsadda, mashg'ulotdan oldin o'g'it sochgichning disklari yechib olinadi va o'g'it to'kiladigan tarmov tagiga bo'sh qop kiydirilib, bog'lab qo'yishga moslab qo'yiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga o'g'it sochgichni jadval yordamida bir gektarga Q kg o'g'itni sochadigan qilib izohlaydi va sozlab ko'rsatadi. O'g'it to'kiladigan tarmovga qopni kiydirib, bog'laydi, agregat 10 m masofada ishlatalib, to'xtatiladi. Qopga to'kilgan o'g'it tarozida tortilib uning massasi q aniqlanadi. O'g'it sochgichning (agar u NRU-0,5

rusumli bo'lsa) qamrov kengligi o'rtacha  $B = 10$  m deb qabul qilinsa,  $Q_t = 100$ q deb aniqlanadi. Agar  $Q_t$  miqdori  $Q$  dan 8% dan ko'proq farq qilsa, sozlanishlarga aniqlik kiritilib, tajriba takrorlanadi.

Keyin talabalar to'rt bo'linib, navbatma-navbat o'g'it sochgichni turli miqdorda sochish uchun sozlab, tajribada o'tkazib tekshiradilar. Guruh o'quvchilari sochgichni sozlayotganlarida uni izohlab boshqalarga tushuntirib beradilar. Topshiriqni bajarishda-  
gi faolligi va hisobot sifatiga qarab o'quvchilarga tegishli ball qo'yiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga 36-rasm asosida tayyorlangan plakatdan foydalanib, o'qitilayotgan o'g'it sochgichning tuzilishini, ishlashi, sozlanishlarini ko'rsatib beradi. Rejalashtirilgan tajribani o'tkazish uchun disklarni yechib qo'yish, uning o'miga tarnova-  
ga qop bog'lab qo'yish lozimligini tushuntiradi. Mashg'ulot vaqtida xavfsizlik qoidala-  
riga rioya qilish lozimligini talab qiladi. Agregat ishlayotganida shamol ta'sirini e'tibor-  
ga olish tadbirini ko'rsatadi.

Mashg'ulotdan so'ng o'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilar orasida o'zaro fikr alma-  
shuvini tashkillashtiradi.

### III BO'B BO'YICHA XULOSALAR

1. Respublikamiz hududlarida tuproq xossalari va o'g'itdag'i ta'sir etuvchi moddaning miqdoriga qarab turli ekin uchun dalalarga har xil miqdordagi o'g'it solinadi.

2. **Solinadigan o'g'it xossalari asosida o'g'it miqdorlagich yoki sochgich turi tanlanadi.**

3. Uzoq saqlangan mineral o'g'it ishlatishdan oldin maydalaniib, to'kiluvchan holatga keltiriladi.

4. **Yerga sochilgan o'g'itning kuchi ketmasdan qisqa muddat ichida uni tup-  
roq bilan aralashtirib, ko'mish talab qilinadi.**

5. Don urug'i bilan bir vaqtida yerga o'g'it solib ketadigan universal seyalkalarda shiftli g'altaksimon o'g'it miqdorlagich ishlatiladi.

6. Ekin qator oralig'i kultivatsiyalab yerni o'g'itlashda diskli yoki likopsimon o'g'it miqdorlagichlardan foydalananadi.

7. Organik o'g'it (go'ng) ni yer betiga sochish uchun rotorli yoki barabansimon soch-  
gichlar ishlatiladi.

8. Yer betiga to'kiluvchan mineral o'g'itni sochish uchun markazdan qochirma o'g'it  
sochgichni ishlatish ma'qil bo'ladi

9. Yerga solinadigan mineral o'g'it miqdorini tayinlashda uning tarkibidagi ta'sir etuv-  
chi modda qismi har xil ho'fleshini e'tiborga olish lozim.

### NAMUNAVIY TEST SAVOLLARI

1. Yuqorida keltirilgan to'qqizta xulosaning har birini asoslab bering.
2. Nima sababdan yerni muntazam ravishda o'g'itlab turish lozim?
3. Nega organik o'g'itning yillik miqdori yer haydashdan oldin solinadi?

4. Nega mineral o'g'itning yillik miqdori bir nechta qismlarga bo'lib solinadi?
5. Nima uchun mashina bilan yerga solinadigan o'g'it to'kiluvchan holatda bo'lishi kerak?
6. Nega sochilgan o'g'itni tezroq tuproq bilan ko'mish kerak?
7. Qanday sabablarga ko'tra disksimon sochgich bilan organik o'g'itni sochish ma'qul hisoblanadi?
8. Nima uchun markazdan qochirma o'g'it sochgich bunkeriga to'zitkich o'mabillari?
9. Markazdan qochirma o'g'it sochgich bilan kukunsimon hamda donalashirilgan mineral o'g'itni sochishda uning qamrov kengligi birligil bo'ladimi?
10. Markazdan qochirma o'g'it sochgichning bir yektaiga sochayilgan o'g'it miqdorini aniq bilish uchun nima qilinadi?
11. Markazdan qochirma o'g'it sochgich bunkeri tubidagi tor'kuvchi plankardning tehrish amplitudasi soshiladigan o'g'it miqdoriga qanday ta'sir korisaladi?
12. Qanday maqsadda markazdan qochirma o'g'it sochgichning disklarini gorizontala holatga keltirib ishlatishga e'tibor beriladi?

## **IV b e b. EKISH MASHINALARI**

Yuqori va sifatli hosil olish uchun yerni sifatli tayyorlashning o'zi yetarli emas. Buning uchun, ekinlarning mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos navini yoki ko'chatlarini sifatli ekish talab qilinadi.

Seýalka urug'lar oldindan belgilangan tartibda qatorlab ekiladi. Bu tartib qatordagi urug' uyalari oralig'i s, yondosh qatorlar oralig'inинг kengligi v va urug'larni ko'mish chuqurligi a kabi ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Sifatli ekish va yugori hosil olish uchun ekilayotgan urug' xususiyatlari (deyarli bir xil o'lchamda bo'lishi, unuvchanligi, to'kiluvchanligi, kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlardan tozalanganlik darajasi va boshqalar) ma'lum talablarga javob berishi shart.

To'kiluvchanligini yaxshilash uchun, ayrim urug'lar (masalan, tukli chigit) «drajelanishi» (elimsimon moddalarga yela, urug' sirtini silliqlash) yoki tuksizlantrilishi mumkin. Ekish me'yorini ta'minlashni maqsadida urug'lar kalibrланади (bir xil o'lchamlilari tanlab olinadi).

Unib chiqqan niholni kasallanishdan saqlash maqsadida urug'ga ekishdan oldin kimyoviy moddalar bilan ishlov beriladi yoki boshqa usulda zararsizlantiriladi. Ayrim qobig'i o'ta qattiq urug'lar skarisitsiyalanadi (qobig'i chaqilib eziladi, ichiga namlik kirishiga imkon tug'diriladi). Ekilgan urug'lar tuproq bilan zichlanib ko'miladi, aks holda, ularning g'ovakka tushganlari namlikni shimib ololmasdan unib chiqmasligi mumkin. Ko'pincha urug' bilan bir vaqtida tuproqqa o'g'it ham solinadi (urug'lardan chiqqan ko'chat ildizlari kuymasligi uchun o'g'it ularning yon tomoniga yoki chuquroqqa ko'miladi).

Mazkur bohdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchi respublikamiz qishloq xo'jaligi sohalariда ko'p ishlataladigan don va chigit seýalkalari (modulli, mexanik, pnevmatik) bo'yicha kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Rejalaştirilgan ikkita amaliy mashg'ulot yordamida don va chigit seýalkasini ishiga to'g'ri tayyorlash, sifatli ishlatalish asoslari bo'yicha ko'nikma oladilar.


Seyalkalarni o'rgatishda darslikdan tashqari turli plakatlar, reklama prospektlari, o'quv videofilmlari va boshqa vositalardan keng foydalanish yaxshi sañara beradi.

## 1-6. URUG' EKISH USULLARI

Urug' ekin turi, mahalliy sharoit va agrotexnika talablarini e'tiborga olgan holda seyalka bilan qatorlab, tasmasimon, uyalab, donalab ekiladi. Bu usullarning bi-birdan har bir qatorda joylashtirilgan urug'lar oraliq'i c. qator oraliq'i kengligi  $\sigma$  turlicha bo'lishi bilan farq qiladi.

Ekish usuli va seyalka turi, urug'ning xossalariiga, yerning holatiga va ekinni parvarishlash texnologiyasiga moslab tanlanadi.

Yugori hoslil olishda hat bir ko'chamdi yaxsa oziqlantirish uchun yetadi orichamidagi  $\sigma$ -ni maydoni ajratilishi kerak. Qatorlab ekishda urug'lar parallelt qatorlarga uzluksz taslitab ekiladi ( $\beta = 3^\circ$  a zom). Qatorlar orasi  $s=15$  sm, qatorlardagi urug'lar orasi  $c=1,5-2,0$  sm, ko'nnish chiqqiligi  $a=2-10$  sm bo'ladi. Bu usulda g'alla, sabzavot ekinlari ekiladi. Ayni sharoitlarda g'alla ko'chamdi sonini ko'paytirish, ko'char ildziqlari joylashtib oziqlanadigan maydon to'liburchak emas, balki kvadrat shaklga yaqm bo'lishi ni ta'minlab, hoslidorlikni ko'tarish magsaida don ekinlari qatorlab ( $\sigma=7,5$  sm,  $c=3-4$  sm) ekiladi.



37-rasm. Urug'ni dala maydoni bo'ylab joylashtirish sxemasi:  
a—qatorlab; b—yo'lakchalab; d—keng qatorlab; l—tasmasimon; f—uyalab; g—kvadrat uyalab;  
h—donalab.

**Yo'lakchalab ekish** usuli tuproq eroziyasi kuchaygan yerlarda, donli ekinlar urug'ini ang'iz ustiga hamda piyoz, sabzi kabilarni shudgorlangan maydonga ekishda foydalaniladi. Yo'lakcha o'qlarining oralig'  $e = 25 \text{ sm}$ . (*37-b rasm*).

**Sochib sephis usuli** yaylovlarda pichan uchun ekiladigan ekinlar urug'ini (sholini suv to'ldirilgan maydon (chek)ga samolyot yordamida) ekishda ishlataladi.

**Keng qatorlab ekish** usulida qator oraliplari  $e = 45 - 90 \text{ sm}$  kenglikdagi sug'oriladigan yerlarga urug'lar uzuksiz joylashtiriladi (*37-d rasm*). Bu usulda ekilgan ekin qator oralig'iga ishlov berish imkonи bo'ladi.

**Tasmasimon ekish** usulidan sug'oriladigan dehqonchilikda sabzavot, kanop, ayrim vaqtida chigit ekishda ham foydalaniladi. Har bir tasmani 2—3 satr tashkil qiladi (*37-i rasm*). Tasmadagi qatorlar soni va oralig'i  $v_g$  hamda tasmalar oralig'i  $v$ , ekiladigan ekin xossalari va kultivatsiya qilishni e'tiborga olgan holda tayinlanadi. Aksariyat holda, tasmadagi satrlar oralig'i 5, 8, 10 sm, tasmalar orasi esa kamida 60 sm bo'ladi.

**Uyalab ekishda** keng qatorlab ekishga nisbatan 2—3 barovar kam urug' sarflanib, rejalashtirilgan hosilni olish imkonи bo'ladi (*37-f rasm*). Urug' joylashgan uyalar o'zarо parallel  $v=60 - 100 \text{ sm}$  bo'lgan qatorlarda, keyinchalik yurishi u yerda turli mashinalar yurishi mumkin bo'ladi qilib yasaladi. Qatordagi uyalar orasi ( $c=15 - 30 \text{ sm}$ ) ekin yetishtirish agrotexnikasiga bog'lanib tanlanadi. Bu usulda chigit, makkajo'xori va boshqa ekinlar ekiladi.

**Kvadrat-uyalab ekish** uyalab ekishning bir turi bo'lib (*37-g rasm*). qatordagi uyalar orasi  $s$ , qatorlar kengligi  $v$  ga teng qilinadi ( $\theta=c=70 - 100 \text{ sm}$ ). Bu usulni qo'llash dalani sug'organidan so'ng, uzunasiga hamda ko'ndalangiga kultivatsiyalash hisobiga begona o'tlarga qarshi kurashishda qo'l mehnati sarsini keskin kamaytirishi mumkin.

**Urug'ni donalab ekishda** qatorlar kengligi  $v = 45 - 140 \text{ sm}$  bo'lib, qatordagi urug'lar orasi ( $s = 5 - 20 \text{ sm}$ ) bir-biriga teng bo'ladi (*37-h rasm*). Bu usulda ekin ekilganda urug' tejaladi, qo'l mehnati sarfi kamayib, hosildorlik oshadi.

Agrotexnik talablar. Ekish jarayoni to'ratta asosiy talablarga javob berishi kerak:


- dala maydoniga me'yordagi urug'ni ekish;
- urug'ni maydonga bir tekis taqsimlab joylashtirish;
- urug'ni aniq belgilangan chiqqutlikka ko'mishi kerak;
- ekish jarayonida urug'ni shikastlanfirmastik kerak.

**Ekin hosilli yuqori bo'llishi** uchun har bir o'simlik atrofida uning ildizlari yetarli chirindi-ozuqa ola oladigan maydon be'llishi, ya'ni bir gektardagi o'simlik soni me'yordidan ortiq bo'lmassligi kerak. O'simlik soni esa tuproqning unum dortigiga bog'liqdir.

**Agronom belgilangan me'yorda urug'ni seyalka ±3 foiz aniqlikda ekishi kerak.** Me'yordab airatib olin-gan urug' yetarli maydoni bo'yab bir tekis taqsimlanishi, qo'shni qatorlardagi ekilgan urug' miqdorlari bir-biridan doni ekishda 6 foiz, dukkakli ekinlarni ekishda 10 foiz, chigit ekishda 10 foizdan ortiq farq qilmasligi talab qilinadi. Ekilayotgan urug'ning seyalka qismlari ta'sirida shikastlanishi doni ekishda 0.2 foiz, dukkakli ekin ekishda 0.7 foizdan oshmasligi kerak.

## 2-8. SEYALKALAR TASNIFI

38-rasmida respublikamizda ko'p ishlatalayotgan modulli chigit seyalkasining mehanik (a) va pnevmatik (b) turlari ko'rsatilgan. Uning misolida har qanday seyalkani tashkil qiladigan quyidagi asosiy qismlarni ta'kidlab o'tish mumkin: urug' qutisi 1 ning tubiga o'rnatiladigan miqdorlagich 2, urug' o'tkazgich, ekkich 3 va urug' ko'mgich 4, iztortkich 5 lar (38-rasm).



38-rasm. Modulli chigit seyalkasining umumiy ko'rinishi:

a—mehanik miqdorlagichli; b—pnevmatik miqdorlagichli; 1—urug' qutisi; 2—miqdorlagich; 3—ekkich; 4—kumgich; 5—iztortkich; 6—ventilyator.

Aytalayotgan miqdorlagich qutidagi belgilangan me yordagi urug'ni tizlukstx aflatib olayotgan urug'lar urug' o'tkazgich orqali ekkichga yetib boradi. Ekkich tuproqni yorib, arqacha tayyorlaydi, uning tubini zinchaydi va tushayotgan urug'ni kerakli chuqurlikda joylashtirib, tuproq bilan qisman ko'mib ketadi. Ekkich orqasiga o'rnatilgan ko'mgich (sudralma-zanjir, kurakecha va hokazojarlar urug'ni tuproq bilan to'liq ko'mib, qisman zinchlab ketadi.

Ekinlar turiga qarab chigit, don, makajo'xori, lavlagi, sabzavot, poliz ekinlari urug'ini ekadigan seyalkalar farqlanadi. Shuningdek, seyalkalar faqat bir turdag'i urug'ni ekadigan **maxsus** va bir-biriga o'xshash bir necha turdag'i urug'larni ekadigan **universal** turlarga ham ajratiladi. Ayrim **kombinatsiyalashtirilgan** seyalkalar urug' ekish bilan bir vaqtida mineral o'g'itni ham tuproqqa ko'mib keta oladi. Seyalkalar urug'ni ekish usuliga ko'ra qatorlab, tor qatorlab, uyalab, kvadrat uyalab, donalab, sepib va plyonka ostiga ekadigan, traktorga ulanishiga ko'ra tirkalma va osma turlarga bo'linadi. Don seyalkalari asosan tirkalma bo'lib, maxsus moslama yordamida bir nechta seyalkalardan qamrov kengligi katta bo'lgan agregatlar tuzib yuqori quvvatli traktolarga ulanadi. Katta maydonli dalalarga urug' ekishda aynan shu turdag'i seyalkalardan foydalanish mumkin. O'lchamlari cheklangan maydonlarga ekiladigan ekinlar (paxta, lavlagi, sabzavot) uchun esa osma seyalkalardan foydalangan ma'qul.

## 3-3. MIQDORLAGICHALAR

Miqdorlagich qutidagi urug'ning ma'lum qismini ajratib olib, uni urug' o'tkazgicha tushirib turadi. Ekilayotgan urug'ning dala bo'ylab bir tekis taqsimlanishi miqdorlagichning ishiga bog'liq. Uning mexanik, pnevmatik, pnevmomexanik turlari mavjud.


**Bir gektar maydondagi o'simlik soni me'yorida bo'llishi uchun seyalka ma'lum miqdordagi urug'-ni ekishi kerak.**

**donalab ekadigan seyalkalarda ishlataladi.**

G'altaksimon miqdorlagichlar novli yoki shtift (tish)li turlarga bo'linadi. Shtiftli g'altaksimon miqdorlagich mineral o'g'itlar uchun ishlataladi.

Novli g'altaksimon miqdorlagich universaldir, ular don va sabzavot ekinlari urug'ini tukli chigitni ekadigan seyalkalarda ishlataladi. Bunday apparat novli g'altak 2, to'garakcha 3, tub 1, korpus 4 va musta 5 lardan tuzilgandir (*39-rasm*). G'altak 2 val 6 ga mix bilan mahkamlangan bo'lib, u korpus 4 ning ichiga joylashtiriladi. Korpus 4 esa urug' qutisi tubidagi teshiklar tagiga o'rnatiladi. G'altakning novli tomoni korpus yon devorining ichida erkin aylanadigan to'garakcha 3, silliq dastasimon qismiga esa musta 5 kiydirilgan. Mustaning qovurg'asi korpusning ikkinchi devoridagi o'yiqqa kirib turadi. Val 6 yordamida g'altak aylanganda, uning novli qismi to'garakchani harakatlantirib turadi.

G'altakning silliq qismi qo'zg'almas mustaning ichida aylanadi. Uning diametri g'altakdagi novlarning tashqi diametriga teng bo'lgani uchun g'altakni o'qi bo'ylab to'garakchaga nisbatan surib, korpus ichidagi ishchi qismining uzunligi o'zgartirilsa, g'altak bo'shatgan bo'shligni musta to'liq egallaydi va urug'ning qutidan erkin to'klishiga yo'l bermaydi. Musta g'altakka zinch tegib turishi uchun uning bo'sh qismi val



*39-rasm* G'altaksimon miqdorlagichi:

a—qismalarning ko'rinishi; b—tubni sozlashi sxemasi; 1—tub; 2—novli g'altak; 3—to'garakcha; 4—korpus; 5—musta; 6—g'altak vali; 7—tubni hujadigan val; 8—bolt; 9—sozlovchi bolt; 10—pruina.

6 ga o'matilgan shayba va mixga tirab qo'yilgan. G'altak ishechi qismining uzunligi o'zgartirilsa, novlarning urug'ni ajratib olayotgan hajmi, ya ni, urug' miqdori o'zgardi.

Korpusning pastki ochiq joyini tub 1 yopib turadi. Tub 1 to'kish mehanizmini vali 7 ga bolt 8 bilan mahkamlangan bo'lub, bo'sh tungan uchi qiya kesilgan. Natijada, g'altakdag'i nov qirrasini tiflitsiz kelayotgan urug' tubdan bordinga ushib ketmasdan, oz-ozdan to'kib, ekilayotgan urug'ning yerga to'dalanib tushishning olli olinadi. Tub 1 ning holatini sozlash oclata, sozlovchit bolt 9 va prujina 10 o'matilgan. Agar fasodtlan tubning ustiga yetik hism tushib qolsa prujina 10 stelladi, g'altak bilan tub orasidagi tirkishi kengayib, umi o'tkazib yuboradi va statishdan soylaysdi.

Sirti o'ta silliq bo'lgan urug'ni ekishda tub bilan g'altak orasidagi tirkislardan urug' o'z-o'zidan chiqmasligi uchun, tirkishi 1 - 2 mm dan oshmasligi kerak. Buning bolt 9 bilan prujina 10 urug'ning stellitsi darajastin o'zgartirish orqali etishiladi. Dukkakli ektilar ning yirik urug'ni ekishda tirkishi 8 - 10 mm oshiladi aks holda, urug' stellib shikast lanishi mumkin. Tirkishini kengaytirish uchun val 7 ni birmuncha burih qo'yishi kifoya. Agar g'altak bilan tub orasidagi tirkislardan sirti silliq, ya ni to'kiluvchan bo'lgan urug'ning o'z-o'zidan chiqish xavfi bo'lmasa, g'altak novlari urug'ni tub bo'ylab sidirib chiqaradi, ya ni miqdorlagich «pastdan ajratish» sxemasida ishlaydi. To'kiluvchan urug' chiqish xavfi bo'lsa, g'altak teskarri aylaniriladi; u urug'ni yuqoriga ko'tarib, to'siqdan oshirib, urug' o'tkazgichga tashlaydi. Miqdorlagich «ustidan ajratish» sxemasida ishlab, juda mayda urug'larni ham ekish mumkin.

G'altak ajratayotgan urug'ning miqdori uning qutidagi urug'ga bevosita tegadigan uzunligiga bog'liqidir, g'altak korpus ichiga ko'proq kiritilsa, ajratilib olimadigan urug' miqdori ham ko'p bo'ladi. **Hamma g'altaklar bir xil miqdordagi urug'ni ajaritishi uchun ular ishchi qismining uzunligi bir xil bo'lishi kerak.** Buning uchun g'altaklar val 6 ning dastagi yordamida bir xil masofaga suriladi. Agar alohida bitta g'altakni surish kerak bo'lsa, qutining teshigi (paz) 1 g'altak bo'ylab birmuncha surib qo'yiladi.

**Ekilayotgan urug' miqdorini o'zgartirish uchun, birinchidan, g'altakning ishchi uzunligini, ikkinchidan, uning aylanish tezligini yetaricha o'zgartiriladi.** Ammo, aylanish tezligini tayinlashda, ekiladigan urug'larning siqilishga chidamliligini e'tiborga olish kerak. Urug' kamroq shikastlanishi uchun g'altakning aylanish tezligini minimal, ishchi uzunligini maksimal qilib tayinlash maqsadga muvofiqdir. Bug'doy, arpa kabi urug'larning shikastlanishi 0,3 foizdan, poliz ekinlari urug'i uchun esa bu ko'rsatkich, 1,5 foizdan oshmasligi kerak.

**O'simliklar bir xil ozuqlanishi uchun ekilayotgan urug'ni maydon bo'ylab bir tekis taqsimlash**

**Disksimon miqdorlagich** urug'ni donalab ajratib berishi uchun urug'lar to'kiluvchan, ya ni ularning sirti silliq bo'lishi yoki unga maxsus ishlov berib, sirtini silliqlash (chigit kimyoviy va mexanik usul bilan tuksizlantiriladi yoki yopishqoq modda bilan qoplanadi) talab qilinadi.

Disksimon miqdorlagich asosan vertikal yoki gorizontal o'q atrofida aylanadigan turlarga bo'linadi. Vertikal o'q atrofida aylanadigan diskda urug'ni qutidan donalab olib chiqadigan kataklar yasaladi (*40-rasm*). Miqdorlagich katakchali disk 1, qaytargich 2, tushirgich 3 lardan iborat bo'ladi.

Vertikal o'q atrofida aylanadigan miqdorlagichning ish jarayoni quyidagicha kechadi: vertikal o'qli disk 1, silindrsimon urug' qutisining tubiga yaqin o'rnatilgan bo'lib, urug'lar tagida ularga tegib uzuksiz aylanib turadi. Urug'lar og'irlik kuchi ta'sirida disk kataklariga tushib, ular bilan birgalikda aylanib, qaytargichning tagidan o'tadi. Qaytargichning tishi katakka to'liq tusha olmagan urug'ni ustidan bosib, o'mashtiradi, chala ilingan urug'ni esa sidirib chiqarib tashlaydi. Urug' quti tubidagi darcha ustiga kelganida, tushirgich uni turtib, urug' o'tkazgichga tushirib yuboradi.

**Disk chetidagi kataklar kattaligi** bir yoki bir nechta (2—4) urug'lar sig'adigan tanlanadi. Shu sababli, kataklar kattaligi, **soni va disk diametri, sharoitga qarab, turlicha qabul qilinadi**. Bunday miqdorlagich ajratib beradigan urug' miqdorini kerakli me'yorga keltirish, diskning aylanish tezligi hamda kataklar sonini o'zgartirish (kataklar ustini yopib qo'yish yoki kerakli katakchalar soniga ega bo'lgan diskni tanlash) hisobiga amalga oshiriladi.


**G'altaksimon va disksimon miqdorlagichlar katta tezlikda aylantrilsa, kerakli miqdordagi urug'-ni uzuksiz ajrata olmaydi hamda uning ko'proq qismini shikastlantirib qo'yadi.**

urug'larni ma'lum miqdor va tartibda katta tezlikda ajratib berishi hamda ularni deyarli shikastlantirmasligi bilan ajralib turadi. U vakuum yoki atmosfera bosimiga nisbatan yuqori bosimda ishlashi mumkin.

**Katta tezlikda ishlatishga mo'ljallangan serunumli ekish agregatlarida pnevmatik miqdorlagichlardan foydalaniлади.**

Vakuum 1 kameralari disk tekisligining qarama-qarshi tomonlarida joylashtirilgan. Vakuum kamerasi disk tekisligini to'liq goplamasdan, diskning faqat taqa shaklidagi chet qismigagina zinch tegib turadi (sxemada uning chegarasi punktir chiziq bilan ko'rsatilgan). Shunday qilib, diskning pastki bo'lagi vakuum kamerasiga tegmasligi tufayli, u yerdagи teshiklar atmosfera bosim ostida bo'ladi. Vakuum kamerasidan havoni maxsus ventilator quvurcha 8 orqali uzuksiz so'radi.

Miqdorlagichning ish jarayoni quyidagicha o'tadi. Qutidagi urug'lar tarqatish kamerasiga uzuksiz tushib turadi. Ularni to'zitkich sochib turishi sababli, diskdagи hat bir teshikka bittadan urug' so'rilib, yopishib qoladi. Teshiklarga ilashgan urug'lar disk bilan birgalikda yuqoriga ko'tarilib, teshikka yopishmagan urug'lar qaytargich 7 ta'sirida qidirilib olib qolinadi. Yopishib qolgan urug'lar disk bilan birgalikda pastdagi vakuumi



40-rasm. Disksimon miqdorlagich:  
1-katakchali disk; 2-qaytargich;  
3-tushirgich; 4-urug' qutisi; 5-tarqatish nov.


Diskdagi katakcha ekilayotgan urug'ni bir donasi sig'adigan qilib yasaladi. Bir gektar maydonga mo'ljallangan me'yordagi urug'ni ekish uchun diskning aylanish tezligi o'zgartiriladi hamda katakchalar soni har xil bo'lgan disklar tanlanadi.

**Pnevmatik miqdorlagich urug'** qutisidagi urug'larni ma'lum miqdor va tartibda katta tezlikda ajratib berishi hamda ularni deyarli shikastlantirmasligi bilan ajralib turadi. U vakuum yoki atmosfera bosimiga nisbatan yuqori bosimda ishlashi mumkin.

**Vakuum yordamida ishlaydigan miqdorlagich** (41-rasm) korpus 4, disk 2, vakuum kamerasi 1, to'zitkich 3, qaytargich 7, bunker 6 va tarqatish kamerasi 5 dan tuzilgan. Disk 2 ning chetida urug'larni so'rib oladigan teshik 9 lar yasalgan. Tarqatkish 5 va

vakuum 1 kameralari disk tekisligining qarama-qarshi tomonlarida joylashtirilgan. Vakuum kamerasi disk tekisligini to'liq goplamasdan, diskning faqat taqa shaklidagi chet qismigagina zinch tegib turadi (sxemada uning chegarasi punktir chiziq bilan ko'rsatilgan). Shunday qilib, diskning pastki bo'lagi vakuum kamerasiga tegmasligi tufayli, u yerdagи teshiklar atmosfera bosim ostida bo'ladi. Vakuum kamerasidan havoni maxsus ventilator quvurcha 8 orqali uzuksiz so'radi.

Miqdorlagichning ish jarayoni quyidagicha o'tadi. Qutidagi urug'lar tarqatish kamerasiga uzuksiz tushib turadi. Ularni to'zitkich sochib turishi sababli, diskdagи hat bir teshikka bittadan urug' so'rilib, yopishib qoladi. Teshiklarga ilashgan urug'lar disk bilan birgalikda yuqoriga ko'tarilib, teshikka yopishmagan urug'lar qaytargich 7 ta'sirida qidirilib olib qolinadi. Yopishib qolgan urug'lar disk bilan birgalikda pastdagi vakuumi



41-rasm. Pnevmatik urug' miqdorlagich:

1—vakuum kamerasi; 2—disk; 3—to'zitkich; 4—korpus; 5—tarqatish kamerasi; 6—bunker; 7—qaytargich; 8—quvurcha; 9—urug' so'radigan teshik.

yo'q bo'lgan joyga kelganida, o'z og'irligi bilan tushib ketadi.

Urug'ni qutidan ajratib olish tarbi va miqdorini o'zgartirish uchun teshiklari kerakli tartibda joylashtirilgan diskni tanlash va uning aylanish tezligini o'zgartirish kerak.

**Pnevmomexanik miqdorlagichlar** keng tarqalgan bo'lib, boshqa miqdorlagichlarga kabi har bir ekin qatoriga bittadan o'rnatilmasdan, bir nechta (24 tagacha) qator uchun ekiladigan urug' (yoki o'g'it) miqdorini bir joyda ajratib olib, keyin uni havo naycha yordamida har bir qatorga taqsimlab beradi.


#### 42. OTKAZGICHLAR

Urug' o'tkazgichlar miqdorlagich tushirayotgan urug'ni ekkichga yetkazadi. Ular uzatiladigan urug'ni to'kiluvchanligi hamda miqdorlagichga nisbatan ekkichning yon tomoniga surilgan oralig'iga qarab, turlichalbo'ldi. Uzatilayotgan urug'larni urug' o'tkazgich uzlusiz ravishda (tiqilmasdan) tushirishi kerak. Urug' o'tkazgichlarni tasmaspiralsimon, naysimon, novsimon, burmalangan, sim-spiralli, teleskopik va boshqa turlari mavjud (42-rasm).

**Tasma-spiralsimon urug' o'tkazgich** keng tarqalgan bo'lib, ish jarayonida yon tomonlarga tebranishga, surilishga yaxshi bardosh beradi, ichida urug'lar tiqilib qolmaydi (42-a rasm). Lekin qimmat, bo'lib, buzilsa tiklashning deyarli iloji yo'q.

**Naysimon urug' o'tkazgich** plastmassa yoki rezina aralashgan matodan tayyorlanadi, ular yetarli darajada egiluvchan, arzon bo'ldi (42-b rasm). Ammo tez to'zib, ishga yaroqsiz bo'lib qoladi, bukilsa urug'ni o'tkazmay qo'yishi mumkin.

**Tarnovsimon urug' o'tkazgich** bir-biriga zanjir bilan ulangan tarnovlardan tuzilgan (42-d rasm). Ish jarayonida tarnovlar bir-biriga urilib, titrashi hisobiga urug'lar tiqilib qolmaydi. Ammo, ujarni vertikal holatidan burib qo'yish mumkin emas. Bunday urug' o'tkazgichlar to'kiluvchanligi kam bo'lgan urug'larni hamda o'g'itni uzatishga mo'ljallangan.



42-rasm. Urug' o'tkazgichlar:  
a — spiralsimon; b — naysimon;  
d — tarnovsimon; e — burmalangan; f — sim spiralsimon.

**Burmalangan urug'** o'tkazgich rezinadan quyilib tayyorlanadi, boshqalariga nisbatan universal (42-*i rasm*). Lekin haroratning o'zgarishi unga salbiy ta'sir qiladi.

**Sim-spiralsimon urug'** o'tkazgi egiluvchan, mustahkam, amro og'ir, bukilgan joylarida tirqish paydo bo'ladi, u yerga kirib qolgan urug' siqilib, shikastlanishi mumkin (42-*f rasm*). Narxi ham qimmat.

Ekkich tayinlangan chuqurlikdagi ariqchani qazib, u yerga urug' o'tkazgichdan tushayotgan urug'ni joylashtiradi va mayin tuproq bilan qisman ko'madi. Ishni bajarisliga qarab, ekkichlar sirpanuvchi va ymalovchi turlarga bo'linadi. Sirpanuvchilarga: omochtishsimon, yorgichsimon, sirpang'ichli, quvursimon, ymalovchi turiga disksimon ekkichlar kiradi. Sirpanuvchi ekkichning tumshug'i tuproqqa o'tkir, to'g'ri va o'tmas burchak ostida botishi mumkin. Tumshug'i o'tkir burchakli ekkich tuproqni pastdan yuqoriga siljitali, ariqcha tubini yumshatadi. O'tmas tumshuqli ekkich esa, tuproqni yuqoridan pastga qarab siljiti zichlaydi. To'g'ri tumshuqli ekkich ariqcha tubini zichlamaydi, tuproqni yon tomonlarga surib ketadi.


**Urug'lar behato unib chiqishi uchun ularni optimal chuqurlikka ekip, mayin tuproq bilan ko'mish kerak.**

**Omochtishsimon ekkich**, asosan don seyalkalari-da ishlataladi (43-*a rasm*). Bunday ekkich yaxshi yumshatilgan, mayin tuproqli, o'simlik qoldiglari bo'Imagan yerlarda qo'llaniladi. U tumshuq 1, tarnov 2 va xomut 3 lardan iborat. Omochtishsimon ekkich

qurg'oqchil mintaqalarda foydalanimagani ma'qul. Chunki u tuproqning nam bo'lgan pastki qatlarni yer yuzasiga chiqarib tashlaydi. O'simlik qoldiglari unga ilinib, to'planib qolishi mumkin. Ekkichning tuproqqa botish chuqurligini (4—7 sm) xomut 3 ga osilib qo'yiladigan yuk miqdorini o'zgartirish bilan sozlanadi.

**Yorgichsimon ekkich** zig'ir, pichanbop o'siliklarning urug'ini ekishda ishlataladi (43-*b rasm*). U o'simlik qoldiglарини pastga bosib o'tadi, tiqilib qolmaydi. Ayrim kesakchalarni maydalaydi, ammo yirik kesaklarni uchratsa, ularning ustiga (siljib chiqib) urug'ni ekish chuqurligini kamaytirishi mumkin. Shu sababli, bunday ekkichli seyalka ishlatalishga mo'ljalangan daladagi tuproq o'ta mayin holatga keltirilgan bo'lishi kerak. Yorgichsimon ekkich o'tkirlangan qirrali tumshuq 1, kengaytirilgan tarnov 2 va xomut 3 dan iborat. U tuproqni yuqoridan pastga bosib, ariqcha tubini zichlaydi. Zichlangan yerdagi kapillyarlik tiklanib, tuproqning chuqur qatlamiagi namlik ko'tariladi va urug'ning unib chiqishini tezlashtiradi. Shuning uchun yorgichsimon ekkichtarni qurg'ochilik mintaqalarida ishlatalish maqsadga muvoziqdir. Ekkichning tuproqqa botishi (1—6 sm) xomut 3 ga ilintiriladigan yuk (zanjur) miqdorini o'zgartirishi hisobiga sozlanadi.

**Sirpang'ichli ekkich** chigit, makkjo'xori, lavlagi, sabzavot, ayrim poliz ekinlari urug'larini ekishda ishlataladi (43-*d rasm*). Sirpang'ichli ekkich katta pichoqsimon tishining orqasi kengayib, bir-biriga parallel bo'lgan ikkita uzun jag'larga 7 aylantrilgan. Sirpang'ichli ekkich ishqalanish koefitsienti katta bo'lgan (misol uchun, tukli chigit)



**43-rasm. Ekkichlar:**

a—omoch tishsimon; b—yorgichsimon; v—sirpang'ichli; g—o'q-yoy tumshuqli; d—diskli. 1—tumshuq; 2—tarnov; 3—xomut; 4—ko'krak; 5—o'q-yoysimon tish; 6—disk; 7—jag'lar; 8—pichoq; 9—chuqurlargich; 10—sirpang'ich.

urug'larini ham yaxshi ko'mib ketadi. Chunki pichog'i 8 tilib, ikki tomonga surib qo'ygan tuproqni ekkichning uzun jag'lari to'siq bo'lib uzoqroq ushlab turadi. Natijada, pichoq tayyorlagan ariqchaning tubiga hamma urug'lar joylashib ulguradi.

**Qimmatroq bo'lgan sirpang'ichli ekkich kesaklarni chetga sidirib qo'yib, tuproqning maydalangan qismiga urug'ni sifatli ko'mish imkonini beradi.**

tashlangan chigitni ustidagi tuproqni bosadi.

Urug'ni 2—12 sm chuqurlikka ko'mish uchun (chigit seyalkasida) sirpang'ich jag'-larga nisbatan past-yuqoriga surib qo'yiladi yoki (makkajo'xori seyalkasida) g'ildirakcha balandligi o'zgartiriladi.

**O'q-yoy tumshuqli ekkich** shamol eroziyasiga uchragan tuproqli yerlarda, ishlov berilmagan ang'iz don urug'larini ekishda qo'llaniladi (43-g rasm). Bunday ekkich bir vaqtida urug' ekiladigan ensiz joydagи tuproqni yumshatib, begona o'tlarni kesib yo'qotadi, urug' ekadi va o'g'it soladi. Ekkich tumshuq 1, tarnov 2 va o'q-yoysimon tish 5 dan iborat.

**Bir diskli ekkich** don urug'larini ishlov berilgan va ishlov berilmagan ang'izli ekishda ishlatiladi (*43-rasm, f*). U sferik disk 6 va tarov 2 dan iborat. Sferik disk tuproqni yumshatib, urug' uchun joy tayyorlaydi. Quvur diskka qanchalik yaqin o'matilsa, urug'lar shunchalik kam sochilib, ensiz qatorga to'kiladi. Bir diskli ekkich qo'sh diskliga nisbatan yerga chuqur botadi, o'simlik qoldiqlarini to'liq kesadi va yopishib qolgan nam tuproqdan o'zi tozalanadi. Shu sababli, bunday diskning qattiq tuproqli, o'simlik qoldiqlari ko'p va nam yerlarda ishlatilishi maqsadga muvofiqdir. Ammo, urug'larni bir xil chuqurlikda ko'mish ko'rsatkichi qo'sh diskli ekkichga nisbatan pastr.

**Arzonroq bo'lgan diskli ekkich** daladagi kesaklarni kesib o'tayotib maydalaydi va urug'nini ko'mib ketadi.

**Qo'sh diskli ekkich** don urug'ini ekish uchun ishlatiladi. Disklar seyalka yurish tomoniga bir-biriga 10° burchak ostida o'matilgan. Disklar bir-biriga horizontal diametrдан birmuncha past, ammo dala yuzasidan yuqori joyda tutashtirilgan. Aks holda,


disklar tutashgan joyga tuproq tiqilib qolishi mumkin. Ish jarayonida, disklar aylanayotib tuproq va o'simlik qoldiqlarini kesadi, ponaga o'xshab ularni ikki chetga suradi va ariqcha tayyorlaydi.

Tor qatorli don seyalkalariga o'matilgan qo'sh diskli ekkichning disklari kattaroq (18°) burchak ostida o'matilgan va ular tutashadi. Natijada, har bir disk o'zi ariqcha ochadi, ariqchalar o'rtasida tuproq do'ngchasi hosil bo'ladi. Urug'lar har bir ariqchaga alohida yo'l bilan kelib tushadi.

**Disksimon ekkichlar** omochtishsimonga nisbatan murakkab va sudrashga qarshiligi ko'p. Ammo, ular serkesak, o'simlik qoldiqlari ko'p bo'lgan yerlarda yaxshi ishlaydi. Aylanish jarayonida yopishgan nam tuproqdan tozalanib turadi. Disksimon ekkichlarda urug'ni ekish chuqurligi ularni yerga bosib turadigan jilovlar prujinasining siqilishini o'zgartirish hisobiga sozlanadi.

Ekilgan urug' ustiga tuproqning tabiiy to'kilishi tufayli u qisman ko'miladi. Urug'ning bunday ko'milishi to'liq unib olishi uchun yetarli emas. Urug'ni sifatli ko'mish maqsadida seyalkalarga maxsus: shleyf (sudraluvchi zanjir), tirmacha, kurakcha, g'ildirakcha va disksimon ko'mgichlar o'matiladi.

**Shleyf** yengil va o'rtacha yengil tuproqli yerlarda, don urug'larini ko'mish uchun ishlatiladi (*44-a rasm*). Zanir 1 bilan o'zaro ulangan bir necha halqa 2 lardan tashkil topgan. Shleyf yerda erkin sudralib, tuproqni sidiradi va ariqcha tubida yotgan urug'larni ko'madi. U ensiz ariqchalardagi urug'larni ham ko'madi.



*44-rasm. Urug' ko'mgichlar:*

a—shleyf; b—kurakchasiy; c—disksimon; 1—zanir; 2—halqa; 3—g'ildirakcha; 4—kurakcha; 5—disk.


**Kurakchasiimon ko'mgichlar g'ildirakcha oldiga o'rnatilib lavlagi, chigit ekish seyalkalarida urug' ekishga ochilgan ariqchani ko'mish uchun ishlataladi (44-b rasm).**  
**Disksimon ko'mgichlar tugunaklarni chuqur ko'mish uchun ishlataladi (44-d rasm).**  
 Chigit seyalkalarida ekilgan urug'ni sifatli ko'mishga katta ahamiyat berilib, bir necha texnologik jarayon bajariladi. Masalan zichlagich chigit seyalkalarida ekkich ochgan ariqcha tubini zichlab, bevosita chigit yotqiziladigan joyni tayyorlaydi.

#### 4-6. UNIVERSAL SEYALKALAR

Don va dukkakli ekinlar urug'ini qatorlab, tor qatorlab ekish bilan bir vaqtida yerga o'g'it solish uchun universal seyalkalardan foydalaniлади.

**Universal don seyalkasining** namunaviy sxemasi 45-rasmida tasvirlangan. Ubug'doy, arpa, suli, savsar, no'xat, loviya, soya, grechixa, tariq va boshqa ekinlarning urug'ini qatorlab ekish bilan bir vaqtida mineral o'g'it ham solib ketadi. Seyalka rama 7, urug' traktorga ulash moslamasi 9, urug' qutisi 1, urug' 2 va o'g'itiga miqdorlagich 4a, urug' o'tkazgichlar 3, qo'sh diskli ekkichlar 4, sidirib ko'mgich 5, pnevmatik g'ildirak 6, ekkichlarni ko'tarish mexanizmini gidrotsilindri, harakatni g'ildirakdan miqdorlagichlarga uzatadigan mexanizm, seyalka ishini nazorat qiluvchi tuzilmadan iborat. Ekkichlari ikki satrlab o'rnatilganligi tufayli ularning orasi o'simlik qoldiqlari va tuproq tiqilib qolmaydi. Ekkichlarni yerga botishi bosuvchi prujinalarning siqilish darajasini o'zgartirish hisobiga sozlanadi.

Seyalkaning texnologik ish jarayoni quyidagicha bajariladi. Urug' va o'g'it qutilari 1 dan miqdorlagichlar 2 yordamida kerakli me'yorda ajratilib, urug' va o'g'it o'tkazgich 3 ga tashlanadi va ekkich 4 orqali tayyorlagan ariqcha tubiga borib tushadi. Tuproqning pastga erkin siljishi hisobiga urug' qisman ko'miladi. Urug'larni batamom ko'mish jarayonini ko'mgich 5 tugatadi.




45-rasm. Universal don seyalkasining sxemasi:

- 1—don va o'g'it qutisi; 2, 2a—urug' va o'g'it miqdorlagich;
- 3—urug' va o'g'it o'tkazgich; 4—qo'sh diskli ekkich; 5—ko'mgich;
- 6—g'ildirak; 7—rama; 8—gidrotsilindr; 9—tirkash;
- 10—jilov; 11—jilov prujinasi.

**Don seyalka-kultivatori** ishlov berilmagan ang'izda faqat urug' ekladigan yo'lakchalarga ishlov berib, urug' ekib, o'g'it soladi va zichlaydi (46-rasm). Ang'izning 70 foizdan ortiq qismi saqlab qolinishi sababli, kuchli shamolning yosh nihollarga ta'siri keskin kamayadi.

Seyalka-kultivator rama 5, oлdingi pnevmatik g'ildirak 2 va orqadagi zichlovchi g'ildirak 9, urug' va o'g'it qutisi 7, urug' va o'g'it uchun miqdorlagichlar, urug' o'tkazgichlar, o'q-yoysimon tumshuqli ekkich 1, miqdorlagichni harakatlantiruvchi mexanizm, gidrotsilindr 8 yordamida ekkichlarni ko'taradi.



46-rasm. Seyalka-kultivatorning sxemasi:


1—ekkich; 2—g'ildirak; 3—tirkagich; 4—tayanch g'ildiragini sozlovchi o'q; 5—rama;  
6—tortqi; 7—urug' qutisi; 8—gidrotsilindr; 9—zichlovchi g'ildirak;

gan mexanizm, tirkagich 3 lardan tuzilgan. Seyalka 22—25 sm kenglikdagi yo'lakchaga urug' eksa, ularning orasida ishlov berilmagan 10 sm yo'lakcha qoldiriladi. Ekkichlarning tuproqqa botish chuqurligi gidrotsilindr shtogidagi halqani siljitim hamda tortqi 6 ning uzunligini o'zgartirish hisobiga sozlanadi.

**Pnevmatik seyalkalar** ikki turda yasaladi. Birinchisida pnevmatik miqdorlagichlar har qator uchun o'rnatilgan bo'lib (38-rasm), ular bevosita me'yorlashni ta'minlab beradi. Ikkinchisi esa, 47-rasmdagi sxema bo'yicha, ya'ni ko'p qatorli seyalka uchun, ekladigan jami urug'ni bir joyda me'yorlab, uni keyinchalik hamma ekkichlarga bir tekis taqsimlaydi va ularga pnevmatik vosita yordamida yetkazib beradi. Ikkalasida ham seyalkaning ta'sirida urug'ning shikastlanishi (an'anaviy mexanik miqdorlagichli seyalkaga nisbatan) keskin kamayadi. Pnevmatik seyalkada katta tezlikda ham urug'larni hexato ekib, serunumli agregat tuzish mumkin.

Me'yorlangan urug'ni ekkichlarga pnevmatik vosita bilan yetkazadigan tirkalma seyalka bunker 2, miqdorlagich 4, ventilator 12, taqsimlagich 1, urug' o'tkazgich 5 va 7 lar, ekkich 9, ko'mgich 8, g'ildirak 11 lardan tuzilgan (47-rasm). Bunday seyalkalar bir nechta modullardan yig'ilib, ularning qamrov kengligi 5—15 m gacha o'zgarishi mumkin.

Seyalka markazidagi bunker 2 ning ichiga to'zitkich 3 va miqdorlagichga yirik jism-larni tushirmaydigan to'r o'rnatilgan.



47-rasm. Urug'ni havo yordamida taqsimlash sxemasi:

1—taqsimlagich; 2—bunker; 3—to'zitkich; 4—miqdorlagich; 5—bosh urug' o'tkazgich; 6—soplo; 7—yakka ekkichning urug' o'tkazgichi; 8—ko'mgich; 9—ekkich; 10—drossel to'sqichi; 11—g'ildirak; 12—ventilator.

oqimi bilan ekkichlarga yetkaziladi va tayyorlangan ariqcha tubiga tushirib tuproq bilan ko'miladi. Bunday seyalkalar universaldir, chunki hamma turdag'i don ekinlari, sabzavot, paxta, sorgo urug'lari ekilib, granulalangan o'g'it, zaharli kimyoviy moddalarni ham yerga solishi mumkin.

Urug'ni me'yorlash uchun seyalkaga katta o'l-chamdag'i novli g'altaksimon miqdorlagich 4 o'matilgan. Ventilator 12, bosh quvur 5 va bevosita taqsimlash vositasi hamda shlangasimon egiluvchan o'g'it o'tkazgichlarni taqsimlagichga ulash uchun mundshtuklar o'rnatilgan. Mundshuk va urug' o'tkazgichlar soni sekiyalardagi miqdorlagichlar soniga tenglashtiriladi. Bunday seyalkaning ish jarayoni quyidagicha boradi. Bunker 2 dagi urug'lar to'zitkich 3 yordamida miqdorlagich 4 ga uzlusiz tushurilib turiladi. G'altak esa, hamma qatorlar uchun yetarli miqdordagi urug'larni ajratib olib, bosh quvur 5 ning ichiga tashlaydi. Ventilator 12 hosil qilayotgan havo oqimi urug'larni bosh quvur 5 orqali taqsimlagich 1 ga olib keladi. Bosh quvur bo'ylab harakatlanayotgan havo oqimining tezligi ( $27-68 \text{ m/s}$ ) uning ichidagi drossel to'skich 10 yordamida sozlanadi. Bosh quvurning ichiga g'altakdan urug' tushadigan joyiga soplo 6 o'rnatilgan. Uning ko'ndalang kesimi bosh quvurnikiga nisbatan kichik bo'lganligi sababli, u yerdagi havo tezligi ortib, bosim pasayadi. Natijada, g'altak ajratib bergen urug'lar tez so'rib olinadi. Bosh quvurning ustki qismi burmalangan bo'lib, uning ichki yumshoq devorlariga ko'p marta urilgan urug'lar harakati sekinlashib, bir tekis oqimga aylanadi va taqsimlagichga yetib boradi. Urug'lar taqsimlagich ichidagi konusning cho'qqisiga urilishi natijasida bir tekis sochilib, urug' o'tkazgichlarga bir xil taqsimlanadi va ular orqali  $3-5 \text{ m/s}$  tezlikdagi havo

Don mustaqilligiga erishgan respublikamiz g'allachiligidini yanada rivojlantirishning intensiv yo'llaridan bir hosildorlikni oshirish bo'lib, bu urug'ni sislatli ekishga bog'liq. Agar bu ishni bajaradigan seyalka to'g'ri sozlanib, mahalliy sharoitlarga moslab ishlatsa, birinchidan, ayni kunga nisbatan urug' sarfi  $50-60$  foizga kamayadi, ikkinchidan, o'simlik tuplari oziqlanishi uchun yetarli va bir xil maydonga joylashtirilib hosildorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu sababli o'qituvchi don seyalkasini ishga to'g'ri tayyorlash bo'yicha amaliy mashg'ulotni sislatli o'tkazishga yetarli e'tibor berishi kerak.

**Mashg'ulotni o'tkazishdan maqsad:** don seyalkasi miqdorlagichlarini bir xil miqdorda urug' ajratadigan qilib o'rnatib, seyalkani bir gektar maydonga berilgan urug'ni ekadigan qilib sozlash va belgilangan chuquriikka ko'mishni ta'minlash maqsadida bajariladigan ishlarning mohiyati bo'yicha talablarga bilimlar asosini berish va bunday ishlarni muayyan seyalka uchun amalda bajarish ko'nkmalarini shakllantirishdir.

### **Mashg'ulot uchun kerakli bo'ladijan jihozlar.**

Don seyalkasi va uni agregatlay oладиган трактор; тарози; халтачалар; рулетка; линейка; гайка калилари комплекти; кимыови ишлов берилмаган дон уруг'и (30 кг); дарсликдан ташқари ма'lумотлара манбалари reklama проспектлари, плакатлар, о'кув видеосериаллари), сеялканинг уруг'ни екиси сифатини (ко'mish chuqurligini) aniqlash uchun 5x20 m o'lchamdag'i yer maydoni; 20 kg mineral o'g'it.

**Mashg'ulot o'tkazish tartibi.** O'qituvchi o'quvchilarga mashg'ulot uchun rejalash-tirilgan ishlarning mohiyatini tushuntirib, ularni bajarish tartibini ko'rsatadi.

O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va ularga individual topshiriq beriladi. Binichi guruhga sejaikaning hamma miqdorlagichlarini bir xil urug' ajratadigan qilib sozlash; ikkinchi guruh sejaalka bir gektar maydonga tayinlangan miqdordagi urug'ni ekadigan qilib sozlash; uchinchi guruh sejaikaning hamma ko'mgichlari urug'ni bir xil chuqurlikka ko'madigan qilib sozlash; to'rtinchchi guruhga — sejaalka miqdorlagichlarini biror holatda o'rnatib, bir gektarga ekilayotgan urug' miqdorini dala sharoitida aniqlash topshiriqlari beriladi. Keyinchalik guruhlar o'z joylarini almashtirib, yuqoridaq to'rtta topshiriqni navbatma-navbat bajaradi va tegishli hisobot tayyorlaydi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish davomida o'zaro fikr almashib, qilinayotgan ishlarning mohiyatini tushunishga bir-birlariga yordam berishadi.

### **O'qituvchi o'quvchilarga quyidagilarni tushuntiradi.**

Universal sejaalkani ishga tayyorlash. Ekin ekish uchun dalaga chiqarishdan oldin sejaalka ishchi qismlari va mexanizmlarining texnik holati, ekkichlarning to'g'ri joylashtirishi, miqdorlagichlarning belgilangan urug' me'yorini ajratishi va ularning hammasini bir xil ishlashi tekshiriladi. Iztortkich uzunligi va urug'ni ko'mish chuqurligi tegishlichcha o'rnatiladi. Miqdorlagich, urug' o'tkazgich va ekkichlarning sozlanishiga alohida e'tibor berish kerak. G'altaklarining to'garakchalar bilan birga erkin aylanishini, qo'l bilan sozlanadigan tutqichni burganda, g'allar kiydirilgan val erkin surilishini ta'minlash kerak. Bukilgan, pachooq bo'lgan, yirtilgan urug' o'tkazgichlardan foydalanish mumkin emas. Ekkichlardagi disklar tutashgan joyda ular orasidagi tirkish 1,5 mm dan ortiq bo'lmasin. Ekkich disk tig'inining qalinligi 0,5 mm dan ko'p bo'lmasligi kerak.

**Ekkichlarni joylashtirish.** Maxsus taxtada ekkichlarni biri-biriga nisbatan bir xil masofada joylashtirish tartibi chiziladi va u ekkichlar tagiga yotqiziladi.

**Miqdorlagichlarni bir xil me'yorga o'rnatish.** Sozlovchi tutqich yordamida hamma g'altaklar korpus ichiga maksimal kiritiladi. Ularning cheti to'garakcha bilan bir teklislikda yotishi kerak. Agar birorta g'altak to'garakchadan 1,0 mm ga farq qilsa, shu miqdorlagichning korpusi bunkerga nisbatan tegishli tomonga surib mahkamlanadi. Mustaning qobirg'asi bilan tub orasidagi tirkish tekshiriladi va sozlanadi. Mazkur tirkish don ekinlari urug'lari uchun 1—2 mm, no'xat kabi yirik urug'lar uchun 8—12 mm qo'yiladi. Hamma miqdorlagichlar bir xil miqdordagi urug'ni ajratib olishini tekshirish

uchun seyalka g'ildiragi yerdan birmuncha ko'tarib qo'yiladi, hamma miqdorlagichlar dan urug' o'tkazgichlar ajratilib, ularga xaltachalar kiydiriladi. G'ildirakni qo'l bilan 10 marta aylantirib to'xtatiladi. Har bir miqdorlagich me'yorlab bergen urug' massasi  $m_i$ ,  $m_1, \dots, m_n$  ( $n = 1, 2, 3, \dots$ ) tarozida o'lchanib, aniqlanadi:

$$\bar{m} = \frac{m_1 + m_2 + m_3 + \dots + m_n}{n}$$

Miqdorlagichlar urug' me'yorlashining farqlanish koefitsienti bilan aniqlanadi:

$$\Phi = \frac{100}{\sum_{i=1}^n (m_i - \bar{m}) / \sum_{i=1}^n m_i, \%}$$

bu yerda:  $n$  — miqdorlagichlar soni;

$m_i$  — ( $i=1, 2, 3, \dots, n$ ) tartib raqamli miqdorlagich ajratib bergen urug' miqdori;

Don ekinlari urug'i uchun  $\sum \leq 6\%$  bo'lishi lozim.

**Seyalkani ekish me'yoriga sozlash** agregatni dalaga chiqarishdan oldin bajariladi.

Seyalka g'ildiraklari yerdan ko'tarib qo'yiladi. Qutiga urug' solinib ekkichilar tagiga brezent to'shaladi. G'ildirakdagagi harakat uzatish nisbati va g'altakning ishchi uzunligini bir gektarga urug' ekishning belgilangan me'yoriga qarab jadval bo'yicha o'rnatiladi. G'altakning ishchi uzunligini maksimal, harakat uzatish nisbati minimal bo'lgani tavsya qilinadi, chunki bu holda urug'lar kamroq shikastlanadi.

G'ildirakning aylanish tezligi seyalkani ishchi tezligiga moslab, n marta aylantiriladi. Brezentga to'kilgan urug' massasi  $M_a$  aniqlanadi.

Keyin, g'ildiragi n marta aylantirilganida seyalka miqdorlagich ekishi kutilayotgan urug' miqdori  $M_h$  hisoblanadi:

$$M_h = \pi D n B_i Q / 10^4 \varepsilon$$

bu yerda:  $D$  — seyalka g'ildiragining diametri,  $m$ ;  $n$  — g'ildirakni aylanish soni;  $B_i$  — seyalkaning ishchi qamrov kengligi,  $m$ ;  $Q$  — bir hektar yerga agronom tayinlagan urug' miqdori, kg/ha;  $\varepsilon$  — seyalka g'ildiragining sirpanish koefitsienti ( $\varepsilon = 0,90—0,95$ ).

$M_a$  va  $M_h$  miqdori o'zaro solishtiriladi. Agar  $100(M_a - M_h) / M_h \leq \pm 3\%$  bo'lsa, sozlanish tugatiladi. Aks holda, seyalka yana takrorlan sozlanadi.

**Dalada urug' ekish me'yorini tekshirish.** Bunkering 1/3 qismi urug' bilan to'ldirilib, tekislanaadi va uning sathi devorda bo'r bilan belgilanadi. Uning ustiga qo'shimcha  $M$  kg urug' solinadi va shu miqdordagi urug' ekilishi lozim bo'lgan yo'l / hisoblab (agregat qamrov kengligi  $B_i$  ma'lum) chiqiladi:

$$I = 10^4 M / Q B_i$$

Agregat  $I$  yo'l bosib o'tgandan keyin to'xtatiladi, devordagi belgiga nisbatan urug' sathi qanday o'zgarganligi aniqlanadi va tegishli chora ko'riladi.

**Dala sharoitida seyalka ekayotgan urug' miqdorini aniqlash.** O'quvchi bunday topshiriq tezligini ixtiyoriy holatga keltirib qo'yadi.

O'quvchilar seyalka bunkerini 3/1 qismigacha urug' solib, ustini tekislab, sathini bo'r bilan bunker devorchasida belgilab qo'yadilar. Uning ustiga qo'shimcha  $M$  (misol

uchun 3 kg) miqdordagi urug' solinib, yana tekislanadi. Seyalka orqasida kuzatuvchi uchun qo'yilgan narvonda turgan o'quvchi bunker devoridagi chiziq ko'ringanda agre-gatni to'xtatish to'g'risida buyruq beradi. Agregat bosib o'tgan yo'l L o'lchanadi va quyidagi formula yordamida bir gektarga ekiladigan urug' miqdori aniqlanadi:

$$Q = 10^4 M/B \cdot l, kg/ga.$$

Agar  $Q_1$  kutilgan Q dan farq qilsa, tegishli sozlanishlar o'zgartiriladi.

Urug'ni ko'mish chuqurligini aniqlash. Don seyalkasiga o'rnatilgan urug' ekkichlarning tortqilari 10 ga (*45-rasm*) o'rnatilgan jilovlar 11 dagi prujinalarning siqilish kuchi ta'sirida disklarning yerga botish chuqurligi ta'minlanadi. Prujina ko'p siqilib qo'yilsa, disk urug'larni chuqurroq ko'madi. Prujinaning siqilish darajasini urug' ekilayotgan yerdagи tuproqning xossalariغا moslab o'rnatish lozim: yumshoq joyda prujina kuchini kamaytirish, qattiq, serkesak yerlarda ko'paytirib qo'yish kerak.


Hamma ekkichlardagi prujinalar bir xil darajada siqilgan bo'lishi lozim. Tajriba dalasida biror holatdagi prujinalar ta'sirida urug' ko'milgan o'rtacha chuqurlik o'lchab aniqlanadi va o'qituvchi bergen topshiriq bilan solishtiriladi. Farqi katta bo'lsa, tegishli o'zgartirishlar qilinadi.

**Sabzavot seyalkasi.** Sabzavot urug'lari keng qatorlab, tasmasimon, donalab va uyalab ekiladi. Zamonaviy seyalka qatorlab ekishda qator oralig'i 45, 60 va 70 sm, ikki satrli tasmasimon ekishda 8+62 sm (8 sm – satrlar oralig'i, 62 sm – tasmalar oralig'i), 20+50, 50+90, 40+100 va 60+120 sm, uch satrlab ekishda 32+32+76 va boshqa sxemalarda ishlay oladi.

Sabzavot seyalkasi urug' ekish uchun novli g'altaksimon 10, yerga o'g'it solish uchun shtiftli g'altaksimon 3 miqdorlagichlar, urug' va o'g'it bunkerlari 6 va 7, sir-pang'ichli 1 hamda disksimon ekkich 12 lar, yurituvchi g'ildirak 16, harakat ujotmasi 4 va izzortkichlardan tashkil topgan (*48-rasm*). Urug' bunkerleri to'zitkich 9, niqtalovchi shnek 5 bilan jihozlangan. Mayda urug'lar uchun miqdorlagich ustiga almashtiriladigan quticha 8 qo'yiladi.

Seyalkaga bir yoki ikki satrlab ekadigan ekkichlar o'rnatilishi mumkin. Bir satrlab ekadigan ekkich urug'ni 2—4 sm chuqurlikka ko'mib ketadi. Chekllovchi reborda silindrik halqa ko'rinishiga bo'lib, kronshteyn orqali ekkich diskiga ulanadi. U tuproq yuzasiga tegib yuradi va diskning yerga botishini cheklab, urug'ni ko'mish chuqurligini belgilaydi. Seyalkaga urug'ni 2, 3 va 4 sm chuqurlikka ekishni ta'minlaydigan turli diametrдagi chekllovchi rebordalar o'rnatish mumkin. Rebordali ekkichlar sholibop seyalkalarda ham ishlataladi.

Ekkichga jilov yordamida zichlovchi g'altaklar ulangan. To'g'inining sirti ikkita kesik konussimon shaklga bo'lib, u zichlagan tuproqning usti nishab bo'lib qoladi. G'ildirakchaning tuproqni zichlash darajasi prujina yordamida o'zgartiriladi. Qirg'ich zichlagich g'ildirakcha to'g'iniga yopishib qolgan nam tuproqni qiradi. Yana bir qirg'ich



48-rasm. Sabzavot seyalkasi ish jarayonining sxemasi:

1—sirrang'ichli ekkich; 2—o'g'it o'tkazgich; 3, 10—miqdorlagich; 4—harakat uzatmasi; 5—shnek; 6, 7—o'g'it va urug' bunkerlari; 8—almashtiriladigan quticha; 9—to'zitkich; 11—urug' o'tkazgich; 12—disksimon ekkich; 13—zichlovchi g'altakcha; 14—shleyf; 15—ko'mgich; 16—yurituvchi g'ildirak.

cheklovchi rebordaga yopishgan tuproqni tozalaydi. Urug' o'tkazgich miqdorlagich ajratib bergen urug'ni ekkichga yetkazadi. Sirrang'ichli ekkich 1 o'g'itni urug'ga nisbatan 2—3 sm chuqurroq tashlab qisman ko'madi va uning ustiga urug'ni tashlab ko'madi.

Sabzavot seyalkasi sharoitga qarab, turli qator oralig'ida ekish uchun sozlanib, umumiy qamrov kengligi 3,5—4,8 m bo'ladi. Ishchi tezligi 10 km/soatgacha, ish unumi 2,8—3,8 ga/soat oralig'ida bo'ladi.

**Modulli chigit seyalkasi** universal bo'lib, unga tukli chigitni namlangan holda ekish uchun g'altaksimon miqdorlagich tuksizlantirilib, kalibrangan chigitni ekish uchun esa disksimon miqdorlagich o'rnatilgan. Chigitdan tashqari makkajo'xori sorgo urug'larini tekislangan dalaga yoki oldindan tayyorlangan oddiy va usti tekislangan pushtalarga donalab, dona-uyalab, qator oralig'i 60 yoki 90 sm qilib ekishga mo'ljalangan. Don uchun o'stiriladigan makkajo'xorini 70 sm o'lchamdagি qator oralig'iga ekadi. Urug' ekish bilan birgalikda sug'orish jo'yaklarini oladi, qator yon tomontariga o'g'it soladi. Ekilgan urug'lar atrofiga gerbitsid eritmasini purkaydi.

Modulli chigit seyalkasi qator oralig'i  $\sigma_q = 60 \text{ sm}$  bo'lib, 4 qatorlab chigit eksa, har bir ekspluatatsiya soatiga 1,2 hektar,  $\sigma_q = 90 \text{ sm}$  bo'lganda esa, 1,8 hektargacha urug' qadashi mumkin (ishchi tezlik  $V_t = 6-10 \text{ km/soat gacha}$ ). Sharoitga qarab, chigitni

**Urug'ni ko'mish chiqqurligi uning xossalari, navi va mahalliy tuproqning holatiga qarab betgilanadi.**

langan holatda ekishda esa,  $\sigma_t = 60 \text{ sm}$  da 250—500 ming dona,  $\sigma_t = 90 \text{ sm}$  qator oralig'ida gektariga 160—330 ming dona,  $\sigma_t = 90 \text{ sm}$  bo'lganda 111—222 ming dona eka oldai. Tukli chigitni nam-

qatorlab — 15—35 dona eka oladi. Uyalab ekishda har bir uyaga tuksizlantirilgan chi-

gitni (24 katakli disk ishlatsilsa),  $2 \pm 1$  yoki  $3 \pm 1$  dona ekadi.

Modulli chigit seyalkasining umumiy ko'rinishi 38-rasmida ko'rsatilgan. Har bir qator uchun alohida seksiya xizmat qiladi.

**Modulli chigit seyalkasiga eki-ladigan chigit turiga qarab disk-simon yoki g'altaksimon miqdorlagich o'matish kerak.**


zichlovchi g'ildirakcha 5 lardan ko'ndalang brus 9 ga biriktirilgan. Seksiyaga o'matilgan g'altaksimon miqdorlagich sxemasi 50-rasmida ko'rsatilgan Urug' qutisi 1 ning ostiga miqdorlagich o'matilgan bo'lib, uning g'altagi 6 val 5 ga kiydirilgan. Valdag'i konussimon shesternya 4 ning ustiga to'zitgich chivig'i 2 qo'ndirilgan ta'minlagich 3 joylashgan. Val 5 aylanishi hisobiga ta'minlagich 3 to'zitkich 2 bilan uzlusiz aylanib turadi. Natijada, urug' qutisidagi tukli chigit uzlusiz pastga, aylanayotgan g'altak 6 ning ustiga tushirib beriladi. G'altak chetidagi novlarga tushgan chigit tarmov 7 ga uzatiladi.

3—8 sm chiqqurlikda ko'mib ketadi. Tuksizlanitirilib kalibrangan chigitni  $\sigma_t = 60 \text{ sm}$  qator oralig'ida gektariga 160—330 ming dona,  $\sigma_t = 90 \text{ sm}$  bo'lganda 111—222 ming dona eka oldai. Tukli chigitni nam-

qatorlab — 15—35 dona eka oladi. Uyalab ekishda har bir uyaga tuksizlantirilgan chi-


gitni (24 katakli disk ishlatsilsa),  $2 \pm 1$  yoki  $3 \pm 1$  dona ekadi.

**49-rasmida g'altaksimon miqdorlagichli ekish seksiyasining tuzilishi tasvirlangan: g'altaksimon miqdorlagich 7 ga beruvchi tayanch g'ildirak 10, harakatni uzatuvchi kardanli val 8, ekkich 3 ning tuproqqa botishini sozlagich 2, ekilgan urug'ni ko'mgich 4,**



**49-rasm. Modulli chigit seyalkasi seksiyasining sxemasi:**

1—zanjirli uzatma; 2—ekish chiqqurligini sozlagich; 3—ekkich; 4—kurakchasimon ko'mgich; 5—zichlovchi g'ildirakcha; 6—prujina; 7—g'altaksimon miqdorlagich; 8—kardan vali; 9—ko'ndalang brus; 10—tayanch g'ildirak; 11—urug' qutisi.



*50-rasm. Modulli chigit seyalkasining g'altaksimon miqdorlagichi:*

1—urug' qutisi; 2—to'zitkich; 3—ta'minlagich; 4—konussimon shesterna; 5—val; 6—novli g'altak; 7—tarnov; 8—sozlovchi to'siq; 9—gayka.

Sozlovchi to'siq 8 bilan korpus orasida ajratish darchasi hosil bo'lib, g'altak novlari u yerga kirib chiqayotganida chigitlarni ilintirib olib ketadi. Aylanayotgan g'altak novlidan chiqqan chigitlar tarnov 7 ga, keyin urug' o'tkazgichga tushadi.

Ajratish darchasining kattaligi sozlovchi to'siq 8 ni gayka 2 yordamida surish hisobiga o'zgartiriladi. Darcha kengaytirilsa, ajratilayotgan chigit miqdori ko'payadi. To'siq 8 ning ustida ajratilayotgan urug' miqdorini ko'rsatuvchi shkala yopishtirilgan.

**Modulli chigit seyalkasi** disksimon hamda g'altaksimon miqdorlagichlarining ko'p qismi umumiy bo'lib, bir-birining o'rniiga tushadigan qilib yasalgan. Masalan, g'altaksimon miqdorlagichni disksimonga aylantirish uchun 50-rasmdagi barmoqli disksimon ta'minlagich 3 yechib olinadi va uning o'rniiga katakchali disk 4 (*51-rasm*) konussimon shesterna 1 ning ustiga o'rnatiladi.

Oraliq diskdagi 3 ovalsimon teshiklar apparat tubidagi shunga o'xshash teshiklarining ustiga tushirib moslanadi. Shesterna 1 ga o'rnatilgan katakchali disk 4 apparat ichiga solinganidan so'ng, chap rezbalni o'q 6 bilan qotirilgar erkin aylanadi.

Qo'zg'almas to'siq disk 5 o'rtadagi disk 3 ning fiksatoriga o'matilgan bo'lib, uning pastki tomoniga qaytargich biriktiriladi. Almashtirib ishlatalish uchun seyalka yetti turdagini katakchali disk bilan ta'minlanadi. Ulardan 64 kataklisi tuksizlanrilib kalibrlangan, sifatlari chigitni donalab ekishda ishlataladi. Sifati pastroq bo'lgan chigit ekilganda esa, bir nechta urug'ni to'plab ajratib beradigan 24 katakli diskdan foydalananish ma'qul. Mayda, uzunligi 8,5 mm dan kichik bo'lgan urug'ni ekishda 12 mm

katakchali disk bir uyaga 2 dona chigit, 14 mm katakchali disk esa – 3 tadan chigit ajratib beradi.

Disksimon miqdorlagich bilan chigit ekilganda, modulli seyalka to'dalovchi disksiz ishlatalidi.

**Seyalkaning texnologik ish jarayoni** quyidagi tartibda bajariladi. Dalada ishlayotgan seyalka g'ildiraklari ning ikkita valdan miqdorlagichdagi g'altak, urug' to'zitkich va urug'ni to'dalovchi apparatga uzatiladi.

Aylanayotgan to'zitkich namlangan tukli chigitlar bir-biriga yopisha boshlaganda ularni ajratib, pastga, miqdorlagich g'altagiga uzlusiz tushurib turadi. Aylanayotgan g'altak o'z novlarining ichiga bittadan chigitni kiritib oladi va urug' o'tkazgichning tarnoviga tashlaydi. Uyalab ekishda chigit u yerdan to'dalovchi diskkaga tushadi. To'dalovchi diskdagi parraklar soni va aylanish tezligi har bir uyaga tushishi kerak bo'lgan chigitlar soniga qarab tanlanadi. Parrak to'dalangan (1–4 donalab) chigitlarni apparat tubidagi darchadan yerga, ariqchaga tushirib yuboradi. Kurakchasi mon ko'mgichlar tuproqni chigit ustiga sidirib, ikki tomonidan ko'mishadi. Zichlovchi g'ildirakcha esa chigit ustidagi tuproqni bosib zichlaydi. Zichlangan tuproqning usti nishab qilinadi, aks holda yomg'ir suvlari chetga oqib ketmasdan chigit ustida qatqaloq paydo qilishi mumkin.


Chigitni bir gektar yerga belgilangan me'yorda ekishga erishish uchun g'altakning aylanish tezligi hamda me'yorlash darchasining kengligi o'zgartiriladi. Uyalardagi chigitlar soni, to'dalovchi diskning aylanish tezligi va yulduzchalarni almashtirish hisobiga rostlanadi.

Tuksizlantirilgan chigitni yoki makkajo'xori urug'ini ekish uchun disksimon miqdorlagichni ishlatalish kerak. Tuksizlantirilgan chigit to'kiluvchan bo'lganligi sababli,

**Chigitni tuksizlantirish uning to'kiluvchanligini oshirib, disksimon miqdorlagich bilan har bir uyaga belgilangan miqdordagi chigit ekish imkonini beradi va urug'lik chigit sarfini 4–5 marotabaga kamaytiradi.**


chamdagagi pushta bo'ylab ekishda, tayanch g'ildirak holati ramaga nisbatan maxsus vint bilan o'zgartiriladi.

**Chigitni pylonka ostiga ekish texnologiyasi** ko'p afzalliklarini ega bo'lgani uchun keng tatbiq etilmoqda. Bu texnologiya orqali, erta bahorda quyosh nuridan to'liq soydalaniib, tuproq haroratini kerakli darajagacha ko'tarish, chigitni 10–15 kun oldin ekib olish mumkin. 10 sm chuqurlikdagi harorati 9–10°C ga yetgan tuproqning ustiga pylonka qoplansa, mulcha (parnik) effekti hisobiga uning harorati qo'shimcha 4–5°C ga



51-rasm. Modulli chigit seykasi-ning disksimon miqdorlagichi:

- 1—shesterya;
- 2—urug' o'tkazgich;
- 3—oraliq disk;
- 4—katakchali disk;
- 5—to'siq disk;
- 6—o'q;
- 7—gayka.



52-rasm. Chigitni pylonka ostiga ekish seyalkaning sxemasi:

a—yon ko'rinishi; b—ust ko'rinishi; 1—osish moslamasi; 2—rama; 3—miqdorlagich; 4—yer tekislagich; 5, 6—sferik disklar; 7, 8—valiklar; 9—sidiqich; 10—zichlagich.

ortib, chigit unib chiqishiga yetarli sharoit tug'iladi. Pylonka ostida namlik uzoq saqlanadi, shu sababli, chigitni tabiiy namlikda undirib olish, hatto kunlar isib ketguncha sug'ormaslik imkoniyati turiadi. Pylonka ostida begona o'tlar rivojlanmaydi, demak kultivatsiya sonini kamaytirish mumkin. Qulay sharoitda rivojlangan g'o'za tezroq ko'sak tugib, hosildorligini 10–12 s/ga gacha oshiradi. Eng muhibbi, bosil 10–15 kunga erta pishib erta, yig'ib olinadi.

**Chigit ekilgan joyga to'shalgan pylonkaning ikki cheti tuproqqa to'liq ko'mitsishi katta shamhyat-ga ega.**

Gorizontal shpindelli paxta terish mashinasi bilan hosilni terib olish imkonи tug'iladi.

Mazkur texnologiyaning bajarilishini ta'minlaydigan seyalka sxemasi 52-rasmida keltirilgan. U rama 2, osish moslamasi 1, iztortkich, barabanli miqdorlagich 3, yer tekislagich 4, ariqcha ochadigan sferik disk 5, pylonka chetini tuproq bilan ko'madigan sferik disk 6, pylonka o'rami o'rnatilgan valik 7, pylonkani taranglovchi valiklar 8, sidiq'ich 9, zichlagich 10 lardan tuzilgan.

Yer tekislagich 4 ramaga sharnirli biriktirilgan bo'lib, keyinchalik pylonka yoyiladigan 60 sm kenglikdagi joyning tuprog'ini tekislab, kesaklarni maydalab, yer ustini silliqlab ketadi. Agar tekislagich sifatlari ishiamasa, g'adir-budir bo'lgan yer yuzasiga to'shalgan o'ta yupqa pylonka (qalinligi 8 mkm) teshilib, mulcha effektini pasaytirib qo'yadi. Tekislagich ishining kerakli sifati, uni yerga bosib turadigan prujinaning siqilish darajasini o'zgartirish hisobiga rostlanadi.

Sferik disklar chuqurligi  $6-8\text{ sm}$  bo'lgan ariqchalarni bir-biridan  $40\text{ sm}$  oraliqda ochib ketadi. Keyinchalik, bu ariqchalarga plynokanining chetlari kiritilib ko'miladi.

Seyalka to'rtta ekish seksiyasidan iborat bo'lib, har bir seksiya ikkitadan barabandan iborat. Har bir baraban chigitni bir satrqa uyalab ekib ketadi. Demak, seksiyadagi barabanlar ikki satrni ekadi. Bu qo'shaloq satrlar tasmani, ya'ni qatorni tashkil qiladi. Tasmadagi satrlar orasi  $30\text{ sm}$ , tasmalar oralig'iда  $60\text{ sm}$  yer keyinchalik jo'yak olish, sug'orish, o'g'itlash, kultivatsiyalash uchun qoldiriladi. Tasma simmetriya o'qlari orasi, ya'ni qatorlar oralig'i  $90\text{ sm}$  bo'ladi.


**Bir hektar yerga ekligan chigitni yopish uchun  $55\text{ kg}$  gacha plynoka sarflanadi.**

Birinchidan, tekislangan yerga to'shalgan plynokani tarang holda ushlab turadi. Rebordasi bilan plynokanining chetini ilgari tayyorlangan ariqchaga taqab, buklab yotqizadi. Ikkinchidan, u urug' qutisi vazifasini bajaradi. Baraban ichiga urug'ni solib qo'yish uchun, uning yon devoridan qopqoq 5 ochiladi va maxsus tarov yordamidan foydalilaniladi. Baraban ichida cho'michsimon me'yorlagich 1 lar o'rnatilgan. Me'yorlagichning prizma shaklidagi darchali uychaga o'xshaydi. Baraban aylanganida, u urug'lar orasidan o'tayotib, urug' to'dasini o'z ichiga tushirib oladi. Uchinchidan, aylanishi hisobiga, sirtiga o'rnatilgan urug' qadagichlar plynokani teshadi va tuproqqa botib urug'larni ma'lum chuqurlikda tashlab ketadi.

Urug' qadagichning uzunligi urug'larni  $4-6\text{ sm}$  chuqurlikda ko'mib ketishga yetarli. Urug' qadagich va cho'michsimon me'yorlagich bir-birining davomi bo'lganligi sababli, me'yorlagichga tushgan chigit qadagichning uchidagi bo'shliqqa darrov yetib boradi. Urug' qadagichning uchini ochib-yopish uchun  $90^\circ$  ga bukilgan ikki yelkali richagga o'xhash maxsus klapan 3 o'rnatilgan. Barabanning tashqi chetiga reborda qo'yilgan. Rebordaning shakli plynokanining chetini sferik disk tayyorlab ketgan ariqcha yuzasiga zinch bosib turadigan qilib qiyalatib yasalgan. Eni  $60-65\text{ sm}$  bo'lgan plynoka rulonini (massasi  $12-14\text{ kg}$ ) o'rnatish hamda yoyilgan plynokani tarang holatda yerga to'shash uchun ekish seksiyasi ramasiga sozlanuvchi valik 7, 8 lar sharnirli biriktirilgan (52-a rasm).

Reborda yerga bosib turgan plynoka chetining ustiga sferik disk 6 tuproqni uyumlab ko'madi. Plynokanining ikki chetini havo o'tmaydigan qilib sifatli ko'mish katta ahamiyatiga ega. Bunga erishish uchun sferik disklarning hujum burchagi va balandligini to'g'ri o'rnatish zarur.

**Barabansimon miqdorlagich cho'michsimon me'yorlagich 1, urug' qadagich 2, to'sqich 3, baraban 4, qopqoq 5, reborda 6 lardan tuzilgan (53-rasm). Bu miqdorlagichning barabani uchta ishni bajaradi.**



**53-rasm. Barabansimon chigit miqdorlagichning sxemasi:**

1—cho'michsimon me'yorlagich; 2—urug' qadagich; 3—to'sqich; 4—baraban; 5—qopqoq; 6—reborda; 7—darcha.

Sidirgich 9 ning pastki chetiga rezina plastina kiydirilgan bo'lib, rezinaning cheti pylonka ustiga tegib-tegmay bo'lib yuradi. Yon tomonga  $35^{\circ}$ — $45^{\circ}$  ga burib o'matilgan sidirgich pylonka ustidagi ortiqcha tuproqni chetga chiqaradi, natijada pylonka usti tozalanib, qo'yosh nurini oson o'tkazadi. Zichlagich g'ildirakcha 10 chigit qadalgan satrdagi tuproqni bosib, zichlab, chigitni g'ovak joyda qolishini oldini oladi.

Seyalkaning texnologik ish jarayoni quyidagicha o'tadi. Agregat ilgarilab yurganida, tekislagich pylonka to'shaladigan joydagi kesaklarni maydalab, shudgor yuzasini silliqlab ketadi. Uning izidan, tekislangan joyning ikki chetida, bir-biridan 40 sm masofada harakatlanayotgan sferik disklar chuqurligi 5—8 sm bo'lган ariqchalarni tayyorlab qoldiradi. Rulondagi pylonka taranglovchi valiklar orqali tortilib, yerga barabanning tagidan o'tkazilgan holda to'shaladi va uning uchi ko'milib qo'yiladi. Rulon vali va taranglovchi valiklar erkin aylanishi kerak, aks holda, yupqa pylonka yirtilib ketishi mumkin.

Barabanlar rebordasi yerga to'shalgan pylonkaning ikki chetini ariqchalarga bosib turgan vaqtida birdaniga uchta jarayon bajariladi:

1. Baraban aylanishi hisobiga uning ichidagi chigitlar to'zitilib, me'yorlagich darchalardan o'tib, urug' qadagich ichiga tushadi.

2. Aylanayotgan baraban sirtidagi urug' qadagich yerga yaqinlashganida pylonkani teshib, tuproqqa kiradi. Ayni vaqtda, baraban to'sqichning bo'sh qanotini yerga bosib, uning ikkinchi qanotini urug' qadagichdan uzoqlashishga majbur qiladi. Natijada, urug' qadagich ichidagi urug'lar yerga tushib qoladi. Tuproqning erkin to'kilishi hisobiga chigitlar uyasi ko'miladi.

3. Baraban orqasidagi sferik disklar, reborda bosib turgan pylonka chetlarini tuproq bilan ko'mishadi.

Sidirgich pylonka ustiga to'kilgan tuproqni sidirgich yumshoq pichog'i bilan sidirib, uni tozalaydi. Sidirgichlarni shunday joylashtirish kerakki, chigit uyalari ustida 8—10 mm qalinlikda tuproq qoldirilib, qolgani chetga surilib tashlansin. Buning uchun sidirgichni yon tomonga burish kerak bo'ladi. Chigit ekilgan satr ustini zichlaydigan g'ildirakchalarining yerga bosimi maxsus prujina yordamida sozlanadi. Sferik disklar agregat harakati yo'nalishiga nisbatan  $14^{\circ}$ — $16^{\circ}$  burchak ostida o'matiladi. Seksiya yoki sferik disklarini yon tomonga birmuncha surish hisobiga, baraban rebordasining pylonka chetini ariqchaga tirab yurishiga erishiladi.

Chigitni erta bahorda qulay ob-havo sharoitidan foydalanib tez ekib olish zarurligini mutaxassis bo'lмаган одам ham biladi. Chunki, urug' tez va sifatlari ekilgan taqdirdagina hosil mo'l bo'ladi.

Respublikamizda asosan modulli mexanik miqdorlagichli chigit seyalkasidan foydalaniladi (*38-rasm*). Shu sababli, kollej o'quvchilari ham ushbu seyalkani ishga tayyor-

lash tartibini bilishlari talab qilinadi. Modulli seyalka sharoitga qarab, tukli chigit ekadigan g'altaksimon yoki tuksizlantirilgan chigitni ekadigan disksimon miqdorlagich bilan jihozlanishi mumkin.

Kollej hududida amaliy mashg'ulot o'tkazish uchun ekiladigan chigit turiga qarab, seyalkanining disksimon yoki g'altaksimon miqdorlagichli varianti tanlab olinadi.

**Mashg'ulot maqsadi.** O'quvchilarga paxtachilikda eng ko'p tarqalgan modulli chigit seyalkasini qatorlab ekish uchun ishga tayyorlash tartibini o'rgatish, tegishli bilim berish hamda ushbu ishni amalda bajarish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

**Mashg'ulot joyini jihozlash.** G'altaksimon miqdorlagichli modulli chigit seyalkasi va uni agregatlay oladigan uch g'ildirakli traktor; zaharlanmagan tukli chigit (20 kg); ruletka; gayka kalitlari to'plami; tajriba o'tkazish uchun 10x20 m o'lchamli yer; darslikdan tashqari ma'lumotlar manbalari (firma chiqargan reklama prospektlari, plakatlar, o'quv videofilmlari).

**Mashg'ulot o'tish tartibi.** O'qituvchi o'quvchilar guruhiga mashg'ulot uchun rejalashtirilgan ishlarning mohiyatini tushuntirib, bajarish tartibini ko'rsatadi.

Guruh to'rtta to'pga bo'linadi va ularga individual topshiriq beriladi. Birinchi to'pga chigit seyalkasini bir gektarga belgilangan me'yordagi chigitni ekishga mo'ljallab sozlash, ikkinchi to'pga hamma ekkichlarni chigitni bir xil chuqurlikda ko'madigan, sozlash; uchinchi to'pga seyalka iztortkichining uzunligini hisoblab o'rnatish toshirqlari beriladi. To'rtinchi to'p talabalari birinchi guruh ishini nazorat qilib, ularga baho berib turadi. Keyinchalik, to'plar o'z joylarini almashtirib, yuqorida uchta topshiriqni navbatma-navbat bajarib, tegishli hisobot tayyorlashadi. Topshiriqlarni bajarayotib o'quvchilar fikr almashib, qilinayotgan ishlarning mohiyatini tushunishga o'zaro yordam beradi.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagilarni tushuntiradi.

**Modulli seyalkadan foydalanish.** 10 sm chuqurlikdagi tuproq namligi 20 foizdan kamayib, haraorat 14°C dan oshganda ekish mavsumi boshilanadi. Mavsum boshida namlangan tukli chigitni, keyinroq, tuproq qiziganda tuksizlantirilgan chigitni ekish tavsiya qilinadi. Seyalkani turli miqdordagi urug' ekishga sozlashda maxsus jadvaldan foydalaniladi. Ish holatidagi seyalkanining ekkichlari yerga parallel bo'lishi lozim. Ammo, qumloq tuproqli yerlarda seyalkani orqa tomonga 5°—7° ga engashtirib qo'yish kerak, aks holda ekkich sirpang'ichining oldiga tuproq uyulib qoladi.

Modulli chigit seyalkasiga uning qutilaridagi urug' sathi, to'dalovchi apparat ishini hamda gerbitsid purkashning uzlusizligini nazorat qilish uchun elektron «Kedr» tizimi o'rnatilgan.

Yuqorida seyalka ishiga asosiy to'rtta talab qo'yilishi qayd qilingan edi. Ularga asoslanib urug'ni dala bo'ylab bir tekis taqsimlab joylashtirish va urug'larga zarar tegdirmaslik ko'rsatkichlarini qisqa mashg'ulot vaqtida baholash qiyin. Lekin belgilangan me'yordagi urug'ni ajratib berishni va rejalahtirilgan chuqurlikda tuproqqa ko'mishni yetarli darajadagi aniqlikda baholash mumkin. ATT bo'yicha ekish agregating yonma-yon yurishida hosil bo'ladigan tutash qatorlar oralig'i  $\pm 8$  oddiy qatorlar oralig'i  $\pm 8$  dan farqi  $\pm 8$  foizdan oshmasligi lozim. Shu talabni bajarish uchun seyalka iztortkichining uzunligini to'g'ri o'rnatish kerak.

Modulli chigit seyalkasini belgilangan urug' me'yorini ajratib ekadigan tarzda sozlash tartibi unga o'rnatilgan miqdorlagich turiga bog'liq.

Agar seyalka bilan tuksizlantirilgan chigit yoki makkajo'xoriga o'xhash sirti silliq urug' uyalib ekilsa, urug'ning kattaligiga qarab 24 katakli miqdorlovchi diskning birini o'rnatib, har bir uyaga  $2\pm 1$  yoki  $3\pm 1$  dona urug' ekish mumkin. Donalab chigit ekishda 64 katakli disklardan biri qo'yiladi. Diskli miqdorlagich ishlatsa, urug'ni to'dalovchi apparatdan foydalanimaydi.

Agar bahorgi **ob-havo noqulay kelishiga chidamli bo'lgan tukli chigit** ekilsa, seyalkaga g'altaksimon miqdorlagich o'rnatiladi. Bunday miqdorlagich ekish uchun ajratadigan chigit miqdori 50-rasmdagi to'siqcha 8 ni surib, ajratish darchasini, kerak bo'lsa, g'altakning aylanish tezligini o'zgartirish hisobiga erishiladi. To'siqcha 8 ning ustiga yopishtirilgan shkaladagi raqamlar yordamida ajratilayotgan chigit miqdori taxminan ko'rsatiladi va keyinchalik tajriba o'tkazib, aniqlik kiritiladi. Shu sababli, talabalarga misol uchun, gektarga Q dona chigit ekadigan qilib sozlash topshirig'i berilsa, ular miqdorlagich taxminan o'rnatilgan seyalka traktor bilan dalaga olib chiqishadi va 20 m yerga urug' ekiladi. 2 m uzunlikdagi urug' ekilgan satr tuprog'i asta-sekin ochilib, u yerdagi chigitlar soni Z aniqlanib, bir gektarga ekilayotgan urug' miqdori hisoblanadi:

$$Q_h = 0,5Zl_g \text{ kg/ga},$$

bu yerda:  $l_g$  — bir gektardagi urug' ekiladigan qatorlar uzunligi ( $s_g = 90 \text{ sm}$  bo'lsa  $l_g = 11111 \text{ m}$ ,  $s_g = 60 \text{ sm}$  bo'lsa  $l_g = 16666 \text{ m}$ ).

$Q_h$  topshiriqdagi  $Q$ ,  $\pm 3\%$  foizdan ortiq farq qilsa, tajriba takrorlanadi.

Chigitni bir xil chuqurlikda ko'mish topshirig'ini olgan o'quvchilar 43-v rasmdagi sir pang'ichli ekkich urug'ni ko'mish chuqurligini sozlovchi moslama 3 dagi shkala yordamida berilgan chuqurlikni hamma qatorlar uchun taxminan (chunki turli yumshoqlikdagi tuproqqa ekkichning botishi har xil bo'ladi) o'rnatishadi. Birinchi tajribani, ya'ni urug' ekish miqdorini tekshirish uchun, agregat yordamida 20 m yerga urug' ekiladi so'ng, har bir qatordagi 5 joyda chigit ko'milgan chuqurligi  $h_1-h_5$ , aniqlanadi va ularning o'rtacha miqdori  $h_{av} = (h_1+h_2+h_3+h_4+h_5)/5$  topiladi. Hamma qatordagi  $h_{av}$  topshiriqdagi h dan  $\pm 1 \text{ sm}$  dan ortiq farq qilmasligi kerak, aks holda tegishli tuzatish kiritilib, tajriba takrorlanadi.

**Seyalka izzortkichini o'rnatish.** Ekish agregati mokisimon harakatlanib dalaning bir chetidan ikkinchi cheti tomon siljiydi. Agregatning qarama-qarshi yondosh yurishlarida eng chetki qatorlari orasida tutash qatorlar paydo bo'ladi. **Tutash qatorlar oralig'i  $s_{av}$  oddiy qatorlar oralig'i  $s$  ga teng bo'lishi kerak.** Bunga erishish uchun izzortkich uzunligi to'g'ri qo'yilishi kerak.

Izzortkich sifatida aksariyat holda uzun shtangaga o'rnatilgan, diametri 250—300 mm bo'lgan sferik disk 5 ishlatsiladi (38-rasm). Disk harakat yo'nalashiga  $15^\circ$ — $20^\circ$  burchak ostida qiya o'rnatilishi sababli, u dalaning hali ekilmagan yer yuzasida iz chizib goldiradi.


Agregat orqaga qaytayotganida bu iz bo'lab uch g'ildirakli traktorning oldingi g'ildiragi, to'rt g'ildirakli traktorning esa o'ng g'ildiragi olib yuriladi (54-rasm). Shunda

$\epsilon_{\text{q}} = \epsilon$  bo'lishi mumkin. Iztortkich seyalkaning o'ng va chap tomoniariga o'rnatilib, navbatma-navbat ishlataladi. Iztortkichni ko'tarib tushirishni gidrotsilindr bajaradi.

56-b rasmdan to'rt g'ildirakli traktor agregatlaydigan seyalka o'ng iztorkichining uzunligi  $l_o = 0,5(A-C) + \epsilon_{\text{q}}$ , chap iztorkichni  $l_{ch} = 0,5(A+C) + \epsilon_{\text{q}}$  ekantigi aniqlanadi (bu yerda A—seyalkaning chetki ekkichlar oralig'i, m; S — traktor odini g'ildiraklarining oralig'i, m).

Agar iztortkich uzunligi hisoblanganidan kamroq bo'lsa  $\epsilon_{\text{q}} < \epsilon$ , uzunroq bo'lsa  $\epsilon_{\text{q}} > \epsilon$  chiqadi. O'quvchilar hisoblangan uzunlikdagi iztortkichni o'rnatib, dalada tajriba o'tkazishadi. Agar tutash qatorlar oralig'i kutilganidek chiqsa, tajriba tugatiladi, aks holda ish takrorlanadi.

**Kartoshka ekish mashinalari.** ATT. Ekish uchun o'rtacha kattalikdagi (massasi 50–80 g) tugunaklar tanlagan ma'qul. Ammo, maydarroq (30–50 g) hamda yirik (80–120 g) tugunaklardan bo'laklab ekish ham mumkin.



54-rasm. Seyalka iztortkichi uzunligini aniqlashga oid sxema:


a—uch g'ildirakli, b—to'rt g'ildirakli traktorlar uchun; v—qator oraliqlarini kengligi;  
1—o'ng, 2—chap iztorkichlar izi.

Kartoshkalar qatorga bir-biridan 20—40 sm masofada, qator oralari esa 60, 70 va 90 sm dan qilib ekiladi. Bunda mashina unib qolgan kurtakchalarni sindirmasligi kerak. O'rtacha kattalikdag'i tugunaklarni ekishda kartoshka tushmasdan qolgan hamda ikkita tugunak tushgan uyalar soni 3 foizdan oshmasligi kerak. Kartoshka tugunaklari belgilangan oraliqda va chuqurlikda joylashishi lozim. U pushtaga ekilganda 8—16 sm, tekit yerga ekilganda 6—12 sm chuqurlikda ko'milishi kerak. Tugunaklarni ekish chuqurligi belgilanganidan  $\pm 4$  sm, tutash qator oraliqlaridagilar oddiylariga nisbatan  $\pm 5$  sm farq qilishi kerak. Mashina kartoshka ekish bilan bir vaqtida o'g'itni tugunaklardan 2—3 sm chuqurroq tashlab, alohida tuproq qatlami bilan yopib ketishi lozim.

**Kartoshka ekish mashinasining tuzilishi va ishlashi.** Kartoshka ekish mashinasi ikki seksiyadan iborat bo'lib, har bir seksiya alohida bunker va ikkita ekish apparatiga egadir (*54-rasm*). Ramaga bunker 1 va uning past qismidagi ta'minlagich 13, qoshiqchali miqdorlagich disk 4, to'sqich 3 va uni sozlovchi vint 2, o'g'it miqdorlagich 5 o'rnatilgan. Ramaning alohida brusiga ekkich 9 lar guruhi uchun, tayanch g'ildirakchalar 16 birkitilgan. Ekkich 9 ga omochtishsimon tumshuq o'rnatilgani sababli, u chuqurroq botishga intiladi, lekin uni tayanch g'ildirakcha 16 cheklab turadi. Ekkichning orqasiga ag'dargich kurakcha 8 o'rnatilgan bo'lib, uning yordamida yerga solingan o'g'it ustini yupqa tuproq qatlami (2—3 sm) bilan yopilib, tugunaklar kuyishining oldi olinadi. Ekkichning tuproqqa botishi ekkichning yerga engashish burchagiga bog'liq bo'lib, uni maxsus vint yordamida o'zgartirish mumkin.

Dala sharoitida belgilangan ekish me'yorini tekshirish uchun agregat ko'mish disklari ko'tarilgan holatda 10 m masofaga yurgiziladi. Keyin 70 sm qator oralig'i uchun 7,14 m, 60 sm qataor oralig'i uchun 8,4 m, 90 sm qator oralig'i uchun 5,55 m masofada ekilgan tugunaklar soni hisoblanib, uni 2000 (gektarga aylantirish uchun) ga ko'paytirib, 1 gektarga ekilayotgan tugunaklar soni aniqlanadi.

Bunker 1 ning tubi tugunaklar bilan po'lat orasidagi ishqalanish burchagidan kattaroq burchak ostida qiya o'rnatilganligi hamda uni maxsus moslama titratib turishi sababli, kartoshka urug'i pastga siljib, ta'minlagich 13 ga uziksiz tushib turadi. Bu tugunaklarni miqdorlagich diskiga o'rnatilgan qoshiqlar bexato ilib olishi uchun, ularni shnek 12 va to'zitkich 14 aralashtirib turadi.



*55-rasm.* Kartoshka ekish mashinasining texnologik ish jarayoni:


1—bunker; 2—sozlovchi vint; 3—to'sqich; 4—qoshiqchali disk; 5—o'g'it miqdorlagich; 6—ko'migich disklar; 7—tugunak o'tkazgich; 8—kurakchasimon ag'dargich; 9—ekkich; 10—o'g'it yo'naltirgich; 11—o'g'it o'tkazgich; 12—shnek; 13—ta'minlagich; 14—to'zitkich; 15—reduktor; 16—g'ildirakcha; 17—tayanch g'ildiragi; 18—kardan val.

Ta'minlagichga tushayotgan tugunaklar miqdori sozlovchi vint 2 yordamida to'sqich 3 ni ko'tarib-tushirib, ta'minlagich bilan uning orasidagi darcha balandiligi o'zgartirib sozlanadi. Kartoshka ekish mashinasi ishchi qismlarini aylantirish uchun harakat traktorning quvvat olish validan uzatiladi. Har bir qoshiqcha ta'minlagichdan faqat bittadan tuganakni olib chiqishi hamda tugunak undan ertaroq tushib ketmasligi uchun yon devor 2 bilan qoshiq belbog'i orasidagi tirqish  $a$  o'zgartiriladi. Agar massasi 30–50 grammli urug' ekilayotgan bo'lsa,  $a = 3–5 \text{ mm}$ , 50–80 grammli urug' ekilsa,  $a = 10–12 \text{ mm}$  va 80–100 grammli urug'lar uchun  $a = 14–16 \text{ mm}$  qo'yiladi.

Ekkichni rostlash uchun, mashina tekis joyga qo'yiladi, tumshug'i yer yuzasiga tiralib, orqa quyi chizig'i yerdan 40–50 mm balandda o'matiladi. Ekish chuqurligi mosilanuvchi g'ildirak 16 ning yer yuzasiga nisbatan balandligini (3–4 sm) o'zgartirish hisobiga sozlanadi. Tugunaklarni ko'mib turgan pushtani kerakli shaklga keltirish uchun sferik disk holati o'zgartiriladi. Tekis dalaga kartoshka ekishda disklar yer yuzasiga tegmaydigan qilib ko'tarib qo'yiladi va uning o'rniغا tirma ishlataladi.

Qatordagagi tugunaklarni belgilangan oraliqda ekish uchun, traktor quvvat olish valiga ulangan kardan val 18 harakat oladigan reduktorning 15 yetaklanuvchi validagi yulduzchani almashtirish kerak. Bu yetarli bo'lmasa, agregat tezligi o'zgartiriladi.

**Ko'chat o'tqazish mashinalari.** ATT. Sabzavot ekinlarining urug'i qish oxirida issiqxonalarda ekilib, bahorda ko'chat holida ochiq dalalarga o'tqaziladi. Ayrim ko'chatlar alohida tuvakchalarda, ayrimlari tuvakchalarsiz o'stirilib yetishtiriladi. Mashina yordamida ekish uchun bir xil kattalikdagi, so'limagan, egilmagan ko'chatlar saralab olinadi. Karam ko'chatlari 12–15 sm balandlikka (5–6 bargga), pomidor ko'chatlari 20–25 sm balandlikka (8–10 bargga) ega bo'lishi talab qilinadi. Ko'chatlarni oralig'i 60, 70, 80, 90 sm bo'lgan qatoriarga yoki 50x90, 60x120 sm qilib ekiladi. Bir qatordagagi ko'chatlar oralig'i 10–140 sm gacha bo'lishi mumkin. Agar ko'chatlar oralig'i 35 sm dan



56-rasm. Ko'chat o'tqazadigan mashina ish jarayonining sxemasi:

1—g'ildirak; 2—yashikdagagi ko'chatni qo'yadigan joy; 3, 10—oldindi va orqadagi o'rindiqlar; 4—ekkich; 5—disksmion ko'chat miqdorlagich; 6, 9—ko'chat tutqichlar; 7, 8, 19—ko'chat solingan yashiklar; 11—soyabon; 12—zichlovchi g'ildirakchalar; 13—suv naychasi; 14—jo'mrak; 15, 17—zanjirli uzatma; 16—ochiq reduktor; 18—suv quvuri; 20—tokchalar; 21—suv baki.

kam bo'lsa, ekishda jo'yaklar bo'ylab sug'oriladi, 35 sm dan katta bo'lsa, har bir tup ko'chatni alohida sug'orish ma'qul bo'ladi. Sug'oriladigan dehqonchilikda ekish bilan birga jo'yaklar ham olinadi. Mashinada ko'chatni tik holatda, ildizlarini bukmasdan, shikastlantirmasdan, bexato ekish talab qilinadi. Tuvaksiz ko'chatlar 5—15 sm, tuvaklisi esa, kamida 10 sm chuqurlikka ko'milishi kerak. Agronom tayinlagan chuqurlikni ± 2 sm aniqlikda ta'minlash lozim. Ko'chat ildizi tuproq bilan zinch ko'miladi. Qatorlar to'g'ri chiziq bo'yicha belgilangan kenglikdan ± 2 sm (tutash qator uchun ± 7 sm) olinishi kerak. Oddiy ko'chatning 95 foizi, tuvakli ko'chatning 100 foizi ildiz olishiga erishish kerak.

56-rasmda ko'chat o'tqazadigan mashina ish jarayonining sxemasi ko'rsatilgan. Disksimon ko'chat miqdorlagichga 5 harakat yuritish g'ildiragidan 1 zanjirli yuritmalar 15, 17, ochiq reduktor 16 orqali uzatiladi. Ekish bilan bir vaqtida har bir ko'chat tagiga suv qo'yib ketish maqsadida mashinaga suv tizimi o'rnatilgan. Bu tizimga bak 21, suvni bakdan sug'orish naychalariga 13 yetkazadigan quvur 18 va suv sarfini rostlaydigan jo'mrak 14 kiradi. Bakdag'i suv quvur 18 orqali jo'mrakka 14 oqib keladi. Jo'mrak yordamida ma'lum miqdordagi suv naycha orqali oqadi. Agar qatordagi ko'chatlar oralig'i 35 sm dan kichik bo'lsa, suv ekkichning orqa tomoniga to'kilib turadi, ko'chatlar oralig'i 35 sm dan ko'proq bo'lsa, suv har ko'chat tubiga o'zi ag'dariladigan cho'michda me-yorlab quyiladi.

**Mashinaning ishi.** Agregat harakatlansa, disk aylanib tutqich 6, 9 lar maxsus o'rindiqda o'tirgan ishchilarining oldiga kelganida ochiladi. Ularning 6,9 orasiga ko'chatlar qo'lda kiritilsa, tutqich qisib qoladi. Ko'chat suv quyilgan ariqcharing ustiga keltirilganida, tutqich ochilib uni nam yerga tushiradi. Ekkich o'tgandan so'ng, tuproq ko'chat ildizi ustiga to'kiladi, uni g'ildirakcha 12 zinchlab ketadi.

Ekish sxemasiga qarab, o'tqazich diskiga 12—12 tagacha tutqichlar o'rnatilishi mumkin. Traktorning ramasiga o'rnatilgan tokchalarga ko'chat solingan yashiklar qo'yiladi. Agregatni ishlatish uchun, traktorchidan tashqari, o'n ikki (6 qator uchun) ishchi (ko'chatni tutqichga qo'yish uchun) hamda ekilgan ko'chatlarning holatini tuzatish uchun uch ishchi, tuvakdagi ko'chatlarni ekishda yana ularni uzatib turishga yana ikki ishchi jaib qilinadi.

1. Respublikamiz iqtisodiyotining negizi bo'lgan dehqonchilik mahsulotlarini ko'paytirishda eng muhim o'rillardan birini seyalkalar egallab, ulardan to'g'ri foydalansila ekinlardan yuqori hosil olishga zamin yaratish mumkin.

2. Dehqonchilikda yetishtiriladigan ekinlar turli texnologiyalar asosida parvarishlanishi sababli, ularni ekish ham bir necha usullarda bajariladi. Ekin ekishni ta'minlaydigan seyalkalar ham ko'p turlarga bo'linadi.

3. Urug'ni seyalka bilan dala yuzasi bo'ylab joylashtirish tartibi unib chiqadigan o'simliklarni oziqlantirish va rivojlantirish uchun yetarli sharoit tug'dirish nuqtayi nazaridan qabul qilinadi.

4. Ekilayotgan urug'ni seyalka ma'lum me'yorda ajratib olishi, ularni dala yuzasi bo'ylab bir tekis taqsimlab joylashtirishi, tuproq holati va urug' xossasiga qarab qulay chuqurlikda zich ko'mib ketishi kerak. Seyalkaning ishchi qismlari urug'ni deyarli shikastlantirmaydigandek qilib yasalishi kerak.

5. G'altaksimon miqdorlagich deyarli hamma turdag'i ekinlar urug'ini belgilangan me'yorda yetarli darajadagi aniqlikda ajratib bera oladi.

6. Urug' sarfini keskin kamaytirish uchun uni donalab, yaxshisi bir uyaga aniq sanab ekish talab qilinadi. Bunday talabga disksimon miqdorlagichning ishi to'liq javob beradi.

7. Urug'larni shikastlantirmasligi uchun g'altaksimon va disksimon miqdorlagichlarning ta'sir tezligi cheklangan bo'ladi. Shu sababli, katta tezlikda ishlaydigan seyalkalarda bunday miqdorlagichlardan foylanish cheklangan.

8. Pnevmatik miqdorlagichlar urug'ni deyarli shikastlantirmay, seyalkaning katta tezlikdagi ishida ham yetarli urug' miqdorini ajratib ulgurish imkoniyatiga ega.

9. Seyalka ekkichning turi urug' ko'miladigan tuproq holatiga qarab tanlanadi. Ekkich tuproqning namligi yetarli qatlamida urug'ni joylashtirish uchun qulay bo'lgan joy tayyorlaydi.

10. Chigit seyalkalarga o'matilgan sirpang'ichli ekkich murakkab hisoblanadi, ammo, u chigit uchun qulay joyni tilib, tubini zichlab tayyorladi va u yerga chigit to'liq joylashib ulgurganicha tuproqni tushirmsadan turadi. Bunday ekkichlarning ko'mish chuqurligi o'zgaruvchanligi oz bo'ladi, ammo serkesak yerda sifatli ishlay olmaydi.

11. Urug'ni dala yuzasi bo'ylab bir tekis taqsimlab joylashtirish maqsadida seyalkalarning hamma miqdorlagichlari bir xil urug' ajratadigan tarzda sozlanadi.

12. Modulli chigit seyalkasini turli kenglikdagi qator oraliqlariga moslash imkoniyati bo'lib, u makkajo'xori, sorgo va boshqa ekin urug'larini eka oladi.

13. Seyalka iztortkichining uzunligi tutash qatorlar oralig'i oddiy qatorlar oralig'iga teng chiqadigan tarzda sozlanadi.

14. Plyonka ostiga urug' ekish usuli yetarli haroratgacha qizib ulgurmagan tuproqning tez isishiga olib keladi. Natijada, urug' erta bahorda ekiladi, tuproqning tabiy namligi hisobiga u unib ulguradi. Kuzda esa hosil erta pishib yetiladi.

15. Plyonka ostiga chigit ekishda plyonkani mayin holatga keltirilib tekislangan yerga yoyib, ikki chetini tuproq bilan zich ko'mish talab qilinadi.

1. Yuqorida keltirilgan o'n beshta xulosani asoslab bering.

2. Chigitni qanday maqsadda tuksizlantirib to'kiluvchan qilinadi?

3. Nima uchun urug' kalibrланib, deyarli bir xil o'chamlari tanlab olinadi?

4. Nima uchun chigitni qatorlab ekishdan uyalab ekish samaraliroq hisoblanadi?

5. Don seyalkasida miqdorlagich g'altagining ishchi uzunligi qanday maqsadda o'zgartiriladigan qilingan?

6. Qanday sababga ko'ra urug' ekish me'yорини sozlashda boshqa omillarga qarganda miqdorlagich g'altagining tezligini oxirgi navbatda o'zgartirish tavsiya qilinadi?

7. Nimaning hisobiga pnevmatik o'g'it miqdorlagich urug'ni to'dalab emas, donalab ajratib chiqaradi?

8. Sirpang'ichli ekkich ishlataladigan yer tuprog'i nima sababdan mayin holatga keltirilib tayyorlanadi?
9. Nima uchun disksimon ekkich ishlataladigan yerning tuprog'ini mayin holatga keltirmasa ham bo'ladi?
10. Don seyalka-kultivatoridan qanday sharoitda foydalanilgan ma'qui?
11. Ayrim pnevmatik seyalkalarda markaziy mexanik miqdorlagich ajratib bergen urug' ko'p sonli ekkichlarga qanday qilib teng taqsimlab beriladi?
12. Nimaning hisobiga pnevmatik seyalka mexanik seyalkaga qaraganda katta tezlikda ishlay oladi?
13. Chigit seyalkasi iztortkichining uzunligi qanday ahamiyatga ega?
14. Nima uchun to'ri g'ildirakli traktor bilan agregatlaydigan seyalkarining o'ng va chap iztortkichlari har xil uzunkiqa ega bo'ladi?
15. Qanday sababga ko'ra universal seyalkada o'g'itni tuproqqa urug' bilan birligida solish mumkin emas?
16. Modulli chigit seyalkasining urug' qutisiga to'zitkich qanday maqsadda o'rnatilgan?
17. Qanday sharoitda chigit seyalkasiga kurakchasimon ko'mgichni o'rnatish ma'qui hisoblanadi?
18. Chigit seyalkasida urug'ni to'dalovchi apparat nima maqsadda ishlataladi?
19. Chigit seyalkasining g'altaksimon miqdorlagichidagi ajratish darchasi qanday maqsadda o'zgartiriladi?
20. Nima uchun modulli chigit seyalkasiga yetti turdag'i miqdorlovchi disklar qo'shib sotiladi?
21. Qanday sababga ko'ra pylonka ostiga chigit ekiladigan daladagi kesaklarni maydalab, tuproqni mayin holatga keltirish katta ahamiyatga ega?
22. Nega ekiladigan chigit ustiga to'shaladigan pylonkani tarang holatga keltirib, uning ikki chetini tuproq bilan zichlab ko'mish talab qilinadi?
23. Pylonka ostiga chigit ekadigan barabansimon miqdorlagich urug'ni bevosita tuproq ichiga tushirishi qanday ta'minlanadi?
24. Kartoshka ekish mashinasida tugunaklarni tuproqqa kerakli chuqurlikda ko'mish qanday ta'minlanadi?
25. Kartoshka tugunaklari ekilgan uyalar oralig'i qanday omillar asosida belgilanadi va o'zgartiriladi?
26. Ekilgan qatolardagi sabzavot ko'chatlari oralig'i qanday o'zgartiriladi?

So'nggi vaqtida butun sayyoramiz miqyosida iqlim qisman o'zgarayotgani, natijada, ekologik muvozanat buzilayotgani to'g'risidagi gaplar hammaga ma'lum. Afsuski, Respublikamizda ham shunday o'zgarishlar kuzatilmooqda. Yozning issiq kunlarida havo namligi me'yordan oshib ketishi sababli ekin va daraxtlarga zamburug'li, virusli va boshqa kasalliklar ko'p tushmoqda. Natijada turli zararkunanda hasharotlar ko'paymoqda, begona o'tlar tez rivojlanib zarar keltirmoqda. Agar ularga qarshi o'z vaqtida samarali kurash olib borilmasa, hosil taqdiri xavf ostida qoladi. Bunday kurashni katta maydonlarda tez o'tkazish uchun, tabiiyki, o'simlikni himoyalash mashinalaridan foydalaniлади.

Shu sababli, kollejda o'simliklarni himoyalash mashinalarini o'rgatishga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar bunday mashinalarning tuzilishi, texnologik jarayoni va sozlanishlarini, ulardan to'g'ri foydalanish uchun, himoyalash usullari, kimyoviy moddalar bilan ishlov berishga qo'yiladigan agrotexnik talablar (ATT)ni ham bilishi kerak.

Mazkur bobni o'rganishni tugatayotgan o'quvchi o'zining nazariy bilimlari asosida paxtachilikda ishlataladigan purkagichni ishga tayyorlash bo'yicha amaliy mashg'ulotni o'tab, tegishli ko'nikmalar oladi.

O'qituvchi o'simliklarni himoyalash usullaridan hozirgi kunda eng ko'p tarqalgani va samarali bo'lgani kimyoviy usul ekanligini talabalarga tushuntirib, doimo bu usulni atrof-muhitga, bevosita mashinada ishlayotgan operator va ishchilarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini uqtirib, xavfsiz ishlash qoidalarini eslatib turishi lozim.

O'simliklarni himoyalashda, asosan agrotexnik, fizik, mexanik, biologik kimyoviy usullardan foydalaniлади.

**Agrotexnik usul** eng arzon va bezarar bo'lib, ekinlarni almashlab ekish, tuproqqa ilmiy asoslangan texnologiya bo'yicha ishlov berish, qulay muddatlarda ekish, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarni yaratish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu usuldan foydalanaganda, ekinlarning tez va sog'lom rivojlanishi uchun kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar, zararkunanda va begona o'tlar uchun noqulay sharoitlar yaratiladi.

**Fizik usulda** zarakunanda va kasalliklarga ziyon keltiradigan ultratovush, yuqori chastotali elektr maydoni, yuqori va past harorat, radioaktiv moddalar, ionizatsiyalaydigan nurlar, mikrouzunlikdagi radioto'lqinlar va boshqalardan foydalaniлади.

**Mexanik usulda zararkunandalarga qarshi turli to'siqilar, tuzoq va qopqon, yopish-qoq yeliimlardan foydalananish ko'zda tutiladi.**

**Biologik usulda** zararkunanda, begona o'tlar, kasallik qo'zg'atuvchi mikrob va bakteriyalarga qarshi kurashda ularning tabiiy dushmanlari (kushandalari, mikroorganizm, antibiotik) dan foydalaniлади. Bu usul boshqalaridan atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi bilan farq qiladi. Undan, ayniqsa, aholi yashaydigan joylar yaqiniga ekinlarga, asosan, g'o'zaga tushgan zararkunandalarga qarshi kurashishda samarali foydalilmoxda. Shu maqsadda, turli entomofaglardan (trixogramma, baqaloq kana, brakon, yetti dog'li xonqizi qo'ng'izi, oltinko'z) keng qo'llanilmoxda. Mikrobiologik preparatlar (dendrobatsillin, bitoksibatsillin, lepidotsid), jinsiy feromonli tuzoqlar kabi vositalar ham yaxshi natija berayapti.

**Kimyoviy usulda** begona o'tlar, zarakunandalar hamda o'simlikda kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizm va zamburug'larga qarshi kimyoviy moddalar ishlataladi. Bu usul eng samarali bo'lsa-da, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli bor. U dalalarga keng ko'larda ishlov berish mumkinligi sababli ko'proq qo'llaniladi.

Ekinzorlarni himoya qilishda kimyoviy usul bilan birga boshqa boshqa bezarar va samarali usullarni muvofiqlashtirilib foydalangan ma'qul.

**ATT.** Zararkunanda va kasallik bilan zararlanguvana ekinlarga zaharli kimyoviy moddalar bilan o'z vaqtida ishlov berilsa, uning samarasini kutilganday bo'ladi. Eritma, suspenziya va emulsiyalardagi kimyoviy moddaning miqdori belgilanganga nisbatan  $\pm 5$  foiz farq qilishi kerak. Urug'larning zaharli moddalar bilan ishlov berishda ular shikastlanmasligi, bir xil konsentratsiyada zaharlanishi lozim.

Ekinlarni purkash va changlatishda dori belgilangan me'yorda va bir tekis tarqatilishi talab qilinadi. Mashinaning ishlov berish kengligi bo'yicha dori tarqatishining notekisligi  $\pm 30$  foiz, paykal uzunligi bo'yicha notekisligi  $\pm 25$  foiz bo'lishi lozim. Dorilash dozasi (changlatish va purkashda) belgilangan miqdordan  $\pm 15$  foiz farq qilishi mumkin. Purkash vaqtida sharmol tezligi 5 m/s dan, changlatishda – 3 m/s dan ko'p bo'imasligi, havo harorati 23°C dan oshmasligi lozim. Yog'ingarchilikdan oldin va yomg'ir vaqtida kimyoviy moddalar bilan ishlov berish tavsiya etilmaydi. Ishlov berilganidan so'ng 24 soat ichida yomg'ir yog'sa, uni takrorlash kerak. O'simliklar gullah davrida ham kimyoviy dorilar bilan ishlov berilmaydi.

**Kimyoviy moddalar to'g'risida ma'lumotlar.** Kasallik va zararkunandalarga qarshi ishlataladigan kimyoviy moddalarning hammasi pestitsidlar deyiladi. Begona o'tlarga qarshi – gerbitsid, zamburg'li kasallikkarga qarshi – fungitsid, bakteriyalar qo'zg'atuvchi kasallikkarga qarshi – bakteritsid, o'simlikning ildizini to'liq quritishda – desikant, o'simlik bargini to'kishda esa defoliantlar qo'llaniladi.

Kimyoviy moddalarning asosiy qismi odam organizmi uchun zaharli. Ular organizmiga nafas yo'llari va og'iz orqali tushib, zaharlashi, hatto, o'limga olib kelishi mumkin. Ayrim moddalar uchun yong'in o'ta xavfli. Shu sababli, kimyoviy moddalar bilan ishlaganda, xavfsizlikning maxsus qoidalariga rioya qilish shart.

Kasallik yoki zararkunandalar tarqalgan joyga, tarqalish darajasiga, o'simliklarning rivojlanish darajasiga qarab, kimyoviy himoyalashning quyidagi usullaridan foydalinish mumkin: eritmani purkash, changlatish, aerozollar bilan purkash, fumigatsiyalash, urug'ni zaharlash, zaharlangan yemish tarqatish, xemoterapiya (o'simlikni zaharli mod-dalar bilan sug'orish) va boshqalar.

**Eritmani purkashda** kimyoviy modda o'ta mayda zarrachalarga parchalanib, katta kinetik energiya berish hisobiga kasallik yuqqan o'simlik barglari, shoxlari yoki zararkunandalarning bevosita tanasiga yuqtiriladi.

Zararkunandalarni yoki kasallikni yo'qotish uchun, ko'pincha, har gektar maydon-ga bir necha gramm, hatto milligramm zaharli kimyoviy moddani bir tekis taqsimlash yetarli bo'ladi, ammo buni amalga oshirishning deyarli iloji yo'q. O'ta oz miqdordagi kimyoviy moddani mashina bilan purkab bir tekis taqsimlash uchun uning suvdagi, ayrim vaqtda, moydag'i eritmasi, suspenziyasi yoki emulsiyasi, ya'ni ishchi suyuqligi tayyorlanadi. Emulsiya va suspenziyalarni bir xil konsentratsiyada saqlash uchun turli emulgator yoki stabilizator aralashtiriladi. Bunga qo'shimacha ravishda mashina bak-lariga ularni uzluksiz aralashtirib, cho'kindi hosil bo'lismeni oldini olib turadigan mosla-malar o'rnatiladi. Purkalgan suyuqlikning samarasini yuqori bo'lishi uchun, uning parachalanishi hisobiga paydo bo'lgan zarrachalar o'simlik yoki zarakunanda tanasidan oqib tushib ketmasdan, to'liq qoplab yopishib qolish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Ushbu xususiyatni e'tiborga olgan holda kutilayotgan natijaga erishish uchun, ishchi suyuqlikning har gektarga sarfi ham turlicha bo'ladi. Suyuqlikning sarfiga qarab kimyo-viy ishlov berish oddiy, oz miqdorlab va o'ta oz miqdorlab purkash kabi turlarga bo'linadi.

Ma'lumki, paxta hosilini terishdan oldin g'o'za bargini to'kish uchun traktorga osil-gan ventilatorli purkagich bilan dalaga defoliantning suv bilan aralashmasi purkaladi. Ushbu ventilatorli purkagich suyuqlikni diametri 250—600 *mkm* bo'lgan zarracha (tom-chi)larga parchalab, 400—600 / eritma sarflab oddiy purkashni bajaradi. Bunday purkashda tomchilarning yiriklari barglarga yopishib qolmasdan, yerga dumalab tushib ketadi. Natijada, o'simlik ustida dorining oz qismi qolib, ishlov berish sisfati pasayadi, yerga tushgan tomchilar esa tuproqni zaharlaydi, natijada tuproqdag'i chuvalchang va boshqa foydali mikroorganizmlar qirilib ketadi. Dorilash ta'sirini oshirish uchun uning eritmasi ko'proq sarflanadi. Shu sababli, iloji bo'isa, oddiy miqdorda purkashdan kam-roq foydalangan ma'qul.

Oz miqdorlab purkashga erishish uchun, tayyorlangan suyuqlik oddiy purkashga nisbatan maydaroq (diametri 100—250 *mkm*) zarralarga parchalanadi. Mayda tomchilar barglarga yopishib qoladi, yerga kamroq qismi tushib ketadi, ya'ni eritmaning sarfi kamayadi, o'simlikka ta'siri esa kuchliroq bo'ladi. Bir gektar maydonga sarflanadigin eritma mig'dori (50 litrgacha) oddiy purkashga nisbatan 8—10 barovar kamayadi, oz miqdorlab purkashni taa'minlaydigan mashinalar murakkab va qimmat bo'ladi.

O'ta oz miqdorlab purkashni ta'minlaydigan mashinalar ochiq maydonlarda emas, yopiq issig'xonalarda keng ko'lama ishlataladi, chunki o'ta mayda zarrachalarni havo oqimi chet tomonga olib ketishi mumkin. Bunday mashina ishchi suyuqlikni 100 *mkm* dan maydaraq zarrachalarga parchalab, ya'ni to'zonlatib purkaydi. O'ta oz miqdorda

(gektariga 5 litrgacha) purkashda kutilayotgan natijaga erishish uchun kerakli miqdorlari qoladi, ammo eritma konsetratsiyasi keskin oshiriladi. Zarrachalar yopishqoqligini kuchatirish uchun dori (preparat) suvda emas, moy Simon, yopish moddalarda eriladi. Bu usuldan foydalanganda, to'zonlatilgan zarrachalar bevosiz zararkunanda va barglarga to'liq yopishib qoladi, o'simlikka to'liq shimaladi, samaili yuqori bo'ladi. Yerga esa tomchilar tushmaydi, suyuqlik sarfi oddiy purkashga nisbatan 100 barovargacha kamayadi.

Oz miqdorlab purkashda diametri 100—250  $\mu\text{m}$  bo'lgan tomchilar bilan bir vada ko'p bo'lmagan 25—50  $\mu\text{m}$  li o'ta mayda zarrachalar ham paydo bo'ladi. Amrular obyektga yetib bormasdan bug'lanib yoki shamolda chetga uchib ketadi. Olimiarning tadiqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qimmatga tushadigan o'ta oz miqdorlab purkashga yaqin bo'lgan natijani suyuqlikni deyarli bir xil o'chamli (monodispers) ya'nini diametri 90—120  $\mu\text{m}$  bo'lgan zarrachalarga parchalab oz miqdorlab purkashga orqali erishish mumkin.

**Changlatishda** kasallangan o'simlik va zarakunandalarga kukunsimon kimyo moddalar bilan ishlov beriladi. Changlatish uchun tayyorlangan kukun tarkibida bevosita zaharli modda bilan bingalikda neytral bo'lgan turli changsimon moddalar (tall tuproq, bo'r) aralashtirilgan bo'ladi. Kukun zarracha 15—25  $\mu\text{m}$  bo'lishi samara bo'ladi. Kukunning yopishuvchanligini oshirish maqsadida unga 3—5 foiz minera moy Simon moddalar (dust) qoshiladi.

Shamol changlatish sifatini pasaytirib yuboradi. Kukunning yopishuvchanligi pas bo'lganligi sababli, kukunsimon moddalarining sarfi suyuqlikka nisbatan bir necha martko'p bo'ladi.

**Aerozol bilan ishlov berishda** zaharli modda o'ta mayda zarracha (tuman, tutun) ga aylantiriladi. Shu sababli, bu usul samarali bo'lib, o'simlikka zaharli moddani tekis yopishtirish imkonini beradi. Tutun va tuman inshootlardagi tirqishlarga, daraxt banglari orasiga oson kiradi. Purkashga nisbatan aerozol ko'rinishida ishlov berish zaharli moddaning sarfini bir necha o'n barobar kamaytirish imkonini bersa-da, da-la sharoitida aerozoldan foydalanish o'ta qiyin bo'lgani uchun bu usul kam qo'llaniladi.

**Fumigatsiyalash deganda** cheklangan hajmdagi obeyktini (asosan, urug'larga) zaharli moddaning bug'i yoki zaharli gaz bilan ishlov berish tushuniladi. Ekiladigan urug' yoki ko'chatlarga keraklicha kimyoviy ishlov berib, kasallik chaqiruvchi bakteriya va zamburg'lar qiriladi. Zaharlab ishlov berishning quruq, yarim quruq va namlash usullari mavjud. Quruq usulda, zaharlanadigan urug' kukunsimon kimyoviy modda bilan uralashtiriladi. Yarim quruq usulida esa, 0,5% formalin eritmasi sepilib, usti bir necha o'at yopib qo'yiladi, keyin shamoliatiladi. Namlab zaharlashda urug' formalinning uvdagi kuchsiz eritmasiga bir necha soatga solinib, so'ng quritiladi.

Quruq zaharlashni ekishdan 2—6 oy ilgari, yarim quruq zaharlash — bir necha kun oldin, namlash esa urug' bevosita ekilishidan oldin bajariladi.

**Kemoterapiya** o'simlikni o'zi uchun bezurar, lekin kasallikning oldini oладиган va таркунанданин haydaydigan moddalar bilan to'yintirishdir.

Ekinzorga kimyoviy usulda ishlov berish mashinalari quyidagi uch operatsiyani bajaradi: zaharli moddani doza (me'yor) laydi, uni mayda zarrachalarga parchalaydi va ishlov berish obyekti (joyi) ga uzatadi. Bunday mashina bilan ishlov berilganda maxsus rezervuar (idish) dagi ishchi suyuqlik nasos yordamida parchalovchi uchlikka kerakli bosim ostida yuboriladi. Uchliklar yordamida zarrachalarga parchalanayotgan modda kinetik energiya hisobiga uzatilib o'simlikka ishlov beradi. Har qanday mashina rezervuar, nasos, parchalovchi uchliklardan tuzilgan.


Rezervuarlar polietilen, oynasimon plastik yoki zanglamaydigan po'lat tunukalaridan tayyorlanib, bo'g'ziga quyladigan eritma uchun filtr, pastki qismiga tindirgich o'rnatilgan bo'ladi. Rezervuarni to'ldirish uchun ejektorlar keng qo'llaniladi. Rezervuardagi emulsiya yoki suspenziyaning konsenratsiyasi doimo bir xil bo'lishi uchun unga uzlusiz aralashtirib turadigan pnevmatik, gidravlik yoki mexanik aralashtirgichlar o'rnatiladi. Nasoslar ishchi suyuqliknini uchliklarda parchalash uchun yetarli bo'lgan bosimda yetkazib berishi kerak. Bosim ostida parchalangan zarrachalar purkash obyektiga yetib borishi uchun, zarur bo'lgan kinetik energiyani ta'minlash lozim. O'simlikka uchlik o'ta yaqin olib borilishi mumkin bo'lganligi sababli, bu ishni bajarish uchun 0,2–1,0 MPa (2–10 atm), bog'lardagi daraxtlarga ishlov berish uchun esa – 2,0–2,5 MPa bosim talab qilinadi. Bosim pnevmatik yoki gidravlik nasoslar yordamida hosil qilinadi. Pnevmatik nasos havoni rezervuardagi suyuqlik ustiga haydar, u yerda ortiqcha bosim hosil qilishi tufayli ishchi suyuqliknini siqib, magistral shiangga yuboradi. Pnevmatik nasoslar qo'l purkagichlarida ishlatiladi.

Gidravlik nasoslar keng tarqalgan bo'lib, ular ishchi suyuqliknini bevosita o'zidan o'tkazib, yuqori bosim ostida parchalovchi uchliklarga yuboradi. Nasos qismilari kimyoviy moddaga tegishi sababli, tez korroziyaga uchrashi mumkin. Porshenli, plunjерli, markazdan qochirma, girdoblovchi, shesternyali, diafragmali, membranalni, rolikli, o'qi bo'yib so'ruvchi va boshqa turdag'i nasoslar ishlatiladi. Porshenli va plunjерli nasoslar katta bosimli (2,5–3,0 MPa), diafragmali, shesternyali, rolikli nasoslar past bosimli (0,5–0,6 MPa) prukagichlarda qo'llaniladi. Nasos ishiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri – u haydayotgan suyuqlik bosimi bir tekis bo'lishi kerak.

**Parchalovchi uchliklar (forsunkalar)** purkash mashinasining eng muhim qismi, chunki uning ish sifati butun mashinaning ishini baholaydi. Ishlash prinsipi bo'yicha uchliklar markazdan qochirma, deflektorli, pnevmatik va aylanuvchan guruhlarga bo'linadi.

**Markazdan qochirma uchliklar** suyuqliknini parchalashdan oldin, uni katta tezlikda aylanma harakatga keltiradi, chunki aylanayotgan eritma uchlik ko'zidan chiqayotib, zarrachalarning keng, konussimon ko'rinishidagi turbulent oqimini hosil qiladi. Ular bir necha turlarga bo'linadi: dalabop, bog'bon, tangensial, markazdan qochirma va boshqalar.

**Dalabop uchlik** korpus 1, vintsimon o'zak 2 va qalpoqdan 3 iborat (*57-a rasm*). O'zak 2 qalpoqning 3 ichiga zich kiritilgan bo'lsa, qalpoq korpus 1 ga rezba orqali kiydirilgan. O'zakning vintsimon kanallli qismi bilan qalpoq orasidagi girdoblash kamera



57-rasm. Suyuqlikni parchalovchi markazdan qochirma uchliklar sxemasi:

a—dalabop; b—tangensial; 1—korpus;  
2—vintsimon o'zak; 3—qalpoq; 4—girdoblash kamerasi.

Bog'bop uchlik 2,0—2,5 MPa bosim ostida ishlab, parchalangan eritmani 4—5 m uzoqlikka sochadi. Dalabop uchlikdan farqi, girdoblash kamerasining kengligini sharoitga qarab sozlash imkonи borligidadir. Agar o'zakni burab, qalpoqdan birmuncha uzoqlashtirilsa, girdoblash kamerasi kengayib, qalpoq ko'zidan otilib chiqayotgan zarrachalar uzoqqa otiladi. Aksincha, o'zak qalpoqqa yaqinlashtirilsa, parchalanish darajasi yaxshilanib, zarrachalarning disperslik chegaralari torayadi, purkash konusi kengayadi, yaqinroq joyga ishlov berish imkonи tug'ilib, ishchi suyuqlik sarfi kamayadi. Bog'bon uchlikning ko'z diamteri 1,0; 1,5; 2,0; 2,5; 3,0 va 4,0 mm bo'lgan diafragmalari almashtirilib, turli balandlikdagi daraxtlarga brandspoy bilan ishlov berish mumkin. Dalabop hamda bog'bop uchliklar tez-tez tinqilib qolishi mumkin. Ularga qaraganda birmuncha murakkabroq bo'lgan, ammo kam tiquqidigan tangensial uchliklar ham keng tarqalgan (57-a rasm). Ular past bosimda ishlaydi. Ishchi suyuqlik uning korpusi 1 dagi dumaloq kameraiga urinma yo'nalihsida bosim ostida kiritiladi. Natijada, suyuqlik girdobsimon aylanma harakatga kelib, diafragma 7 ning o'rtafigi ko'zdan turbulent oqim bilan chiqib parchalanadi va konussimon shaklda tarqaladi. Diafragma ko'zining diametri 1,5:2,0 va 3,0 mm bo'lishi mumkin. Bunday uchlik suyuqlikni yirikroq zarrachalarga parchalaydi va shamol ta'sirida qo'shimcha parchalash uchun ular ventilatorli purkachlarga o'rnatiladi.

**Purkash qurilmalari.** Purkash qurilmasi ishchi suyuqlikni me'yor (doza)lab, yuqoridagi uchliklar yordamida parchalangan o'ta mayda tomchilarni ishlov berish obyektiga uzatish uchun xizmat qiladi. Ishlash prinsipiغا ko'ra, purkash qurilmalari va ular o'rnatilgan mashinalar ikki turga bo'linadi: gidravlik va ventilatorli. Gidravlik purkash qurilmasida ishchi suyuqlik uchliklarda katta gidravlik bosim ta'sirida parchalanadi va hosil bo'lgan zarrachalar purkaladigan obyektga parchalash jarayonida berilgan kinetik energiya hisobiga uzatiladi. Ventilatorli purkash qurilmasida esa, ishchi suyuqlik alohida gidravlik bosim yoki havo oqimi ta'sirida oddiy uchliklarda gidravlik

bo'shlig'i 4 mavjud. Bu uchlik past bosim (0,3—0,8 MPa) ostida ishlab, parchalangan zarrachalarni 1—2 m uzoqlikka  $\alpha=80^\circ$ — $98^\circ$  burchakli purkash konusi shaklidagi pardaga o'xshatib purkaydi, zarrachalar oqimi vint bo'yicha turbulent harakatga keladi. Natijada, barglargning tag qismiga ham ishlov beriladi.

**Dalabop uchlikning** tejamkor turi ham bor: uning o'zagidagi vintsimon kanalning qadami kichik bo'lib, girdob shiddatli, parchalanish esa mayda bo'lgani uchun ishchi suyuqlikning sarfi 3—4 marotaba kamayadi, lekin ularning ko'zi tez tinqilib qolishi mumkin. Shu sababli, yuboriladigan suyuqlik filtrlab tozalanadi.


hamda pnevmatik usullarning birgalidagi ta'sirida parchalanadi va hosil qilingan zarrachalar purkash obyekti ga ventilatordan kelayotgan shamol yordamida yetkaziladi.

**Gidravlik purkash qurilmalarini** shtanga, brandspoyt, naychali baraban, injektor va boshqa turlarga bo'lish mumkin. Ekinlarga yoppasiga kimyoiviy ishlov berish uchun shtangalgi dalabop, tokzorbop, bog'bop, universal qurilmalar ishlatiladi. Ular dan ko'p tarqalgani dalabop turidir. Dalabop purkash qurilmasi bo'lak lanuvchan karkas, gidravlik armatura (uchliklar bilan birgalikda), traktorga ulash moslamasi, purkash balandligini sozlash mexanizmidan tuzilgan. **Bunday qurilmalarning shtangalari**


istik gorizontal (ekining ustiga yoppasiga purkashda) va kombinatsiyalashtirilib o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Gorizontal shtangalarni (58, a-rasm) dala va poliz, sabzavot ekinlarini yoppasiga, kombinatsiyalashgan shtangalar (58, b-rasm) g'o'za tuplarini purkash uchun ishlatiladi. Shtangada markazdan qochirma, tirqishsimon, deflektorli parchalash uchliklaridan foydalanish mumkin. Parchalovchi uchliklarni joylashtirish qadami (oralig'i) ularning purkash konusi burchagi o'ga (57-rasm) va shtangani ekin ustiga nisbatan o'rnatish balandligi  $h$  ga bog'liq.

**Brandspoyt** gidravlik purkash qurilmasidan mashina bora olmaydigan joylar hamda baland daraxtlarga qo'lida ishlov berishda foydalaniadi. Uzun sopining (1–2 m) uchiga o'zagi sozlanadigan markazdan qochirma parchalovchi uchlik, dastasida esa, suyuqlik yo'lini ochib-yopadigan ventil o'rnatilgan bo'ladi. Uchlikning holatini qalpoqqa nisbatan o'zgartirib, girdoblash kamerasining balandligi sozlanadi va turli balandlikdagi daraxtlarga sepish uzoqligi rostlanadi. Brandspoytlar oddiy va uzoqqa sepadigan turlarga bo'linadi. Oddiy brandspoyt 4–8 m, uzoqqa sepadigani esa 12–15 m masofadagi obyektni purkay oladi. Brandspoyt uchligiga o'rnatish uchun ko'zining teshigi 1,2 da 4,8 mm gacha bo'lgan bir necha almashuvchan disklar ham bo'ladi.

**Ventilatorli purkash qurilmasi** ishchi suyuqlikni pnevmatik, gidravlik yoki gidropnevmatik usullarda parchalaydi. (59-rasm). Pnevmatik usul gidravlik usulga nisbatan dispersligi yuqori bo'lgan zarrachalarga parchalash imkonini berishi tufayli ko'proq ishlatiladi. Bu usulda sopining eng tor (tezligi katta, bosimi kam) joyiga uchlik o'rnatiladi. Uchlikdan parchalanib chiqayotgan ishchi suyuqlik havo



58-rasm. Shtanga turlari:  
a – gorizontal; b – kombinatsiyalashgan.




59-rasm. Markazdan qochirma ventilatorli purkash qurilmasi:  
1 – ventilator parragi; 2 – uchlik.

oqimi ta'sirida yana qo'shimcha parchalanib, 80—150 *mkm* zarrachalarga aylanadi. Bu yerda havo oqimini tezligi qancha katta, suyuqlik miqdori oz bo'lsa, dispersililik shuncha yuqori (80 *mkm* atrofida) bo'ladi. Parchalanayotgan suyuqlik bilan havoning hajmi sarflarining nisbati 1:6000 bo'lishi kerak. Markazdan qochirma ventilator hosil qiladigan havo oqimining tezligi (80—180 *m/s*) boo'ladi.


**Pukagichlar** — dala ekinlari va bog'lardagi daraxtlarga kimyoviy ishlov beradigan mashinalardir. Ular purkash qurilmasi ish prinsipiga ko'ra, shtangali va ventilatorli; ishchi suyuqliknin sarflash miqdoriga ko'rsa, oddiy, oz miqdorda va o'ta oz miqdorda sepadigan; traktor bilan agregatlanishi bo'yicha — tirkalma, o'rnatma, o'ziyurar; bajaradigan ishi bo'yicha universal, bog'bop, dalabop kabi turlarga bo'linadi. Paxta dalalarida chiqiq traktoriga o'rnatiladigan ventilatorli va shtangali pukagichlar qo'llaniladi. Ular zararkunanda hamda kasalliklarga qarshi kurashish bilan bir vaqtida g'o'zani defoliatsiyalash va desikatsiyalash uchun ham ishlatiladi.

**Ventilatorli purkagichning ish unumi ko'proq, ammo undan foydalanish natijasida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'proq bo'ladi.**

Paxtachilik uchun mo'ljallangan ventilatorli purkagichning umumiy ko'rinishi 60-a rasmida tasvirlangan. Chiqiq traktoriga ikki dona bak 9, 10 o'rnatilgan. Baklardagi ishchi suyuqliknin purkash qurilmasisiga magistral quvurcha 20 uzatadi. Ventilatorli purkash qurilmasini tebratish uchun harakat yuritmasi, ventilator 1 va uning karmayi, rotorli nasos, reduktor, chervyakli reduktorlar yagona ramaga o'rnatilgan.



a



b


**60-rasm.** Ventilatorli purkagichning umumiy ko'rinishi (a) va texnologik ish jarayoni (b): 1—ventilator; 2—nasos; 3—uzuvchi klapan; 4, 16—kranlar; 5, 14, 17—filtrlar; 6—manometr; 7—sozagich; 8, 11—uzatish magistrali; 9, 10—baklar; 12—so'rish magistrali; 13—brandspoyt; 14—filtr; 15—uch yo'lli kran; 18—zaharli modda uchun idish; 19—uchlik.

Purkagichning texnologik ish jarayoni quyidagicha (*60-b rasm*): nasos 2 baklar 9, 10 dagi ishchi suyuqlikni so'rish magistrali 12, uch yo'lli kran 15 va filtr 14 orqali so'rib olib, filtr 5 va uzuvchi klapan 3 orqali uchlilik 19 ga uzatadi. Ventilator 1 karnayining og'ziga o'matilgan uchliliklar 19 dan chiqqan ishchi suyuqlik zarrachalarini ventilatorli purkash qurilmasiga uzatadi. Ishchi suyuqliknинг ortiqcha qismi bosim sozlagichi 7 dan uzatuvchi magistral 8, 11 orqali bakka favvora ko'rinishida kiritiladi hamda u yerdagi suyuqlikni uzlusiz aralashtirib turadi.

Harakat traktorning quvvat olish validan kardanli uzatma orqali reduktorga uzatilib, ventilator va nasosga keladi. Uchlilik o'matilgan ventilator karnayi o'ng va chap to-monga burila oladi, bunga erishish uchun ventilator g'ilosi tros (zanjir) orqali tebranuv-chi sektor bilan ularngan. Ishchi suyuqliknинг bosimi 0,2—0,5 MPa bo'lishi kerak.

**Shtangali purkagich** kimyoviy dorilarni obyektga maksimal yaqinlashtirilgan uchliliklarda parchalab ishlov beradi. U ventilatorli purkagichga nisbatan atrof-muhitga kam-roq zarar keltiradi.

Purkagich rezervuar 28, markazdan qochirma nasos 6, ishchi suyuqlikni so'rish va bosim bilan haydash tizimlari, bosim sozlagich 12, ejektor 30, taqsimlagich 32, yopqich 8, shtanga 25 dan iborat (*61 rasm*). Rezervuarning eritma quydigan bo'g'ziga filtr 23



*61-rasm. Shtangali purkagich:*

a—ish jarayonining sxemasi; b—shtanga sxemasi; 1—so'ruchchi va 2—qaytaruvchi quvular; 3—kran; 4—reduktor; 5—nasos; 6—yopqich; 7, 8—yopish klapanlari; 9—bosim sozlagich; 10, 11, 12, 13, 14—filtrlar; 15—tutqich; 16—ikki yelkali richag; 17—reduksion klapan; 18—gidroorashtirgich; 19—to'ldirish klapani; 20—sath o'chagich; 21—shtanga; 22—keskin yopuvchi klapan; 23—parchalovchi uchlilik; 24—rezervuar; 25—ejektor; 26—taqsimlagich; 27—ko'tarish trosi; 28—rama; 29—amortizator.

o'rnatilgan. Suyuqlikni quyishda klapan 22 o'chib qo'yiladi. Rezervuardagi ishchi suyuqlikning konsentratsiyasini bir xil ushlab turish uchun uning ichiga gidroaralashtirgich 20 o'rnatilgan. Rezervuarning oldingi devoriga sath o'lchagich 24 qo'yilgan.

Bosim sozlagich ikki holatlari klapanlar 9, 10 va reduksion klapan 17 ga egadir. Klapan 17 ning sozlovchi vinti ikki yelkali richag 16 ga o'rnatilgan. Uni tutqich 15 yordamida chap tomonga surilsa, bosim sozlagichning A va V bo'shliqlari bir-biridan ajratiladi. Richag 16 o'ng tomonga surilsa, A va V bo'shliqlar bir-biriga ulanib, ortiqcha suyuqlik rezervuarga o'tkazib yuboriladi.

**Shtangali purkagichdan foydalaniш qimmatga tushsa ham, uning atrof-muhitga salbiy ta'siri kamroq. Ayniqsa, sholi yashaydigan joylarga yaqin joylashgan fermer xo'jaliklarida undan foydalanim ma'qul hisoblaned.**

holatida seksiyalar bir chiziqqa (gorizontal tekisiikk), transport holatida o'rtalari va chetki seksiyalar yig'ilib, deyarli tik holatga keltiriladi. Bu ishni gidrosilindr 39, tros va blok 37 lar orqali amalga oshiriladi. Qo'zg'almas markaziy seksiya 42 ni rama 40 bo'ylab gidrosilindr 41 yordamida ko'tarib-tushiriladi va turli balandlikda purkashga sozlanadi.

Shtanga seksiyalaridagi kollektor shlangalariga 45, 46, 47, 48, 50 suyuqlikni parchalovchi uchlik 27 lar o'rnatilgan. Bu uchliklarning har birida suyuqlik oqimini keskin to'xtatadigan klapan (agar uchlik ko'zi tiquilib qolsa) joylashtirilgan.

Rezervuar ikki yo'i bilan: boshqa idishda tayyorlangan ishchi suyuqlikni rezervuarning og'ziga quyib yoki nasos 6 yordamida so'rib to'ldiriladi. Nasos bilan to'ldirish uchun taqsimlagich 32 ga filtr 34 va so'rvuchi naycha 31 ni ulab, taqsimlagichdagi klappanni surish hisobiga E va D bo'shliqlar bir-biriga birikadi. Tutqich 15 ni burib, ikki yelkali richag 16 (klapan 17 bilan birgalikda)ni o'ng tomonga surib qo'yiladi. Shtangaga suyuqlikni uzatadigan yo'llar klapan 9, 10 lar bilan yopiladi, nasos ishga tushirilib, ishchi suyuqlik rezervuarga yo'naltiriladi. Suyuqlik filtr 34, naycha 31, taqsimlagich 32, naycha 33, nasos, naycha 11, bosim sozlagich 12, naycha 18, gidroaralashtirgich 20 orqali rezervuarga o'tadi.

Ishni boshlashdan oldin tutqich 15 ni chap tomonga surib, yopqich 8 ni yopish kerak. 9, 10 klapanlarni o'chib, nasos ishga tushiriladi. Ishchi suyuqlik rezervuardan naycha 29, taqsimlagich 32 ning C va D bo'shliqlari orqali nasos 6 ga keladi. Nasos uni bosim sozlagich 12 ning A bo'shilig'iga yuboradi. Suyuqlikning asosiy qismi naycha 21 orqali filrlarda 13, 14 tozalanib, shtangadagi kollektor shlangalari 45, 46, 47, 48, 50 orqali parchalovchi uchlik 27 larga yetib boradi va parchalanib, purkaladi.

Uchliklarga yuborilgan suyuqlikning ortgan qismi reduksion klapan 17 dagi likopchanli ko'tarib, naycha 18 orqali gidroaralashtirgichga keladi va rezervuarga uzlusiz quyilib turadi. A bo'shilig'idagi naycha 21 va shtanga 25 larda doimo bosim ostidagi suyuqlik saqlanib turadi. Bosim klapan 17 yordamida sozlanib, monometr M bilan o'lchanadi. Shtangani shunday balandlikka o'rnatish kerakki, yonma-yon o'rnatilgan uchliklarning bir tekis ishlov berishi ta'minlansin.

Purkagichning qamrov kengligi 18—22 m, purkash ma'yori 75—30 l/ga, ishchi tezligi 12 km/soatgacha, ish unumi 9—10 ga/soat.

Respublikamiz xo'jaliklarida asosan OVX-600 kabi ventilatorli (ayrim joylarda PSHX-15/15 pnevmatik shtangali) purkagichlar ishlatalmoqda. Shu sababli, amaliy tashg'ulotni ventilatorli purkagichni ishga tayyorlashga bag'ishlash ma'qul.

**Mashg'ulot o'tkazildan maqsad:** paxtazorga kimyoiy ishlov berish uchun ventilatorli purkagichni ishga tayyorlash tartibini o'rgatib, qilinadigan ishlarni bajarish bo'yicha quvchilarga ko'nikma berish.


**Mashg'ulot o'tkazish uchun kerakli jihozlar.** Traktorga osilib, baklari suvgaga to'ldirilgan ventilatorli purkagich; tajriba o'tkazish uchun  $15 \times 25\text{ m}$  o'lchamdagisi yer maydoni; ekundomer; suyuqlik hajmini o'lchash uchun 10 litrik maxsus idish; 62 va 63-rasmlar isosida tayyorlangan nomogrammali plakatlar; mashina tuzilishi va texnologik jarayoni xemasi keltirilgan plakatlar; darslikdan tashqari ma'lumotlar manbayi (reklama maqsida chiqarilgan prospekt va plakatlar; video o'quv filmlari; gayka kalitlarining to'plami).

**Mashg'ulot o'tkazish tartibi.** Mashg'ulotga kelgan o'quvchilar guruhga bo'linadi. Ularga bir gektar ekinzorga har xil miqdordagi suyuqlik purkash (turli uchliklar) uchun mashinani ishga tayyorlash topshirig'i beriladi. Guruhlar navbat bilan o'z topshiriqlarini bajaradi. Shu jarayonda o'zları bajarayotgan ishlarni og'zaki izohlab turishadi. Har bir to'pdagi talabalar mashinani topshiriq bo'yicha to'g'ri sozlaganliklarini tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirib, tegishli xulosa yozishadi.


#### O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi larni tushuntiradi:

Ventilatorli purkagich sxemasi 60-rasmida keltirilgan. Karnay og'ziga ko'zlarini har xil bo'lgan 8 dona tirqishli uchliklar o'rnatish mumkin. Ushbu uchliklardan bosim ostida chiqayotgan suyuqlik birinchi marta parchalanib, ventilator karnayidan o'ta katta tezlikda ( $80\text{ m/s}$  dan yuqori) chiqayotgan havo oqimi tomchilarni ikkinchi marta parchalab, mayda zarrachalarga aylantiradi.

**So'nggi vaqtida, tayyorlanayotgan ventilatorli purkagichlarga pnevmodiskli parchalash qurilmasini ham o'rnatish ko'zda tutilgan.** Pnevmodiskli parchalash qurilmasida yupqa (qalinligi  $0,35\text{ mm}$ ) polietilen disklar orasiga maxsus shaybalar qistirilib, aylanuvchan asosga kiydiriladi. Disk va shaybalar o'rtasida hosil bo'ladigan o'ta kichik g'ovaklar (ko'ndalang kesimi  $2,5 \times 0,35\text{ mm}$  bo'lgan kanallar)ga suyuqlik bosim ostida



62-rasm. Suyuqlikning zaruriy miqdorini aniqlash nomogrammasi.



63-rasm. Uchlik ko'ziga moslab bosimini aniqlash nomogrammasi.

yuboriladi. Asos katta tezlik bilan (15–20 ming *ayl/min*) aylanganida markazdan qochirma kuchlar ta'sirida suyuqlik kanallardan ingichka favvoralar ko'inishida otilib chiqadi va ventilator karnayidan chiqayotgan havo oqimi ta'sirida 100–150 *mkm* diametrali tomchilarga ajraladi, ya'ni oz miqdorda purkash hosil bo'ladi. Purkash qurilmasi minutiga 16–20 marta buriladigan, qamrov kengligi esa kamida 25 *m* qilib sozlanadi. Paxtazorga ishtov berishda gektariga 100 *l*, bog' va tokzorlarga 60 *l* suyuqlik (dori eritmasi) sarflashga erishish mumkin.

Purkagichni bunday variantida soatiga 40 ming kub metr havo haydaydigan markazdan qochirma ventilator hamda 0,5–0,8 MPa (5–8 atm) bosim bilan suyuqliknini yuboradigan rotorli nasos o'matilgan.

Purkagichni ishga tayyorlashda parchalovchi uchliklar soni n tanlanib, bir dona uchlikdan sepilishi lozim bo'lgan suyuqlik miqdori q aniqlanadi:

$$q = \frac{QB_n V}{600n} \text{ l/min},$$

bu yerda:  $Q$  — ishchi suyuqlikning bir gektarga sarflanadigan miqdori, *l/ga*;  $B_n$  — ishchi qamrov kengligi, *m*;  $V$  — agregat tezligi, *km/soat*;  $n$  — purkagichga o'matilgan uchliklar soni.

$q$  ni 62-rasmdagi nomogramma yordamida ham aniqlash mumkin.  $Q$  nomogrammada belgilanib, u yerdagi mil (strelka) bo'yicha kerakli  $V$  bilan kesishgunicha vertikal chiziq o'tkaziladi, topilgan nuqtadan chizilgan gorizontal chiziq va aggregatning tegishli tezligi  $V$  bilan kesishgan nuqtasidan vertikal chiziq o'tkazilsa kerakli  $q$  aniqlanadi. Agar  $q < 50 \text{ l/ga}$  bo'lib chiqsa, pnevmodiskli,  $q > 50 \text{ l/ga}$  bo'lsa, ventilatorli purkash qurilmasi ishlataladi.

63-rasmdagi nomogramma yordamida uchlik ko'zining diametriga qarab aniqlangan  $q$  ni ta'minlash uchun o'matilishi kerak bo'lgan suyuqlik bosimi  $R$  aniqlanadi. Mashinada uchliklar to'plami mavjud bo'lib, ularning kombinatsiyasi nomogrammada shartli raqamlar (I—VI) bilan belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

- I — ko'z teshigining kirish va chiqish diametri 2,5 *mm* bo'lgan ikkita uchlik;
- II — ko'z teshigining kirish va chiqish diametri 2,5 *mm* bo'lgan uchta uchlik;
- III — ko'z teshigining kirish va chiqish diametri 2,5 *mm* bo'lgan to'rtta uchlik;
- IV — ko'z teshigining kirish va chiqish diametri 2,5 *mm* bo'lgan sakkizta uchlik;
- V — ko'z teshigining kirish diametri 2,5 *mm*, chiqish diametri 6,0 *mm* bo'lgan oltita uchlik;

VI — ko'z teshigining kirish diametri 2,5 *mm*, chiqish diametri 6,0 *mm* bo'lgan sakkizta uchlik.

O'quvchilarga beriladigan topshiriqda uchliklarning ushbu jadvalda qabul qilinagan kombinatsiyasining birini mashinaga o'matib, tegishli  $Q$  ni belgilash talab qilinadi.

Purkagichning amalda sarflayotgan suyuqlik miqdorini aniqlash uchun uchliklar o'matilgan naycha shlangasi bilan yechib olib, unga polietilen pylonka kiydiriladi va (shlangani qo'shib) bog'lanadi. Bakiarga oddiy suv quyilib, nasos ishga tushiriladi, u ishchi tezligini olgunicha purkalgan suyuqlik pylonkaning ochiq tomonidan yerga to'kilib turadi, uchliklar bo'sh idishga tushirilib, bir minut davomida ushiab turiladi. Idishga tushgan suyuqlik miqdori hisoblangan q ga teng bo'lishi kerak, aks holda, bosim o'zgartiriladi.

Agar kollejda shtangali purkagich mavjud bo'lsa, uni ishga tayyorlash ham yuqoridaqgi tartibda bajariladi.

1. Dehqonchilik mahsulotlarini ko'paytirish uchun ekinga tushadigan kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashib, bo'lajak hosilni himoya qilish talab qilinadi.
2. Ekinni himoyalashning eng arzon va ekologik toza bo'lgan agrotexnik va biologik usullarini ko'rsatish joiz.
3. Ekinni himoyalashda kimyoviy usul yaxshi samara berishi sababli keng tarqalgan, ammo atrof-muhitga salbly ta'sir ko'rsatadi.
4. Oz miqdordagi kimyoviy moddani katta maydonga bir tekis taqsimlab tarqatish uchun uning suvdagi yoki boshqa suyuqliklardagi eritmasi yoki aralashmasi (emulsiya, suspenziya) tayyorlanadi.
5. Zaharli aralashmani ekinzorga purkeydigan mashina uni yirik tomchilar (250 mkm dan kattaroq) ko'rinishda purkasa, ko'p qismi bevosita zararkunanda tanasiga yoki barglar sirtiga yaxshi yopisholmay, yerga tushib tuproqni zaharlaydi.
6. Suyuqlikni o'ta mayda zarrachalarga parchalab oz va o'ta oz miqdorlab ekinga ishlov berish samarali bo'ladi, atrof-muhit kamroq zararlanadi. Chunki o'ta mayda tomchilarning asosiy qismi ishlov berish obyektiiga yopishib qoladi.
7. Har qanday mashinaning purkash qurilmasi kimyoviy moddadan tayyorlangan suyuqlikni o'ta mayda (90–120 mkm) monodispers tomchilarga parchalab, ekinga oz miqdorlab ishlov berilsa, o'ta oz purkashga o'xshash, ammo arzonroq natijaga erishiladi.
8. Suyuqlikni mayda zarrachalarga parchalash purkash uchligining tuzilishi va eritmaning bosimiga bog'liq.
9. Mashinaga o'matiladigan purkash qurilmalari gidravlik (shtanga, brandspoyt), ventilatorli va gldropnevmatik turlarga bo'lindi. Shtangali purkash qurilmasi har bir o'simlikka yaqindan ishlov berishi tufayli atrof-muhitga kamroq zarar keltiradi.
10. Purkagichni ishga tayyorlashda uchliklar soni bir gektarga mo'ljalangan suyuqlik sarfiga qarab tanlanadi, so'ng kerakli bosimi aniqlanadi.

1. Yuqorida keltirilgan o'nta xulosaning har birini asoslab bering.
2. Ekinni parvarishiash fan yutuqlariga asoslangan agrotexnika qoidalari bo'yicha bajarilsa, qanday sabablarga ko'ra u yerda zararkunanda va kasallik kam tarqaladi?
3. Ekinni himoyalashning biologik usuli qanday afzalliklarga ega?
4. Kimyoviy moddadan hosil qilingan suyuqlikni oz va o'ta oz miqdorlab purkash qanday omillarga bog'liq?
5. Nega ekinga kimyoviy modda bilan oddiy purkash usulida ishlov berilsa, uning ko'p qismi tuproqqa aralashib ketadi?
6. Nima uchun suyuqlikni o'ta mayda zarrachalarga parchalab ishlov beradigan qurilma o'simlikka yaqinroq o'rnatilishi kerak?
7. Qanday maqsadda parchalovchi uchliklarda purkalayotgan suyuqlikka aylanma harakat berilgani ma'qul?
8. Qanday sharoitda brandspoytdan foydalanish ma'qul bo'ladi?
9. Nima uchun bakdag'i suyuqlik doimo aralashtirilib turiladi?
10. Nima maqsadda parchalovchi uchlikka yuborilayotgan suyuqlik bosimini o'zgartirish lozim bo'ladi?
11. Qanday maqsadda ventilatorli purkagichga o'rnatiladigan uchliklarni olti variantda kombinatsiyalab o'rnatish ko'zda tutilgan?
12. Shtangali purkagich bilan ekinzorga bir tekis ishlov berish qanday amalga oshiriladi.


Respublikamiz dehqonchiligidagi yetishtiriladigan mahsulotning deyarli 85—90% sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi. Davlatimiz agrar siyosati bunday yelarning hosildorligini oshirish uchun birinchi navbatda ularning gidrogeologik, tuproq va agroqlim sharoitlarini, ya'ni meliorativ holatini yaxshilashga katta e'tibor berib kelmoqda.

Melioratsiya mashinalariga daraxtzor-butazor yelarni tozalab, birlamchi shudgoshlashga tayyorlash, sug'orish, zax qochirish tizimi uchun turli o'chamdag'i ariq va kanallar qazish hamda ularni tozalash, zovur, yopiq drenaj o'tkazish, sug'orish shaxobchalarini tayyorlash va boshqa ishlarni bajarishga mo'ljallangan mashinalar kiradi.

Yuqoridaagi mashinalarni o'rgatishga fanni o'qitish dasturida oz vaqt ajratilganligi sababli, mazkur bobda respublikamiz dalalarida ko'p ishlataladigan kavlash, yerni tekislاب sug'orishga tayyorlash va sug'orish mashinalari bo'yicha qisqa ma'lumotlar keltirilgan. Bu turkumdag'i mashinalar bilan qiziquvchilarga darslikdan tashqari manbalardan ma'lumotlar topib o'qish tavsiya etiladi.

Bu turdag'i mashina turlari buldozer, skreper, greyder va greyder-elevatorlardan keng foydalaniлади.

**Buldozer** tuproq qatlamini qirib olib, surgichi bilan uni itarib siljitishe sababli, uyumning ikki chetidagi tuproq uzuksiz to'kilib, surilgan tuproq hajmi kamayib bora-di. Shu sababli, u bilan tuproqni 15—30 m gacha surish maqsadga muvosfiqdır.



64-rasm. Buldozer sxemasi:

- 1—tuproq prizmasi; 2—surgich; 3—gidrosilindr;
- 4—traktor; 5—itaruvchi to'sin; 6—boshmoq.

Buldozer surgichi ramaga bikr (burilmaydigan) yoki yon tomonlariga 40° gacha buriluvchan qilib (universal) mahkamlanishi mumkin. Surgichni ko'tarib-tushirish yoki yon tomonga burish gidrosilindr yordamida bajariladi (64-rasm). Qiya joylarni qirib tekislash uchun ayrim buldozerlarga surgich vertikal tekistikda 20° gacha engashtirib o'matilishi mumkin. Buldozer traktor 4 ning oldiga osiladi. Traktorga itaruvchi to'sin 5 lar sharnirli biriktirilib, gidrosilindrlar 3 yordamida past-balanda

ko'tarilish va burilish imkonini beradi. Itaruvchi to'singa 5 egri sirtli surgich 2 o'rnatilgan. Surgichning pastki tig'i o'tmas bo'lib qolsa, uni 180° ga to'ntarib, ustki o'tkir tig'ini pastga o'rnatish mumkin. Surgich tagiga o'rnatilgan boshmoqlar, uni yer notejisliklariga mos yurishini ta'minlaydi.


Buldozer kavlash, surish va tuproqni tekislash ishlarni bajaradi. Kavlashda surgich tig'i yerga 10—20 sm chuqurikkacha botirilib, ilgarilatib yuritiladi va tuproq qirindisini kesib oladi. Kesib olingan tuproq surgich oldiga to'planib, prizma ko'rinishida suriladi. Prizmaning balandligi surgichning ustki qirrasiga yetganida, uni ko'tarib yer sathi bo'ylab kerakli joyga surib olib boradi.

*Skreperlar* tuproq qirindisini o'z cho'michiga to'plab olib, uni 100—8000 m masofaga eltish uchun xizmat qiladi. Agregatlanish usuliga qarab skreperlar tirkalma, yarim tirkalma va o'ziyurar turlarga ajratiladi. Cho'michini tuproqdan bo'shatish usuli bo'yicha erkin, yarim-majbuliy va majbuliy to'kadigan skreperlar farqlanadi (65-rasm). Tuproqni erkin to'kadigan cho'michni bo'shatishda uni to'liq to'ntarish talab qilinadi. Bunday cho'michga nam tuproqning yopishib qolishi mashinadan foydalanishni qiyinlashtiradi. Yarim majbuliy to'kadigan cho'michning tubi va orqa devori buriib, tuproqning to'kilishiga yordam beradi. Majbuliy to'kadigan cho'michning orqa devori yon devorlari va tubiga nisbatan siljib, yopishqoq tuproqni ham sidirib chiqarib tashlaydi.

Skreperning ishchi qismi cho'mich 5, pichoq va oldingi to'siq 4 dan iborat bo'lib, asosiy qismi bo'lgan cho'mich 5 ning pastki chetidagi pichoq 8 oldingi to'siq'i 4 ga o'rnatilgan. Gidrosilindr 3, tirkagich 1 va g'ildiraklar 6 ham skreperni agregatlashda yordam beradi.

To'kiluvchan tuproq cho'mich hajmining 60—80 foizini, yopishqoq tuproq uyumlanishi hisobiga 130 foizini to'ldiradi.

Skreper ishini shartli to'rt qismga ajratish mumkin: cho'michni to'ldirish, tuproqni manzilga yetkazish, to'kish va orqa qaytib borish. Skreperning ishiga bo'ladiidan maksimal qarshilik cho'mich to'la boshlaganida sodir bo'ladi. Sababi qirib olinayotgan tuproq cho'michning ichiga kirishi uchun undagi tuproqni siqib yuqoriga chiqarishi kerak. Shu sababli, cho'mich to'layotganida, ko'pincha, uning orqasidan boshqa traktor itarib yordam beradi. Qarshilikni kamaytirish maqsadida, avvaliga qalin palaxsa kesilsa, keyin yupqaroq kesiladi va motorning zo'riqib o'chib qolmasligiga erishiladi.




65-rasm. Tirkalma skreperning umumiy ko'rinishi:  
1—tirkagich; 2—xartum; 3—gidrosilindr; 4—oldingi to'siq; 5—cho'mich; 6—g'ildirak; 7—ko'taradigan rama; 8—pichoq.

Sug'orishni uch usulda amalga oshirish mumkin: yuzlatib, yomg'irlatib va tuproq ostidan. Yuzalatib sug'orishda ariqchalar bo'ylab erkin oqayotgan suv tuproqqa shimaladi. Yomg'irlatib sug'orishda suv maxsus mashinalar yordamida tomchilarga parchalanib sephiladi. Tuproq tagidan sug'orish uchun turli naychalar yenga ko'milib, ulardag'i teshiklardan bosim ostida suv chiqarib namlik hosil qilinadi. Bu usullardan keng tarqalgani — **yuzalatib sug'orishdir**.

Yuzalatib sug'oriladigan yerlar yaxshi tekislangan bo'lishi kerak. Shu sababli sug'orilib ekin ekiladigan yerlar har yili ekishdan oldin joriy, bir necha yildan keyin esa kapital tekislanaadi. Shu maqsadda turli molalar, uzun bazali tekislagichlar, ariq kavlagich-ko'michlar ishlataladi.


**Tekislagichlar** dalani kapital va joriy tekislash maqsadida ishlataladi. Kapital tekislashda skreper va buldozerlardan, joriy tekislashda uzun bazali tekislagich, greydersimon tekislagich, universal o'qariq kavlagich-ko'michlardan foydalaniadi.

**Uzun bazali tekislagich** sug'oriladigan yernarni tekislash uchun xizmat qiladi (*68-rasm*). Cho'mich 9, yumshatkich 10, rama 4, g'ildirak 8 lar, gidrosilindr 2, 5, 6 lar uning qismlari hisoblanadi. Cho'mich 9 tubsiz bo'lib surgich, almashuvchi pichoq va ikkita yon qanotlardan iborat. Yumshatkichning 10 tishlariga saqlagich o'rnatilgan. Mashinaning bazasi (odingi va orqa g'ildiraklari orasi) 12 m bo'lganligi sababli, u do'ngchalarni tekislab ketadi. Ramaning deyarli o'tasidagi cho'mich vertikal yo'nalishda kam siljishi sababli, deyarli bir sathda yuradi. Cho'mich yumshatkich 10 yumshatgan do'ngcha tuprog'ini kesib olib chuqur joylarga to'kadi.



*68-rasm. Uzun bazali tekislagich:*

a—ish holati; b—transport holati; 1—tirkagich; 2, 5, 6—gidrotsilindrlar; 3—tortqi; 4—rama; 7—ustun; 8—g'ildiraklar; 9—tubsiz cho'mich; 10—yumshatgich.



69-rasm. Universal o'qariq kovlagich-ko'mgich:

a—kavlagich; b—ko'mgich; c—pol olgich; d—pol tekislagich; e—chizel kultivator; 1—tayanch g'ildiraklar; 2—tishli sektor; 3—universal rama; 4—o'qariq kovlovchi ishchi qism; 5—tayanch chang'i; 6—lemex; 7—ko'mgich surgichi; 8—silliqlovchi taxta; 9—zichlovchi g'altak; 10—uzaytingich; 11—pol olgich surgichlari; 12—pol shakkantingich uzaytingichi; 13—pol tekislovchi ishchi qism; 14—uzaytingich; 15—chizel kultivator ramasi; 16—yumshatuvchi tish.

Ramaning old qismi gidrosilindr 2 hamda tortqi 3 orqali tirkagich 1 bilan, orqa qismi esa, N shaklidagi ustun 7 bilan gidrosilindrlar 2, 6 yordamida ulangan. Gidrosilindrlar 2, 6-yordamida rama transport holatiga ko'tarilsa, orqa g'ildiraklar ustun 7 bilan birgalikda old tomonga burilib, mashina bazasini 8 metrgacha qisqartirib, uni ixcham qiladi.

**Universal ariq kavlagich-ko'mgich** o'qariq kavlash, uni ko'mish, uvatni yasash va uni tekislash, urug' ekishdan oldin yerni tekislash, tuproqni chizellash kabi ishlarni bajara oladi. Uning ishchi qismlar to'plami uch variantda tayyorlanadi. Bu mashinaning universal ramasi 3 ga bajariladigan ish turiga qarab, yuqoridagi ishchi qismlarning tegishli to'plami o'rnatiladi (*69-a rasm*). Ishchi qismlarning tuproqqa ishlov berish chuqurligi ikkita tayanch g'ildiragi yordamida sozlanadi.

G'ildiraklarning balandligi tishli sektor 2 dagi stopor yordamida belgilanadi. Har bir g'ildirak uzaytirgich 10 ga nisbatan uchta holatda o'rnatilishi mumkin.

**Ariq kavlagich** ish vaqtida chang'i 5 ga tiralib yuradi. Ariq 30 sm chuqurlikda kavlansa tubining kengligi 50 sm, 25 sm chuqurlikda kavlansa tubining kengligi 30 sm bo'lishi mumkin. Ariqning yuqoridagi o'chamlarini ta'minlash uchun kavlagichga tegishli pichoq va lemex o'rnatiladi.

Ariqni ko'mish uchun uzaytirgich 10 ga hamda orqa balkaga surgich 7 larning keng tomoni oldinga qaratib o'rnatiladi (*69-b rasm*). Surgich 7 larning oxiriga, harakat yo'nalishiga perpendikular qilib silliqlovchi taxta 8 va zichlovchi g'altak 9 mahkamlanadi. Surgichlar uchlarining oralig'ini bir-biriga 210, 250 yoki 280 sm qilib qo'yish mumkin.

Tuproqni uvat ko'rinishida uyumlash uchun surgich 7 lar o'qariq ko'mishdagidek o'rnatiladi (*69-d rasm*). Ularga uzaytirgich 12 lar biriktiriladi, taxta 8 va g'altak 9 qo'yilmaydi. Surgich uchlarining oralig'i maksimal, ya'ni 280 sm qilib qo'yiladi. Agregat ilgarilab yрганда surgichlar 12—20 sm chuqurlikdagi tuproqni orqaga siljити, balandligi 40 sm, asosining kengligi 90 sm bo'lgan uvatni yuzaga keltiradi. Uvatni tekislash uchun surgich uzaytirgichining joyi almashtiriladi, surgichlarning boshi bir joyda birlashtirilib biriktiriladi (*69-1 rasm*).

**Chizel-kultivator** variantida bu mashina tishlari oralig'ini 5 sm dan qilib, 12—25 sm chuqurlikka o'rnatiladi (*69-rasm*). Ramada tishlar shaxmat tartibida joylashtiriladi. Chizelning qamrov kengligi 3 m.

Dehqonchilikda ochiq yoki yopiq sug'orish shaxobchalaridan foydalaniladi. Yopiq shaxobchada suv bosim ostida quvurlar orqali sug'oriladigan yerga yetkazib beriladi va yomg'irlatish mashinalariga yuborilib dala yuzasiga sepiladi. Ochiq shaxobchada suv ariqlar bo'ylab dala chetiga oqib keladi. Dalani ariqlar, jo'yaklar bo'ylab yoki mashinalar bilan sug'orish mumkin.

**Yomg'irlatib sug'orishda** tomchilar diametri 1—2 mm dan oshmasligi lozim, chunki yirik zarrachalar ekinga mexanik zarar keltirishi, tuproqni zichlashi, suv tuproqqa shimilib ulgurmasdan ko'lmaq hosil qilishi mumkin. Yomg'irlatish jadalligi tuproqning

svjni shimib oluvchanligiga bog'liq. Qumloq yerlarda yomg'irlatish jadalligi 0,5—0,8 mm/min, o'rta tuproq uchun 0,2—0,3 mm/min, og'ir tuproq uchun 0,1—0,2 mm/min dan oshmasligi kerak, aks holda suv ko'lmaqlanib qoladi.

Yomg'irlatishda turli tizimlardan foydalilanadi. Har qanday yomg'irlatish tizimi nasos stansiyasi, quvurlar, gidrooziqqlantirgich, svjni dala bo'ylab taqsimlash tuzilmalididan iborat. Ulardan eng soddasasi 70-rasmida ko'rsatilgan.


**Yomg'irlatib sug'orishda dalani eftatlilik tekisiasi talab qillinmaydi.** Nasos stansiyasi 3 svjni manba 1 dan so'rib olib, magistral quvurga 10 uzatadi. U qo'zg'almas yoki ko'chma bo'lishi mumkin. Nasos stansiyalari past

(0,25 MPa), o'rta (0,25—0,50 MPa) va yuqori bosimli (0,5 MPa dan ortiqroq) turlarga bo'linadi. Gidrooziqqlantirgich yordamida sepi layotgan suvga o'g'it aralashtilishi mumkin.


**Yuzalatib sug'orishda** sifonlardan keng foydalilanadi. Sifon plastmassadan yasaladigan egri naychadir. Uning teshigi 20, 25, 32, 40 va 50 mm bo'lib, sug'orilayotgan dala sharoitida kerakli suv miqdorini ta'minlaydigani tanlab olinadi. Sifondan foydalansila, jo'yakka beriladigan suvning miqdori o'zarmas bo'ladi.

Uzunligi 100—120 m bo'lgan plastmassa quvurlarni bir-biriga ulab, o'qariq yasamasdan ham svjni jo'yaklarga yetkazish mumkin. Bunday quvurlar 0,04—0,06 MPa bosim ostida ishlaydi. Quvardagi teshiklar oralig'i sug'orilayotgan daladagi jo'yaklar oralig'iga moslanadi. Ish tugaganidan so'ng, quvur barabanga o'rab qo'yiladi. Bunday tartibda ishlaydigan mashina sxemasi 71-rasmida ko'rsatilgan. U nasos 7, reduktor 6, so'rvuchi 8 va haydovchi 9 quvurlar, egiluvchan quvur 10 lar kabi qismlardan iborat. So'rvuchi quvur 8 ning uchiga filtr kiydirilib, haydovchi quvurga suvning teskari tomoniga oqishiga to'siq bo'ladigan klapan o'matiladi. Traktoring tutun chiqaruvchi mo'risi so'rvuchi quvur bilan ejektor orqali ulangan. Traktor lonjeroniga o'rnatilgan ramada baraban (konteyner) 3, chig'iriq 1 va ishga tushirish mexanizmi joylashgan. Trosni chig'iriq 1 o'ziga o'rab, baraban 3 ni aylantiradi va egiluvchan quvurni unga o'raydi. Harakat gidromotor 2 dan olinadi. Har birining uzunligi 120 m, diametri 350 mm bo'lgan 4 ta quvur bitta mashinaga o'rnatiladi. Quvurda har 60 yoki 90 sm oraliqdagi teshiklardan sekundiga 0,2 dan 2,0 litrgacha suv chiqadi.

Mazkur mashinaning ish jarayoni egiluvchan quvurni yoyish (a), sug'orish (b) va quvurni yig'ishtirib olish (d) operatsiyalaridan iborat (71-rasm). Nasos stansiyasini ishga tushirish uchun teskari klapan bilan haydovchi quvur butunlay yopiladi va ejektor 4 ishga tushiriladi.



70-rasm. Yig'ishtiriladigan quvurli yomg'irlatish sxemasi:  
1—suv manbasi; 2—so'rvuchi quvur; 3—nasos stansiyasi; 4—motor; 5—ejektor; 6—nasos; 7—berkitish moslamasi; 8—gidrooziqqlantirgich; 9—taqsimlovchi quvurlar; 10—magistral quvur; 11—ishchi quvur; 12—yomg'irlatish apparati; 13—gidrant.



71-rasm. Quvurli sug'orish mashinasi ish jarayonining sxemasi:

a—quvurlarni yoyish; b—sug'orish; d—quvurlarni yig'ishtirish; 1—chig'iriq; 2—gidromotor; 3—baraban; 4—ejektor; 5—traktor; 6—reduktor; 7—nasos; 8—so'ruvchi quvur; 9—haydovchi quvur; 10—egiluvchan quvur; 11—ariq; 12—jo'yaklar; 13—suv chiqadigan teshik.

Traktor motorida yonib chiqqan gazning katta tezligi ta'sirida ejektor ariqdan suvni so'rib, so'ruvchi quvur va nasosning ichki bo'shlig'ini to'ldiradi, keyin ejektor o'chirilib nasos ishga tushiriladi. Suv sekundiga 150—200 litrgacha sarflanadi, 0,04—0,05 MPa bosimda 300 m kenglikkacha tarqatiladi. Sug'orib bo'lingandan so'ng, traktor dala chetida tros bilan quvurlarni tortib oladi va uni barabanga o'raydi.

**Yomg'irlatish apparatlari** yomg'irlatish mashinasining suvni bevosita tomchilarga aylantiradigan ishchi qismi hisoblanadi. Hosil qilingan suv favvorasinig otilish masofasiga qarab, apparatlar yaqinsepar (ta'sir radiusi 5—8 m), o'ttasepar (ta'sir radiusi 35 m gacha) va uzoqsepar (ta'sir radiusi 35 m dan ortiqroq) turlarga bo'linadi. Hosil qilingan tomchilar oqimining shakliga qarab yakka favvorali va ko'p favvorali turlari farqlanadi. Apparatning asosiy qismi uchlikdir.

Deflektorli, tirkishsimon va markazdan qochirma uchliklar ishlatiladi. Deflektori uchlikda suv otlib chiqadigan jo'mrak o'qining ro'parasiga konussimon deflektor o'matilgan. Unga urilgan favvora yoyilib, tarnovsimon plynokaga aylanadi, keyingi tar-qalishida tomchilarga bo'linadi. Tirkishli uchlik suvni bir tomonga purkaydi (oddiy po'lat quvurchani pachoqlab, teshigi toraytiriladi). Markazdan qochirma uchlikda suv girdoblash kamerasiga urinma yo'nalishida katta tezlikda kirib, kamera qalpog'ining o'tasidagi teshikdan chiqayotganida kuchi aylanma harakatga keladi va konussimon pardasi ko'rinishida tomchilarga parchalanadi.

**Tomchilatib sug'orishda** suvni bevosita har bir o'simlikning ildizi joylashgan yerga yetkazib berish nazarda tutiladi. Tomchilatib sug'orish tizimi maxsus hovuzlarda tindirilgan suvni so'rib oluvchi nasos 2 ni aylantiradigan elektromotor 1, suv jo'mragi 3, filtr

4, suv o'lchagich 5, monometr 6, suvga mineral o'g'itni aralashtiruvchi oziqlantirgich 7, injektor 8, magistral quvur 9, taqsimlovchi naychalar 10, tomchilatkich 11 lardan iborat (72-rasm).


Tomchilatib sug'orish tizimidagi bosim  $0,07\text{--}0,28 \text{ MPa}$  bo'lib, arzon naychalardan foydalanish mumkin. Tomchilatkich suv bosimining sezi larli o'zgarishiga qaramasdan bir xil me'yordagi ( $1,2 \text{ l/soat}$ ) suvni tomiza di, undan tashqari, suvdagi mikroaralashmalar deyarli tiqilib qolmaydi. Hamma quvur va naychalar qora rangli plastmassadan tayyorlanadi, chunki shu orqali ularning ichida mikroo'simliklar rivojlanishining oldini olish mumkin. Taqsimlovchi naychalar oralig'i ekin ekilgan usulga (paxtachilikda  $60$  yoki  $90 \text{ sm}$ , bog'dorchilikda daraxtlar qator oralig'iga), naych lardagi tomchilatichilar oralig'i (paxtachilikda  $0,5 \text{ m}$ ) tuproq-iqlim sharoitiga bog'liq. Ma'lum vaqt dav omda uzuksiz tomchilab turgan suv, tuproqning  $1 \text{ m}$  chuqurlikdagi va diametri  $1\text{--}2,5 \text{ m}$  bo'lgan qismida optimal namlikni saqlab turadi. Bevosita ekin ildizi tarqalmagan yerdagi tuproq quruq holatida qolaveradi. Shu sababli tomchilatib sug'orishda suv sarfi  $2\text{--}4$  marta kamayishi mumkin. Bundan tashqari, tomchilatib sug'orishda dalalarni tek islash talab qilinmaydi. Natijada, ekin hosildorligi ortib, mahsulot tannarxi kamayadi.

**Tomchilatib sug'orish usuli joriy qilingan yerdagi ekinni kultib sylalash soni keskin kamayadi.**

mida uzuksiz tomchilab turgan suv, tuproqning  $1 \text{ m}$  chuqurlikdagi va diametri  $1\text{--}2,5 \text{ m}$  bo'lgan qismida optimal namlikni saqlab turadi. Bevosita ekin ildizi tarqalmagan yerdagi tuproq quruq holatida qolaveradi. Shu sababli tomchilatib sug'orishda suv sarfi  $2\text{--}4$  marta kamayishi mumkin. Bundan tashqari, tomchilatib sug'orishda dalalarni tek islash talab qilinmaydi. Natijada, ekin hosildorligi ortib, mahsulot tannarxi kamayadi.

**Tomchilatib sug'orishdan yerosti suvning sathiga qarab foydalanish ma'qul**

Nasos haydayotgan suv bir necha marta mayda qum solingan filtrdan o'tkazilib magis ralidagi suv sarfi va bosimi tegishli asboblar yordamida kuzatib turiladi. Suvga mineral o'g'it va eritilgan mikroelementlar, kerak bo'lsa gerbitsid qo'shilib, tomchilar orqali ekin rivojlanishi uchun optimal sharoit yaratilgan holda hosildorlikni oshirish mumkin. Bunday sug'orishning afzalliklaridan biri shundaki, maxsus kompyuter tizimi yordamida ekining obdon chanqagan payti aniqlanib sug'oriladi.



72-rasm. Tomchilatib sug'orish tizimining sxemasi:

1—elektromotor; 2—nasos; 3—suv berkitkichi; 4—filtrlar; 5—suv o'lchagich; 6—manometr; 7—oziqrantirgich; 8—injektor; 9—magistral quvur; 10—taqsimlovchi naychalar; 11—tomchilatkich.

Tizim quyidagi tartibda ishlataladi. Tomchilatichlarga tiqilib qolmasligi uchun suvni tozalash katta ahamiyatga ega. Shu sababli, suvni nasosda hay dashdan oldin katta hovuzda yaxshilab tindiriladi.

Tizim quyidagi tartibda ishlataladi. Tomchilatichlarga tiqilib qolmasligi uchun suvni tozalash katta ahamiyatga ega. Shu sababli, suvni nasosda hay dashdan oldin katta hovuzda yaxshilab tindiriladi.

1. Sug'oriladigan yerning hosildorligini oshirish uchun uning meliorativ holatini yax shilash lozim.

2. Sug'oriladigan yerlarni tekislash uchun buldozer, skreper, greyder, uzun bazali te kislagich kabi mashinalar ishlataladi.

3. O'qariq kavlash, uni ko'mish, uvat yasab ko'mish, ekishdan oldin yerni chizellash,

tekislash kabi ishlarni bajara oladigan universal ariq kavlagich-ko'mgichdan foydalanish yaxshi natija beradi.

4. Suv sarfini kamaytirish va ish unumini oshirish maqsadida yerlarni mashinalar yordamida sug'organ ma'qil.

5. Suv sarfini keskin kamaytirish va sug'orish jarayonini aniq belgilangan rejimda bajarish uchun tomchilatib sug'orish tizimidan foydalanish lozim.

1. Yuqorida keltirilgan beshta xulosani asoslang.

2. Qanday maqsadda buldozer surgichi yon tomonga buriluvchan qilinadi?

3. Nima sababli buldozer surgichida to'plangan tuproq prizmasining hajmi kamayib boradi?

4. Qanday sababga ko'ra skreper bilan tuproqni buldozerga nisbatan uzoqroq masofaga surish maqsadga muvofiq hisoblanadi?

5. Qanday sababga ko'ra skreperning cho'michini tuproq bilan to'ldirish jarayoni tugatilayotganda uning sudrashga qarshiligi oshib ketadi?

6. Nima sababli ko'p turdag'i ishchi qismiga ega bo'lgan ekskavatorlardan foydalanish talab qilinadi?

7. Qanday xususiyatiga ko'ra uzun bazali tekislagich dala yuzasini buldozer, skreper halto greyderga nisbatan tekisroq holatga keltira oladi?

8. Qanday maqsadda mashina bilan yomg'irlatib sug'orish jadalligi tuproq turiga moslanib tayinlanishi lozim?

9. Nima sababli yomg'irlatib yoki tomchilatib sug'orish uchun dala yuzasini tekislash talab qilinmaydi?

10. Tomchilatib sug'orishning afzallik va kamchiliklarini tushuntiring.

Xalqimiz turmush darajasini oshirish, uning dasturxonini sifatli va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish uchun respublikamizda chorvachilikni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bunga erishish uchun sifatli va yetarli ozuqa bazasini yaratish, ya'ni ko'proq serhosil, ozuqabop ekinlarni ekish talab qilinadi.

Ozuqabop ekinlarni ekish uchun tuproqni tayyorlash, bevosita ekish, vegetatsiya davrida qator oralig'iga ishlov berish, kasalliklardan himoyalash va boshqa ishlarni bajarish uchun paxtachilik sohasida yaratilgan universal mashinalardan foydalaniлади. Ammo, ozuqabop ekin hosilini yig'ishtirish uchun maxsus pichano'rgichlar, press-lagichlar, silos o'radigan kombaynlar ishlataladi. Shu sababli, mazkur bobda faqat yem-xashak yig'ishtirish mashinalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bunday mashinalardan keng tarqalgani silos o'radigan kombayn bo'lib, uni o'rgatishga ko'proq e'tibor berilgan.

Ma'lumki, tabiiy o'tlar, beda va boshqa madaniylashtirilgan o'simlik poyalari o'rilib quritilgandan so'ng chorvachilikda yem-xashak sifatida foydalaniлади. Makkajo'xori, raps, kungaboqar va boshqa shirali ekinlardan tayyorlangan silos ham to'yimli ozuqa sanaladi. Yem-xashak yig'ishtirishda quyidagi texnologiyalar qo'llaniladi:

**Pichanni o'rib-yoylib yig'ishtirish** texnologiyasi o'tlarni o'rib (ba'zan, o'rib-ezib), dalada tabiiy holda quritish, quritilayotgan pichanni titish, ag'darish, uyumlash va saqlashga qo'yishni o'z ichiga oladi. Pichanni o'ta quritib yubormaslik kerak.

**Pichanni presslab yig'ishtirish** texnologiyasida o'rish (ba'zan, ezish), titish, uyumlash, uni ag'darish, presslab yig'ishtirish va transportlash kabi ishlar bajariladi. Bunda ob-havo va mexanik ta'sirning salbiy oqibati keskin kamayadi. Pichanning tabiiy sifati deyarli o'zgarmasdan saqlanadi, isroflanish va tannarx kamayadi.

**Pichanni maydalab yig'ishtirish** texnologiyasida o't-o'lanni o'rib-ezish, quritish, titish, xaskashlab to'plash, ag'darish, yig'ishtirib olish va 3—5 sm uzunlikda maydalash, transportlash va qo'shimcha quritish ishlari bajariladi.

**Senaj tayyorlash texnologiyasida** o't o'rilib eziladi, dalada qisman quritilib, namli-  
gi 50—55 foizgacha kamaygach, 20—30 sm uzunlikda maydalanadi, senaj minorasi yoki transheyaga solib zichlanadi va germetik yopiladi.

**Yem-xashak tayyorlashda ma-halliy sharotga mos bo'lgan tex-nologiyani tanlash kerak.**

**Pichan uni tayyorlash texnologiyasida** o't o'rilib, eziladi, titiladi va uymulanganadi. Maydalangan holda sun'iy quritib servitamin un olinadi, ba'zida granululanadi.

**Silos tayyorlash texnologiyasida** o't maydalab o'rildi, yuklanadi va transportlana-  
di, silos minoralari yoki transheyalariga solinib, tuzlab zichlanadi va tuproq bilan  
ko'miladi. Yem-xashak yig'ishtirishdagi asosiy talab — hosilni nobud qilmaslik. Uning  
turiga qarab, tarkibiga qo'yiladigan talablar ham turlichha bo'ladi: protein miqdori  
pichanda kamida 8 foiz, bir kilogramm ozuqada 15 mg bo'lishi kerak. Kletchatka miqdori  
kamida 30 foizdan oshmasligi lozim. Senajning 40—60 foizi quruq modda, karotin miqdori  
kamida 40 mg/kg, protein esa 13—15 foiz bo'lishi talab qilinadi. O'simlik uning tar-  
kibida 12—18 foiz protein va 250 mg/kg karotin bo'lishi kerak.

Yem-xashak to'yimli bo'lishi uchun uni qulay agrotexnik muddatlarda, mahalliy  
sharoitga mos texnologiya bo'yicha qisqa vaqt ichida yig'ishtirib olish kerak. Pichhanbop  
o'simliklarni gullayotgan vaqtida o'rib olish va quritganda ularning gulini to'liqroq  
saqlab qolish kerak. Senaj uchun o'simlik gullahidan oldin o'rilegani ma'qul.  
Makkajo'xori so'tasidagi don namligi 70—75 foizgacha kamayganida silosga o'rildi.

O'rib, quritilayotgan o't namligi 50—60 foizgacha kamayganida titish, namligi yana  
18 foizdan kamayganidan so'ng xaskashlab to'plash mumkin. Pichanni yig'ishtirib olishda  
o'rilegani qismining nobud bo'lishi 5 foizdan, uyuqlangan pichanni presslab  
yig'ishtirishda 2 foizdan, yuklab transportlashda 2 foizdan oshmasligi kerak. Jami  
nobudgarchilik 8 foizdan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarur.


Yem-xashakni tayyorlashda pichano'rgich, pichano'rgich-ezgich, xaskash, presslab  
yig'ishtirich, pichano'rgich-maydalagich, silos kombaynlari ishlataladi.

Pichano'rgichlar traktor bilan agregatlanishiga qarab tirkalma, osma va yarimosma;  
o'rish apparatining turiga qarab segment-barmoqli yoki rotorli; o'rish apparatining soni-  
ga qarab bir, ikki yoki uch brusli; o'rileyotgan poyalarga ta'siriga ko'ra ezuvchi, may-  
dalovchi turlarga bo'linadi.

Qo'sh brusli yarimosma pichano'rgich traktoring o'ng tomoniga o'matiladi  
(73-rasm). O'rish apparatlarining o'ng qismi tayanch g'ildirakka 9 suyanib, V=9 km/soat  
tezlikkacha ishlay oladi.

**Pichano'rgichning asosiy qismlari:** rama 10, oldingi 12 va orqa 8 o'rish apparatlari,  
eksentriklar qutilari 5, 14, harakat yuritmasi, o'rish apparatini ko'tarish mexanizmidan  
iborat. Ular ramaga o'matilib traktoring lonjeroniga ulanadi. Traktorga ulationni  
yengillashtirish uchun domkrat 16 va taglik qo'yilgan.

Mashinaga baland o'ravchi apparat o'matilgan bo'lib, uning barmoqlaridagi po'lat  
plastinalarning tig'iga kertiklar yasaigan. O'rish apparatlari harakatni traktoring quvvat  
olish validan oladi: harakat kardan vali 1, zanjirli uzatma 2, harakat yuritmasi 3 va  
ponasimon tasma 4, 15 lar ekssentriklari orqali uzatiladi. O'rish apparatini ish holatiga  
tushirish va transport holatiga ko'tarish gidrosilindr 7, 11 lar yordamida bajariladi.  
Pichano'rgich saqlagichlar bilan jihozlangan.




73-rasm. Qo'shbrusli yarimosma pichano'rgich:

1—kardan vali; 2—zanjirli uzatma; 3—oldindagi o'rish apparatining harakat yuritmasi; 4—orqadagi o'rish apparatining harakat yuritmasi; 5—orqadagi ekssentrikning qutisi; 6—orqadagi ekscentrik; 7, 11—gidrosilindr; 8—orqadagi o'rish apparati; 9—pnevmatik tayanch g'ildirak; 10—rama; 12—oldindagi o'rish apparatları; 13—shatun; 14—oldindagi ekscentrik quti; 15—tasmali uzatma; 16—domkrat.

O'rish apparati traktor harakati yo'nalishiga perpendikular emas, uning chetki nuqtasi, ramaga mahkamlangan ichki nuqtasiga nisbatan 25—50 mm ga ilgarilatib o'matiladi. O'rish apparatini harakatlantiruvchi shatunning uzunligini o'zgartirib, pichoqning chetki holatlarida segment o'qining qo'zg'almas barmoq o'qi ustiga tushishi sozlanadi. Segment bilan barmoq plastinasi orasidagi tirkish 0,5—1,0 mm bo'lishi uchun bosuvchi qisqich segmentga tegib turishi kerak. Apparat 12,8 lar tayanib turadigan boshmoqlar tagidagi chang'ilarning holatini o'zgartirib o'rish balandligini sozlash mumkin. Kompensatsion prujinalar tarangligini o'zgartirib ichki boshmoqlarning yerga tushadigan bosimi 250—350 N, tashqi boshmoqlarning bosimi 80—150 N bo'lishiga erishiladi. Har bir o'rish apparatining tashqi boshmog'iga ichkari tomonga egilgan chiviq 17 va taxta 18 o'rnatilgan. Ular o'rigan poyalarni o'rtaga surib, keyinchalik u yerdan ichki boshmoqlarning to'siqsiz o'tishi uchun sharoit yaratadilar.

Rotorli pichano'rgich hosildor, yotib va chalkashib qolgan o'tlarni o'rishga mo'ljallangan (74-rasm). Pichano'rgich rama 13, uning qanoti 3, rotorli o'rish apparati, muvozanatlovchi va harakatlantiruvchi

Sertoshli tog'oldi yerlarda rotorli pichano'rgichdan foydalanish maqsadiga muvofiqdir.



74-rasm. Rotorli pichano'rgich:

1—saqlagich; 2—ustun; 3—rama qanoti; 4—sapfa; 5—brus; 6—pichoq; 7—rotor; 8—bo'lgich; 9—to'siq; 10—kronshteyn; 11—ossich; 12—o'q; 13—rama.

mexanizmlar, to'siq 9 dan iborat. Rotorli o'rish apparati brus 5, tayanch boshmoqlariga ega. Brus ustiga to'rtta rotor 7 o'matilgan. Rotorlar justi bir-biriga teskari aylanadi. Har bir rotor 7 chetlariga ikitadan plastinasimon pichoq sharnirli biriktirilgan. Bir just rotorga o'matilgan pichoqlar bir-birining o'rtasiga tushadigan qilib joylashtilgan. Rotorlarning gorizontal joylashishiga muvozanatlovchi prujinalar tarangligini o'zgartirish hisobiga erishiladi. Bo'lgich 8 brusning oxiriga deyarli tik o'matilib, o'rish vaqtida chegaradagi poyalarini harakat yo'nalishi bo'yicha ichkariga engashtirib ketadi. Keyingi yurishda traktor g'ildiragi ularni bosmaydi, poyalar nobud bo'lishining oldi olinadi. Brus ramaga saqlagich orqali ulangan bo'lib, u to'siqqa uchraganida burilib sinishdan saqlanadi.

**Rotorli pichano'rgichning texnologik jarayoni** quyidagicha o'tadi. Aylanayotgan rotordagi pichoq markazdan qochirma kuchlar ta'sirida radius bo'yicha joylashadi, nati-jada, qo'shni rotor pichoqlarining trayektoriyalari bir-birini qoplashi hisobiga chala o'rishga yo'l qo'yilmaydi. Aylanayotgan pichoq kesib olgan poyalar rotor ustidagi g'ilof-dan sirpanib o'tib yerga tushadi. Muvozanatlovchi mexanizm boshmoqlarga tushadigan bosimni o'zgartirish va o'rish apparatini transport holatga o'tkazish uchun xizmat qiladi. Traktorga yaqin bo'lgan boshmoqqa tushadigan yuk 270—500 N chetki boshmoqqa 100—300 N qilib sozlanadi. Rotor 1950—2050 ayl/min tezlikda aylanib, pichoqning chiziqli tezligini 65 m/s gacha yetkazadi, o'rgichning o'zi esa 15 km/soat gacha bo'lgan tezlikda ishlaydi.

Pichan uchun o'rildigan o'tlar tarkibidagi karotin, protein va boshqa foydali moddalar poyalarning o'zida emas, ularning bargi va gullarida bo'ladi. O'rigan o'tning bargi va guli poyaga nisbatan tez quriydi. Poyaning ham qurishi kutilsa, undan oldin qurib ulgurgan gul va bargiardagi foydali moddalar quyosh nuri ta'sirida kamayib ketadi. Shu sababli, pichanbop o'tni tezroq quritish uchun uni o'rish bilan bir vaqtida poyalarini ezish zarur bo'ladi.

**O'ziyarar pichano'rgich-ezzich** pichanbop o'tlarni o'rib, ezb, ensiz uyumlarga to'playdi va qisman quritish uchun dalaga tashlab ketadi (75-rasm). Bunady pichano'rgich yurituvchi qism 9 va o'rgich 1 dan tuzilgan. O'rgich ish holatida to'rtta boshmoqqa tayanib yuradi, uni gidrosilindrlar ko'tarib-tushiradi. Asosiy qismi: o'rish

apparati 2, motovilo 4, uzatuvchi shnek 5, ezuvchi jo'va 7, 8 lar, uyumlovchi mosiamalardan 6 iborat.


Pichano'rgichga segment-barmoqli, baland o'ruchchi apparat o'rnatalgan. Segmentlar tig'i kertiklangan. Motovilo 4 poyalarni o'rish apparatiga engash-tirib, o'rilganini shnek 5 ga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Shnek 5 m kenglikda o'rilgan poyalarni o'rta ga to'plab, 2,0 m kenglikka keltirib ezuvchi jo'va 7, 8 larga uzatadi. Ezuvchi apparat qirrali ikkita jo'vadan iborat bo'lib, ustki jo'va pastkiga prujina yordamida siqib qo'yilgan. Prujinaning siqilish ku-chi sozlanib, poyalarning ezilish darajasi o'zgartiriladi.

**Texnologik jarayon** quyidagicha bajariladi. Eguvchi brus baland poya-larni engashtirib ularni kesish uchun imkon yaratadi. Kesilgan poyalarni shnekka uzatiladi. Undan uzatilgan poyalarni jo'valar sindirib, ezadi. Ezil-gan poyalarni ensiz (1,6 m) uyum qatori ko'rinishida yerga tushib qoladi.

Boshmoqlarga tushadigan yuk 200—250 N bo'lishini muvozanatlovchi prujinalar yordamida, o'rish va (min 8 sm) boshmoqlar balandligini o'zgartirish hisobiga sozlanadi. Sharoitga qarab o'rish apparatining bosh-moqlari gorizontal yoki oldga engashtirilgan holda o'rnataladi.


Bunday pichano'rgichning ezuvchi jo'-valarini yechib olib, g'allani o'rish va qatorga uyumlab ketishda foydalanish mumkin.

**Pichano'rgich-maydalagich** rotorli (bara-banli) o'rish apparatiga ega (76-rasm). Ma-shina tirkama bo'lib, ikkita g'ildirakka taya-nib yuradi. Harakatlanayotgan mashinaning to'siq'i 1 poyalarni oldinga engashtiradi, nati-jada, ularning sirti taranglashib pichoqlar-ning kesishi osonlashadi. Pichoqlar o'tmas-tig'li bo'lib, bolg'achalarga o'xshaydi. Ular-



75-rasm. Pichano'rgich-ezgich texnologik jarayonining sxemasi:

1—o'rgich; 2—o'rish apparati; 3—eguvchi brus; 4—motovilo; 5—shnek; 6—uyumlovchi moslama; 7, 8—pastki va ustki ezuvchi jo'valar; 9—yurituvchi qismi.



76-rasm. Rotorli pichano'rgich-maydalagich ishining sxemasi:

1—to'siq; 2—yordamchi pichoq; 3—pichoq; 4—qaytargich; 5—qvur; 6—rotor (baraban).

ning chiziqli tezligi juda katta ( $65\text{ m/s}$ ), shu bois poyalarni kesmasdan zarba hisobiga uzib oladi. Pichoq tig'i qaln bo'lgani uchun kesaklarga tegsa ham shikastlanmaydi, faqat osilgan sharniri atrofida vaqtincha burilib qoladi.

Qo'zg'almas pichoq 2 ga nisbatan kichik tirkishdan olib o'tilayotgan poyalar qo'shimcha maydalanadi va katta tezlik bilan quvur 5 ning ichiga irg'itilib, o'rgichga tirkab qo'yilgan transport vositasiga yuklanadi. Bunday pichoq yo'g'on va dag'al poyalarni, hatto, g'o'zapoyani o'rishda ham ishlatalishi mumkin.


O'rilgan pichanni dalada 25—26 foiz namlikkacha quritib, qatorga uyumlab, presslab yig'ishtirish texnologiyasi keng tarqalgan. Chunki bu usalda pichanning eng foydali qismi bo'lgan guli va bargi kam to'kilib isrof bo'lmaydi hamda presslangan pichanni transportlash va saqlash arzonga tushadi. Buning uchun porshenli hamda rulonlab presslagichlar ishlatalidi.

Presslab quritish pichanning sifatini kamaytirmaydi, balki oshiradi. Pichan namligi

25 foiz bo'lganida o'rta zichlikda,  
20 foiz bo'lganda yuqori zichlikda  
presslash tavsiya etiladi.

Porshenli yig'ishtirib presslagichning umumiy ko'rinishi 77-rasmda tasvirlangan. Uning asosiy qismlari: kardan uzatmasi 1, reduktor 2, presslash kamerasi 3, porshen va shatun 4, barabanli yig'ishtirgich 5 (qamrov kengligi  $1,6\text{ m}$ ), g'ildirak 6 lar, ko'tarib tushirish mexanizmi 7, tiqqich mexanizmi 9 va tugunlab-bog'lovchi mexanizm 10 dan iborat.

Qatorga uyumlangan pichann yig'ishtirgich 5 ning xaskashlar ko'tarib qabul kamerasiga uzatadi Tiqqich 9 pichanni to'plab, presslash kamerasi ichiga tiqadi. Porshen presslash kamerasingning ichig' kirayotib, u yerdagi pichan to'pla mini surib zichlaydi, chetga chiq qan poyalarni pichoq bilan kesib qabul kamerasida qoldiradi. Bi necha pichan to'plami zichlanil toy hosil bo'ladi. Uni tugunlab



77-rasm. Porshenli yig'ishtirgich-presslagichning umumiy ko'rinishi:


a—old ko'rinishi; b—orqadan ko'rinishi; 1—kardan uzatmasi;  
2—reduktor; 3—presslash kamerasi; 4—porshen va shatun; 5—yig'ishtirgich;  
6—g'ildiraklar; 7—ko'tarib-tushirish mexanizmi;  
8—tirkagich; 9—tiqqich mexanizmi; 10—tugunlab-bog'lovchi mexanizm;  
11—toy zichligini o'zgartirish tutqichi.

bog'lovchi mexanizm maxsus (yumshoq) sim yoki chizimcha bilan toy holida bog'-lab qo'yadi. Bog'langan toy yerga tushirib qoldiriladi.

Pichan toylarini bog'lash uchun presslash kamerasiga ikkita tugunlab-bog'lovchi apparat o'mnatiqgan (78-rasm). U chizimcha (sim) o'ralgan ikkita kassetta 4, ikkita igna 6, o'ichovchi g'ildirakcha 8, tugunlab bog'lovchi apparatni harakatga keltiradigan mufta 12, ikkita siquvchi pichoq 14, ikkita tugunlovchi ilgak 15 va chizimcha (sim) yo'naltirgichi 16 dan tashkil topgan.


**Tugunlab-bog'lovchi apparatning** ish jarayoni quyidagicha bajariladi. Simning bir uchi pichoq 14 qa qistirilgan bo'lib, ikkinchi uchi yo'naltirgich 16 ning barmoqlariga ilingan holda presslash kamerasi va igna roliklari orqali o'tkazilib kasseta 4 ga yo'naltirilgan bo'ladi. Porshen zichlayotgan toy o'zidan oldin shakllantirilib tayyorlangan toyga tiralib uni surib, asta-sekin chiqarib tashlaydi. Yangi yasalayotgan toy, kamerada oldindi toy bog'langanidan so'ng qolgan simni kassetadan asta-sekin sug'urib orqaga suraveradi. Ikkala sim ham bo'lajak toyning har uchchala (orqa, ust va past) tomoniga porshenning bosimi ostida tortilib keladi. Zichlanayotgan toy porshen bilan orqaga qayta olmaydi, chunki kamermaning ichki (ustki va pastki tomonlarida) devoridagi tirak tish 17 lar bunga to'sqinlik qiladi.

Presslash kamerasi orqali siljiyotgan yangi toyning uzunligini g'ildirakcha 8 uzuksiz o'ichab turadi. Uzunlik belgilangan o'ichamga yetganida, ya'ni g'ildirakcha bir marta to'liq aylanganida, u o'zinining barmog'i 9 bilan richag 10 ni bosib tugunlab-bog'lovchi apparat 12 ning harakat muftasini ishga qo'shadi. Mustaning ta'sirida (ilmoqli tish 11 orqali) krivoshipli val 13 burila boshlaydi va unga mahkamlangan igna 6 ning ikkalasi ham porshendagi teshik orqali pastki holatidan yuqoriga, presslash kamerasiga kiradi. Ignalarning uchidagi



78-rasm. Pichan presslash kamerasidagi tugunlab-bog'lovchi apparat:

- 1—presslash kamerasi; 2—porshen; 3—shatun; 4—kassetalar; 5—chizimcha (sim); 6—igna; 7—toy zichligini sozlash tutqichi; 8—o'ichovchi g'ildirak; 9—barmog'; 10—ishga qo'shish richagi; 11—ilmoqli tish; 12—mufta; 13—val; 14—pichoq; 15—tugunlovchi ilgak; 16—yo'naltirgich; 17—tirak tish.



79-rasm. Rulonlab presslagich sxemasi:

- 1—yig'ishtirgich; 2—baraban; 3—taranglatkich; 4—tasma; 5—prujina; 6—gidrotsilindr; 7—klapa; 8—ilgak; 9—sirtmoq; 10—transportyor.

ikkita rolik simlarni kasseta 4 lardan sug'urib, yuqoridagi tugunlovchi ilgak 15 ning pichog'i 14 ga ilintirib qo'yadi. Demak, simlar toyni porshen tomonidan ham o'rabi oladi.

**Pichanni rulonlab presslagich** qator uyumlangan pichanni yig'ib olib, silindr shakllida zichlangan rulonga aylantirib beradi. Rulonning diametri 1,5 m, uzunligi 1,4 m bo'lib, massasi 500 kg gacha yetadi.

Ishlayotgan mashinaning yig'ishtirgichi yerdagi pichanni terib olib transportyor 10 ga uzatadi (*79-rasm*). Harakatlanayotgan transportyordagi pichan baraban 2 tagidan o'tayotib zichlanadi va tasmalardan hosil bo'lgan sirtmoq 9 ga kirib boradi. Tasmalar sirtmoqdagi pichanni aylanma harakatga keltirib, asta-sekin rulonni shakllantiradi. Rulon diametri ma'lum miqdorga yetganida uni sim bilan o'raydigan avfomat ishga tushadi va haydovchiga signal beradi, u agregatni qisqa vaqtga to'xtatadi. Avtomatlashtirilgan igna simning bo'sh uchini transportyorning 10 ustiga tashlaydi va u pichanga qo'shilib o'rala boshlaydi. Ignan rulonning uzunligi bo'yicha siljib, uni sim bilan chandib qo'yadi. O'ralmagan sim kesilib, rulondan ajratiladi. Shu vaqtida klapan 7 ilgak 8 dan chiqib ketadi va prujina 5 ta'sirida ko'tarilib rulonni yerga tashlab ketadi. Gidrosilindr 6 ta'sirida taranglatkich 3 dastlabki holatiga keladi. Presslaydigan tasmalar taranglashib klapan 7 yopiladi. Tasma tarangligini prujina yordamida o'zgartirib presslash zichligini 100—200 kg/m<sup>3</sup> qilib olish mumkin.

Pichanbop o'tlarni o'rish vaqtida maydalab, ulardan senaj, silos va o't uni kabi ozuqa olish texnologiyasi keng ishlatiladi. Uni amalga oshirishda silos o'rish kombaynlardan foydalaniлади. Bu kombaynlar pichanbop o'tlar va makkajo'xori kabi silosbop ekinlarni o'rish bilan bir vaqtida maydalab transportga ortib beradi.

Bunday mashinalar to'g'risida quyida Germaniyaning «Maral» kombayni misolida qisqa ma'lumotlar keltirilgan (*80-rasm*).


Kombayn o'ziyurar bo'lib, pichanbop o'tlar va makkajo'xorini o'rish uchun ikki xil o'rgich, ta'minlagich va maydalagichlardan tuzilgan (*80-b rasm*). O'riltgan pichanni (qisman quritgandan so'ng) yerdan yig'ib olish uchun o'rg'ich o'miga barabansimon yig'ishtirgich o'rnatilishi mumkin.

Poyalarni bevosita o'rish uchun o'rg'ichga segment-barmoqli o'rish apparati, o'rillgan poyalarni ta'minlagichga uzatish uchun qiya transportyor (sxemada ko'rsatilmagan) o'rnatilgan.

Ta'minlagich qabul qiluvchi biter 2, tortib oluvchi jo'va 3, uzatuvchi jo'va 4, 5 lar, siquvchi biter 6, begona jismilar uchun klapan 7 dan tashkil topgan.

Maydalagich esa uzatuvchi biter 8, kesuvchi brus 9, maydalovchi baraban 10, yuklovchi quvurlardan tuzilgan.

**Maydalovchi baraban** (*80-d rasm*) pichoqlari sirpanib kesishini ta'minlash maqsadida vintsimon shakliga ega. Baraban pichoqlariga nisbatan kesuvchi brus 0,8—1,5 mm tirkish qoldirib o'rnatiladi. Quvur ichiga konservant eritmasini belgilangan me'yorda purkab turadigan dozator 12 o'rnatilgan.



*80-rasm. «Maral» silos kombayni:*

a—umumiy ko'rinishi; b—texnologik jarayonining sxemasi; d—maydalovchi baraban; 1—makkajo'xori o'rg'ich; 2—qabul qilish biteri; 3—tortib oluvchi jo'va; 4, 5—uzatuvchi jo'valar; 6—siquvchi biter; 7—begona jismlar klapani; 8—uzatuvchi biter; 9—kesuvchi brus; 10—maydalovchi baraban; 11—pichoq; 12—dozator; 13—yuklovchi quvur.

Bu kombaynga o'rnatilgan elektronika jihozlari yordamida ikki joydag'i vaziyat uzuksiz nazorat qilib turiladi:

1. Operator chetdag'i obyektlarga chalg'ib rulga qaramasa, o'rg'ich makkajo'xori poyalari qatorlaridan chetga chiqib ketishi mumkin va u yerdag'i maxsus datchik kompyuterga signal yuboradi. Kombaynnning boshqariluvchi gildiraklari tegishli gidrosilindr yordamida burilib, oldingi iziga tushiriladi, natijada o'rg'ich o'z qatoriga tushadi.

2. Agar ta'minlagichga qiya transportyor uzatayotgan poyalarga qattiq jism aralashib kelsa maxsus qurilma 14 qabul qiluvchi biteri ko'tarib, klapan 7 ni pastga keng ochadi. Natijada, begona qattiq jism maydalagichga yetmasdan pastga tushib ketadi. Agar poyalarga metall jism aralashib kelsa, tortib oluvchi jo'va ichiga o'rnatilgan datchik signalidan klapan 7 ochilib uni tushirib tashjaydi va bu xabar kabinadagi operatorga ham yetkaziladi.

**Kombaynnning texnologik jarayoni** quyidagicha o'tadi. Ishlayotgan kombayn o'rg'ichi pichan yoki makkajo'xorini o'rib yoki o'rg'ich o'rniiga o'rnatilgan barabansimon yig'ishtirgich oldin o'rilib uyumlangan pichanni yig'ib transportyorga uzatadi. U esa mahsulotni ta'minlagichga keltiradi va tortib oluvchi jo'va 3 ularni ichkariga suradi. Siquvchi biter 6 va silliq jo'va 5 lar orasidagi tirkishdan siqilib o'tayotgan mahsulot ezilib, shibbalanib, keyinchalik konservant moddani bir tekis shimib olishga moslashadi. Uzatuvchi biter 8 shibbalangan mahsulotni maydalagichga uzatadi va ular kesuvchi brus 9 bilan aylanayotgan baraban pichoqlari orasida kesilib, mayda bo'laklarga aylantiriladi. Baraban maydalangan mahsulotga katta kinetik energiya berib, ularni quvur

orgali transport vositasiga uzatadi. Quvurdagi dozator 12 maxsus konservant moddasining eritmasini maydalangan poyalarga purkab turishi natijasida konservant siloslanayotgan mahsulotga bir tekis aralashiriladi.

Biter bilan jo'valar orasidagi tirkish uzatilayotgan poyalarning qalinligiga moslab o'rnatiladi. Poyalarni maydalash uzunligi mahalliy o'simlik xossalariiga moslanib 18 xil o'rnatilishi (5,5 mm dan 153 mm gacha) mumkin. Uning uchun maydalovchi baraban 3 xil tezlik bilan aylanadigan va barabanga 2; 3; 4; 6; 8 va 12 dona pichoq o'rnatish ko'zda tutilgan. Baraban qanchalik tez aylansa va pichoqlar soni ko'p bo'lsa, poyalarni shunchalik kalta qismlarga maydalanadi. Bu mahalliy ekindan sifatli silos tayyorlash imkonini beradi.

**Mashg'ulot o'tkazishdan maqsad:** «Maral» kombayni misolida silosga makkajo'xori va kungaboqar kabi yo'g'on va baland poyali ekinlarni o'radigan kombaynni ishga tayyorlash asoslari bo'yicha o'quvchilar ko'nikma hosil qilish.

**Mashg'ulot joyini jihatlash.** «Maral» yoki silosga o'radigan boshqa biror kombayn turi; gayka kalitlari to'plami; 80-rasm asosida tayyorlangan plakatlar; darslikdan tashqari ma'lumotlar manbayi sifatida ishlataladigan o'quv videofilmlari, prospektlar; shtangen-sirkul; ruletka; lineyka.

**Mashg'ulot o'tkazish tartibi.** O'qituvchi o'quvchilarga kombayn qismalarining tuzilishini, ish jarayonini, sozlanishlarini eslatib, boshqaru vositalaridan foydalanishni ko'rsatadi. Guruh o'quvchilari ikki to'pga bo'linib, ularga navbatma-navbat quyidagi ikkita topshiriqni amalda bajarish topshiriladi:

1. O'rish apparatini sozlash.
2. Maydalovchi barabanni sozlash.

O'quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida qilinayotgan ishni izohlab, asoslab tushuntirishadi.

**O'qituvchi quyidagilarni tushuatiradi.** O'quvchilarga mashg'ulot joyida xavfsiz ishlash qoidalarini o'rgatadi. «Maral» zamonaviy universal kombayn bo'lib, konstruksiysiyan puxta, texnologik jarayonni sifatli bajaradi. Uning qamrov kengligi 3,0 va 4,2 m bo'lgan variantlari mavjud. Balandligi 3,5 metrgacha bo'lgan poyalarni sifatli yig'ishtira oladi. Maydalovchi baraban uzunligi 600 mm, diametri 800 mm (diametri katta bo'lgan barabanning inersiya momenti ko'p bo'lib, yo'g'on poyalarni kesishda ham ravon harakatlana oladi). Baraban tezligini uch pog'onada (830 ayl/min; 860 ayl/min va 911 ayl/min) o'rnatish mumkin (kabinadagi richag K, L va M holatlariiga qo'yilib). Barabanga 2; 3; 4; 6; 8 va 12 dona pichoq o'rnatilish tezligi yuqorida ko'rsatilgan uchta pog'onaning biriga qo'yiladi. Bunda poyalarni uzunligini 5,5 mm dan 153 mm gacha bo'lgan bo'laklarga maydalash mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga o'rish apparatining singan segmentlarini yangisiga almashtirish, segment va barmoq tig'lari orasidagi tirkishni sozlash va poyalarni o'rish

balandligini o'zgartirishni, ya'ni o'quvchilarga berilgan birinchi topshiriqni bajarishni ko'rsatadi. Keyin maydalovchi barabandagi pichoqlar sonini o'zgartirish, yangidan o'rnatilayotgan pichoqni kesuvchi brusga nisbatan 0,8–1,5 mm tirkish qoldirib o'rnatish va pichoqlarni charxlab o'tkirlash moslamasidan foydalanish tartibini tushuntiradi va amalda bajarib ko'rsatadi.

Mashg'ulot davomida o'qituvchi o'quvchilarning topshiriqlarni xavfsiz va to'g'ri bajarayotganini nazorat qiladi. Mashg'ulot oxirida esa tayyorlagan hisobotning mazmunini, topshiriqni bajarishdagi faolligini, savollarga tayyorlagan javoblarining sifatini e'tiborga olib tegishli ball qo'yadi.

**1. Yem-xashak tayyorlashda mahalliy tuproq va iqlim sharoitlarida yetishtiriladigan ozuqabop ekin xossalariini e'tiborga olgan holda ozuqadagi foydali moddalarning kamroq yo'qollishini ta'minlaydigan texnologiyani tanlash talab qilinadi.**

**2. Yem-xashak tayyorlashda tanlangan texnologiyaning imkon qadar bajarilishini ta'minlay oladigan mashinalardan foydalanish kerak.**

**3. Pichan tarkibidagi foydali moddalarni ko'proq saqlab qolish maqsadida o'rilgan poyalarni quyosh nuri ostida kamroq ushlab, ularni nim quritilgan holatga tezroq keltirish uchun pichano'rgich-ezgichdan foydalangan ma'qul.**

**4. O'rileyotgan pichanga darhol ishllov berigsh ko'zda tutilsa, poyalarni o'rayotib maydalaydigan va birdaniga transport vositasiga yuklab beradigan rotor-barabanli pichan o'rgich-maydalagichdan foydalangan kerak.**

**5. O'rilgan pichanni transportga yuklash, uni manzilga olib borish va saqlash jarayonlarida poyalarning guli, bargi va boshqa foydali qismini kamroq yo'qotish va arzonlashtirish maqsadida uni presslab yig'ishtirish tavsiya etiladi.**

**6. Rulonlab presslagichning tuzilishi porshenli presslagichga nisbatan sodda bo'lib, ish unumi esa ko'proq.**

**7. Pichan o'rgich turini tanlashda mahalliy sharoit e'tiborga olinishi kerak: hosildor, yotib va chalkashib qolgan o'tlarni o'rish uchun rotor-diskli pichano'rgichdan foydalangan ma'qul.**

**8. Dag'al poyali hamda maydoni serkesak bo'lgan yerlardagi ekinni o'rishda o'rish apparati rotatsion-barabanli bo'lgan pichano'rgichdan foydalanish yaxshi samara beradi.**

**9. Silos o'radian kombaynga poyalarga aralashgan metall jismlarni ajratib oladigan moslama o'rnatilsa, mayda o'tkir metall jismni mol ozuqa bilan yutib yuborishining oldi olinadi.**

**10. Silosbop poyalar konservant moddalarni bir tekis shrimib olishi uchun yo'g'onligi, tarkibi, shrimuvchanligi va boshqa xossalariiga qarab, turli uzunlikdag'i bo'laklarga ajratib ezish va maydalash kerak.**

**11. Silosga o'radian kombaynning maydalovchi barabanidagi pichoqlar vintsimon shakida yasalishi kerak. Chunki bunday pichoqlar poyalarni sirpanib kesishi hamda ularning tig'i poyalarni bir vaqtida qirqmasligi sababli ishga sarflanadigan quvvat sezilarli daramada kamayadi.**

1. Yuqorida keltirilgan o'n bitta xulosani asoslab bering.
2. Qanday sababga ko'ra yem-xashak to'yimli bo'lishi uchun uni qulay agrotexnik muddatlarda yig'ishtirib olish tavsiya qilinadi?
3. Qanday sababga ko'ra pichan o'rgichning ishchi tezligi cheklangan bo'ladi?
4. Nima uchun pichan o'rgich apparatining boshmog'iga tushadigan bosim 250—350 N bo'lgani ma'qil hisoblanadi?
5. Qanday sababga ko'ra rotor-diskli pichano'rgich segment-barmoqli pichano'rgichga nisbatan kattaroq tezlikda ishlatalishi mumkin?
6. Qanday sababga ko'ra rotor-diskli pichano'rgich segment-barmoqli pichano'rgichga nisbatan ko'proq quvvat sarflaydi?
7. Nima uchun rotor-barabanli pichan o'rgich-maydalagich pichog'ining tig'i segment-barmoqli o'rish apparati pichog'ining tig'idan sezilarli darajada yo'g'on bo'lishi kerak?
8. Presslanayotgan pichan zichligini qanday ko'rsatkichga bog'lab belgilash kerak?
9. Rulonlab presslanayotgan pichan zichligi qanday o'zgartiriladi?
10. Silos uchun o'radigan kombaynning maydalovchi barabani tezligi o'zgartirilganda nega pojalarning maydalanish darajasi o'zgaradi?
11. Nima sababdan maydalovchi baraban pichog'ini kesuvchi brusga nisbatan oz (0,8—1,5 mm) tirqish qoldirib mahkamlash talab qilinadi?
12. Nega maydalovchi baraban ventilator kabi havoni kuchli oqimda harakatga keltira oladi?

## VIII b o b. Q'ALLA O'RIM-YIQ'IM MASHINALARI

O'zbekistonning don mustaqilligiga erishishiga hukumatimizning g'allachilik uchun yanada ko'proq maydonlar ajratilishi, g'alla hosildorligini oshirishga qaratilgan siyosati zamin bo'lganligi hammamizga ma'lum. Ammo, don pishib yetilgandan keyin o'rим-yig'im cho'zilib ketsa, boshqodagi donning ko'p qismi tabiiy omillar ta'sirida yerga to'kilib nobud bo'ladi. Nobudgarchilikni kamytirish uchun tez (bug'doy to'liq pishganidan so'ng 7—10 kun ichida) yig'ishtirib olib, uni omborga joylash kerak.

Qishloq xo'jaligi kollejida tahlil olgan o'quvchi g'alla kombayni tuzilishini, undan to'g'ri foydalanishni mukammal bilishi kerak. G'alla kombayniga bag'ishlangan bobda barabonli va fanni so'nggi yutuqlari asosida yaratilgan aksial-rotorli kombayn to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar o'r'in olgan. Bob oxirida talaba kombaynni ishga tayyorlash bo'yicha amaliy mashg'ulotni o'taydi va tegishli ko'nigmaga ega bo'ladi.

### 1-8. Q'ALLA MOBILINI YIQ'ISHTIRISH TEKNOLOGIYASI

Yetishtirilgan g'alla hosilini tez va nobud qilmasdan yig'ishtirib olish uchun o'rим-yig'imni mahalliy sharoitga moslab tashkil etish, mavjud texnikani ishga sifatli tayyorlab, undan unumli foydalanish kerak. O'rим-yig'im texnologiyasi xo'jalikning tuproq-iqlim sharoiti, g'alla yetishtirish usuli, mavjud texnika turi va sonini e'tiborga olgan holda tanlanadi.

1. Xo'jalikda g'alla kombaynlari yetarli bo'lsa, sug'oriladigan yerlarni takroriy ekinlarga tez bo'shatish talab qilinmasa, g'alla to'liq pishib yetilgandan keyin ilgari keng tarqalgan bir fazali usul qo'llaniladi. Ya'ni, hosil kombayn bilan bir yo'la o'rilib donga aylantiriladi va somoni dala chetiga chiqariladi.

2. Yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan mintaqalarda esa, ikki fazali usuldan foydalanish mumkin. G'alla dumbul davridan o'tib yetilgan davrda, ya'ni boshqodagi don namligi 20—25 foizgacha kamayganda o'rilib, qatorlarga uyumlar holida tashlab ketiladi. Bir necha kundan so'ng donning namligi 16—18 foizgacha kamayganda, kombaynga yig'gich o'rnatilib uyumlar yig'ishtiriladi, yanchiladi va don ajratiladi. Bu esa don nobudgarchiligidini birmuncha kamytiradi. Respublikamizda sholi o'rимida bu usuldan foydalanilsa, o'rим-yig'im kuzgi yog'ingarchilik boshlanmasdan ertaroq tugallanadi.

3. Xo'jalikda g'allani tez yig'ishtirib olish uchun texnika yetishmasa va sug'oriladigan yerlarni takroriy ekinlarga tez bo'shatish kerak bo'lsa, ko'p fazali usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda boshqodagi don dumbullik davridan o'tib yeti-

layotgan vaqtida (namligi 20—25 foizgacha kamayganida) g'alla o'rildi. O'rilgan g'alla imkoniyatga qarab tezroq transportga ortiladi va xirmonga yetkaziladi. Bu yerda g'alla g'aramlanganidan so'ng boshoqdagi donning namligi 16—18 foizga kamayguncha texnik vositalar yordamida quritilib, statsionarda ishlayotgan kombayn yordamida yanchiladi.

Agar uchinchi texnologiyadan foydalanssa:

— o'rilgan g'alla tez olib ketilganidan so'ng, dalani takroriy ekin ekishga tayyorlashni 15—20 kun ertaroq boslash mumkin;

— dumbul davrida donning boshoqdan to'kilishi oz bo'ladi, demak, nobudgarchilik keskin kamayadi;

— g'allani kombaynda emas, balki unga nisbatan arzonroq bo'lgan o'rgich yordamida o'rish mumkin. G'alla o'rgichlarda o'rilib, tezda tirkalma-yig'ishtirgich yordamida daladan olib chiqilib xirmonda maxsus tayyorlangan joyga uyumlab qo'yiladi. Xirmonga keltirilgan g'alla eni 4,0—5,0 m, balandligi 3,0—4,0 m, uzunligi esa cheklangan holda g'aram shaklida to'planishi kerak. Iyun-iyul oyalarida havoning harorati yuqori, namligi past bo'lganligi sababli don yanchishga tez yetiladi. G'aramlangan g'allani xirmonda kuzgi yog'ingarchilikka shoshilmasdan (iyul-sentabr' oyalarida) statsionar kombaynda yanchish mumkin. Statsionar kombayn ishlaganda uning tirkishlaridan to'kiladigan don xirmonda qoladi, demak nobudgarchilik yana kamayadi.

**Agrotexnik talablar.** G'alla hosilini eng qulay muddatlarda tez va nobudgarchilik-siz yig'ishtirib olish talab qilinadi. O'zbekistonda asosan g'alla yig'ishtirishning bir fazali usulidan foydalaniлади. G'allazorda begona o'tlarning mayjudligi 1,0 foizdan ortiq bo'lsa yoki g'allaning 20 foizdan ko'proq qismi yotib qolgan bo'lsa, hosil ikki fazali usul bilan yig'ishtiriladi.

Bir fazali usulni qo'llaganda boshoqdagi donning namligi 18 foizdan kam (don pishgan) bo'lishi, o'rish balandligi 15 sm dan oshmasligi kerak. Chunki, nisbatan past bo'yi g'alla baland o'rilsa, poyalarning kesib olingan qismi kalta bo'lib qoladi, boshoqlarning yerga to'kilishi ortadi. So'nggi sug'orishdan keyin, tuproqning 10 sm gacha bo'lgan qatlamidagi namlik 16 foizdan kamroq bo'lgani ma'qul.

Katta maydonli dalar paykallarga ajratilib, yong'in tarqalishiga to'siq sifatida chetidagi g'alla o'rib olinib, yerlar shudgorlanishi, o'ttalarida esa avtotransport yuradigan yo'laklar ochilgan bo'lishi kerak. Paykallarning kombayn buriladigan joylarida hosil o'rilmashdan qolib ketishining oldini olish maqsadida yo'laklar ochiladi. Sug'orish uchun olingan o'qariqlar tekislangan, yirik begona o'tlar (sho'ra, yantoq, chirmovuq) yo'qotilgan bo'lishi zarur.

Don nobudgarchilagini kamaytirish uchun kombayn qismlarini mahalliy sharoitga moslab ishlatish talab qilinadi. Kombaynni paykal bo'ylab to'g'ri tartibda, ya'ni paykalning o'rilgan qismini uning chap tomonida qoldirib yuritish ham ahamiyatga ega.


Ikki fazali yig'ish usulidan foydalish uchun balandligi 60 sm, zichligi har  $m^2$  ga kamida 250—300 tup o'simlik ekilgan dala ajratiladi. Bunday usul bilan o'rilgan ekin shamolda tezroq qurishi uchun ang'iz balandligi (o'rish balandligi) 12—25 sm, kengligi esa 1,4—1,6 m bo'lishi kerak, aks holda, uni yig'ishtirgich bilan yig'ib olish qiyinlashadi. O'rgich tik turgan ekinni o'rganda donning isrof bo'lishi 0,6 foizdan, yotib qolgan ekinni o'rganda esa 5 foizdan oshmasligi kerak.

Qator uymularini yig'ishtirgich o'rnatilgan kombayn bilan yig'ib olishda don nobudgarchiligi 1 foizdan oshmasligi zarur. G'allani bir fazali usul bilan o'rib-yig'ib olishda don nobudgarchiligi 1 foiz, yotib qolgan g'allani yig'ishtirishda esa 1,5 foizdan oshishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Kombayn yanchish apparatida boshqqlarning chala yanchilishi natijasida bo'ladijan don nobudgarchiligi g'alla uchun 1,5 foiz va sholi uchun 2 foizdan oshmasligi kerak. Urug'lik donning shikastlanishi 1 foiz, ozibop don uchun bu ko'rsatkich 2 foiz, dukkakli va yirik don uchun 3 foiz, sholi uchun 5 foizdan oshmasligi zarur.

## **2-6. G'ALLA KOMBAYNNING UMUMIY TUZILISHI**

Har qanday g'allani kombayni o'rgich, yanchish apparati, somon elagich, don tozalagich, don bunkeri va somon to'plagich kabi qismlardan iborat bo'ladi (*81-rasm*).

Bo'lгich 2 o'rilayotgan g'allani chegarasini paykalning o'rlimagan qismidan ajratadi. O'rgich motovilosiga 3 ning parraklari poyalarni to'plab o'rish apparati 1 ga engashtirib beradi. O'rish apparati 1 ning segmentlari o'rgan g'allani o'rgich tubiga tushadi. Shnek 4 o'rilgan g'allani kurakchalari yordamida ikki chetdan o'rtaga surib to'playdi va moslanuvchan transportyoy 5 ga, u esa qabul biteri 6 ga yetkazadi. Biter g'allani yanchish apparatining barabani 7 bilan uning tagligi (deka) 25 orasidagi tirkishga uzatib beradi. Baraban g'allani katta tezlikda tor tirkishdan siqilgan holda olib o'tayotib, taglik ustida intensiv sidirib yanchadi. Natijada, donning 80—85 foizi boshqqlardan ajralib, taglik teshiklaridan aralashma holda o'tib suruvchi taxta 24 ga tushadi.



*81-rasm. G'alla kombaynning sxemasi:*


1—o'rish apparati; 2—bo'lгichlar; 3—motovilo; 4—o'rgich shnek; 5—moslanuvchan qiya transportyoy; 6—qabul qilib shnek; 7—yanchish barabani; 8—don bunkeri; 9—bunkeragi donni bo'shatuvchi shnek; 10—don tozalovchi shnek; 11—qaytaruvchi shnek; 12—don ko'targich (elevator); 13—motor; 14—somon elagich; 15—somon niqtalagich; 16—somon to'plagich; 17—somon elagich kriovishipi; 18—boshqqlar shnegi; 19—ustki g'alvir; 20—pastki g'alvir; 21—boshqqlar elevatori; 22—don shnegi; 23—ventilator; 24—don aralashmasini suruvchi taxta; 25—baraban tagligi.

Yanchilgan somon don qoldiqlari bilan birligida baraban tagidan otilib chiqayotib taruvchi biter 11 ga urildi, natijada, don qoldiqlarining bir qismi ajratib olinadi. non elagich 1/4 ning somonni silkitib orqa tomonga surishida don va boshoq diqlarining qolgan qismi elanib ajraladi va pastga, transport taxtasiga tushadi. Talangan somon to'plagich 16 da to'planib zinchlanadi.

Transport taxtasining ilgarilanma-qaytma harakati tusayli uning ustiga tushgan don lashmasi g'alvirlarga surib keltiriladi. Transport taxtasining taroqsimon qismi don va orini ustki g'alvir 19 sirtining birinchi yarmiga bir tekis taqsimlab tushiradi. Ustki 19 pastki 20 g'alvirlar donni elash uchun tebranma harakat qilganda ustki g'alvirning zlaridan don va mayda xas-cho'plar pastga tushadi. Chorining yirigi ustki g'alvirning aytingichida qo'shimcha elanadi va undan boshoqlar ajratib olinib pastga, boshoqlar 18 ga tushiriladi. Bu shnek boshoqlarni kombaynning chap chetiga surib, shoqlar uchun elevator (ko'targich) 21 ga yo'naltiradi. Elevator boshoqlarni qayta yanchish uchun qaytaruvchi biter 11 ning ustiga eltadi. G'alvirlar ustidagi chorining yengil bo'laklari pastdan yuqoriga ventilator 23 ning havo oqimi ta'sirida uchirilib, somon to'plagichga yetkaziladi. Pastki g'alvirdan tushgan don elevator 12 yordamida don bunkeriga tushib, undan maxsus shnek 10 yordamida transport vositasiga ortiladi.

Kombayn o'rgichlarida segment-barmoqli (82-a rasm) va ikki segmentli (82-b rasm) o'rish apparatlari qo'yilgan.

Segment-barmoqli o'rish apparatlari ish jarayonida tiraksiz o'rish apparatlari qaragan da o'simlik poyalarini maydalab yuborib isrot qilmaydi hamda kam quvvat sarflaydi. Lekir segmentning ilgarilanma-qaytma harakatidag inersiya kuchining o'zgaruvchanligi tusayl o'rish apparati, ya'ni mashinaning tezligin oshirish imkoniyati kamayadi. Ikki segmentli apparatlar bir tomonga yotib qolgan yoki aqqa bo'lib qolgan sholi va dukkakli ekinlarni o'rishda qo'llaniladi. Bu apparatlarning pastki yo'k pastki ham ustki segmentlari qo'zg'aluvcha (bir-biriga qarama-qarshi harakatlanadi) bo'lisl mumkin. Ikkala segment harakatlanganda ha bir segment o'rgan maydon bir segmen harakatlangandagi o'rgan maydonga qaraganc ikki marta kichik bo'ladi. Shu sababli, ikki segmentli harakatda bo'lgan apparatlar o'rnatilge o'rgichlarni kattaroq tezlikda ham ishlati mumkin. Segment-barmoqli o'rish apparat



82-rasm. Tirakli o'rish apparatlari:  
a—segment-barmoqli; b—ikki segmentli;  
1—barmoq; 2—segmentlar; 3—poya.

quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi: segmentlar oralig'i —  $t$ , barmoqlar oralig'i —  $t_0$ , segmentning qatnash yo'li  $S$  (segmentning siljish yo'li). Ushbu ko'rsatkichlarga bog'langan holda segmenti bir qatnashda bir joydagi ekinni baland o'radian apparatning tavsifi quyidagicha (83-a rasm) bo'lib, uni baland o'rish apparati deb ataladi:

$$t = t_0 = S.$$

G'alla, texnik ekinlar va o'tlarni o'radian mashina yoki o'rgichlarda  $S = 76,2 \text{ mm}$ ; makkajo'xori, kuñgaboqar va boshqa yo'g'on poyali ekinlarni o'radian o'rgichlar uchun  $S = 90 \text{ mm}$ .

Segmenti bir qatnashda ikki joydagi ekinni o'radian apparat tavsifi quyidagicha:

$$2t = 2t_0 = S.$$

bu yerda:  $S = 152,4 \text{ mm}$  yoki  $101,6 \text{ mm}$ .

**Poyalar past (60–70 sm dan kamroq) bo'lgan g'allani baland o'rish don nobudgarchilagini keskin oshirib yuboradi. Respublikamiz sharoftida o'rish balandligi 15 sm dan oshmasligi kerak.**

Past o'radian apparatning tavsifi quyidagicha (83-b rasm):



$$t = 2t_0 = S.$$

bu yerda:  $S = 76,2 \text{ mm}$  yoki  $101,6 \text{ mm}$ .

O'rilmasdan qoladigan ang'iz qismining balandligini kamaytirish maqsadida oziqabop ekinlarni yig'ib olishga mo'ljalangan o'rish mashinalari (pichano'rgichlar)ga past o'radian apparatlar o'matgan ma'qul.


**O'rish apparatini rostlash.** G'allani kam quvvat sarflab sifatli o'rish uchun o'rish apparati tegishli ravishda rostlanadi. Segmentning  $25–30 \text{ mkm}$  qaljinlikdagagi tig'ini  $19^\circ–25^\circ$  burchak ostida charxlab, kesishini yaxshilash mumkin. O'simlik moyasining segment va barmoqlar orasidan sirpanib chiqib ketishining oldini olish uchun segment tig'larida kertiklar hosil qilinadi. O'simlik moyasi segment va barmoq tig'ları orasida chaynalib qolmasdan yaxshi qirqilishi uchun ular orasidagi tirqish  $0,5–1 \text{ mm}$  dan oshmasligi kerak. Tirqishni kerakli holatga keltirish uchun qisgich 5 ning vaziyati o'zgartiriladi (84-

Baland o'radian o'rish apparatining tuzilishi sodda, kam quvvat sarflaydi, ishlashga chidamli, ammo o'rish balandligi katta bo'lgani uchun poyanning ko'p qismi pastda qoladi. Bunday apparat bilan oziqabop o'tlarni o'rish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun ham baland o'radian apparat g'allani o'rishda ishlataladi.



83-rasm. Segment-barmoqli o'rish apparatining turlari:

a—baland o'radian; b—past o'radian;  
1—segmentlar dastasi; 2—segment; 3—barmoq.



84-rasm. Segment-barmoqli apparatning ko'ndalang kesimi:

1—segment; 2—segmentlar dastasi; 3—barmoq; 4—barmoqning o'rnatma tig'i; 5—qisgich.

parallel holda sirpanib ko'chadigan tarzda o'rnatiladi. Bunga esa muvozanatlovchi pruji-nanining tarangligini tegishlicha o'zgartirish orqali erishiladi. O'rgich boshmog'ining yerga nisbatan bosimi 250—300 H dan oshmasligi kerak. Nam va toshloq dalalarda o'rgichning dala relyesiga moslashishi qiyintashadi, chunki tayanch boshmoqlari tuproqqa botib yoki toshlar ustiga ko'tarilib qolishi mumkin. Bu holda boshmoqlar olinadi, o'rish balandligi esa gidrotsilindr yordamida boshqariladi.

**O'rish apparati to'g'ri sozlanmasa poyalar to'liq kesilmasdan o'z ildizidan ajratilmaydi. Poyalardagi boshhoqlar yerdagi qolib ketadi.**

**Motovilo tuzilishi** va ishni bajarishiga ko'ra qo'zg'almas parراكли, ekssentrikli (parallelogrammsimon), moslanuvchi turlarga bo'linadi.

Boshoqli ekinlarni yig'ib olishda motovilo parragining chiziqli tezligi 2,5 m/s dan oshmasligi kerak, aks holda, parراكlar ta'sirida boshoqdagi donlar to'kilib ketishi mumkin. Motoviloning aylanish tezligi o'rgichning ishlash sharoitiga ko'ra rostlanadi. Ko'pgina o'rgichlarda motoviloning tezligini boshqarish maydonchasidan ham o'zgartirish mumkin. Parراكlar o'rish apparatiga parallel bo'lishi shart. Motoviloning vali shunday balandlikda o'rnatilgan bo'lishi kerakki, bunda uning parراكlari o'rileyotgan ekinning og'irlilik markazidan balandroq, boshoqdan esa pastroq joyga tegib, uni o'rish apparatiga egib berishi kerak. Agar parراك o'rileyotgan ekinning og'irlilik markazidan balandroq joyiga tegsa, boshoqdagi don yerga to'kiliishi mumkin. Agar parراكlar ekinning og'irlilik markazidan pastrog'iga ta'sir etsa, o'rila'digan g'alla o'rish apparatiga nisbatan teskari tomonga engashib yerga tushadi.

Poyaning og'irlilik markazi taxminan balandligining 1/3 qismida joylashgan bo'ladi. Motoviloni eng pastga tushriganda parراكlar bilan o'rish apparati oralig'i 10—25 mm, parراكlar bilan o'rgich shnigi oralig'i kamida 15 mm bo'lishi kerak. O'rish apparatidan motovilo valigacha (gorizontal tekislikda) bo'lgan oraliq uning ustini o'riltgan poyalar dan tozalashda va uni shnekka uzatishda muhim ahamiyatga ega.

Motovilo valini segmentga nisbatan oldinga 60—70 mm surib o'rnatiladi. Agar g'alla juda baland yoki yotib qolgan bo'lsa, motovilo vali oldinga ko'proq suriladi. Past bo'yli

rasm). Shu maqsadda bolg'a bilan qisgichtarga asta-sekin uriladi yoki qisgich ortiga qo'yiladigan qistirmalar soni o'zgartiriladi. Singan segmentlar almashtirilganda shatun uzunligi o'zgartirilib rostlanadi. Shundan so'ng, segmentning chetki qo'zg'almas nuqtadagi vaziyatida segment va bar-moqlarning simmetriya o'qlari bir-birining ustiga tushishi kerak. O'rish apparatini kerakli o'rish balandligiga moslash uchun o'rgich korpusiga moslanib yuruvchi tayanch boshmog'ining balandligini o'zgartiriladi. O'rish apparati o'rgich kengligi bo'ylab bir xil balandlikda o'rishini ta'minlash uchun uning korpusi yer yuzasiga pa-

Motovilo 3 ma'lum miqdordagi g'allani o'rish apparatiga engashtirib beradi, o'rish apparati esa uni kesayotganda suyab turadi, apparat ustiga qirqilib tushgan poyalarni sidirib o'rgich transportyori 4 ga o'tkazadi (81-rasm).

ekinlarni o'rishda motovilo vali segmentga 20—50 mm gacha yaqinlashtiriladi. Shuningdek, vertikal tekislikka nisbatan parraklarning engashish burchagi a ham o'zgartirib turiladi. Ekin balandligi 80—100 sm va zich ekilgan bo'lsa  $\alpha = 0^\circ - 15^\circ$  burchak ostida qo'yiladi. Yotib qolgan g'allani o'rishda motovilodan parraklar yechib olinadi va uning o'miga tirma  $\alpha = 30^\circ$  burchak ostida o'rnatiladi.

Motovilo parragi ish jarayonida o'z o'qi atrosida  $\omega$  burchak tezligi bilan aylanishi natijasida  $V_p = \omega r$  nisbiy tezlik va mashina bilan birgalikda kombaynning ilgarilanma harakatining tezligi  $V_m$  bo'lgan ko'chirma tezlik bilan harakatlanadi. Motovilo parragi o'z vazifasini to'liq bajarishi uchun  $V_p > V_m$  bo'lishi kerak.

O'rgichning shnekli transport vositasi o'rilgan boshoqli ekinlarni qabul qilib, ularni kombaynning moslanuvchan transportyoriga uzatish uchun mo'ljallangan.


**Shnekli transport vositasi** o'ng va chapdan uzatuvchi vintsimon kuraklar yordamida o'rilgan ekinlarni o'rgich korpusining chetlaridan o'rtasiga suradi. Shnekning o'rtasida joylashgan barmoqli mexanizmi esa, to'plangan massani kombaynning qiya (moslanuvchan) transportyoriga uzatadi.

Shnekning poyalarni sudrab ketishi uning kuraklari bilan o'rgich korpusi orasidagi tirkishning katta yoki kichikligiga bog'liq. Agar tirkish katta bo'lsa, kuraklarning poyalarni siljitishti qiyinlashadi. Tirkish kichikroq bo'lsa, o'rilgan massa tigilib qolishi mumkin. Ish sharoitiga ko'ra tirkish 5—15 mm oraliqda qo'yiladi. U shnekni o'rgich korpusiga nisbatan siljitisht bilan o'zgartiradi. Shnek barmoqlari bilan o'rgich korpusi orasidagi tirkish 10—15 mm bo'lishi kerak.

**Yanchish apparatlari** dehqonchilikda bug'doy, arpa, no'xat, sholi, mosh, kungabog'qar va boshqa don ekinlari hosilini boshoqlardan ajratish uchun turli ko'rinishdagi yanchish apparatlari ishlataladi. Ammo, ularning deyarli hammasi yanchilayotgan mahsulotni intensiv ezish, savalash va sidirish kabi jarayonlarni o'tab, donni boshoqdan ajratib oladi. Yanchish apparati donni to'liq ajratib berishi bilan birga uni mumkin qadar kamroq shikastlashi (sindirishi, ezishi) kerak. G'alla kombaynlarida barabanli (shtiftli, savagichli) yoki aksial rotorli yanchish apparatlari qo'llaniladi.

**Shtiftli baraban o'rnatilgan yanchish apparati** aylanuvchan baraban / ga «shaxmat» tartibida joylashtirilgan shtiftlar 4 va qo'zg'almas panjarasimon taglik 2 dan tashkil topgan (85-a rasm). Taglik baraban sirtini  $90^\circ - 100^\circ$  burchak atrosida qoplab turadi. Qo'zg'almas taglik 2 ustiga ham shtiftlar 3 o'rnatilgan. Aylanayotgan baraban shtifti g'allani aylanish o'qiga perpendikulyar yo'nalishda qo'zg'almas shtiftlar orasidan sudrab olib o'tadi. Massa katta tezlikda (20—30 m/s) o'tayotib zarba ta'sirida sidiriladi, natija-da, boshoqdagi don ajratiladi. Ajratilgan don bilan birgalikda chala yanchilgan boshoq va maydalangan poyalar aralashmasi taglik teshiklaridan pastga tushadi. Baraban va aglik shtiftlari oralig'idagi tirkishning katta-kichikligi don o'lchamlariga moslab qo'yiladi. Mazkur barabanning donni ajratib olish qobiliyati kuchli bo'lgani sababli, qiyin yanchiladigan g'alla (sholi)ni yanchishda ishlataladi. Ammo, kuchli yanchgani uchun baraban ta'sirida don ko'proq shikastlanadi, poyalar esa uzilib maydalananadi, natijada jo'shimcha quvvat sarflanadi.

**Savag'ichli baraban o'rnatilgan yanchish apparatida** baraban / sirti bo'ylab, uning o'qiga parallel ravishda kertikli 5 savag'ichlar o'rnatilgan (85-b rasm). Barabanning panjarasimon tagligi 2 ga qirrali plankalar qo'yilgan. Taglik baraban sirtini  $120^\circ - 150^\circ$  bur-



85-rasm. Barabani yanchish apparatining sxemasi:

a—shiftli baraban; b—savag'ichli baraban; 1—barabanslar; 2—qo'zg'almas taglik; 3—taglikdagi shiftlar; 4—barabandagi shiftlar; 5—savag'ich; 6—taglik tishlari.

chak atrosida qoplab turadi. Aylanayotgan savag'ichli baraban g'allani katta tezlikda taglik ustidan zarb bilan sudrab o'tayotganida don ajraladi. Bu apparatda don kamroq shikastlanib, somon deyarli uzilmaydi, kam quvvat sarflanadi. Ammo, boshoqdan ajralib ulgurmagan don ko'proq qolib ketadi.

**Yanchish apparatini sozlash.** Apparat yanchilayotgan g'alla boshoqlaridan donni to'liq ajratish bilan birga uni shikastlantirmasligi kerak. Shuning uchun g'alla turi va

**Yanchish barabani ish rejimi mahalliy sharoitga mos o'rnatilishi lozim.**

holatiga qarab barabanning maqbul tezligi, baraban va taglik oralig'i 5, aylanish tezligi  $w$ , doimo har xil kattalikda o'rnatiladi. Baraban va taglik oralig'idagi tirkish yanchilgan g'alla chiqayotgan joyda poyalarning ezilishi, butun boshoqlarning kamayishini e'tiborga olib, zarb kuchini hamda yanchilish darajasini saqlab qolish maqsadida kira boshlagandagiga nisbatan kichikroq o'rnatilishi kerak. Hamma apparat turlarida bu jarayon barabanga nisbatan taglikni yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish hisobiga bajariladi. Yanchish jarayoni sifatini aniqlaydigan ikkinchi omil, baraban sirtining zarb kuchi  $R$ , bo'lib, u bevosita zarba tezligi  $V_3$  ga bog'liq. Zarba tezligi  $V_1$  baraban sirtining chiziqli tezligi  $V_2$  ga tengligini e'tiborga olib, kerakli zarb kuchiga barabanning aylanish tezligini o'zgartirish bilan erishiladi. Demak, har xil diametrali barabalar bir xil zarba bilan ta'sir qilishi uchun aylanish (burchak) tezligi  $\omega$  turlicha bo'lishi kerak. Barabanning aylanish tezligini bir tekis

o'zgartirish uchun baraban harakat yuritmasida tezlikni o'zgartiradigan vositalar qo'shilgan.

Savag'ichli barabonlarda R radiusda joylashgan savag'ich kertiklarining optimal chiziqli tezligi  $V_p = \omega R$  bo'lib g'allani yanchishda 30—32 m/s, dukkakli ekinlar uchun esa 14—15 m/s qabul qilinadi.

Shtiftli baraban uchun maqbul tezlik yuqoridagi nisbatan 10 foizgacha kam tayinlanadi. Agar barabanning tezligi maqbul qiymatidan kam bo'lsa, boshqalarning chala yanchilishi ortadi, ammo donning shikastlanishi (sinishi) kamayadi. Lekin tezlik ortib ketsa, aksincha, boshqolar to'liq yanchiladi, donlar ko'proq sinadi. Shu sababli urug'lik va qiyin yanchiladigan g'allani yig'ishtirishda ikki barabanli yanchish apparati ishlataladi. Birinchi barabanning tezligi me'yordan kamroq, baraban bilan uning tagligi orasida tirdish b esa kattaroq o'rnatilib, «yumshoq» rejimda ishlataladi. Yetarli darajada ezilib, maydalanim ulgurgan g'alla, ikkinchi barabanda «qattiq» rejimga (tirdish b kichikroq, tezligi esa kattaroq) qo'yib yanchiladi. Natijada, g'alla boshqalaridagi don to'liq ajraladi va kam shikastlanadi.

Savag'ichli barabanning tagligi 400—600 mm bo'lib, u yerdan umumiy hosilning 65—85 foizi ajralib chiqadi. Shtiftli baraban tagligidagi tishlar 4—6 qatorda "shaxmat" usulida joylashtiriladi. Baraban shtiftlari taglik shtiftlar orasidan bir xil o'tishi lozim.

Kombaynning tozalash qismi yanchish apparati hamda somon elagichdan ajratilgan don bilan birlashtiriladi. Baraban shtiftlari taglik shtiftlar orasidan bir xil o'tishi lozim.

**Transport taxtasi** uzluksiz tebranma harakat qilishi hisobiga ustidagi aralashmani g'alvirlar tomon kephib uzatadi. Uzatish jarayonida tebranma harakat hisobiga yengil xas-cho'plar yuqoriga qalqib chiqib, og'irlari esa pastga cho'kadi. Transport taxtasidan aralashma taroqsimon chiviqlar ustiga uzatiladi. Don va mayda aralashmalar ustki g'alvir 19 ning boshlanish joyiga, aralashmaning yirik bo'laklari taroq chiviqlaridan o'tib uning o'rtaqiga tushadi. Shuning hisobiga g'alvir bosh qismidagi ko'zlarning tiqilib qolishi oldi olinadi. Donning 80—95 foizi g'alvirning dastlabki 1/3 qismida ajralib ulgu-rishi kerak. Ustki g'alvirdan don, maydalangan somon va qipiqlar pastki g'alvirga to'kiladi. Pastki g'alvir 20 ko'zlaridan esa faqat don o'tadi va shnek 22 ga tushadi. Ventilyator 23 ma'lum burchak ostida g'alvir tagidan ko'tarilib havo oqimini hosil qiladi. G'alvirlar ustidagi yengil aralashmalarni havo oqimi dordanib ajratib somon to'plagichga uchirib yuboradi. **Ustki g'alvir ko'zidan o'tmagan yirik bo'laklar qiya o'rnatilgan g'alvir uzaytirgichining ustiga ko'chib o'tadi**, chala yanchilgan boshqolar uzaytirgich ko'zlaridan o'z

**Yanchilgan donni sifatlari elab** tozalash uchun uni ustki g'alvirlarning eni bo'ylab bir xil qalinlikda yoyish shart. Qiya yerdorda kombaynning yon tomonga engashmaydigan harakat yo'nalishi tanlash kerak.

og'irligi bilan pastga, boshqo shnogi 18 ga tushadi. Kombaynning ishlash sharoitiga moslab g'alvirlarning engashish burchagi ( $4^{\circ}$ — $7^{\circ}$ ), g'alvir ko'zlarining ochilishi ( $8$ — $17$  mm), ustki g'alvir uzaytirgichining qiyaligi ( $8^{\circ}$ — $30^{\circ}$ ), ventilyatorning aylanish tezligi ( $600$ — $660$  ayl/min) va ventilyator havo so'radigan darchasining ochilish darajasi sozlanadi. Ustki g'alvir ko'zlarining ochilish darajasi me'yordan kam o'rnatilsa, donning bir qismi undan tushib ulgurmasdan uzaytirgichga o'tib ketadi. Katta o'rnatilsa donning hammasi g'alvir o'tasiga yetib bormasdan pastki g'alvirga tushib, uning bir qismida to'planib qolishi mumkin.


ochilish darajasi me'yordan kam o'rnatilsa, donning bir qismi undan tushib ulgurmasdan uzaytirgichga o'tib ketadi. Katta o'rnatilsa donning hammasi g'alvir o'tasiga yetib bormasdan pastki g'alvirga tushib, uning bir qismida to'planib qolishi mumkin.

**Ventilyator bosil qilgan havo oqimining bosimi me'yordan oz bo'lsa, bunkerda to'plangan don ichida xas-cho'plar ko'payib ketadi.** Agar bosim kuchli bo'lsa, somon to'plagichga puch donlar bilan birligida to'q donlar ham uchib tushadi. Ventilyator me'yorida ishlaganda ham bunkerda og'ir aralashmalar ko'payib ketsa, g'alvir ko'zlarini kichraytirish kerak.

Ustki g'alvir uzaytirgichining qiyalik burchagi kichikroq yoki ko'zlarining ochilish darajasi kamroq o'rnatilsa, chala yanchilgan boshqolar somon to'plagichga ko'proq o'tib ketadi. Aks holda, boshqo shnigi va elevatorida tijilish hollari ro'y berishi mumkin.

### 3-3. AKSIAL-ROTORLI KOMBAYNLAR

Respublikamizda keng tarqalgan «Keys» g'alla o'rish kombaynlari deyarli barcha turdag'i don ekinlarini yig'ishtirib olishga mo'ljallangan. Bug'doy, arpa, suli, sholi, no'xat, mosh, kungabooqar, soya, beda urug'i, raps, tariq, zig'ir, masxar va boshqa ekinlarning hosilini yig'ishtirish uchun oddiy 1010 o'rgichidan foydalaniladi. Sug'oriladigan jo'yaklarda yetishtirilgan makkajo'xori donini yig'ishtirish uchun kombaynga maxsus tirqishli so'rgich o'rnatiladi. Bu kombaynlar yuksak texnologiya asosida tayyorlanganligi sababli, puxta, nobudgarchilikka kam yo'l qo'yadigan, ish unumi juda yuqori va eng muhimmi, kombaynchi uchun xavfsiz hamda qulay bo'lgan mashina hisoblanadi. Unda elektronika tatbiq etilib kombayn qismalarining ishini uzluksiz nazorat qilishga erishilgan.



86-rasm. Aksial-rotori kombayn texnologik ish jarayonining sxemasi:

1—o'rgich platformasi; 2—o'rish apparati; 3—motovilo; 4—shnek; 5—moslanuvchan qiya transportyor; 6—kuraklar qobiq'i; 7—kuraklar; 8—rotor; 9—rotor savag'ichi; 10—qo'zg'almas qobiq; 11—rotor vali; 12—qobiqdagi qo'zg'almas qovurg'alar; 13—titkich; 14—podshipnik; 15—shkiv; 16—sonom maydalagich; 17—sonom sochgich; 18—ustki g'alvir; 19—boshqo shnigi; 20—pastki g'alvir; 21—don shnigi; 22—diametral ventilyator; 23—darchalar; 24—chiviqli deka; 25—transportlovchi shnek; 26—rotor tagligi (deka).

**Kombaynning tuzilishi.** Kombayn o'rgich (xeder), yanchish apparati, tozalash qismi, motor va boshqaruv organlaridan iborat (*86-rasm*). Kombayn o'rgichi 1 segment-barmoqli o'rish apparati 2, universal motovilo 3, o'rligan poyalarni o'taga to'playdigan shnek 4 lardan tuzilgan. Bu qismlarning tuzilishi, ishi va sozlanishi boshqa kombaynlardan farq qilmaganligi sababli, quyida qayta bayon qilinmasdan faqat ayrim xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.


Odatda, Rossiya kombaynlarining o'rish apparati o'rgich brusiga bikir o'rnatilib, yerning notejisligiga moslasha olmaydi. Bunday apparat past bo'yli ekin o'rindida hosilning 8—10 foizi yerga to'kilishiga sabab bo'ladi. Mazkur kombaynga buyurtma qilinsa, moslanuvchan (kopirlovchi) o'rish apparati o'rnatilib. g'allani pastroqdan o'rishga erishiladi. Segmentlar qadami va qatnash yo'li aslida 3 dyuym (76,2 mm) qabul qilingan, ammo ayrim ekinlar, masalan, sholi uchun qatnash yo'li 1,5 dyuym (38,1 mm) bo'lgan segmentlar buyurtma qilinishi mumkin.

**Amaldagi o'rish balandligi nafaqat o'rgichni yerga nisbatan o'rnatilishi balandligiga bog'ilq.** Uning miqdoriga kombaynning tezligi va segmentlarning ilgarijanma-qaytarilma harakat soniga ko'p jihatda bog'ilq.

aylanishi va o'rgich tubiga nisbatan 12,7—25 mm tirkish bilan o'rnatilishi mumkin. Pnevmoakkumulyator o'rgichning keskin silkinmasligini ta'minlaydi. Yanchish apparatini muhofaza qilish maqsadida o'rgich tosh tutkich bilan jihozlangan.

«Keys» kombaynlarining yanchish apparati aksial-rotorli bo'lib, u ilgari keng tarqalgan shtiftli yoki savag'ichli baraban o'rnatilgan apparatdan tubdan farq qiladi.

**Aksial-rotorli yanchish apparatining** asosi o'ta uzun (deyarli 3,0 m) rotor (baraban) (3) va unga kiydirilgan qo'zg'almas qobiq (2) dan iborat (*87-rasm*). Rotor (3) va (6) ga o'rnatilgan shkiv (10) yordamida ikkita tayanch podshipniklar (8) da aylanib turadi.



*87-rasm.* Aksial-rotorli yanchish apparatining sxemasi:

1—kurakchalar; 2—qobiq; 3—rotor; 4—savag'ich; 5—qo'zg'almas qovurg'a; 6—val; 7—sonom titkich; 8—podshipnik; 9—darchalar; 10—chiviqli panjarsimon deka.

O'rgichning qiya transportyori keltirayotgan g'allani ichkariga tortib kiritish uchun rotoring bosh qismiga vintsimon kurakcha (1) o'rnatilgan. Rotoring birinchi yarmi g'allani yanchishga mo'ljallanganligi sababli, uning sirtiga turli shakldagi savag'ich (4) lar (mayda yoki yirik tishli, egovsimon uzun, vintsimon bukilgan yoki to'g'ri bruslar) o'rnatilgan. Savag'ichlar rotor sirtiga chap yo'nalishdagi vint chiziq bo'ylab joylashtirilib, ular g'allani rotoring oxiriga uzlusiz siljirib turadi. Rotoring ikkinchi yarmi somon elagich vazifasini bajaradi, shu sababli u yerga savag'ichlar o'miga somon titkich (7) lar o'rnatilib, qobig'i somonni elash uchun uch seksiyali yirik ko'zli g'alvirsimon sirt ko'rinishida tayyorlangan. Kombaynning tozalash qismiga me'yordan ortiq maydalangan somon va qipiqlar tushmasligi uchun ayrim seksiyalar teshiksiz o'rnatilishi mumkin.

Boshoqlardan donni ajratib olish jarayonini kuchaytirish maqsadida rotor qobig'ining ichki sirtiga o'ng yo'nalishdagi vint chiziqlari bo'ylab qo'zg'almas qovurg'a (5) lar o'rnatilgan. Yanehilayotgan g'alladan donni ajratib olish uchun qobiq birinchi yarmining pastki bo'lagi yirik g'alvir shaklida, uning tubi (rotor tagligi, deka) esa chiviqli panjara (10) ko'rinishida tayyorlangan. Chiviqli panjara ustidagi brus (planka)lar donni yanchib ajratadi. Rotor tagligi ketma-ket joylashgan uchta bo'lak (seksiya)dan iborat. Taglik bir tekis yuklanishi uchun ba'zan panjarasimon qismining ayrim joylarini brus (plastina)lar bilan yopib qo'yish kerak. Qiyin yanchiladigan g'allaga ishlov berishda taglik panjarasi chiviqlari ustidagi brustar o'tasiga qo'shimcha brus o'rnatilishi mumkin. Qobiq ikkinchi bo'lagining yarmidan ortiqroq qismida darcha (9) lar mavjud.

**«Keys» g'alla kombaynining sekundlik yanchish qobiliyatidan to'ilqiroq foydalanish uchun serhosil g'allani o'rishda foydalan-gan ma'qul.**

Kombaynchi rotor bilan uning tagligi orasidagi tirkishni kabinadan elektr vositasi yordamida o'zgartirish mumkin. Ammo tirkish rotoriga ekssentrik, ya'ni moyalar kiritilayotgan tomonida kengroq, chiqayotgan tomonida torroq o'rnatiladi (*86-rasm*). Rotor qobig'idan chiqayotgan somon buyurtmachi xohishi bo'yicha firma tomonidan o'rnatiladigan somon to'plagich yoki uni maydalab yerga sochib ketadigan moslama (*86-rasm*) tasvirlangan maydalagich (16) va somon sochgich (17) bilan ta'minlanishi mumkin.

**Kombaynning tozalash qismi** ustki (chori) (18), pastki (don) (20) g'alvirlar va ularning tagiga kuchli havo yuboradigan diametral ventilyator (22) lardan tashkil topgan. Ishlash prinsipi oddiy kombaynlarnikidan deyarli farq qilmaydi (*86-rasm*). Tozalangan donni don elevatori bunkerga, chala yanchilgan boshoqlarni takror yanchish uchun boshoq elevatori orqali rotor ustiga yetkazadi.

Kombaynning texnologik ish jarayoni quyidagicha bajariladi: motovilo parragi moyalar to'plamini o'rish apparatiga engashtirib keltiradi va qirqish vaqtida ularni suyab turadi. Keyin shu parrakning o'zi o'rilgan moyalarni o'rgich tubiga yotqizadi. O'rgich shne-gi chetdagi moyalarni o'rta ga to'plab, ularni qiya transportyorga, u esa o'rilgan g'allani yanchish apparatiga uzatadi. Transportyor tubidagi moslama moyalar bilan aralashib kelayotgan toshlarni ajratib olib qoladi.

Transportyor uzatayotgan g'allani rotoring uchidagi vintsimon kurakchalar qobiq ichiga tortib kiritadi va rotor bilan panjarasimon taglik orasidagi tirkishga siljitetadi. Aylanayotgan rotor tishlari g'allani panjarasimon taglikning ko'p qirrali yuzasi bo'ylab

katta tezlik bilan sudrab o'tadi. G'alla rotor tishlari ta'sirida uzlusiz orqaga siljitaldi. Qobiq ichiga rotor tishlari joylashgan vintga teskari yo'nalishda qovurg'alar o'rnatilgan bo'lib, ularga boshoq zarb bilan urilganida, donning ajralib chiqishi kuchayadi. Shu bilan birga yanchilayotgan g'allaning qobiq bo'ylab siljishi sekinlashib, donni to'liq ajratib olishga imkon tug'iladi. Tishlar ta'sirida yanchilayotgan massa rotor bilan birgalikda qobiq ichida bir necha (taxminan 2,5—3,0) marta aylanib, takroran panjarasimon taglik ustidan sudrab o'tilgani uchun yanchilayotgan g'allaga mazkur apparatning ta'sir yo'li va vaqtin oddiy apparatlarga nisbatan bir necha marta (6—7) ko'p bo'ladi. Shuning uchun rotoring zarb berish tezligini minimal, baraban va taglik orasidagi tirkishni esa maksimal o'rnatib, donlarni shikastlantirmasdan boshoqlardan to'liq ajratib olish mumkin. Yanchilayotgan g'alla rotorli barabanning birinchi yarmidan o'tgandayloq ulardagi don boshoqdan deyarli to'liq ajralib ulguradi. Shu sababli rotoring ikkinchi yarmida yanchish o'miga somon elanadi, don va boshoq qoldiqlari ajratib olinadi. Rotor va qobiq oralig'idan maydalanim chiqayotgan somon buyurtmachining xohishiga qarab maydalanim yerga sochilishi yoki somon to'plagichda yig'iladigan qilib tayyorlanishi mumkin. Shneklar qobiqdagi teshiklardan pastga tushgan don va mayda aralashmalarini kombaynning tozalash qismiga, uning ustki g'alviriga yetkazib beradi. Tebranib harakatlanayoqan bu g'alvir ko'zlaridan toza don bilan birgalikda mayda aralashmalar pastki (don) g'alvirga tushadi va elanadi. G'alvirlar ostidan yuqori tomonga uzlusiz berila-yotgan kuchli havo oqimi yengil va puch aralashmalarini orqa tomonga uchirib donni tozalaydi. Tozalangan don pastki g'alvir ko'zlaridan o'tib don shnegiga tushib to'planadi. Shnek donni bunkeriga eltadigan elevatorga uzatadi. G'alvir ko'zlaridan o'ta olmagan yirik va og'ir boshoqlar ustki g'alvir uzaytirgichidan boshoq shnegiga, so'ng boshoq elevatori yordamida takroriy yanchish uchun rotor ustiga tashlanadi. Qismlarni ishga sozlash maxsus elektr yoki gidravlik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ayrim sozlanishlar qo'lda bajarilishi mumkin.

Kabinadagi ko'plab jihoz va boshqaruv organlari kombayn haydovchisining unumli ishlashiga, ish vaqtida hamma qismlarning holatini nazorat qilishga, texnologik jarayonning maqbul rejimda bajarilishiga zamin yaratadi. Motoring ish rejimi, kabinadagi mikroiqlim, gidro va elektr tizim ko'rsatkichlaridan tashqari, quyidagilarni ham nazorat qilib turish mumkin: bunkerdag'i don miqdori; bunkerdag'i don bo'shatish shnegining holati; o'rtilgan maydon kattaligi, motovilo tezligi, dala notekisliklariга o'rgichning moslanishi (avtomatik va qo'lda); rotor bilan uning tagligi orasidagi tirkish oralig'i; tozalash qismi ventilatorining tezligi, rotoring aylanish tezligi; motovilo parragi tezligining kombayn tezligiga mutanosibligi; qiya transportyorning holati va hokazo.

**Yanchish sifati birinchi navbatda, baraban (rotor)ning aylanish tezligi yanchilayotgan ekinning turiga qarab mos qo'yilganligiga, ikkinchi navbatda, deka bilan baraban orasidagi tirkish yanchilayotgan g'alla poyalarining qalinligiga moslab o'rnatilganligiga bog'liq.**

Kombaynga boshqa o'lehamdagi yurish g'ildiraklari o'rnatilsa, kompyuterga tegishli o'zgartirish kiritiladi.

Yanchilayotgan ekin turiga qarab rotoring aylanish tezligi 300—1200 ayl/min oralig'ida o'zgartirilishi mumkin. Baraban tezligi me'yordan ortiq bo'lsa, ko'p don shikastlanadi, aksincha, kam bo'lsa chala yanchiladi. Ammo rotoring minimal tezligi yanchila-

yotgan mahsulotning markazdan qochirma kuchlar ta'sirida qobiqdagi qo'zg'almas qovurg'alarga zarb bilan urilishini ta'minlaydigan miqdoridan kam bo'lmasligi kerak. Rotor tezligining me'yordan oshib ketganligini donning bunkerga shikastlanib tushishidan, shuningdek somonning mayda bo'laklarga bo'linib chiqayotganligidan ham bilish mumkin.

Rotor sirtiga yanchilayotgan mahsulot turiga qarab turli savag'ich (to'g'ri vintsimon va egilgan egovsimon brus, planka)lar yoki tishlar o'rnatiladi. Vintsimon brus makka-joxorini yanchishga moslangan, ammo bug'doy uchun ham ishlatalishi mumkin. Rotor qobig'idagi qo'zg'almas qovurg' alarming holatini sozlab poyalarning siljishi tezligini, ya'ni boshoqlarning yanchilish darajasini o'zgartiriladi.

Baraban tagligi besh xil variantda o'rnatilishi mumkin (panjara chiviqlarining diametri o'zgartirilsa, teshiklar o'lehami ham o'zgaradi). Taglik bilan rotor orasidagi tirkish me'yordan ortiq bo'lsa, rotoring taglikni sidirish darajasi pasayib, taglik teshiklari tiqilib qolishi mumkin. Teshik shakli turlicha tagliklar yanchilayotgan mahsulotga moslab almashtirib qo'yildi. Cho'zinchoq teshikli taglik kuchli ezib, somonni ko'proq maydalaydi. Shu sababli firmaga teshik shakli har xil bo'lgan taglik qismlarini ko'p miqdorda tayyorlashga buyurtma berish kerak.

Kombayn ishida ayrim kamchiliklar kuzatilsa, quyidagi choralar ko'rildi:

1. Don ko'p shikastlansa, rotor tezligini kamaytirish, baraban tagligi bilan rotor orasidagi tirkishni kattalashtirish, taglik panjarasidagi chiviqlarning bir qismini olib tashlash kerak.

2. Don chala yanchilayotgan bo'lsa rotor tezligini oshirish, baraban tagligi bilan rotor orasidagi tirkishni kichraytirish, qobiqdagi qovurg'alar holatini o'zgartirish lozim.

3. Somon bilan birga don qo'shilib chiqib ketayoqgan yoki baraban tagligi teshiklari tiqilib qolgan (o'rgich past o'rnatilganligi sababli tuproq donga aralashib teshiklarga tiqilib qoladi) bo'lsa, uni tozalash, agar teshiklarga don tiqilib qolaversa, rotor bilan taglik orasidagi tirkishni, taglik panjarasidagi chiviqlar soni va rotor tezligini kamaytirish, qobiq qovurg'alarini yotiqroq o'rnatish kerak bo'ladi.

4. Ustki g'alvir ko'zlaridan pastga denga mayda somon bilan qipiqlik aralashib tushishi kuzatilsa havo oqimini kuchaytirish, shu g'alvir ko'zlarini kattalashtirish, rotor tezligini kamaytirish kerak.

5. Pastki g'alvir donni tozalab ulgurmasa, ustki (chori) g'alvirning ko'zlarini toraytirish, havo oqimini kuchaytirish, kombayn va rotor tezligini kamaytirish kerak.

«Keys» kombayni qismlarini tayinlangan rejimda minimal nobudgarchilikka yo'il qo'yib ishlashini ta'minlash uchun xizmat qiladigan **kompyuterni sharoitga moslangan ish dasturiga sozlab kalibrash lozim**. Buning uchun motor tirsakli valining joiz bo'lgan minimal aylanish tezligining  $n_1$  miqdori belgilanadi. Biror sababga ko'ra (misol uchun havo filtri tiqilib qolsa, yonilg'i bilan ta'minlash yomonlashsa) motor valining tezligi kamayib, avval kiritilib qo'yilgan  $n_1$  pog'onasigacha tushsa, kabinadagi operatorga signal beriladi.

Motorning joiz minimal ishchi tezligini  $n_1$  belgilashda albatta, yanchilayotgan g'allaning xossalariini e'tiborga olish kerak. Agar o'rileyotgan poyalarning kesishga qarshiliqi katta yoki qiyin yanchiluvchi g'allaga ishlov berilayotgan bo'lsa  $n_1$  nisbatan katta, ya'ni 2250—2300 ayl/min (nominal tezlik — 2550 ayl/min) belgilangani ma'qul. Chunki motor valining tezligi 20—25 foizga kamaysa, o'rish apparati segmentlarining

tezligi ham 20—25 foizga kamayib, qiyin kesiladigan (sholi) poyalarni toza kesolmasdan «chaynab» ketadi, ya’ni poyani ildizidan to’liq uzib ajratmaydi va boshoq yerda qolib ketadi. Bundan tashqari,  $n$ , kam qo’yilsa, yanchish apparatining rotori va don tozalash qismidagi g’alvirlarning ishi ham sustlashib, nobudgarchilik ortib ketishi mumkin. Agar o’rilayotgan poyalarning kesishga qarshiligi kam bo’lsa yoki g’alla oson yanchiluvchan bo’lsa,  $n = 1900—2000 \text{ ayl/min}$  tayinlanadi.

**Kompyuterni kalibrish** davomida yanchilayotgan mahsulotning xossalariga moslab rotor uchun o’rnatiqlgan ratsional tezlik kamayishining joiz bo’lgan chegarasi (75—95 foiz orasida) tayinlanadi. Bu ko’rsatkichni tayinlashda ham g’allaning yanchiluvchilagini e’tiborga olish kerak. Masalan, yanchish apparatiga g’alla bilan begona ko’k o’tlar ko’p miqdorda tushib deka tiqila boshlasa, rotor tezligi (motor valining tezligi o’zgarmasa ham) kamayib, chala yanchish ortib ketadi. Qiyin yanchiluvchan g’alla uchun tezlikning kamayish chegarasini 85—90 foiz, oson yanchiluvchan don uchun 75—80 foiz qo'yish ma'qul.

Kombayn old g’ildiraklarining yumalanish radiusini  $r_y$  kompyuterga kiritishda ham mahalliy sharoitlarni e’tiborga olish kerak. Kompyuter g’ildirakning aylanish sonini uzlusiz sanab, uning bir aylanishida bosib o’tiladigan yo’lini  $S = 2\pi r_{y_0}$  ni aniqlab turadi.  $S$  ni o’rgichning ishchi qamrov kengligi  $b_y$  ga ko’paytirib, o’rilgan maydon gektarini hisoblaydi. G’ildirakning eskirgani, havo bosimi, daladagi tuproqning zichligi, yer yuzasining mikroreleyefiga qarab  $r_{y_0}$  bir muncha o’zgaradi. Natijada, gektar hisoblagich adashib, noto’g’ri ma’lumot beradi. Demak,  $r_{y_0}$  ni, muayyan sharoit uchun aniqlab, keyin kompyuterga kiritish kerak.


O’rgich ishchi qamrov kengligini  $b_y$  kompyuterga to’g’ri kiritish ham ahamiyatga egadir. Kombaynni dala bo’ylab yuritishda o’rgich chap chetining  $\Delta_y = 20—30 \text{ sm}$  qismini ilgari o’rilgan poyalarni ang’izi ustidan yuritiladi.  $\Delta_y$  dala relefiga bog’liqidir: notejisliklar ko’p dalada  $\Delta_y$  kattaroq ( $40 \text{ sm}$ ) qo'yiladi.

O’rgich joiz hisoblangan balandlikka  $h_y$  ko’tarilganda gektar hisoblagich o’z ishini to’xtatadi.  $h_y$  daladagi poyalarning balandligi  $h_y$  va poyalarning yotib qolish darajasiga qarab tayinlangan o’rish balandligiga  $h_y$  moslanib belgilanadi. Respublikamiz sharoitida o’rish balandligi  $h_y \leq 20 \text{ sm}$  bo’lishini e’tiborga olib, joiz hisoblangan balandlikni  $h_y \leq 30 \text{ sm}$  o’rnatish ma’quldir. Ammo poyalarni  $h_y + 1 \text{ sm}$  balandlikda o’rilsa, gektar hisoblagich ishlamasdan qolishini unutmayslik kerak.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, «Keys» kombaynni nobudgarchilikka yo’l qo’ymay ishlatish uchun uning kompyuterini mahalliy sharoitga moslab ishlatish lozim va «Keys» g’alla kombaynning sekundlik yanchish qobiliyatidan to’liqroq foydalinish uchun serhosil g’allani o’rishda foydalangan ma’qul.

#### 4.3. «KLAAS» FIRMASINING KOMBAYNLARI

Germaniyadagi «Klaas» firmasi «Dominator» 202—218 «Mega» g’alla kombaynlari don yanchishning ilg’or texnologiyalari asosida tayyorlashi bilan dunyoga mashhur. «Dominator» kombaynlarining tuzilishi va ish jarayoni barabanli kombaynlardan deyarli farq qilmaydi. «Klaas» firmasining kombaynlaridagi ayrim konstruktiv yechimlar ularni boshqa kombaynlarga nisbatan don nobudgarchiligidagi kam yo’l qo'yishi va mexanizm-



**SHARTLI BELGILAR:** → g'alla oqimining yo'nalishi;

→ don, chori va maydalangan somon aralashmasi; → don;

→ g'alvir ko'tzlaridan o'tmagan mahsulot (boshoqlar);

→ somon; → chori.

#### 88-rasm. «Dominator» kombayni texnologik ish jarayonining sxemasi:

1—boshoq ko'targich taroqlari; 2—avtokontur sirpangichi; 3—tezlashtirish barabani; 4—yanchish barabani; 5—tishli segment; 6—sozlanuvchan fartuk; 7—somon elagich klavishasining uzaytirgichi.

larining puxtaligi bo'yicha ustun ekanligini ko'rsatmoqda. Bu kombaynlarning har sekunddag'i yanchish qobiliyati «Keys» kombaynlarinikidan 25—30 foizga kam bo'lib, hosildorligi o'rtacha bo'lgan g'allazorda ishlatishga mo'ljallangan.

«Dominator» kombayn texnologik ish jarayonining sxemasi 88-rasmida keltirilgan. O'rish apparatiga boshoq ko'targich taroqlari (1) kiydirilgan bo'lib, u bevosita o'rishdan oldin yetib qolgan bug'doy poyalarni birmuncha yuqoriga ko'taradi. Natijada, poyalarni uzun kesilib, o'rgich platformasiga to'liq uzatiladi, boshoqlar yerga kamroq to'kiladi. O'rgich maxsus avtokontur sirpangichi (boshmog'i) (2) yordamida yerning notejisligiga moslanib, poyalarni o'ta past (5—15 sm) o'rgani sababli don nobudgarchiligi kamayadi. Bu esa bug'doy poyalarni nisbatan pastroq o'sadigan O'zbekiston sharoiti uchun muhimdir.

«Dominator» kombaynlariga qamrov kengligi 4,5 m; 5,1 m; 6,0 m; 6,6 m; 7,5 m va 9,0 m bo'lgan o'rgichlarni o'matish mumkin. Ishchi tezligi katta bo'lganidan, O'zbekiston sharoitida **ularning ish unumi «Keys» kombayniniidan deyarli qolishmaydi**. Ammo har qanday yanchish apparatini loyihalangan sekundlik yanchish qobiliyatidan to'liq foydalanmasdan ishlatilganda donni chala yanchilishining ortishini e'tiborga olib O'zbekiston sharoitida yanchish qobiliyati o'rta me'yorda bo'lgan «Klass» kombaynlardan foydalanib nobudgarchilikni kamaytirish mumkin.

«Dominator» kombaynlaridagi yanchish barabani (4) ning oldiga undan deyarli farq qilmaydigan, lekin tezligi katta bo'lganligi sababli kelayotgan mahsulot harakatini tezlashtiradigan baraban (oddiy kombaynlardagi qabul biteri o'rniiga) o'matilgan.

Tezlashtirish barabani qiya transportyordan kelayotgan g'allani qabul qilib, uni ezib, tezligini 30—32 m/s gacha oshiradi. G'alla massasining oqim yo'nalishini deyarli o'zgartirmasdan asosiy barabanga uzatadi. Shu sababli, asosiy baraban boshqa kombaynlardagiga o'xshab poyalarni ezib deformatsiyalash va tezligini ko'paytirishga vaqt sarflamasdan, birdaniga yanchishni boshlaydi. Natijsada, bevosita yanchish jarayonida dekaning ishchi yuzasi to'liqroq ishlataladi, yanchish esa uzoq davom ettililib don to'liq ajratib olinadi. Bundan tashqari, qiyin yanchiladigan g'allani to'liq yanchishga erishish uchun ikkala baraban o'rtasiga qo'shimcha tishli segment (5) o'rnatish ko'zda tutiladi.

Somon elagich klavishalarida somonning siljish tezligini kamaytirib, uni ko'proq elash uchun xizmat qiladigan fartuk uzunligi elanayotgan g'alla poyalarining qalinligiga moslanib sozlanishi mumkin. Sharoitga qarab elanayotgan poyalarining klavisha bo'ylab siljishini sekinlashtirib, ularga aralashgan **don va boshqo qoldiqlarini to'liqroq ajratib olish maqsadida klavishalarga to'rt turdag'i tegishli uzaytirgichilar** (shu jumladan, sholi uchun **maxsus shakldagi**) o'rnatish ham ko'zda tutilgan.

Qiya joylarda ishlayotgan kombaynning g'alvirlarida elanayotgan don qalinligi bir xil bo'lismeni ta'minlash uchun g'alviri gorizontal holatga keltirib turadigan avtomatik moslama o'rnatilgan.

#### **5-8. KOMBAYN ISHIBADI DON NOBUDGARCHILIGINI KAMAYTIRISH**

G'alla hosilining bir qismi biologik va mexanik sabablarga ko'ra nobud bo'ladi.

**Biologik nobudgarchilik** pishgan donning boshqidan shamol ta'sirida yerga to'kiliishi tufayli yuz beradi. Shu sababli, pishib yetilgan g'allani zudlik bilan yig'ishtirib olish lozim. Ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasiga ko'ra don to'liq pishgan vaqtida paykalning birinchi bo'lagidan 29,5 s/ga, besh kundan so'ng shunday paykaldan 28,4 s/ga, o'n kundan so'ng 23,4 s/ga, o'n besh kundan so'ng 21,6 s/ga, yigirma kundan so'ng 18,5 s/ga hosil olingan.

Bug'doy dumbul davrida (don namligi 27—30 foiz) o'rilganda hosildorlik 40,3 s/ga, chala pishgan holatida (don namligi 20,0 foiz) — 40,1 s/ga, to'liq pishganida (don namligi 10,0 foiz) 36,4 s/ga bo'lган. Demak, bug'doy to'liq pishgan holatga kelgunicha hosildorlik deyarli 10 foizga kamayar ekan. Tajribada shu narsa aniqlandiki, davrida o'rilgan bug'doyda oqsil 12,7 foiz bo'lsa, to'liq pishgan davrida 11,8 foizni tashkil qilgan. Dumbul davrida o'rib olingan g'allaning hosili joyida turib pishganiga qaraganda ko'proq bo'ladi. Chunki o'rilgan poya qurib, undagi oziqning boshqodagi don o'zlashtirishi natijasida to'qroq bo'lishi aniqlangan. Bu raqamlar hosilni yig'ishtirish muddatini tanlash o'ta katta ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi va pishgan hosilni qanday usul bilan bo'lmasin, tezroq yig'ishtirib olish kerakligini ko'rsatadi. Ammo dumbul davrida o'rish jarayonida boshqolardan don deyarli to'kilmasligini e'tiborga olish lozim. Dunyodagi ko'p g'allakor davlatlarda don nobudgarchiligini kamaytirish maqsadida bug'dohni dumbul vaqtida o'rib olinib, quritilganidan so'ng yanchiladi.

**Mexanik nobudgarchilik** kombayn qismlarining boshhoqni o'rishi, uqalashi, ezishi jarayonida kelib chiqadi. U bevosita (erga to'kilish) va bilvosita (donning shikastlanishi) ko'rinishda yuz beradi. Kombayn yig'ishtirgan donning bir qismi singan, yorilgan, ezilgan bo'ladi. Shikastlangan don keyinchalik ajratib olinadi va oziga tayyorlashda ishlati-

ladi. Yerga to'kilgan don terib olish mumkin bo'limganligi sababli nobud bo'ladi. Pishgan g'allani kombayn yig'ishtirayotganda yerga to'kilayotgan donning qariyb 70—80 foizi uning o'rgiehidan (asosan, butun boshoqlar va boshoqdan ajratilgan don) to'kiladi. Shuning uchun ish jarayonida o'rgichning texnik holatiga, to'g'ri sozlanganligiga e'tibor berish lozim. O'rgichdan yerning har kvadrat metr yuzasiga atigi bittadan boshoq to'ksila ham (boshoqda 20—50 donagacha don bo'ladi), gektariga 10—15 kg don nobud bo'ladi.

**O'rgichdagi nobudgarchilik birinchi navbatda, o'rish balandligi me'yordan ortiq o'rnatilganligi tufayli yuz beradi.** O'rish balandligi har bir paykal sharoitiga (poyalarning zinch o'sishi, balandligi, yerning notejisligi, tosh va kesaklarning yrikligi, poyalarning yotiqligi) qarab o'rnatiladi. O'rish balandligi katta bo'lsa, poyanining o'riltgan qismi kalta bo'ladi. Bunday poyalar o'rgich ustida to'planganda bir-biriga kamroq ayqashadi va bog'lanadi. Shu sababli, ayrim boshoqlar o'rgichdagi to'plamdan ajralib yerga tushib ketadi. O'rish balandligi 10 sm bo'lsa nobudgarchilik 0,9 foiz, 20 sm da 1,6 foiz, 30 sm da 3,3 foiz va 40 sm o'rnatilsa 4,8 foiz bo'lishi aniqlangan.

O'rish apparati segmentlari o'tmas bo'lib qolsa poyalar to'liq qirqilmay, boshoqlar yerda qolib ketadi.

O'ta hosildor yerlarda yanchish apparatiga tushayotgan g'alla miqdorini kamaytirish maqsadida ayrim haydovchilar kombayn o'rgichining qamrov kengligidan to'liq foy-dalanmasdan, uning bir bo'lagini bo'sh qoldiradi. Bu holda o'riltgan boshoqlarning chetidagilari yerga tushib ketadi. Demak, **yanchish apparatiga tushadigan g'alla miqdorini kamaytirishga o'rish balandligini yoki o'rgichning qamrov kengligini emas, balki kombaynning yurish tezligini (motor vali tezligini o'zgartirmasdan) kamaytirish hisobi-ga erishish kerak.**

Don nobudgarchiligi motoviloning to'g'ri sozlanishiga ham bog'liq. Motoviloning aylanish tezligi to'g'ri tanlansa, uning parraklari poyalarni o'rish apparati tomoniga engashitirib keltirishi, qirqish vaqtida ularni suyab turishi, o'riltgan poyalarni o'rgich tubi va shnegiga yotqizib berishi kerak. Kombayn tezligi  $V_k$  qancha katta bo'lsa, motovilo par-ragini tezligi  $V_p$  shuncha kam o'rnatiladi. Aksincha,  $V_k$  kamaytirilsa,  $V_p$  ko'paytiladi.

Past bo'yli g'alla o'rimida motovilo tezroq aylantirilishi kerak, aks holda o'rish apparati ustidan o'riltgan boshoqlar yerga ko'p to'kiladi. Motovilo balandligi parraklar poyalarning og'irlik markaziga tegadigan qilib o'rnatilishi kerak. Agar motovilo vali tayinlan-ganidan pastroq o'rnatilsa (parrak poyanining og'irlik markazidan pastdan o'rsa), poya par-rakning old tomoniga engashib, yerga tushib ketishi mumkin. Agar motovilo vali tayin-langanidan yuqori o'rnatilsa, parrak boshoqni o'rib, uning donini yerga ko'p to'kadi.

Past bo'yli g'allani o'rishda motovilo valini eng quyi holatiga tushirib ishlatalish, parraklarga eni 120—150 sm bo'lgan rezina tasmalar o'rnatib, ularni kengaytirish kerak. Ayqashib yotib qolgan g'allani o'rishda motovilo vali o'rish apparatiga nisbatan oldinga 60—70 mm ga surib o'rnatiladi. Kombaynning tezligi qanchalik katta bo'lsa, motoviloni o'rish apparatiga nisbatan ko'proq oldinga surish lozim.

**Don nobudgarchiligi kombaynning yanchish va tozalash qismlarida ham sodir bo'ladi.** Yanchish apparati donni shikastlanirishi hamda boshoqlarni to'liq yanchmas-dan hosilning bir qismini somonda qoldirishi mumkin. Uni sozlash barabanning aylanish tezligini tayinlashdan boshlanadi. Chunki yanchilayotgan donning shikastlanish

darajasi birinchi navbatda barabanning aylanish tezligiga, yanchilayotgan g'alla turiga, holatiga (namligi, begona o'tlarning ko'pligi, somon miqdori) bog'liq bo'ladi. Kombaynlarda yanchish barabanining diametri bir xil bo'limganligi uchun uning aylanish soni ham bir-biridan farq qiladi, ammo bir xil sharoitda baraban tishlarining chiziqli tezliklari o'zaro teng qilib sozlanadi.

**Barabanning aylanish tezligi g'allaning yanchiluvchanligiga qarab**, kombaynga yopishtirilgan jadvaldan tanlab **tayinlanadi**. Bunda umumiy qoidaga rioya qilish kerak: oson yanchiladigan g'alla (no'xat) uchun kichik (350—500 *ayl/min*), qiyin yanchiladigan g'alla (sholi) uchun katta (900—1100 *ayl/min*) tezlik tayinlanadi. Barabanning tezligi o'matilgandan so'ng baraban va uning tagligi orasidagi tirkish rostlanadi. Tirkish iloji boricha g'allani to'liq yanchishi uchun kattaroq qoldiriladi. Kombayn oz vaqt ishlatalib somonda yanchilmagan boshoqlar qolgan-qolmaganligi tekshiriladi. Agar ayrim boshoqlar chala yanchilayotgan bo'lsa, tirkish kichraytiriladi. Boshoqlar to'liq yanchilayotgan bo'lsa-yu, bunkerga shikastlangan don me'yordan ko'p tushsa, barabanning tezligi kamaytiriladi.

**Ikki barabani apparat o'rnatilgan bo'lsa, birinchisi ikkinchisiga nisbatan 200—300 *ayl/min* kamroq tezlikda ishlataladi**. Birinchi baraban bilan uning tagligi orasidagi tirkish ikkinchisini kiga nisbatan 3—4 mm ortiq o'rnatiladi.

Hosilning 70—80 foizi baraban tagligi orqali ajratib olinadi va tozalash qismiga uza tiladi. Qolgan 20—30 foizi somon bilan birligida somon elagichga borib tushadi. Donni somondan to'liq ajratib olish uchun somon elagich maxsus sozlanmaydi. Ammo somon elagich ustiga o'rnatilgan fartuklarning bor-yo'qligiga katta ahamiyat berish kerak. Fartuk somonning elagich bo'ylab siljishini to'sib, uning tezligini kamaytiradi va elash vaqtini oshiradi. Natijada, don to'liq ajratib olinadi. Fartuk o'rnatilmasa, somon bilan birligida o'tib ketadigan don miqdori 1,5 baravar ko'payadi. Somon elagich kavis hasidagi teshiklar tizilib qolgan narsalardan tez-tez tozalanib turishi kerak. Somon elagichni harakatlantiruvchi tirsakli valning tezligi kamaytirilsa, donning somon to'plagichga o'tib ketishi keskin ortadi. Shu sababli, kombayn motorini doimo nominal tezlikda aylantirib ishlatalish kerak.

Kombaynning don tozalash qismi ham nobudgarchilikka ta'sir ko'rsatadi. Vентilyatorдан чиқяятган хаво оғими то'қ донларни учириб ўубормайдиган максимал дарадаги шамол хосил қиласидан тарзда созланади. Кейин пастки г'алвир ко'злари 75 foiz, ustki г'алвир ко'злари 50 foizga ochiladi, uning uzaytirgichining engashish burchagi minimal o'rnatilib, jalyuzi ko'zлари 30 foizga ochib qo'yiladi. Кейин kombayn 10—15 m masofa gacha ishlatalib, to'xtatiladi va somon to'plagichdagi somon tarkibi tekshiriladi. Agar somonga don aralashgan bo'lsa, ventilyatorga tegmasdan, ustki г'алвир ко'зларни kengaytirib, tozalanayotgan aralashunadagi don г'алвир uzunligining dastlabki 2/3 qismida to'liq pastga o'tib ketishi ta'minlanadi, г'алвир uzaytirgichining jalyuzilarini ko'proq ochiladi. Agar chala yanchilgan boshoqlar somonga aralashib chiqaversa, г'алвир uzaytirgichining engashish burchagi kattalashtiriladi. Somon to'plagichga chala yanchilgan boshoq tushmasa donning chiqib ketishi ham to'xtashi kerak. Aks holda, ventilatorning shamol kuchi birmuncha kamaytiriladi.


Asosan, pastki г'алвир то'г'и sozlansa bunkerga tushayotgan don toza bo'ladi. Uning ko'zlarini to'liq ochish tavsiya etilmaydi. Agar boshoq elevatoriqa toza don tushaversa,

pastki g'alvirning ko'zlarini to'liq ochish shart emas. Uning o'rniiga engashish bur-chagini o'zgartirgan ma'qul.

Kombayn qismalarining zinch yopilmagan qopqoqlari, turli tirkishlari orqali ham don yerga to'kilishi mumkin. Shu sababli hamma elevatorlar, shneklar va boshqa don o'tadi-gan joylardagi tirkishtarni zinch yopish talab qilinadi.

### 6-6. O'RIM-YIG'IMNI TASHKILLASHTIRISH

O'rим-yig'im maysumi boshida dalani temir-tersak qoldig'idan tozalash, g'allani past o'rishga yo'l qo'ymaydigan notekislik to'qarilqlarni tekislash kerak. Kombayn ishining samaradorligini oshirish maqsadida katta maydonli g'affazorlar paykallarga ajratiladi (*89-a rasm*). Paykalning endi dala uzunligiga qarab 100–150 m o'ruchamda



*89-rasm.* Kombaynni dalada harakatlantirishga oid sxemalar:

— katta maydonli dalani paykallarga ajratish; b — kombaynni aylanma usulida harakatlantirish; d — kombynni doimo o'ng tomonga burlb yuritish; f — paykallar oraliq'idagi yo'lakning ikki tomonida yuritish.

tanlanadi. Paykal eni o'rgichning ishchi qamrov kengligiga qoldiqsiz bo'linishi kerak. Yong'in tarqalishiga to'siq bo'lishi va kombaynga avtotransport kela olishi uchun o'rim-yig'imni boshlashdan avval dala chetlari (1) va paykallararo chegaralar (2) dagi g'alla o'rilib, kengligi 4—8 m bo'lgan yo'laklarni ochish topshiriladi. Kombaynni keskin burishni osonlashtirish va burilishlarda g'allaning to'liq o'rimini ta'minlash uchun paykal oxirida kengligi 12—16 m bo'lgan burchak yo'lakchalari (3) ochiladi.

Paykallar bo'ylab kombaynni yuritish usuli ularning shakli, o'chamlari va g'alla holatiga qarab tanlanadi. Uzunligi 400 metrdan kalta bo'lgan paykalda kombaynni aylanma usulda (*89-e rasm*) yuritish ma'qul. Paykal nisbatan uzun (1000 metrdan ko'p) va to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lsa, o'rilgan yo'lakni chap tomonda qoldirib, kombaynni paykal oxirida doimo o'ng tomoniga burish va uning ikkinchi chetiga olib borish usuli samarali bo'ladi (*89-e rasm*). Paykal uzunligi 400—1000 m bo'lsa, kombaynni paykallar oralig'ida yo'lakning ikki tomonida yuritish (*89-d rasm*) maqsadga muvofiq bo'ladi. G'allaning yotib qolgan qismi ko'p bo'lsa, kombaynni poyalar engashgan tomoniga qarshi yoki burchak ostida yuritish lozim.

Kombayn ishida sodir bo'layotgan don nobudgarchilagini aniqlash uchun har safar maxsus tajriba o'tkazish lozim. Shu maqsadda ilgari somon to'plagich bilan jihozlangan kombayn ishida sodir bo'lgan don nobudgarchilagini aniqlash usulidan bevosita foy-dalanish noto'g'ri natija beradi. Chunki «Keys», «Klaas» va boshqa firma kombaynlarida somon to'plag'ich o'rnatilmaganligi sababli ular somonni maydalab, dalaning ensiz joyiga to'kib ketadi. Tabiiyki, somon to'kilgan ensiz yo'lakka tushgan don miqdori o'rgich chetlaridan to'kilganiga qaraganda ko'proq bo'ladi. Shu sababli «Keys» kombaynlarining ishidagi nobudgarchilikni aniqlash uchun uzunligi o'rgichning ishchi qamrov kengligiga  $B_1$ , eni esa  $\Theta = 1,0/B_1$  metrga teng bo'lgan ramka tayyorlanadi. Ramkaning ichki maydoni  $\Theta \cdot B_1 = 1,0 \text{ m}^2$  bo'ladi. U hali kombayn kiritilmagan g'alla poyalariga asta-sekin kiydirilib, yerga tushiriladi. Ramka ichidagi boshoqlar ehtiyojkorlik bilan qirqib olinib, ulardag'i don miqdori  $B$  va yerga to'kilgan don miqdori  $Y$  aniqlanadi.  $B$  va  $Y$  ning yig'indisi 1.0 kv. metr (ya'ni 0.00001 hektar)dagi hosilni  $X$  bildiradi:  $X = B + E \text{ kg/m}^2$ . Tabiiy omillar ta'sirida yerga to'kilgan don miqdori, ya'ni tabiiy nobudgarchilik  $H_1 = 100 (Y-E)/B_1 \%$  hisoblanadi.

Kombayn bilan 50—60 m yerdagi g'allani o'rib, so'ng to'xtatiladi va orqaga 2,0—2,5 m masofaga tisarilib qo'yiladi. O'rgich o'rib olgan joydagi ang'izga ramka joy-lashtiriladi va uning ichidagi yerga to'kilgan don va boshoqlar terib olinib don yig'indisi  $U$  aniqlanadi. Bevosita o'rgich ta'sirida sodir bo'ladigan nobudgarchilik  $H_A = 100 (K-E)/B_1 \%$  ga teng bo'ladi. Bunday tajriba dala diagonali bo'ylab to'rt, besh joyda o'tkaziladi.  $H_1$ ,  $H_A$  va  $H_k$  larning o'rtacha miqdorlariga qarab tegishli chora-tadbirlar ko'rildi.

## **7-6. Q'ALLA KOMBAYNINI ISHGHA TAVYORLASH** **(amaliy mashg'ulot)**

Iloji bo'lsa, amaliy mashg'ulotni «Keys» g'alla kombaynida o'tkazish kerak. Agar kollejda boshqa rusumli kombayn bo'lsa, quyidagi tavsiyalar bir munkha o'zgartirinadi.

**Mashg'ulot o'tkazishdan maqsad:** o'quvchilarga g'alla kombaynini o'rildigan ekin turiga, uning holati va boshqa mahalliy sharoitlarga moslab tayyorlash tartibini o'rgatish va bunda qilinadigan asosiy ishlarni amalda bajarish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Mashg'ulot joyini jihozlash.** «Keys» yoki boshqa rusumli g'alla kombayni, ruletka, g'alvir ko'zining kengligini o'lehaydigan shablon (qisirma lineyka), plakatlar, o'quv videofilmi va boshqalar.

**Mashg'ulot o'tkazish tartibi.** O'qituvchi don nobudgarchiligini kamaytirish maqsida kombaynni ishgha tayyorlash tartibini eslatadi. O'quvchilar to'rt guruuhga ajratiladi va ular quyidagi topshiriqni o'qituvchi rahbarligida navbatma-navbat bajaradi:

1. Kombayn o'rgichini o'qituvchi bergen sharoit (ekin turi, balandligi, hosildorligi, qalin-siyrakligi, namligi, yotib qolganligi, dala mikrorelyeflarga moslab sozlash).

2. Kombayn yanchish moslamasi bilan somon elagichni berilgan sharoitlarga moslab sozlash.

3. Kombayn don tozalash qismini berilgan sharoitga moslab sozlash.

4. Kombayn kompyuterini sharoitga moslab kalibratsiya qilish.

Topshiriqni bajarayotgan talabalar qilayotgan ishini izohlab, boshqa guruhdagi o'quvchilarning fikri bilan tanishadi. Hanima tegishli hisobot tayyorlaydi.

**O'qituvchi talabalarga quydagilarni eslatadi.**

**Birinchi topshiriq bo'yicha.** «Keys» g'alla kombayniga o'rnatilgan 1010 rusumli o'rgich motovilosining aylanish tezligi, uni o'rish apparatiga nisbatan balandlikda va ilgarilatib o'rnatilishini, kombayn kabinasidagi boshqaruvi vositalari yordamida mahalliy sharoitga moslab o'zgartirish mumkinligini ko'rsatadi. Motovilo parraklari eng pastki holatga tushirilganda (tik holatga keltirilganda) uning taroqlari bilan o'rish apparati barmoqlari orasidagi masofa  $25\text{ mm}$  dan kam bo'lmasligi kerak. Bunga motoviloni ko'tarib tushiradigan gidrosilindrlar shtogidagi vint uzunligini o'zgartirib erishiladi. Yotiq yoki past poyalarini o'rishda parrak taroqlari tik holatidan orqa tomonga  $20^\circ$  gacha burib qo'yiladi.

O'rtacha sharoitda o'rgich tubi bilan transportlovchi shnek orasida  $12-15\text{ mm}$  tirqish o'rnatiladi. Shnek bilan o'rgich orqa devoridagi sidirg'ich (stipper) orasida  $3-25\text{ mm}$  tirqish qo'yiladi. Shnekni harakatlantiruvchi zanjir yulduzchasini almashtirib, uning aylanish tezligi ( $152; 170; 189$  va  $213\text{ ayl/min}$ ) ish sharoitiga moslab o'zgartiriladi. Serhosil joylarda kattaroq tezlik qo'yiladi. Shnek parraklariga poyalar tiqilib qolsa, uni qiya transportyor bilan birligida kabinadagi sariq dastakchani orqaga surib, ularni qisqa vaqtga teskari aylantirish kerak. Agar ularni aylantirishga elektromototning kuchi yetmasa, uni kuydirib qo'ymaslik uchun (5 sekunddan ortiq ishlatalib bo'lmaydi) shnekni maxsus kalit yordamida qo'lda aylantirib tozalanadi.

«Keys» g'alla kombayniga segmentlar qadami  $76,2\text{ mm}$  (3 duym) bo'lgan o'rish apparati o'rnatilgan. Segment bilan barmoq orasidagi tirqishni  $0,4-1,0\text{ mm}$  orasida

o'matish kerak. Buning uchun qisgich tagiga 0,4 mm yoki 1,7 mm qalilidagi qistirmalar o'rnatiladi. Ayrim vaqtida qisgichni asta-sekin bolg'a bilan urib, bu tirkishni o'zgartirish kerak bo'ladi. Barmoqning segmentga nisbatan joylashishini sozlash uchun barmoqqa truba kiydirilib, kerakli tomonga asta-sekin buriladi. Segmentlar qotirligan dastakni harakatlantiruvchi reduktorning tebratkichiga qotirligan ikkita bolt bo'shatiladi, pichoq erkin ilgarilanma-qaytarilma yuraoladigan holatga keltirilib, qayta mahkamlanadi.

**Ikkinci topshiriq bo'yicha.** Yanchish moslamasida rotoring aylanish tezligi yan-chiladigan ekin turiga moslab o'rnatiladi. Misol uchun, bug'doy yanchishda rotor tezligi 900 ayl/min, kungabogarda — 350, rapsda — 625, javdarda — 750, makkajo'xori donida — 500, loviya, no'xatda — 350, sholi yanchishda — 950—1000 ayl/min o'rnatish tavsija qilinadi. Ikkinci navbatda esa rotor (baraban) bilan deka (baraban tagligi) orasidagi tirkish yanchilayotgan poyalar miqdori (qaliligi)ga qarab o'rnatiladi. O'rtacha sharoitda bug'doy yanchishda ushbu tirkishning miqdorini shartli raqamlar bilan ifodalaydigan indikator strelkasi 2 raqamiga, kungabogarda — 5 ga, rapsda — 4, javdarda — 4,5, makkajo'xori donida — 3, loviya, no'xatda — 2, sholida — 1 ga keltirib qo'yish kerak.

Rotorga kelib tushgan g'alla poyalari somon elagichdan chiqib ketgunicha u bilan birgalikda 2,5—3,0 marta aylanib ulgursa yanchish to'liqroq bo'ladi. Agar g'alla rotor tishlarining sidirib surishi hisobiga uning atrofida 2,5 martadan kam aylanayotgan, ya'ni u yanchish apparatidan tez o'tib ketayotgan bo'lsa, yanchish chala bo'lishi mumkin. Bunday holda rotoring ust qobig'idagi vintsimon qovurg'alarmi tik o'matish lozim. Agar somon me'yordan ortiq maydalananayotgan bo'lsa, qvvat behuda sarflanadi. Bunday vaqtida qovurg'alar yotiqroq holatda o'rnatiladi. Rotor ta'siridan chiqib ketay-

Jadval

Ekin turri	Ushbu g'uldir berilishini o'rnatish, min			Pashki g'uldir berisi, min	Yançilayotgan tezligi, ayl/min
	old qisgicha	o'rnatilish	organ, uchunchi qisgicha		
Beda urug'i	9,5	9,5	9,5	Dumaloq	500
Arpa	12,7	12,7	15,8	9,5	1000
Loviya	12,7	12,7	15,8	12,4	550
Makkajo'xori	12,7	12,7	15,8	12,7	1100
Javdar	12,7	12,7	12,7	6,4	450
No'xat	12,7	12,7	12,7	9,5	700
Raps	9,5	9,5	12,7	8,0	880
Sholi	12,7	12,7	12,7	9,2	850
Kungabogar	12,7	12,7	15,8	11,1	770
Bug'doy	12,7	12,7	15,8	6,5	1050

otgan somon ichidagi don miqdorini nazorat qilish uchun u yerga ikkita pe'zoelement o'rnatilgan. Uлarni qalam bilan asta-sekin chertib, chala yanchishni nazorat qiladigan asbob tekshiriladi.

**Uchinchи topshiriq bo'yicha.** Kombaynning orqasidan qaraganda rotor soat miliga teskarı aylanadi. Shu sababli yanchilib ajratilgan donning ko'p qismi chap tomondagi shnek ustiga tushib, kombayn eni bo'yicha bir xil yoyilmaydi. Tozalashni sisatliroq bajarish uchun don g'alvirlar ustiga bir xil qalinlikda tushgani ma'qul. Shu maqsadda, chap tomondagi birinchi shnek valiga rezinadan yasalgan kurakcha o'rnatilgan. Shnekdan otilib chiqayotgan don oqimi kurakcha ta'sirida o'ng tomoniga yoyilib sochiladi. Kurakchaning joyini, kerak bo'lsa sonini o'zgartirib donining g'alvirga bir xil qalinlikda uzatilishiga erishiladi.

Ustki va pastki g'alvirlar ko'zi ventilyatorning aylanish tezligi, yanchilayotgan g'alla donining o'lchamlari va uchuvchanligiga moslab o'rnatiladi. O'rtacha sharoitda yuqoriidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

Ustki g'alvirning oxirida ikkita p'ezoelement o'rnatilgan bo'lib, g'atvirdagi nobudgarchilikni nazorat qilish uchun xizmat qiladi.

O'qituvchi aylanayotgan ventilyatorning tezligini kabinadagi tablodan ko'rish va kerakli miqdorgacha o'zgartirish tartibini ko'rsatadi.

**To'rtinchi topshiriq bo'yicha.** Kompyuterni kalibratsiyalab, kombayn qismlarining ratsional ish rejimini ta'minlash bo'yicha topshiriq berish asoslari 3-§ da keltirilgan. O'qituvchi uchta dastur bo'yicha «Keys» kombayni kompyuterini to'liq kalibratsiyalash jadvalini ko'rsatib, talabalarga bajariladigan ishlarning ma'nosini tushuntirishi kerak. Talabalar esa birinchi va ikkinchi dastur bo'yicha kalibratsiya qilishni bajarib ko'radi.

## VII BOB BO'YICHA XULOSALAR (MURSHID SOZIB QALING)

1. G'alla hosilini nobudgarchiliksiz yig'ib-terib olish uchun mahalliy sharoitga mos texnologiyadan foydalanish kerak.

2. Respublikamiz iqlim sharoitida g'allani dumbul holatga kelganda o'rib, dala chetiga uyumlab qo'yish, tabiliy sharoitda quritilgandan so'ng yanchib olish texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. Don nobudgarchilagini kamaytirish uchun, birinchi navbatda, o'rish balandligini pastroq qo'yish, motovilo va yanchish apparatini o'rileyotgan ekin xossalariiga mos ravishda sozlash kerak.

4. Savag'ichli yanchish apparatiga nisbatan shtiftli baraban o'rnatilgan apparatning yanchish qobiliyatini kuchli, ammo uning ishiga ko'proq quvvat sarflanadi.

5. Aksial-rotorli yanchish apparati yanchilayotgan g'allaga uzoqroq ta'sir qilishi hisobiga don to'liqroq ajratib olinishi bilan bir vaqtida yumshoq rejimda ishlatalib, kamroq shikastlanadi.

6. Aksial-rotorli yanchish apparatining yanchish qobiliyatini sekundiga o'ta katta bo'lganligi sababli, bunday apparatga ega bo'lgan kombaynlardan serhosil ekinli joylarda foydalangan ma'qul.

7. Yanchish apparatini ishga tayyorlashda, birinchi navbatda, uning barabani yanchilayotgan ekin xossalariiga mos tezlikda aylanadigan qilib sozlanadi. Keyin esa barabani bilan uning taglig'i (deka) orasidagi tirkish kelayotgan massa miqdoriga qarab o'rnatiladi.

8. Kombaynning don tozalash qismi samarali ishlashi uchun g'alvirga uzatilayotgan mahsulotni tekis taqsimlash talab qilinadi.
9. Don nobudgarchiligini kamaytirish uchun g'allazorni o'rim-yig'imga belgilangan tartibda tayyorlash hamda kombaynni paykal bo'ylab tegishli tartibda yurishini ta'minlash lozim.
10. Kombayndan samarali foydalanishda kompyuterni mahalliy sharoitga moslab kabi-bratsiya qilish kerak.

## KOMBAYN

1. Yuqorida keltirilgan xulosalarning har birini asoslab bering.
2. Qanday sababga ko'ra pishib yetilgan bug'doyni tezda o'rib olish kerak?
3. Nima uchun g'alla hosilini yig'ishtirishda ko'p usullardan foydalaniлади?
4. Hosili kombayn bilan yig'ishtiriladigan dalada nima sababdan begona o'tlar yo'qotilishi talab qilinadi?
5. Nega o'rish apparati segmenti bilan barmoq tig'i orasidagi tirkish katta bo'l shiga yo'l qo'ymaslik kerak?
6. Nima uchun motoviloning aylanish tezligini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega?
7. Nega motovilo parragining boshoq yaqiniga zarb berishiga yo'l qo'ymaslik kerak?
8. Qanday maqsadda motovilo parragining taroqlari engashtirilib, turli burchak ostida qo'yiladi?
9. Qanday sabablarga ko'ra o'rgichdan butun boshoqlar yerga tushib qolishi mumkin?
10. Nega shtiftli yanchish barabani donni to'liqroq ajratib olishi bilan bir vaqtida somonni ko'proq uzib maydalaydi?
11. Nega yanchish barabanining aylanish tezligi sharoitga qarab turlicha qo'yiladi?
12. Kombayn don tozalash qismidagi ustki g'alvirning noto'g'ri sozlanganligi qanday ko'rsatkichlarga qarab aniqlanadi?
13. Kombayn ventilatorining noto'g'ri sozlanganligi qanday aniqlanadi?
14. Nega aksial-rotorli kombayn qisqaroq va ixchamroq bo'ladi?
15. Nega ishlayotgan kombayn tezligini kamaytirish uchun motor tezligini pasaytirish favsiya qilinmaydi?
16. Kombaynga turli qamrov kenglikka ega bo'lgan o'rgichlar qanday maqsadda qo'shib sotilishi mumkin?
17. Nega past bo'yli ekin o'rimida motovilo tezroq aylantiriladi?
18. Qanday maqsadda klavishasimon somon elagich ustiga fartuk o'rnatiladi?
19. Kombayndan so'ng qolgan somonda yanchilmagan va chala yanchilgan boshoqlar uchrasa qanday chora ko'rildi?
20. Kombayndan so'ng qolgan somonda ajratilgan don ko'p bo'lsa, qanday chora ko'rildi?
21. Kombayn bunkeridagi donga mayda somon va qipiқ aralashib tushayotsa qanday chora ko'rildi?
22. Nega paykalda ishlayotgan kombaynning chap tomonida dalaning o'rilgan qismi bo'lgani ma'qul?
23. Qanday sababga ko'ra o'rish apparatinining ustida o'rilgan poyalar to'planib qolishi va ayrimlari yerga tushib ketishi mumkin?
24. Nimaning hisobiga aksial-rotorli yanchish apparati g'allani o'z ichiga tortib olib, uni orqa tomonga uzlucksiz surib turadi?

## IX б е б. DON TOZALASH MASHINALARI

Don mustaqillligiga erishishi maqsadida Respublikamizda g'alla ekiladigan maydoni keskin ko'paytirilganligi sababli har yili ekiladigan bug'doy urug'i niqdorini ham keskin oshirish zaruriyatni tug'ildi. Urug'lik uchun ajratilgan donni kombayn bilan yig'ishtirishda unga begona o't urug'lari, qipiqliq, maydalangan somon aralashib qoladi. Shu sababli, don dastlab ushbu aralashmalardan tozalanib, oziq-ovqat sifatida ishlatiladi. Agar donni urug'lik sifatida ishlatish rejalashtirilgan bo'lsa, birlamchi tozalangan donga aralashgan boshqa navli g'alla urug'i, hatto butun, ammo o'ta to'q bo'linagan donlar ham ajratib olinadi, ya'ni saralanadi. Urug'lik don qanchalik sifatli tayyorlangan bo'lsa, unuvchalligi shunchalik yuqori bo'lib, ekin bir vaqtida va bexato unib chiqadi, natijada shunchalik hosildorlik ko'tariladi.

Bu ish maxsus don tozalash mashinalari yordamida ikki maqsadda amalga oshiriladi.

1. Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan don begona o'tlarning achchiq urug'idan, chang-to'zondan, singan va puch dondan birlamchi tozalanadi.

2. Urug'lik uchun ajratilgan don birlamchi tozalanganidan so'ng, yana qayta tozalanib, saralanadi.


Ushbu bobdag'i ma'lumotlarni o'qitishdan maqsad o'quvchilarga don tozalash usullari va Respublikamizda ishlatilayotgan Germaniyaning «Petkus» don va urug' tozalash mashinalarining tuzilishi va sozlanishlari to'g'risida ma'lumot berish hamda bunday mashina uchun g'alvir tanlash ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Donni tozalash va saralash usullari ularning o'lchamlari va fizik-mexanik xususiyatlari (aerodinamik xususiyatlari, zichligi va boshqalar)ga bog'liq holda tanlanadi.

Donning aerodinamik xususiyatlaridan foydalangan holda havo oqimi yordamida yengil aralashmalardan ajratiladi (*90-rasm*). Don aralashmasiga ventilyator (1) hosil qilayotgan havo oqimi yo'naltirilsa, puch va yengil aralashmalar uzoqroq joyga uchib o'tadi va 4-novga tushadi. To'q va og'ir donlar yaqinroqdag'i 3-novga tushadi.



Don uchta o'lchami bilan tafsiflanadi: uzunligi *l*, eni *b*, qalinligi *δ* (*91-a rasm*). Don qalinligi bo'yicha to'rtburchak ko'zli (*91-b rasm*) va eni bo'yicha yumaloq ko'zli (*91-d rasm*) g'alvirlarda tozalanib, uzunligi bo'yicha triyerlarda saralanadi. Donni g'alvir yordamida tozalash uchun uning ustiga tushayotgan aralashma g'alvir yuzasiga nisbatan siljib harakatlanishi kerak, aks holda, don g'alvir ko'ziga tushmaydi. Shu sababli, g'alvir,

albatta tebranma harakat qilishi zarur. Donni uzunligi bo'yicha saralaydigan triyerlar ich tomonida uyachalari bo'lgan uzuksiz aylanuvchan silindr dan iborat (92-rasm). Aylanayotgan silindrning bosh qismiga saralanayotgan don solinadi. Agar donning uzunligi uyacha diametridan kichik bo'sa, u uyacha ichiga tushgan holda silindr bilan birgalikda ma'lum balandlikka ko'tarilib, keyin o'z og'irligi bilan nov (2) ga tushadi. Uyachaga sig'magan don silindr qiya o'rnatilgani sababli, uning quyi tomoniga siljib borib tushib ketadi. Ko'pincha mashinalarga ikki xil: uzun va kaita aralashmalarini ajratadigan triyerlar birgalikda o'rnatiladi. Birinchisining uyachalari don uzunligi bo'yicha to'liq sig'adigan diametrda o'yilgan. Triyer aylanganda donning hammasi ko'tarilib novga tash-



90-rasm. Donni aerodinamik xususiyatiga ko'ra tozalash:


1—ventilyator; 2—don idishi; 3—to'q va og'ir donlar tushadigan nov; 4—uchuvchanligi katta bo'lgan aralashmlar tushadigan nov.



b




c



d

91-rasm. Donni o'lehamiga qarab airatish sistemasi:

a — don o'lehamalarini belgilash; b — donni qalinligi bo'yicha tozalaydigan g'alvir; c — donni eni bo'yicha tozalaydigan g'alvir.




92-rasm. Triplex sxemasi:

1—uyachali silindr; 2—nov; 3—shnek.

sababi sariq pechak urug'iga metall kukuni yopishib qoladi va tagiga magnit (1) o'rnatilgan tasmasimon transportyorda (2) harakatlantirilganda, magnit tomoniga burilib ajraladi (93-rasm).

Urug'lik don solishtirma og'irligi bo'yicha pnevmatik saralash stolida saralanadi. Saralash stolida g'alvir va trierda tozalangan urug'lik ichidan sifati past (qisman puchroq) bo'lgan don ajratiladi (94-rasm). Stolning diagonali bo'yicha qiya o'rnatilgan g'alvirsimon yuza tebranma harakatlanadi, uning ustiga solingen urug'lik tagidan (stol yuzasidagi teshiklardan) ventilator orqali havo-ning kuchli oqimi yo'naltirilib urug'larni sakrata-di. Tebranish hamda sakrash ta'sirida solishtirma og'irligi kam bo'lgan urug'lar don qatlaming ustiga qalqib chiqib 2- va 3-novga, eng to'q donlar tagida qolib 4-novga tushadi.




93-rasm. Don sirtining g'adir-budurligiga ko'ra tozalash:

1—magnit; 2—transportyor.

Iansa, suli urug'i va boshqa uzun aralashmalar silindrning ikkinchi chetigacha siljib borib chiqib ketadi.

Donga aralashgan narsalar har xil aerodinamik xususiyatga ega bo'lgani sababli, maxsus aspiratsion kanallarda ventilator bosil qilayotgan havo oqimi ta'sirida bo'laklarga ajratilib tozalaniadi.

Ba'zi ekilarning urug'larga arakashib qoladigan begona o'thar urug'i o'zining o'lchamlari, shamolda uchuvchanligi va boshqa xususiyatlari bo'yicha asosiy ekm urug'lardan deyarli farq qilmaydi. Bunday hollarda don sirtining g'adir-budurligidan foydalanib tozalaniadi. Masalan, beda urug'idan sariq pechak urug'ini ajratish uchun tozalananidan urug'lar aralashmasiga magnitga tortiladigan metall kukun qorishtiriladi. G'adir-budur bo'lganligi




94-rasm. Pnevmatik saralash stolining ishlash sxemasi:

1—ventilator; 2—zichligi katta bo'lgan donlar tushadigan nov; 3—zichligi kamroq bo'lgan donlar tushadigan nov; 4—yengil don tushadigan nov; 5—bo'lgichlar; 6—stolning qiya sirti.

Don tozalash va saralash mashinalarining turlari juda ko'p. Quyida «Petkus» firmasining K-531 Gigant «Euro» don tozalash mashinasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan (95-rasm). Mashina bunker (1), aspiratsion kanal (3, 8) lar orqali havo oqimini ta'minlaydigan ventilyator (10), g'alvirlar to'plami (T), trier (6) lardan tashkil topgan.

Mashina bunkeri (1) ga solingen don aralashmasi tirkish (2) orqali birinchi aspiratsion kanal (3) dagi to'r (4) usti bo'ylab g'alvirlar to'plami T tomon o'tadi. Ventilyator (10) so'rib olayotgan havo oqimi birinchi aspiratsion kanal bo'ylab yuqoriga ko'tarilayotib to'r (4) ustidagi dondan yengil aralashma (maydalangan somon, chang-to'zon, qipiqlarni uchirib tindirgich (5) ga keltiradi. Hajmi katta bo'lgan tindirgichga yetib kelgan havo oqimining tezligi keskin kamayishi sababli, aralashmalar pastga cho'kib, darcha (a) orqali tashqariga chiqarilib tashlanadi. Havo esa ventilyatordan o'tib karnay (chang-to'zon tutkich) (11) orqali atmosferaga chiqib ketadi.

G'alvirlar to'plami (T), ustki (A) va pastki B g'alvirga ega. Birinchi aspiratsion kanalda tozalangan don (A) g'alvir boshlanadigan joyga tushadi. G'alvirlar to'plami birmuncha qiya o'rnatilganligi hamda uzlusiz titrab, ilgarilanma-qaytma harakatga keltirilishi sababli, don aralashmasi asta-sekin g'alvirlarning oxiriga siljib turadi. Uzlusiz siljiyotgan don g'alvir ko'ziga to'g'ri kelib qolsa, u elanib, pastga tushadi. (A) g'alviri shunday tanlanishi kerakki, uning ko'zlaridan normal don va mayda aralashmalar o'tib



95-rasm. Petkus K-531 Gigant «Euro» universal don tozalash mashinasi ish jarayonining sxemasi.  
1—bunker; 2—sozlanuvchi tirkish; 3—birinchi aspiratsion kanal; 4—to'r; 5, 9—tindirgich; 6—trier silindiri;  
7—nov; 8—ikkinchi aspiratsion kanal; 10—ventilyator; 11—karnay.

V g'alvirga tushsa, yirik aralashmalar (somon bo'laklari, chala yanchilgan boshoq, begona o't qoldiqlari) esa uning oxirigacha siljib borib, e darchasiga tushib ketadi.

V g'alvirning ko'zidan ensiz va mayda aralashmalar (qum, puchroq bo'lgan don, begona o't urug'lari) pastga o'tib, s darchasidan chiqadi. V g'alvirning ostiga tegib turadigan cho'tkalar qili uning ko'zlariga tiqilib qolgan donni tutrib yuqoriga chiqarib tozalab turadi. V g'alvir ustidan sirpanib tushgan don ikkinchi (asosiy) aspiratsion kanal (8) dan o'tayotganida uning ichidagi o'lchami normal, ammo puchroq demak unuvchanligi past bo'lganlari kuchli havo oqimi ta'sirida yuqoriga uchib ketadi va ikinci tindirgich (9) da havodan ajralib, d darchasidan chiqib ketadi.

Tozalangan don silindrik trier (6) ning ichiga borib tushadi. K-531 Gigant «Euro» don tozalagichida ikkita bir-biriga parallel bir xil silindrik trierlar qo'yilgan. Uning ichki siridagi uyachalar diametri, normal to'q don uzunligidan «kalta» qilib yasalgan. Shu sababli, uchi sinib, kalta bo'lib qolgan don, begona o't urug'lari uyachaga tushib, silindr bilan birgalikda ma'lumi balandlikkacha yuqoriga ko'tarilib, o'tradagi nov (7) ga tushadi va k darchasiga kiydirilgan qopga to'kiladi. Saralangan to'q don esa qiya o'rnatilgan silindrnning ikkinchi chetiga surilib boradi va uning uchidagi kurakchalar bilan f darchasiga bog'langan qopga tushadi.

Bu mashina soatiga 2,5 tonna, tozaligi 99,7% gacha bo'lgan urug'lik va 3,5 tonnaga oziqbop donni tozalay oladi. U bilan ozuqbop pichan o't, sabzavot urug'lariha ham ishlov berish mumkin.

«Petkus» ning ayrim tozalagichlarida «kalta» trierga qo'shimcha «uzun» trier birin-ketin o'rnatilgan bo'lib urug'lik dondan uzun aralashmalarni ham ajratib olish, sisatliroq bo'lgan urug'ni saralab tayyorlash imkoniga ega.

Amaliy mashg'ulot «Petkus» firmasining don tozalash mashinasida o'tkazishga mo'ljallangan. Ammo kollejda boshqa mashina mavjud bo'lsa, mashg'ulot mazmuniga ayrim o'zgarishlar kiritiladi.

**Mashg'ulot o'tkazishdan maqsad:** O'quvchilarga mahalliy sharoitda o'stirilgan donni tozalash uchun g'alvir tanlash va don tozalaydigan mashinani sozlash tartibini o'rgatish va tegishli ko'nigmalar hosil qilish.

**Mashg'ulot uchun kerakli vositalar.** Don tozalash mashinasi, 20 kg bug'doy, 20 kg sholi (arpa, tariq, javdar, zig'ir), tarozi, paketlar.

**Mashg'ulot o'tkazish tartibi.** O'qituvchi mashinani ishga tayyorlash tartibini tu-shuntirib, ko'rsatadi. Guruh ikkiga bo'linib, navbatma-navbat quyidagi topshiriqlarni bajaradi (1-guruh bug'doy, 2-guruh sholi uchun):

1. Berilgan don uchun ustki va pastki g'alvirlarni tanlash.
2. Berilgan don uchun aspiratsion kanallarni, trierni sozlash.

Topshiriq bajarayotgan o'quvchilar o'zlari qilayotgan ishni izohlab, o'zaro fikr almashadi. Tegishli xulosalar qabul qilinib, hisobot yoziladi.

## O'qituvchi quyidagi larni tushuntiradi.

Ajratilishi kerak bo'lgan aralashmaning eni yoki qalinligi bo'yicha dondan farqlanishiga ko'ra mashinaga ko'zi dumaloq yoki to'rtburchak shakldagi g'alvirlarni o'rnatish to'g'risida tavsija beriladi. Keyin esa mashinaga qo'shilib beriladigan g'alvirlar to'plamidan kerakli shakiga ega bo'lganlari elanadigan mahsulot o'lchamlariga mos holda tanlanadi. Buning uchun quyidagi tajriba o'tkaziladi:

1. Mashinadagi A g'alvir o'mniga qo'yiladigan g'alvirmi to'g'ri tanlash maqsadida ulardan tanlab olingen bir nechta nusxasi ustiga tahminan 0,5 kg mahsulot solinib qo'lda elanadi. Normal donning hammasini elab pastga tushiradigan, yirik aralashmalarни esa to'liq ushlab qoladigan g'alvir tanlanib mashinaga qo'yiladi.

2. V g'alviri o'mniga qo'yiladigan g'alvir uchun ko'zlaridan biron-bir donni pastga o'tkazmaydigan, ammo mayda aralashmalar hamda siniq donni elab, to'liq pastga tushiradigan nusxasi tanlanadi.

Donni sifatli tozalash uchun aspiratsion kanallarni tozalanayotgan mahsulot xossalariга moslab sozlash talab qilinadi. Birinchi aspiratsion kanaldagi havo oqimining tezligi to'g'ri qo'yilgan bo'lsa, u yerdan puchroq donlar yengil aralashmalarga qo'shilib uchib ketmasligi kerak. Demak, to'plangan aralashmalarning tarkibiga qarab birinchi aspiratsion kanal tindirgichida havo tezligi nazorat qilinadi. Ikkinci aspiratsion kanaldagi havo oqimining tezligi birinchidagiga nisbatan kuchliroq bo'lib, u yerdan puch donlarni uchirib ketishi kerak.

Triyer novining engashish holatini o'zgartirib, «kalta» triyer noviga butun don tushmaydigan, «uzun» triyer noviga esa faqat butun don tushadigandek natijaga erishiadi. Ayrim mashinalarda triyer silindrining aylanish tezligini o'zgartirish imkonи bo'ladi. Sirti o'ta silliq don tozalanganda, silindr tezligini oshirish, aksincha, sirti g'adir-budur donni tozalashda kamaytirgan ma'qul.

## IX BO'YICHA XULOSALAR (ularni o'slab qeling)

1. Kombayn bilan yig'ishtirib olingen g'alla doni oziqa maqsadida ishlatishdan oldin turli aralashmalardan tozalanadi. urug'lik uchun ajratilgan don saralanadi.
2. Donni aralashmalardan ajratib olishda ularning o'lchamlari va fizik-mexanik xossalardan foydalilanadi.
3. Don aralashmali bir-birdan o'lchamlari bo'yicha g'alvirlarda (eni va qalinligi bo'yicha) va triyerda (uzunligi bo'yicha) ajratiladi.
4. Don tozalash mashinasi texnologik jarayonida puch bo'lgan donni ajratib olish uchun aspiratsiya kanallari qo'yiladi.
5. Sifatli dondan aralashmalarни to'liqroq ajratib olish maqsadida ikkita bir xil silindrik triyer parallel ishlataladi.

## **NAMUNAVIY TEST SAVOLLARI**

1. Qanday maqsadda kombayndan olingan don tozalanib saralanadi?
2. Don aralashmasi qanday xossalari bo'yicha g'alvirlarda tozalanadi?
3. Don aralashmasi qanday xususiyatlari ko'ra aspiratsiya kanallarida tozalanadi?
4. Don aralashmasi qanday xossalari bo'yicha triyerlarda saralanadi?
5. Urug' aralashmasi magnitli separatororda qanday ajratiladi?
6. Don tozalash mashinasining g'alvirlari nega qiya o'rnatilib, ilgarilanma-qaytma harakatga keltililadi?
7. Don aralashmasini tozalash uchun g'alvi qanday tanlanadi?
8. Tryerning aralashmani ajratish darajasi qanday o'zgartiriladi?
9. Aspiratsiya kanalidagi havo oqimining tezligi qanday ko'rsatkichlarga qo'yiladi?
10. Nega don tozalash uchun ko'zlar yumaloq yoki to'rtburchak shakldagi g'alvirlar ishlataladi?

*Kim hunarni desa, u dono bo'lur,  
Nodonlar qudrat deb boylikni bilur  
Odamning qimmati emas sim-u zar,  
Odamning qimmati bilim ham hunar.*

Mahalliy tuproq va iqlim sharoitlariga ko'ra paxta hosili turli mintaqalarda har xil texnologiya bo'yicha yig'ib-terib olinadi. Respublikamizda qo'llaniladigan texnologiyalarning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- hosili pishib yetilgan dalalarning chetlarida mashina uchun burilish yo'laklari tayyorlanib, o'qariqlar tekislanadi;
- g'o'za barglari defoliatsiya qilinadi;
- qurigan barglar to'kilib, hosil 60 foiz (gorizontal shpindelli mashina bilan terganda kamida 85—90 foiz) ochilganda birinchi terim, qolgan qismi ochilgandan so'ng ikkinchi terim boshlanadi;
- iqlim sharoiti paxtaning to'liq ochilishiga imkon beradigan joylarda hosilni bir marta yig'ishtirish bilan cheklaniladi;
- hosil qoldiqlari va g'o'zapoya maxsus mashinalarda yoppasiga yig'ishtirib olinadi.

Paxta yig'im-terimida ishlataladigan mashinalar bajaradigan ishi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Paxta terish mashinalari.
2. Paxta hosili qoldiqlarini yig'ishtirishda ishlataladigan mashinalar (yerga to'kilgan paxtani yig'ishtiradigan, ko'sak teradigan va ko'sak chuviydigan mashinalar).
3. Dalani g'o'zapoyadan tozalaydigan mashinalar: (g'o'zapoyani sug'urib olib dala chetiga chiqaradigan yoki uni o'rib, maydalab dalaga sochib ketadigan mashinalar).

**Agrotexnik talablar.** Paxta terish mashinalarining ishiga Davlat andozalari bo'yicha qator talablar qo'yildi, ulardan asosiyatlari quyidagilar:

- mashinaning bir yurishida ochilgan paxta hosilining 92—94 foizi terilishi;
- hosil mashina yordamida terilayotganda uning yerga to'kilayotgan miqdori 3—4 foizdan oshmasligi;
- terilmasdan va shoxlarga ilinib qolgan paxta umumiy hosilning 2—3 foizidan oshmasligi;
- terilgan paxtaga aralashgan barg, xas-cho'p, chanoq pallalari kabi aralashmalar 8 foizdan oshmasligi;
- terilgan paxtaga shikastlangan chigitlar 1 foizdan oshmasligi;
- mashina o'tgandan keyin yerga to'kilgan xom ko'saklar soni har 3 m masofada 1 donadan oshmasligi;
- terilgan paxta tolasi ko'k shira, moy va boshqa narsalar bilan ifloslanmasligi;

**Paxta hosilini har qanday mashina bilan terishdan oldin g'o'za bargini quritib to'kish uchun paxtazor defoliatsiya qilinadi.**

Mazkur bobni o'zlashtirgan talaba vertikal hamda gorizontal shpindelli paxta mashinalarining tuzilishi, texnologik jarayoni va sozlanishlari bo'yicha umumlashtirilgan bilim oladi, amaliy mashg'ulotni bajarib, «Keys» paxta terish mashinasini ishga tayyorlash bo'yicha ko'nikmalar oladi. Paxta terish mashinalari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni o'qituvchining o'zi tayyorlaydi. Bu bobni chuqr o'zlashtirishga katta ahamiyat berish lozim. Chunki respublikamiz qishloq xo'jaligining negizi paxtachilik bo'lib, paxta hosilini mashinalar bilan yig'ishtirib olishni puxta ta'minlash har qanday mutaxassisining burchidir.

### **1-6. VERTIKAL SHPINDELLI PAXTA TERISH MASHINASINI TULISHI VA ISHLAMI**

Vertikal (tik) shpindelli paxta terish mashinalari ochilgan chanoqlardagi paxtani terish uchun mo'ljallangan. Ikki qatorli paxta terish mashinasining asosiy qismi quyidagilardan iborat (96-rasm): terish apparatlari bloki (8), yig'gich (7), rama (11), bunker (6), tozalash barabani (4), boshqaru maydonchasi (12), mashinani yuvish tizimi, elektr jihozlari, gidrotizim, uzatish va yurgizish moslamalari.

Mashinaning g'o'za tegadigan qismlari maxsus to'sqichlar bilan yopilgan bo'lib, ochilgan paxtani to'kilishdan saqlaydi. G'o'za shoxlarini barabanlar oralig'iga yo'naltirish uchun terish apparati shoxlarni ko'targich va yo'naltiruvchilar bilan jihozlangan. Mashinaning ishchi qismlariga harakat traktorning quvvat olish validan tarqatish reduktori orqali uzatiladi. Terilgan paxta havo so'rish tizimi yordamida bunkerga o'tadi. Bunker ag'darma tipda bo'lib, terilgan paxtani tirkama aravaga bo'shatadi.


**Vertikal shpindelli apparat shpindellarining sirti tez chirkilanib qoladi, matijada paxtani yerga ko'proq to'ka boshlaydi.** Shu sababli mashina vaqt vaqt bilan to'xtatilib, shpindellar yuviladi. Bu ishni bajarish uchun mashinaga suv bilan yuvish tizimi o'rnatilgan.

**Vertikal shpindel faqat pishib ochilgan paxtani illintirib oladi. U pishmagan ko'sakni qisman ezbir, sirtini tirmab ketishi mumkin.**

(ish tirkishiga) yo'naltiradi. Baraban sirtining aylanma tezligi mashinaning tezligidan katta bo'lganligi uchun baraban g'o'za tupini qamrab, ish tirkishiga tortib oladi. Shpindel g'altagi ish zonasida tashqi qo'zg'almas ponasimon tasmalar bo'ylab yumalanishi natijasida barabanga teskari aylanib, ochilgan paxtani tishi bilan ilib o'ziga o'rabi oladi. Baraban aylanishda davom etib, shpindeli ish zonasidan ajratish zonasiga olib boradi. Shpindel g'altagi ich tomondan qo'yilgan ponasimon tasmalar bo'ylab yumalab

— paxta tolasining shikastlanishi 0,5 foizdan oshmasligi kerak.

Ochilgan paxta hosilini terish uchun mexanik turdag'i mashinalar keng tarqalgan bo'lib, vertikal va gorizontal shpindelli turlariga bo'linadi.



96-rasm. Paxta terish mashinasining tuzilishi va texnologik ish jarayomining sxemasi:

a—yon tomonidan; b—ust tomonidan ko'rinishi;  
 1—shpindelli barabonlar; 2—shpindellor; 3—ventilator; 4—tozalash barabani; 5—ajratish barabani; 6—bunker; 7—yerga to'kilgan paxtani yig'gichi; 8—terish apparatları bloki; 9—qabul kamerasi; 10—to'skich; 11—rama; 12—boshqaruv maydonchasi; 13—ajratkich.

**Vertikal shpindelga o'ralgan paxtaning asosiy qismi shpindel g'altagining ichki tasmalarda teskari aylana boshlaganida inersiya ku-chi ta'sirida yechilib, ajratildi.**

aylanib o'z yo'nalishini o'zgartiradi va unga o'talgan paxtaning asosiy qismi inersiya kuchlari ta'sirida yechilib qoladi. Ajratkich (13) cho'tkalarining qillari shpindel tishlariga 1,5 mm gacha kirib turgansligi sababli paxta qoldig'ini shpindellardan ajratib olib

qabul kamerasi (9) ga tashlaydi va shu bilan bir vaqtida shpindel tishlarini qisman chirk bo'lishdan tozalaydi. Qabul kamerasidagi paxtani ventilator (3) so'rish quvurlari orqali so'rib olib, chiqarish quvuri yordamida bunker (6) ga tashlaydi. **Agar terilayotgan paxta so'ruchchi ventilator orqali o'tsa, uning qismlariga urilishi hisobiga ayrim chigitlar sinishi (shikastlanishi) mumkin.** Shu sababli ayrim mashinalarda paxta bevosita ventilator orqali o'tkazilmaydi: ventilator pastdan yuqoridagi bunkerga haydayotgan havo oqimi-ga paxta tashilanadi. Qabul kamerasi (9) ning tubi ochiq bo'lganligi uchun og'ir jismilar (kesak, tosh, ochilmagan ko'sak va boshqalar) bunkerga o'tmasdan yerga tushadi.

**Paxta hosilini har qanday mashina bilan terishdan oldin g'o'za bargini quritib to'kish uchun paxtazor defoliatsiya qilinadi.**

— paxta tolasining shikastlanishi 0,5 foizdan oshmasligi kerak.

Ochilgan paxta hosilini terish uchun mexanik turdag'i mashinalar keng tarqalgan bo'lib, vertikal va horizontal shpindelli turlariga bo'linadi.

Mazkur bobni o'zlashirgan talaba vertikal hamda horizontal shpindelli paxta mashinalarining tuzilishi, texnologik jarayoni va sozlanishlari bo'yicha umumlashtirilgan bilim oladi, amaliy mashg'ulotni bajarib, «Keys» paxta terish mashinasini ishga tayyorlash bo'yicha ko'nikmalar oladi. Paxta terish mashinalari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni o'qituvchining o'zi tayyorlaydi. Bu bobni chuqur o'zlashtirishga katta ahamiyat berish lozim. Chunki respublikamiz qishloq xo'jaligining negizi paxtachilik bo'lib, paxta hosilini mashinalar bilan yig'ishtirib olishni puxta ta'minlash har qanday mutaxassisning burchidir.

## **1-6. VERTIKAL SHPINDELLI PAXTA TERISH MASHINASINI TURDALISH VA SHAR'LASH**


Vertikal (tik) shpindelli paxta terish mashinalari ochilgan chanoqlardagi paxtani terish uchun mo'ljallangan. Ikki qatorli paxta terish mashinasining asosiy qismi quyida-gilardan iborat (*96-rasm*): terish apparatlari bloki (8), yig'gich (7), rama (11), bunker (6), tozalash barabani (4), boshqaruva maydonchasi (12), mashinani yuvish tizimi, elektr jihozlari, gidrotizim, uzatish va yurgizish moslamalari.

Mashinaning g'o'za tegadigan qismlari maxsus to'sqichlar bilan yopilgan bo'lib, ochilgan paxtani to'kilishdan saqlaydi. G'o'za shoxlarini barabanlar oraliq iga yo'naltirish uchun terish apparati shoxlarni ko'targich va yo'naltirgichlar bilan jihozlangan. Mashinaning ishchi qismlariga harakat traktorning quvvat olish validan tarqatish reduktori orqali uzatiladi. Terilgan paxta havo so'rish tizimi yordamida bunkerga o'tadi. Bunker ag'darma tipda bo'lib, terilgan paxtani tirkama aravaga bo'shatadi.

Vertikal shpindelli apparat shpindellarining sirti tez chirklanib qoladi, natijada paxtani yerga ko'proq to'ka boshlaydi. Shu sababli mashina vaqtiga vaqtiga bilan to'xtatilib, shpindellar yuviladi. Bu ishni bajarish uchun mashinaga suv bilan yuvish tizimi o'rnatilgan.

**Vertikal shpindel faqat pishib ochilgan paxtani ilintirib oladi. U pishmagan ko'sakni qisman ezib, sirtini tirnab ketishi mumkin.**

Mashinaning texnologik ish jarayoni quyidagicha bajariladi: mashina g'o'za qator oralarida harakatlanganda shox ko'targichning yo'naltiruvchi chiviqlari g'o'za tupini shpindelli baraban (1) lar orasiga (ish tirqishiga) yo'naltiradi. Baraban sirtining aylanma tezligi mashinaning tezligidan katta bo'lganligi uchun baraban g'o'za tupini qamrab, ish tirqishiga tortib oladi. Shpindel g'altagi ish zonasida tashqi qo'zg'almas ponasimon tasmalar bo'ylab yumalanishi natijasida barabanga teskari aylanib, ochilgan paxtani tishi bilan ilib o'ziga o'rabi oladi. Baraban aylanishda davom etib, shpindelni ish zonasidan ajratish zonasiga olib boradi. Shpindel g'altagi ich tomonidan qo'yilgan ponasimon tasmalar bo'ylab yumalab




96-rasm. Paxta terish mashinasining tuzilishi va texnologik ish jarayonining sxemasi:

a—yon tomonidan; b—ust tomonidan ko'tinishi:  
 1—shpindelli barabani; 2—shpindell; 3—ventilator;  
 4—tozalash barabani; 5—ajratish barabani; 6—  
 bunker; 7—yerga to'kilgan paxtani yig'ichi; 8—te-  
 rish apparatlari bloki; 9—qabul kamerasi; 10—to's-  
 kich; 11—rama; 12—boshqaruvi maydonchasi; 13—  
 ajratkich.

### **Vertikal shpindeliga o'ralgan paxta tanening asosiy qismi shpindel g'al- tagining ichki tasmalarda teskar aylana boshlaganida inersiya ku- chi ta'sirida yechilib, ajratiladi.**

qabul kamerasi (9) ga tashlaydi va shu bilan bir vaqtida shpindel tishlarini qisman chirk bo'lishdan tozalaydi. Qabul kamerasidagi paxtani ventilator (3) so'rish quvurlari orqali so'rib olib, chiqarish quvuri yordamida bunker (6) ga tashlaydi. Agar terilayotgan paxta so'rvuchi ventilator orqali o'tsa, uning qismlariga urilishi hisobiga ayrim chigitlar sinishi (shikastlanishi) mumkin. Shu sababli ayrim mashinalarda paxta bevosita ventilator orqali o'tkazilmaydi: ventilator pastdan yuqoridagi bunkerga haydayotgan havo oqimi-  
ga paxta tashlanadi. Qabul kamerasi (9) ning tubi ochiq bo'lganligi uchun og'ir jismlar (kesak, tosh, ochilmagan ko'sak va boshqalar) bunkerga o'tmasdan yerga tushadi.



97-rasm. Shpindelli baraban sxemasi:

a—yon ko'rinishining kesimi; b—ust ko'rinishi; 1—shpindelning ko'ndalang kesimi; 2—yugoriga va pastki podshipniklar; 3, 4—yugori va pastki disklar; 5—siqish barabani; 6—shpindel; 7—shpindel tishlari; 8—yuritish g'altagi; 9—shpindelning yugoridagi podshipnigi; 10—shpindelning pastki podshipnigi; 11—barmoq; 12—tashqi tasma; 13—ichki tasma.

**Mashinaning asosiy qismi** terish apparatlari bo'lib, uning blokiga karkas, shpindelli barabanlar, ajratkichlar, reduktorlar, shpindellar harakat yuritmasi, tup ko'targichlar, qabul kameralari kiradi.


Apparatlarning barcha uzellari ikkita karkasga o'rnatilgan bo'lib, har qaysi karkas ikkita apparatni birlashtiradi. Apparatda ichki va tashqi seksiyalar bor. Ichki seksiyalar karkasga bikir, tashqi seksiyalar esa qo'zg'aluvchan qilib biriktiriladi. Tashqi seksiyalarni qo'zg'almas seksiyalarga nisbatan  $40^{\circ}$ ga kerish mumkin.

Yerga to'kilgan paxtani yig'ish tirish uchun terish apparatining orq tomoniga yig'gich (7) o'rnatilgar To'kilgan paxtani kuchli havo oqim yordamida so'rib oladigan yig'gici ikkita soplodan iborat bo'lib, so'ruv chi quvurga biriktirilgan. Barabani oralig'idan (ish tirkishidan) chiqqar g'o'zapoyalar sinmasligi, ulardag xom ko'saklar uzilmasligi uchur shpindelli baraban bilan yig'gich orasiga yo'naltirgich devor o'rnatilgan. Yig'gich ventilyatori paxtani havo yordamida so'rib olib, haydash quvuri vositasida kichik hajmli tozalagichga uzatadi. Tozalagich esa korpus, arra tishli tozalash barabani (4), cho'tkali ajratish barabani (5), chiqindilarni chiqarib yuboradigan nov, chiviqlar, qo'zg'almas cho'tka, arrali disk va qistirmalardan iborat. Havo oqimi tozalagichga paxta bilan birga tushgan mayda xas-cho'plarni bunkerdan tashqariga chiqarib tashlaydi. Paxta esa arra tishlarga ilinadi va aylanayotgan disklar uni siqish to'sig'iga uradi, bu yerda paxtadan chanoq va xas-cho'plar ajraladi. Qisman tozalangan paxtani disklar chiviqli panjara ustida sudrab o'tadi, natijada qolgan xas-cho'plar sidirilib tushiriladi. Cho'tkali ajratkich tozalangan paxtani arrali barabandan yechib, mashina bunkerining kichik qismiga tashlaydi.

**Shpindelli baraban** terish apparatining asosiy qismi hisoblanadi, u sochilgan paxtani terish va ajratkichlarga keltirish uchun xizmat qiladi (97-rasm). Har qaysi qatordagi paxtani terish uchun apparatga to'rtta (ikkita o'ng va ikkita chap) baraban o'rnatilgan. Barabanlar yuqorigi (1) va pastki (2) podshipniklarning korpusi vositasida apparat karkasining ramkalariga mahkamlangan. Yuqorigi (3) va pastki (4) disklar barabandagi shpindellarning tayanchi sanaladi. Disklar orasiga siqish barabani (5) o'rnatilgan. Bu baraban shpindellar orasiga shox, ko'saklar kirishiga to'sqinlik qiladi va paxtaning shpindelga o'ralishiga yordam beradi.

Shpindel (6) sirti tishlari (7) kertilgan ma'lum uzunlik va diametrda quvurchadan iborat. Uning yuqori uchiga yuritish g'altagi (8) presslab o'rnatilgan. G'altakning quyi qismiga kiydirilgan podshipnik (9) qopqog'i bilan birqalikda shpindelning yuqorigi tayanchini tashkil etadi. Quvur teshigiga qo'yilgan metall-sopolli vtulka (10) va uning ichiga kirgizilgan pastki disk barmog'i (11) esa shpindelning pastki tayanchi vazifasini bajaradi. Tishlarning uchi qaysi tomonga qaratilganiga qarab shpindel o'ng va chap turga bo'linadi. O'ng shpindeldagi tish soat miliyo'nalishida, chapdagisi esa soat miliga teskari yo'nalgan bo'ladi (97-d rasm). Shpindelli barabanning paxtani terish, ya'ni ishchi zonasida (IZ) shpindellar tashqari tomonidan qo'yilgan ponasimon tasma (12) yordamida aylantiriladi. Bu tasmalar karkas ramkalariga biriktirilgan bo'lib, shpindellar g'altagiga hamisha tegib turadi. Shpindelga o'ralgan paxtani ajratib olish zonasida (AZ) tasmalar shpindellarning ichki tomonidan qo'yilgan bo'ladi.

**Ajratkich shpindelda qolgan paxtani ajratib olib, qabul kamerasiga tashlash va shpindel tishlarini**



98-rasm. Ajratkich sxemasi:

1—cho'tkalar; 2—podshipniklar; 3—separatori; 4—val; 5—shesternya.

chirkalanishdan qisman tozalash uchun xizmat qiladi (98-rasm). Ajratkichning ishchi qismi cho'tkali barabanni tashkil etuvchi cho'tka (1) lardan iborat. Cho'tkali baraban apparatning yuqorigi va pastki panellariga o'rnatilgan podshipnik (2) larda aylanadi. Cho'tkalar separator (3) ning tutkichlari orqali val (4) ga mahkamlangan. Ajratkich shesternya (5) vositasida aylantiriladi. Barabanning pastki qismiga qo'yilgan tishli plankalar qillarni yulinishdan saqlaydi. Cho'tkaning pastki qismi, odatda, tezroq yeyildi. Shuning uchun cho'tkalarning xizmat muddatini oshirish maqsadida ularning yeyilgan qismini yuqoriga o'girib qo'yish mumkin.

**Vertikal shpindelli paxta terish mashinasini ishga tayyorlashda quyidagi sozlanish-larga e'tibor berish kerak:**

1. Qarama-qarshi baraban shpindellarini «shaxmat» tartibida o'rnatish.
2. Qarama-qarshi barabanlar orasidagi ish tirqishini tanlashda hosildorlik va g'oz'a tuplari qalinligini hisobga olish. Ish tirqishining kengligi to'g'ri o'rnatilsa, ochilmagan ko'saklar sirtida shpindel tishlarining izi qolishi, 2–3 mm uzunlikda yerga to'kilgan xom ko'saklar soni bittadan oshmasligi kerak. Birinchi terimda ish tirqishi 28–36 mm, ikkinchi terimda esa 22–28 mm oraligig'ida bo'lgani ma'qul.
3. Ajratkichni shpindelga nisbatan rostlash. Ajratkich cho'tkasining qillari shpindel uzunligi bo'yicha tishlariga 1–1,5 mm gacha botib turishi kerak. Agar cho'tka qili shpindelga tegmasdan qolsa, paxta shpindeldan to'liq ajralmaydi va chirkdan tozalanmaydi.
4. Qabul kamerasi eshigini sozlash. Qabul kamerasi eshigi bilan oldingi ajratkich qillari orasidagi tirqish 5–7 mm atrofida bo'lishi kerak.

## **99. 00**

Gorizontal shpindelli paxta terish mashinasi ham vertikal shpindelliga o'xshab, shpindelli barabanlar, ajratkichlar, terilgan paxtani uzatish moslamasi, bunker kabi qismardan iborat bo'lib, ochilgan paxta hosilini terishga mo'ljallangan. Bu mashina vertikal shpindelli mashinadan shpindelli barabani, ajratkichi va shpindellarni yuvib tozalash moslamasining hamda bunkerining tuzilishiga ko'ra tubdan farq qiladi.

**Gorizontal shpindelli paxta terish mashinasi o'ta yuqori hosilni ham bir yurishdayoq to'liq terib olish imkoniyatiga ega.**

Mashina apparatining texnologik ish jarayonida erkin turgan g'o'zapoya shoxlari yo'naltirgich (1) yordamida 70–100 mm qalinlikkacha kuchli siqilib, terish kamerasi (2) ga majburan tortib kiritiladi (99-rasm).


Kassetta (5) shpindellari (6) yo'lakcha (13) ta'sirida ish kamerasiga deyarli perpendicular yo'nالishda A joyida kiritiladi va g'o'zapoyaning bir joyida aylanib turadi, chunki mashinaning siljish tezligi  $V_s$  va kassetaning baraban bilan birgalikda oladigan chiziqli tezligi  $V_b$  o'zaro teng. Shu sababli, mashina bilan ilgarilamasdan, g'o'zanoyaning bir joyida o'z o'qi atrofida aylanayotgan shipinde shoxlar oralig'iga kirayotganida paxtani tishlari bilan ilintirib, o'z ustiga halqa ko'rinishida o'rabb oladi. Paxtani o'rabb

olgan shpindellarni g'ozza shoxlari orasidan tik yo'naliishda (B joyda) sug'urib olgan kasseta, BC oralig'ida ilgari tomon keskin burilib, shpindellarning aylanishini tezlatadi. Markazdan qochirma kuchlar ortishi sababli paxtaga ilingan xas-cho'piar darcha (12) dan tashqariga chiqarib yuboriladi, demak, paxta qisman tozalanadi. Bu keskin burilish hisobiga kassetadagi shpindel uchlari ajratkich likopchalari (8) ga tegadi. Shu vaqt-dan boshlab, baraban bilan birga aylanayotgan kasseta teskari tomonga, ya'ni orqasiga burilishi hisobiga shpindelning ajratkichga uzoqroq tegib turishini (kassetaning SD yo'lida) saqlab qoladi.

Kasseta o'zining SD yo'lida orqaga burilishi hisobiga, birinchidan, shpindelning ajratkich likopchalariga uzoqroq tegib turishi, ikkinchidan, shpindelning aylanish tezligi sezilarli kamayishi hisobiga unga o'ralgan paxta halqasi inersiya kuchi ta'sirida bo'shashib ulguradi. Shu sababli uni shpindeldan ajratib olish yengillashadi. Shpindel kichik va konussimon sirtga ega bo'lgani uchun ajratkich paxta halqalarining bir qismini to'liq yechmasdan tuguncha ko'rinishida sidirib tushiradi. Keyinchalik, bunday tugunchalarni tozalash jarayonida tola ko'p shikastlantiriladi. Ajratib olingen paxta qabul kamerasi (10) ga tushib, u yerdan havo oqimi yordamida (ventilatorga tegmasdan) bunkerга uzatiladi. Ajratkichdan so'ng shpindel namlagich yostiqchasi (4) ga kelib uriladi va uning namlangan yumshoq hamda serqirra sirti bo'ylab yumalab o'tadi. Yostiqchaning uzunligi shpindel sirtini to'liq tozalashga yetarli qilib o'rnatilgan. Yostiqcha ta'sirida shpindel sirtiga yopishib qolgan o'simlik shirasi, chang va boshqa chirk bo'ladijan moddalar yuvib tushiriladi. Tozalangan shpindel navbatdagi ish siklini bajarish uchun yana terish kamerasiga kiradi.

**Gorizontal shpindelli paxta terish mashinasi vertikal shpindelliga nisbatan xosilini to'liqroq teraoladi.**


12—16 dona konussimon shpindel (5) o'rnatilgan. Shpindelning bir tomoni kassetaga qotirilgan bo'lib, ikkinchi tomoni konsol tarzida joylashgan. Shpindel sirtida balandligi



99-rasm. Gorizontal shpindelli paxta terish apparatining texnologik ish jarayoni:

1—shox yo'naltirgich; 2—terish kamerasi; 3, 11—to'siq; 4, 16—namlagich yostiqchasi; 5—kasseta; 6—shpindel; 7—shpindelli baraban; 8, 14—ajratkich; 9—chiviqli panjara; 10, 15—quevur; 12—darcha; 13—yo'naltiruvchi yo'lakcha.

**Gorizontal shpindelli paxta terish apparatning tuzilishi.** Shpindelli barabanning sirti bo'ylab 10—12 tadan kassetalar joylashtirilgan (100-rasm). Har bir kassetaga uzunligi 70—120 mm atrofida bo'lgan



100-rasm. Gorizontall shpindelli barabanning skemasi:  
 1—kasseta; 2—baraban vali; 3—ajratkich likopchasi; 4—  
 ajratkich vali; 5—shpindel; 6—pastki tayanch; 7—krivo-  
 ship; 8—g'altak; 9—yo'lakcha; 10—namligich yostiqchasi.

tadagi shpindel qo'zg'almas g'o'zapoyaga nisbatan oldinga yoki orqaga siljiydigan bo'lib, g'o'za shoxlarini sindirib ketadi. Shunday qilib, terish zonasidagi 4—5 dona kassetaning shpindellari bir-biriga deyarli parallel holatda bo'ladi.

**Gorizontall shpindelli paxta terish mashinasi bilan paxta terimini hosil deyarli to'liq ochilganidan so'ng boshlash mumkin.**

harakatni  $Z_7$  va  $Z_8$  konussimon shesternyalarini orqali olib, bir yo'naliishda uzlusiz aylanit turadi. Ammo kasseta yo'lakcha ta'sirida o'z o'qi atrofida o'ng tomonga burilsa,  $Z_7$  shesternyasi o'zgarmas tezlikda aylanayotgan  $Z_7$  tishlari bo'ylab shpindel aylanayotga tomonga o'tadi. Natijada, shpindelning aylanishi tezlashadi, agarda kasseta chaj tomonga burilsa, tezlik kamayadi.  $Z_7$  o'zgarmas tezlikda aylansa ham kassetanin tebranishi hisobiga shpindel o'zgaruvchan tezlik bilan aylanadi. Shpindel aylanish tezligining o'rtacha qiymati 2100—2400  $ayl/min$  atrofida.

Terish zonasidan paxtani o'rabi chiqayotgan shpindelning aylanish tezligi (yo'lakcha ta'sirida hamda kassetaning burilishi hisobiga) ortadi va uning tishlariga paxta yaxshiro

0,5 mm gacha bo'lgan bir necha qator tishlar hosil qilingan.

Kasseta (1) pastki va yuqorigi (6) tayanch podshipniklari atrofida aylanana oladigan qilib o'matilgan. Shpindelni baraban radiusiga nisbatan kerakli holatda ushlab turish uchun har bir kassetaning ustiga krivoship (7) kiydirilgan, uning g'altagi (8) yo'naltiruvchi yo'lakcha (9) ichida joylashdirilgan. Yuritgichdan kelayotgan harakat  $Z$ , shesternysi orqali baraban vali (2) ni aylantiradi. Kasseta esa baraban bilan birlilikda aylanib turadi. Qo'zg'almas yo'naltiruvchi yo'lakcha (9) tuxumsimon ko'rinishdagi murakkab shaklga ega. Shu sababli uning ichida siljib harakatlanayotgan g'altak aylanayotgan barabanning sirriga goh yaqinlashib, goh uzoqlashib, krivoship orqali kassetani vaqt-i-vaqti bilan o'z o'qi atrofida o'ng yoki chapga buradi. Yo'naltiruvchi yo'lakchaning shaklini tanlashda g'o'zapoyaga shpindelni deyarli tik holda kiritib, bir joyda aylantirib turish ko'zda tutiladi. Agar bu shart bajarilmasa, kasse-

Barabanning aylanma harakati  $Z_1$  shesternyadan  $Z_2$ ,  $Z_3$ ,  $Z_4$ ,  $Z_5$  va  $Z_6$  shesternyalari orqali kasseta ichidagi  $Z_7$  va  $Z_8$  konussimon shesternyalarga uzatiladi. Shpindel o'z navbatida  $Z_7$  dan kelayotgar

o'rnashib, kamroq to'kiladi. Shpindelga o'raltan paxtani ajratkich yordamida yechib olishni yengillashtirish uchun, birinchidan, ajratish zonasida shpindelning tezligi biroz kamaytililadi, ikkinchidan, yo'lakcha yordamida kassetaning qisman burilishi hisobiga shpindel ajratkich likopchalariga uzoqroq tegib turadi. Ajratkich valiga poliuretandan yasalgan bo'rtiqqli likopchalar (3) kiydirilgan bo'lib, ular kassetadagi shpindellar soniga teng.

Tik o'rnatilgan val (4) atrofida aylanayotgan likopchalar shpindel ishchi uzunligini to'liq tozalashi uchun kassetaga shpindel konussimon sirtining ustki yasovchisi gorizontal joylashtirilgan. Shpindelning simmetriya o'qi kasseta o'qiga perpendikulyar emas. Uning kassetaga bunday joylashtirilishi, sirtini chirkdan yuvib tozalashda ishlatalidigan namlagich yostiqchasining ustiga to'liq tegib turishiga imkon beradi. Namlagich yostiqchalariga naychalar orgali maxsus suyuqlik uzlusiz yetkazilib, doimo ularning nam holatda bo'lishini ta'minlab turadi. Bu suyuqlik shpindelning o'ta silliq va xromlangan sirtini tomchilar ko'rinishida emas, balki yupqa parda shaklida qoplash xususiyatiga ega. Shu sababli uning sirtini to'liq tozalash kerak bo'ladi. Shpindel sirtining ochilgan chanoqqa tegish ehtimolini oshirish maqsadida g'o'zapoyani barabanga siqib turuvchi yaxlit to'siq, paxtani o'ziga o'rab chiqayotgan shpindeldan g'o'zapoya shoxlarini ajratib qolish maqsadida esa panjarasimon to'siq o'rnatilgan. Shu ikkala to'siq oralig'i terish kamerasi deyiladi.

### **8-6. GORIZONTAL SHPINDELLI PAXTA TERISH MASHINASINI ISHGA TAYYORLASH (asmally mashg'ulot)**

**Mashg'ulotni o'tkazishdan maqsad** o'quvchilarga gorizontal shpindelli paxta terish mashinasini mahalliy sharoitlarga moslab ishga tayyorlashni o'rgatish va ularda mashina ishchi qismlarini sozlash bo'yicha ko'nikma shakllantirish.

**Paxta terish mashinasi aparati**  
ish tirqishini mahalliy sharoitdagi  
g'o'za tuplarining xossalalariga  
moslab o'rnatish katta ahalyat-  
ga egadir.

**Mashg'ulot joyini jihozlash:** «Keys» firmasining «2022 Cotton Express» yoki Toshkent qishloq xo'-jalik mashinasozligi korxonasining XMG-04 (XMG-1.2) paxta terish mashinasi; gayka kalitlari to'plami; ruletkalar; chizg'ich; plakatlar; reklama prospektlari; videofilmlar.

**Mashg'ulot o'tkazish tartibi:** O'qituvchi gorizontal shpindelli paxta terish mashinasini ishga tayyorlashda uning qismlarini sozlash tartibini tushuntirib ko'rsatadi.

O'quvchilar to'rtta guruhg'a bo'linadi va quyidagi topshiriqlarni navbatma-navbat bajaradi:

1. Terish apparatini tayinlangan balandlikda yurituvchi gidrokopirni sozlash.
2. Apparat ajratkichi likopchalari va namlagich yostiqchalarini sozlash.
3. Apparatning paxta terish kamerasidagi panjara va to'siqlarini sozlash.
4. Shpindellar kassetalarini moylash va shpindellarning yuvish tizimini sozlash.

O'quvchilar bajargan ishlarini izohlab berishadi va o'zaro fikr almashadilari Mashg'ulot bo'yicha hisobot tayyorlanadi.


### O'qituvchi o'quvchilarga quyidagilarni tushuntiradi:

Gorizontal shpindelli apparat nihoyatda murakkab tuzilganligi uchun ish ko'rsat kichlarining sifati qismalarining to'g'ri sozlanganligiga bog'liq. Paxtaning to'liq terilish terish kamerasi kengligining g'o'zapoya shoxlari qalinligiga mos qo'yilishiga bog'liq. Terish kamerasining kengligi yaxlit to'siqni panjarasimon to'siqqa (barabanga) yaqinlashdirib yoki uzoqlashdirib sozlanadi. Shpindellar uchi bilan yaxlit to'siq oraliq'i 2— $2\frac{1}{2}$  mm bo'lishi kerak. Barabandagi kassetalar bir xil balandlikda o'matilishi lozim. Barcha kassetalarning bir xil yarusdagi (balandlikdagi) balandliklari bir-biridan 0,2 mm dan ko'p farq qilmasligi kerak. Buning uchun kassetalar tagidagi yupqa qistirmalar soni o'zgartiriladi. Bu sozlanish o'ta muhim hisoblanib, ajratkich likopchalari va namlagich yostiqchalarining ishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bir yarusdagi shpindellar ajratkich likopchasi tagidan 0,1—1,0 mm oraliqda o'tishi lozim, tirkish katta bo'lsa, paxta shpindelga o'ralib qoladi. Namlagich yostiqchalarining yumshoq qirralari bo'lgan pastki sirtiga shpindel sirti 0,5—0,8 mm botib o'tishi kerak, aks holda shpindel yetarli darajada tozalanmasdan tez chirklanib, paxta yerga ko'p to'kiladi.

«Keys» paxta terish mashinasini apparatlarga bir-biriga maksimal yaqinlashtirilish qo'yilsa, qator oraliq'i 97 sm dan kam bo'limasligini e'tiborga olish kerak.

sonini o'zgartirish bilan sozlanadi. Tirkish to'g'ri qo'yilsa, shpindel bo'ylama o'qi bo'yicha 0,2—0,8 mm lyuft sezilishi kerak.

Yuqorida katta (0,1—1,0 mm) aniqlikda bajariladigan sozlanishlar barabandagi deyarli 300 ta shpindellarning har biri uchun alohida bajarilishi kerak, aks holda, paxta yerga me'yordan ko'p to'kiladi.



101-rasm. Terish apparatining sozlanadigan joylari:  
1, 6-qabus kamerasi; 2—ajratkich; 3—namlagich; 4—siyuqchi to'siq; 5—panjarasimon to'siq; 7—chiqindilar darchasi; 8—shpindel uchining traektoriyasi.

Shpindelni bevosita harakatlantiruvchi Z<sub>x</sub> va Z<sub>y</sub> konussimon shesternyalarning tishlari orasidagi tirkish shpindelning aylanish tezligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu tirkish kasseta va shpindel orasiga qo'yiladigan, qalinligi 0,2 mm bo'lgan qistirmalar

**Gorizontal shpindelli mashinani hosili to'liq ochilgan paxtazorlarda ishlatish maqsadga muvofiq.** Chunki shpindel terish kamerasida g'o'zapoya shoxlariga siqlilib turgan ko'k ko'saklarga uchi bilan sanchilib, uning ichidagi xom tolani sug'urib olishi, natijada terilayotgan paxta tolasining sifati pasayishi mumkin.

Gorizontal shpindelli paxta terish mashinasining ish ko'rsatkichlari, asosan, uning mahalliy sharoitiiga moslab sozlanishiga bog'liq. Mashina ishlayotgani-da terish apparatidagi shox ko'targichning uchi orqadagi shpindelli baraban ramkasidan 25—51 mm (1—2 duym)

past o'rnatiladi. Aks holda, ish tirkishiga xas-cho'plar tiqilib qolishi mumkin. Buning uchun apparat ustida joylashgan tortqining uzunligi o'zgartiriladi.

Shpindelli barabanni jo'yak pushtasiga nisbatan 25—51 mm balandlikka o'rnatib ishlatalish uchun shox ko'targich tagidagi sirpanib yuruvchi tayanch boshmog'ini baraban ramasining ostki qismiga nisbatan 25—51 mm pastroq qilib o'rnatish kerak.

**«Keys» paxta terish mashinasini terish apparatleri yerga nisbatan dolmo minimal balandlikda yurib ishlashi uchun ularga gidrokopir o'rnatilgan.**

relyefiga avtomatik moslanib ishlay olmaydi. Umuman olganda, gidrotsilindrni blokirovka qilmasdan apparat tagida sozlash man etiladi.

G'o'za tupini shpindelli barabanga siqb turadigan siqvchi to'siq (4) shpindel uchlaridan 6—7 mm uzoqlikda o'rnatilishi kerak (*101-rasm*). Bunga to'siqni cheklab turuvchi pastki va ustki sozlovchi vintlar yordamida erishiladi. Mazkur to'siqni cheklab turuvchi vintlarga uni siqb turuvchi prujinalar tarangligini (to'siqning sezuvchanligini) sharoitga moslab o'rnatish lozim. Birinchidan, ayrim joylarda katta shoxlar uchrab qolsa, ularni shikastlantirmaslik uchun shoxlar prujina qarshiligini yengib, to'siq orqaga qayta olinishi kerak. Ikkinchidan, pishmagan ko'k ko'saklar bo'lsa, shpindel ularning ichidan xom tolani sug'urib olmasligi uchun yuqoridagi prujinaning tarangligi kamroq bo'lgani ma'qul. Eng muhim sozlanishlardan biri — ajratkich (2) ni kassetadagi shpindellarga nisbatan too'g'ri o'rnatish lozim. Chunki u paxtaning yerga to'kilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Normal holatda ajratkichning hamma likopchalari kassetaning shpindellariga bir xil tegib turishi lozim. Agar likopcha tishlari yeyilib shpindelga tegmay qolsa, ajratkich valining ustki podshipnigi bilan birga ajratkichni butunlay pastga siljilib uning normal ishi tiklanadi. Bu ishni bajarish uchun apparatning ustki panelidagi stoporlangan sozlovchi vint maxsus kalit dastasi bilan aylantiriladi. To'g'ri sozlangan ajratkich tishlari shpindellarga tegib, uni aylantirishga sezilarli qarshilik ko'rsatadi. Tishlari qisman yeyilgan likopehalarni uzoqroq ishlatalish maqsadida (ularni teskari aylanadigan qilib ishlatalish uchun) oldindi va orqadagi ajratkich joylarini almashtirish lozim.

**Ajratkich likopchalari uchun shpindellarga bo'rtiqlarning birontasi sinib qolsa, uni tezda yangisi bilan almashtirilmasa, paxta yerga ko'p to'kiladi.** Bitta likopcha almashtirilsa ham ular orasidagi qistirmalar o'zgartirilib, hamma likopchalarning o'z shpindellariga tegib turishini tiklash kerak.

Shpindelli baraban (rotor) valiga uni harakatga keltiruvchi maxsus musta-saqlagich o'rnatilgan. Agar shpindelli baraban (rotor)ga biron narsa tiqilib qolsa, musta harakatni uzib, shpindellar shikastlanishining oldini oladi. Mazkur musta ishga tushib qolsa, chir-sillagan ovoz chiqaradi, haydovchi uni eshitib yoki bu to'g'ridagi ma'lumotni (xabarni) oldidagi monitorda ko'rib, darrov mashinani to'xtatadi. Tiqilib qolgan narsani olib tashlash uchun motor yoki qo'l bilan maxsus moslama (uzun richagli kalit) yordamida baraban ma'lum burchakka teskari tomonga aylantirib buriladi. Mashinani orqa tomonga (motor yordamida) yuritsa ham barabanlar teskari aylanadi. Shu sababli mashinani

Boshmoq yerga botib ketmasligi va apparat belgilangan balandlikda avtomatik ravishda yurishi uchun shox ko'targich o'rnatiladi. Bunda shox ko'targichning apparatga nisbatan pastga siljish imkoniyati saqlanib qolishi kerak, aks holda apparat pushta

orqaga yurgizishda barabonlar yuritmasini o'chirib qo'ygan ma'qul. Buyurtmachining xohishi bo'yicha firma barabonlarni faqat bir tomonga aylantiradigan kardan vali bilan ta'minlab berishi mumkin. «Keys» firmasi paxta terish mashinasi apparatlarining oralig'i 96,5 sm (38 duym) yoki 101,6 sm (40 duym) qilib o'rnatishi mumkin. Terim jarayonida bir qatorga ishlov beradigan ikkala baraban ham bir xil balandlikda bo'lishi kerak. **Namlagich yostiqchalari shpindellarni uzlusiz tozalab turish uchun xizmat qiladi.** Yostiqchalarga yuborilayotgan eritmadi yuvish vositasi (konsentratsiyasi) shpindelga yopishgan moy tomchilarini eritadigan miqdorda bo'lgani ma'qul. Namlagichga suvli eritma 1,35—1,70 KPa bosim ostida yuborilsa, yostiqchalar yetarli darajada namlanib, shpindellarni tozalab ulguradi. Agar eritma past bosim ostida yuborilsa, yostiqchalarning namligi kam bo'o lib, shpindel sirti to'liq tozalanmay chirk bo'lib qoladi. Eritmaning


**Gorizontal shpindel sirtini yuvish uchun faqat mashinani tayyorlagan firma tavsiya qilgan modda eritmasidan foydalanish kerak.** bosimi me'yordan ortiq bo'lsa, yostiqchalardan tomchilar ajralib chiqadi va aylanayotgan shpindellar ta'sirida namlagich atrofiga sachraydi, apparat kirlanadi. Yostiqchalar hamma shpindellarga bir tekis

tegib turishi uchun namlagich (3) ni pastga-yugoriga siljitim orqali sozlanadi (vint yordamida).

«Keys» firmasi mashinalarida terilayotgan paxta unga aralashib qolgan barg, chanoq bo'lagi, tuproq va boshqalar shpindel aylanish tezligining oshishi hisobiga tozalanib turadi. Ma'lumki, shpindeldan paxtaning yerga to'kilishini kamaytirish maqsadida, ya'ni tezroq ajratkichga yetib borishi uchun kasseta shpindellarni baraban aylanayotgan yo'nalihsda qo'shimcha tezlik bilan buradi. Bunda shpindel musbat burchak tezlanishi bilan o'zining aylanish tezligini 25—30 foizga oshiradi. Jadallashish natijasida paxtaga ilashgan xas-cho'plar markazdan qochirma kuchlar ta'sirida ajralib maxsus darcha (7) orqali tashqariga otolib chiqib ketadi. Shpindellardagi paxta tugunchalarini ajratkich sidirib tushirganida havo oqimi ularni uchirib bunkerga yetkazib beradi. Og'ir jismalar paxtadan ajralib so'rish quvurining tagiga tushadi. Paxta so'nggi marta bunker ustidagi chiviqli panjaralarda tozalanadi. Shpindelli barabanlarning aylanish tezligi mashinaning harakatlanish tezligiga moslab tayinlangan. Shu sababli yog'ingarchilik vaqtida mashina g'ildiraklarining toyishi ortib, ilgarilama tezlik kamayadi va shpindellar ko'p ko'saklarni yerga to'kib ketadi. Bunday holat g'ildirak kamerasidagi havo bosimi me'yordan kamayib ketsa ham sodir bo'ladi.

#### **4-6. NAMLAGICH TURISHI MASHINALARI**

Respublikamizda paxta hosilini yig'ishtirishda qo'llanilayotgan texnologiyada chanoqlarda qolib ketgan 1—2 chigitli paxta qoldiqlarini va pishmasdan qolgan ko'saklarni ham terib olish ko'zda tutilgan. Bu ishni ko'sak terish mashinalari bajaradi. Ko'sak terishda g'o'za tupidan hamma ko'sak, chanoq, barg qoldiqlari va boshqalar to'liq sidirilib olinadi. Shu sababli terilgan ko'sakning ifloslanganlik darajasi juda yugori bo'ladi. Agar terilgan mahsulotning 10 foizgacha qismi paxta bo'lsa — terilgan aralashma o'ta iflos, 20 foizgacha bo'lsa — o'rta va 30—40 foiz bo'lsa — aralashma «boy»




102-rasm. Ko'sak terish apparatining sxemasi:  
1—jo'va; 2—ish tirkishi; 3—shnek; 4—g'alvirsimon nov.

hisoblanadi. Ammo «boy» aralashmani yanada «boyitish» uchun paxta miqdorini 60–70 foizgacha yetkazish kerak. Shu sababli ko'sak terish mashinasiga «boyitish» moslamasi o'rnatiladi. Ko'sakni sidirib olish uchun jo'vasimon terish apparatlaridan foydalaniladi.

Jo'vasimon ko'sak terish apparati (*102-rasm*) ikkita o'zaro deyarli parallel va qiya o'rnatilgan qovurg'ali jo'va (1) dan tashkil topgan. Ko'sak tirkishi (2) ga kirayotgan g'o'za shoxlaridan aylanayotgan jo'valar ta'sirida uzib olinadi va shnek (3) ka tashlanadi. Shneklar ko'saklarni to'plab kerakli joyga eltib beradi. Shneklar o'rnatilgan nov (4) yirik ko'zli g'alvirsimon qilib yasalganligi sababli siljtilayotgan ko'sakdan mayda aralashmalar ajratib olinadi.

**Ko'sak terish mashinasining tuzilishi, ish jarayoni va sozlanishi.** 103-rasmda ko'sak terish mashinasining umumiy tuzilishi ko'rsatilgan. Uning asosiy qismlari terish apparati (1), ko'ndalang shnek (2), tik transportyor (3), boyitkich (7), bunker (8) dan iborat. Mashina dala bo'ylab harakatlanganda shox ko'targich g'o'za tuplarini ish tirkishi-ga yo'naltiradi. U yerda aylanayotgan jo'valarning qirrasi ta'sirida ko'sak, chanoq va qisman shox bo'laklari uzib olinadi va apparat shneklariga tashlanadi. Ko'sak aralashmasini shnek g'alvirsimon qobiqlari bo'ylab orqadagi ko'ndalang shnek (2) ka surib



103-rasm. Ko'sak terish mashinasining sxemasi:

a—yon ko'rinishi; b—terish apparatining ust ko'rinishi;  
d—apparat kesimi; 1—terish apparati; 2—ko'ndalang shnek; 3—tik transportyor; 4—shox ko'targich; 5—qovurg'ali jo'valar; 6—shnek; 7—boyitkich; 8—bunker; 9—yo'naltirgich; 10—ventilator.

bo'ylab sidirib o'tayotganida ko'saklar maydalananadi, to'siq (11) ustidan olib o'tilayotganida undan mayda aralashmalar elanib tashqariga chiqib ketadi.

Chuvilayotgan ko'sakni chaqish barabani yuqori tezlikda arrali katta baraban ustiga tashlab beradi. Paxta tolasining ilinuvchanligi yuqori bo'lganligi sababli soat miliga qarshi aylanayotgan arrali katta barabanning mayda tishlariga ilinib qoladi. Boshqa narsalar (chanoq, barg, shox siniqlari) esa ilina olmasdan pastga, arrali kichik baraban (10) ustiga tushadi. Ularga aralashib bu yerga paxtaning bir qismi ham tushadi. 3-barabanga ilashgan paxta qo'zg'almas ilintiruvchi cho'tka (7) ostidan o'tayotib uning tishlarida yaxshiroq o'rnashib oladi.

Arrali kichik baraban (10) ham tolalarni o'z tishiga ilashtirib ketadi, aralashmalarни esa cho'tka qillari tashqariga irg'itib yuboradi. Baraban (10) tishiga ilina olman gap xata pastki arrali kichik barabanga yetib boradi va u yerda ajratib olinadi.

Pastki cho'tkali baraban (8) ning cho'tkalari bir vaqtida arrali kichik barabangarning ikkalasiga ham tegib turganligi va cho'tkalarining chiziqli tezliklari arra tishlarinikidan katta bo'lganligi sababli, paxtani ulardan sidirib olib arrali baraban (3) ustiga irg'itib

beradi. Natijada, aralashma mayda mineral va organik moddalardan tozalanadi. Ko'ndalang shnek (2) hamma apparatlardan keltirilgan aralashmani bir tomonga yetkazib, kurakchasi bilan uni tik transportyor (3) ga tashlaydi. Tik transportyor (3) esa aralashmani yo'naltirgich (9) yordamida boyitkich (7) ning kerakli joyiga tashlab beradi. Boyitkich (7)da 30—40 foizgacha tozalanib «boyigan», demak, hajmi keskin kamaygan aralashma ventilyator (10) orqali bunker (8) ga tashlanadi.


Boyitkichning texnologik jarayoni quyidagicha bajariladi (104-rasm). Tik transportyor ko'sakni yo'naltirgichning ustiga keltirib tashlaydi. Yo'naltirgichning holatini o'zgartirib, ko'sakni chaqish barabani (13) yoki yuqorigi cho'tkali baraban (2) ustiga yuborish mumkin. Agar yo'naltirgich (1) o'zining S holatida o'rnatilsa, boyitkich «tozalash» texnologik sxemasi bo'yicha ishlaydi. Bunday holatda, ko'sak aralashmasi chaqish barabani (13) ustiga yo'naltiriladi. Bu baraban ko'saklarni katta tezlikda tishli deka (12) usti

yuboradi. Irg'itilgan paxta barabanga ilgari ilinganlariga qo'shilib ilintiruvchi cho'tka (7) ning ostidan o'tishda arra tishlariga yanada to'liqroq ilashadi. 3-baraban paxtani panjarasimon to'siq ustidan olib o'tayotganida mayda aralashmalar ajratiladi. Yuqorigi baraban (2) ning cho'tkali paxtani arrali katta baraban (3) tishlarining orqasidan sidrib olib, yuqorigi arrali kichik barabanga, keyin undan ham yechib olib shnek (8a) ning ustiga tashlaydi. Cho'tkali baraban paxtani intensiv irg'itishi hisobiga uning tolalariga ilashgan aralashmalar ajraladi. Shnek (8a) deyarli tozalangan, boyitilgan aralashmani bir chetga surib to'playdi va ventilyatorga uzatadi, u esa bunkerga tashlab beradi.

Agar ko'sak yog'ingarchilik boshlangandan so'ng terilib, uning namligi 35% dan ortiq bo'lса, boyitkich qismlariga tola o'ralib qolmasligi uchun u «nam ko'sakni tozalash» sxemasiga asosan sozlanadi; yo'naltirgich 1 S holatiga burilib qo'yiladi, panjarasimon to'siq (6), pastki cho't-ka (7) va to'siqcha (7a) olib tashlanadi. Arrali kichik barabanlardan yechib olingan paxta birdaniga shnekning (8a) ustiga tashlanadi. Ko'sak kech kuzda, uzoq yog'ingarchilikdan keyin terilsa, uni tozalashdan oldin xirmonda quritish lozim bo'ladi, boyitkich 3-sxema — «ko'sak terish»ga muvofiq sozlanadi. Bu maqsadda yo'naltirgich (1) ni d holatiga burib o'rnatish kifoya. Terim vaqtida xom ko'saklar ko'p bo'lса, boyitkich «ko'saklarni chaqish» sxemasiga ko'ra sozlanadi, chaqilgan ko'sakni keyinchalik xirmonda quritish yengillashadi. Boyitkichni bu sxemaga sozlash uchun yuqorigi arrali hamda cho'tkali barabanlar maksimal ko'tarilib, arrali katta baraban teskari tomonga aylanadigan qilib qo'yiladi.

**Sozlanishi.** Hamma cho'tkali baraban cho'tkalarini ilintiruvchi cho'tkalar arrali baraban tishlariga 2 mm gacha botib turishi (kamida tegib turishi) lozim. Deka bilan chaqish barabani orasidagi tirqish 8—10 mm, arrali katta baraban bilan panjarasimon too'siq orasidagi tirqish esa 10—15 mm o'chamda o'rnatiladi.

Qovurg'ali jo'valar orasidagi ish tirqishi sharoitga qarab 18—32 mm bo'lishi kerak. Ayrim ko'saklar g'o'zapoyada qolib ketsa, tirqishni kichraytirish lozim. Ammo tirqish me'yordan kichik bo'lса, g'o'zapoya shoxlari ham sidirib olinadi, hatto g'o'zapoyani yerdan sug'urib olishi mumkin.



104-rasm. Boyitkich sxemasi (ko'sakni chaqib tozalashga sozlash holati):


1—ko'sak yo'naltirgich; 2—cho'tkali baraban; 3—arrali katta baraban; 4—g'ilof; 5—to'r to'siq; 6—panjarasimon to'siq; 7, 9—ilintiruvchi cho'tka; 7a—to'siqcha; 8—cho'tkali pastki baraban; 8a—shnek; 10—arrali kichik baraban; 11—xas-cho'p ajratuvchi to'r to'siq; 12—deka; 13—chaqish barabani; 14—cho'tkali yo'naltirgich; 15—yo'naltirgich.

## 5-6. KO'SAK CHUVISH MASHINALARI

Respublikamizda ekilgan g'o'zaning 10—15 foizi to'liq pishib ulgurmasdan qoladi. Bundan tashqari, ochilgan paxtani mashinalar yordamida terish jarayonida hosilning bir qismi (5—8 foizi) yerga to'kiladi. Ko'saklarni ham, yerga to'kilgan paxtani ham terib olib tozalash talab qilinadi. Dala sharoitida ko'sak va to'kilgan paxtani tozalash uchun ko'sak chuvish mashinalaridan foydalaniлади.

Ko'sak chuvish mashinalari namligi 20 foizgacha bo'lган ko'saktarga ishlov berib, xas-cho'plardan 85 foizgacha tozalay oladi. Bunday mashinalarning soatiga 700—900 kg gacha koo'sakni, 500 kg gacha yerga to'kilgan paxtani, 1500 kg gacha mashinada terilgan paxtani tozalaydigan turi keng tarqalgan. Ular xirmonda uzlusiz ishlatalib, traktorning quvvat uzatish validan yoki maxsus elektrmotorlardan harakatlantiriladi.

**Mashinaning tuzilishi va asosiy qismlari.** Ko'sak chuvish mashinasining sxemasi 105-rasmida keltirilgan: u rama 32, ko'sak aralashmasini so'rgich 6, tishli baraban 3, ta'minlagich 5, xas-cho'plarni ajratkich 30, chaqish barabani 29, arrali baraban 20,



105-rasm. Ko'sak chuvish mashinasining sxemasi:

1—ventilyator; 2, 17, 31—to'rsimon to'siq; 3—havo separatorining barabani; 4, 15—vakuum to'skich; 5—ta'minlagichlar; 6—so'rgich-taqsimlagich; 7—deka; 8—parrakli kichik baraban; 9—to'siq; 10—nazorat separatorining qaytargich barabani; 11—arrali katta baraban; 12—ajratkich baraban; 13—yuklagich; 14—panjara to'siq; 16—shnek; 18—barg ajratkichning qoziqchali barabarlari; 19—tishli kichik baraban; 20—asosiy separatorining arrali barabani; 21—to'rsimon taglik; 22—karnaydag'i kompensator teshiklari; 23—cho'tkali ajratkich baraban; 24—to'siq; 25—sidiруuchi cho'tkalar; 26—chiqindi uchun quvur; 27—arrali kichik baraban; 28—asosiy separatorining ajratish to'ri; 29—chaqish barabani; 30—xas-cho'p ajratish barabani; 32—rama.

chiqindilar separatori (27), nazorat separatori (10), barg ajratkich (18) va yuklagich (13) dan tuzilgan. Mashinaning hamma qismlari uchta g'ildirakka tayangan yaxlit ramaga o'rmatilgan. So'rgich (6) o'z navbatida karnay (22), ventilyator (1) va kengaytirgichlar dan tashkil topgan. Havo separatori tituvchi tishli baraban (3), vakuum-to'skich (4), to'rsimon to'siq (2), ta'minlagich esa ikkita jo'va (5) va variatordan iborat.

Xas-cho'p ajratish barabani (30) ning yarim sirti maxsus to'r (31) bilan qoplangan bo'lса, chaqish barabani (29) to'r bilan qisman o'ralgan. Asosiy separator arrali baraban va to'rsimon to'siq (28) dan, chiqindilar separatori arrali kichik baraban (27) va sidirish cho'tkalari (25) dan tashkil topgan. Nazorat separatori arrali katta baraban (11) va qaytarish barabani 10 dan, barg ajratkich esa ikkita qoziqchali barabanlar (18) va ularni deyarli to'liq o'rab turadigan to'r (17) dan tuzilgan. Yuklagich ventilyator vakuum-to'skich (15) va karnay (13) lardan iborat.

**Ko'sak chuvish mashinasining texnologik jarayoni** quyidagicha bajariladi. So'rgich (6) ning karnayi ko'sak aralashmasi yoki paxta uyumi ustiga keltiriladi va ventilyator (1) yordamida uni so'rib yuqoriga yetkazib beradi. Karmayning yuqorigi qismi ko'ndalang kesimi to'rtburchak shakldagi kengaytirgich (6) ga aylantirilgan. Kengaytirgichning ustidagi sozlovchi teshik orqali qo'shimcha havo so'rib olinadi va ventilyator I tomoniga yo'nalayotgan aralashmaning ensiz oqimi ustidan urib, ularni mashina kengligiga teng qilib bir tekis sochib beradi. Tozalanayotgan ko'sak yoki paxta tarkibiga ko'ra teshik ko'zining kattaligi o'rmatiladi. Teshik me'yordan ortiq ochilsa, ko'saklar o'rtadan ikki chetga ko'proq surilib tushadi, ya'ni keyinchalik tozalovchi barabanlarning ikki chetiga qalinroq ko'sak oqimi boradi. Uzunligi bo'yicha bir tekis yuklanmagan barabanlarning tozalash sifati pasayib ketadi. Ko'saklarning kengaygan oqimi havo separatorining tituvchi baraban tishlari ta'sirida tililayotib, to'r (2) ustidan sudrab o'tkaziladi. Tituvchi baraban joylashgan tomondan ventilyator (1) to'r ko'zları orqali so'rib olinayotgan havo oqimi chang-to'zon va boshqa mayda aralashmalarni ajratib oladi. Tituvchi baraban ko'sakni katta tezlikda vakuum-to'skich (4) ga irg'itib yuboradi. Vakuum-to'skich parraklari elastik materialdan yasalgan bo'lib, ularning kamida ikkitasi bir vaqtning o'zida silindrsimon uya devorlariga tegib turadi. Ventilyator vakuum-to'skich orqasidan havoni so'rib ololmaydi. Shu sababli parraklar ko'saklarni ta'minlash bunkeriga tashlab beradi.

So'rg'ich karnayiga berilayotgan ko'sak aralashmasining miqdori shunday bo'lishi kerakki, bunkerdagи mahsulot sathi vakuum-to'skichning pastki parragigacha ko'tarilib bormasini. Bunkerdagи mahsulot aralashmasi bir-biriga teskari aylanadigan ta'minlovchi jo'valar ustiga kelib tushadi. Bu jo'valarning aylanish tezligini o'zgartirib, tozalanayotgan mahsulotning berilayotgan miqdorini o'zgartirib uzatish mumkin. Demak, chuvigichning ish unumi shu jo'valarning tezligiga bog'liq bo'lib, uni tayinlashda tozalanayotgan mahsulotning turi, namligi, begona aralashmalarning miqdori e'tiborga olinadi. Ta'minlovchi jo'valar me'yordan ko'proq mahsulotni keyingi barabanlarga uzatib bersa, tozalash sifati pasayadi. Ta'minlovchi jo'valar uzatayotgan mahsulot xas-cho'p ajratuvchi barabanga tushib, uning parraklari ta'sirida tililadi va to'r to'siq (31) ning sirti bo'ylab sudrab o'tkaziladi. Natijada, xas-cho'plar to'rning ko'zları orqali tashqariga ajralib chiqadi. Mahsulot oqimi o'z harakatini davom ettirib, chaqish barabaniga o'tadi.

Chaqish barabanining parraklari katta tezlikda ko'saklarga zerb berib ularni yoradi, chaqadi yoki maydalaydi. Ko'saklarni ko'proq maydalash kerak bo'lsa, chaqish barabanining ustiga tishli deka o'rnatish mumkin. Qovurg'ali kichik baraban (8) ning urilishi natijasida chaqilgan ko'saklarning tezligi birmuncha kamayadi. Shu sababli qovurg'alarga ilinishi qiyinroq bo'ljan xas-cho'plar ajralib pastga tushadi. Qisman tozalangan paxta asosiy separatorning arrali barabani (20) ustiga tashlanadi. Tolalar baraban sirtidagi old tomonga engashgan arrasimon tishlarga ilinib, to'rsimon to'siq (28) ning tagiga olib kiritiladi. Paxta tolasiga ilashgan chanoq va boshqa og'ir aralashmalar to'rsimon to'siqning qirrasiga zerb bilan uriladi va ayrim tolalarga qo'shilib pastga tushadi. Arrali baraban tishlari tolalarni to'rsimon to'siq ustidan sudrab o'tishi hisobiga ularni mayda aralashmalardan tozalaydi. Shunday qilib, xas-cho'p kabi aralashmalarning deyarli hammasi asosiy separator ta'sirida paxtadan ajratiladi. Ajratish barabani (23) cho'tkalarining tezligi paxtani ilintirib ketayotgan arracha tishlari tezligidan birmuncha katta bo'lishi sababli cho'tkalar tishlarga qaraganda ilgarilab, paxtani sidirib tushiradi. Mahsulotning asosiy separatordan pastga tushayotgan qismining tozalanishi, chiqindilar separatorining arrali kichik barabani (27) da ham davom etadi. Bu barabanga tegib turadigan cho'tkalar (25) tozalanayotgan mahsulotni baraban sirtiga siqib, tolalarni tishlarga ilintiradi. Xas-cho'plar esa tishga ilina olmasdan (barabanga ilashmasdan) pastga — chiqindilar to'plamiga tushadi.

Ajratish barabani (23) bir vaqtning o'zida asosiy va chiqindi separatorlarining arrali barabanlariga tegib turadi. Shu sababli uning cho'tkalar ikkala arrali barabandagi tolalarni ajratib oladi va katta tezlikda nazorat separatorining arrali katta barabaniga tashlab beradi. Bu yerda ham tolalar tishlarga ilinib, navbatdagi to'rsimon to'siq ostiga olib ketiladi. Xas-cho'plar ham baraban tishlariga ilina olmasdan pastga, ayrim tolalar bilan birqalikda tishli kichik baraban (19) ning ustiga tushadi. Baraban ularni to'r ustidan sudrab o'tishi hisobiga tozalaydi, tolalarni cho'tkali ajratish barabaniga uzatadi va tolalar tozalanayotgan mahsulotning asosiy oqimiga qo'shilib ketadi. Arrali katta baraban tishlaridagi tolalarga ilashgan xas-cho'plar markazdan qochirma kuch ta'sirida oqimning ustki qatlamiga joylashadi. Shu sababli ular qaytargich baraban (10) ning tagidagi ensiz tirkishdan o'tayotib, teskarri harakatlanayotgan plankalar (parraklar) ta'sirida orqaga, asosiy separatorga takroran tozalashga yuboriladi. Arrali katta barabanga ilashib ketayotgan tolalar ajratish barabani (12) ta'sirida tishlardan ajratib olinadi va barg tozalagichning qoziqchali barabanlariga yuboriladi. Bu baraban qoziqchalari paxtani titkilab, mayda aralashmalarni to'rsimon g'iloflardagi teshiklardan chiqarib yuborishga yordam beradi. Ikkala qoziqchali barabanlarda so'nggi marta tozalangan paxtani yuklash moslamasiga ajratish barabani (12) uzatib beradi. Shunday qilib, ko'sakdan tolani ajratib olish uchun chuvish mashinasining ishchi qismlari avvaliga ko'saklarni ezib chaqadi. Keyin bu aralashmani bir necha marta arrali barabanlar ustiga tashlab beradi. Bu jarayonda tola arracha tishlariga ilinib qolishi hisobiga xas-cho'pdan ajratiladi. Demak, arracha tishlari chirk bosib yoki o'tmas bo'lib qolsa, ularning ilintirish yoki tozalash xususiyati pasayib ketadi.

Ajratish barabanlarining cho'tkalarini yoki tasmasimon parraklari arracha tishlariga tegmay qolsa, tishlarga ilingan tolalarni to'liq ajratib ololmaydi. Tolalardan to'liq tozalangan tishlarning navbatdagi tolalarni ilintirib olishi qiyinlashadi.

Chuvish mashinasining barabani tozalanayotgan mahsulotga ma'lum kuch bi zarb berish, ma'lum masofaga ing'itib yuborish, titish, to'rsimon sirt bo'ylab sud o'tish hisobiga tolani xas-cho'plardan ajratib beradi. Demak, konstruktor mo'ljaliga ta'sirni pasaytirmaslik uchun barabani nominal tezlikda aylantirib ishlatalish zar Agar tozalanayotgan mahsulot namligi me'yordan ortiq bo'lsa, barabanlar tez ch bo'lib, tola bilan o'ralib qolishini esda tutish kerak.

G'o'zapoya quyidagi maqsad va tartibda yig'ishtirib olinadi:


- kasalliklarga chalingan g'o'zapoya po'stlog'ining tagida joylashgan zamburug' va mikroorganizmlar qishlab chiqishining oldini olish maqsadida uni ildizi bilan yerda sug'urib olib to'planadi va transport vositasida daladan chet joyga olib ketiladi.
- g'o'zapoyadan qimmatbaho qurilish materiallarini tayyorlash yoki kimyovi moddalar olish maqsadida ildizi bilan sug'urib yoki ustki qismi o'rib olinadi, transpol vositasiga yuklanib qayta ishlaydigan korxonaga yuboriladi.
- dalani shudgorlashda hamda ekin ekishga halaqit bermasligi uchun g'o'zapoy sug'urilib yoki o'rilib, maydalab dalaga sochiladi. Yer shudgorlangandan so'ng chirindiga aylanadi.

**Kasallik tushgan g'o'zapoyani mashina yordamida sug'urib olib, albatta, daladan olib chiqish kerak.**

tiruvchi panja (2) lardan iborat.

Mashinaning ish jarayoni quyidagicha: mashina dalada harakatlaniganida ishechi tirqishga kirgan g'o'zapoyani aylanayotgan barmoqli disksimon uzatkich (4) lar qamrab oladi va ularni yo'naltiruvchi panja (2) lar orasiga surib kiritadi. Ayni vaqtida tish (5) lar ildizni tagidan kesib, atrofida gi tuproqni yumshatadi. Kesuvchi tishlarning o'nmatilish burchagi yerning holatiga qarab o'zgartiriladi. Disksimon uzatkich aylanganida g'o'zapoyalar tuproqdan sug'uriladi va qatorlardan sug'urib olingan g'o'zapoya uyumlash zonasiga uzatiladi. Uyumlilikning sozlanishiga ko'ra poyalari bir qator qilib uyumlanadi yoki bog'lab ketiladi.

G'o'zapoyani sug'urib, qatorga uyumlab ketadigan mashinaning texnologik sxemasi 106-rasmde ko'rsatilgan. Mashina chopiq traktoriga osiladi. Uning asosiy qismi: g'o'zapoya ildizini kesuvchi tish (5), barmoqli disksimon uzatkich (3) va yo'naltiruvchi panja (2).



106-rasm. G'o'zapoya yig'ishtirichning texnologik jarayoni:

1—g'o'zapoya qatori; 2—panjalar; 3, 4—disksimon uzatkichlar; 5—kesuvchi tish; 6—val.

Yumshoq tuproqda kesuvchi tishning jo'yak pushtasidan boshlab botish chuqurligi 50—100 mm, zich va quruq tuproqda 100—150 mm qilib o'rnatiladi. Bu tishning yerga borish chuqurligi traktoring osish moslamasidagi kashaklar va markaziy tortqi yordamida sozlanadi. Past, 60—80 sm li g'o'zapoyalarni yig'ishtirishda disksimon uzatkich bilan yumshatgich tish oralig'i minimal bo'lishi, 80—100 sm li poyalarni yig'ishtirishda bu oraliq ko'proq qo'yilishi kerak. Poyalarni uyumlashda uyumlagich prujinasi juda bo'sh qilib o'rnatiladi.

## X BO'D BO'YICHA XULOSALAR (ularni eslab qoling)

1. Paxta hosilini yig'ishtirish texnologiyasi mahalliy sharoitlarga moslab qabul qilinadi.
2. Ishlayotgan paxta terish mashinasi apparatining o'ta tor ish tirkishiga g'o'za shoxlarini engashtirmasdan kiritish uchun mashinani yuritish tezligi bilan shpindelli barabantlar aylanish tezligi muayyan mutanosiblikda bo'lishi shart.
3. Eng sifatlari tolaga ega pastki chanoqlardagi paxtani qoldirmasdan terish uchun terish apparati doimo ma'lum balandlikda yuritilishi kerak. Buni ta'minlash uchun maxsus gidrokopir xizmat qiladi.
4. Defoliatsiya qilinganda ham g'o'zapoyaning ko'k shirasi shpindel sirtini chirklanishga otib keladi. Chirklanish natijasida shpindel tishi chanoqdan sug'urib olgan paxta uning ustida ilinib tura olmaydigan bo'lib, yerga ko'proq to'kiladi. Shu sababli shpindel sirtini har doim yuvib, tozalab turish talab qilinadi.
5. Gorizontal shpindelli apparatda shpindellar sirtini ish vaqtida uzlusiz yuvib turadigan qurilma o'rnatish imkoniyati bor. Shu sababli gorizontal shpindelli mashinaning hosilini terish unumi doimo yuqori darajada saqlanadi.
6. Gorizontal shpindel ko'k ko'sakni teshib, uning pishmagan tolasini sug'urib olishi mungkin. Vertikal shpindel ochilmagan chanoqdagi paxtani tera olmaydi. Shu sababli vertikal shpindelli mashina bilan terimni hosilning 60% ochilganda boshlash joiz bo'lsa, gorizontal shpindelli mashina bilan terishda esa hosilning kamida 85% ochilishini kutish kerak.
7. Gorizontal shpindelli mashina hosildorligi yuqori bo'lgan yerlarda sifatli terish qobiliyatiga ega.
8. Vertikal shpindelga o'ralgan paxtani yechib ajratish uchun u teskari tomonga aylantiriladi. Gorizontal shpindel aylanishining yo'nalishi esa o'zgartirilmaydi, ammo kas-setaning tebranishi hisobiga uning burchak tezligi uzlusiz o'zgarib turadi.
9. Chanoqdagi paxtani uzmasdan to'liq sug'urib olish uchun uni sug'urayotgan shpindel tishining chiziqli tezligi ma'lum me'yordan oshmasligi kerak. Bir xil me'yordagi tezlik bilan paxtani sug'urish uchun ingichka gorizontal shpindel o'zidan yo'g'onroq bo'lgan vertikal shpindelga nisbatan kattaroq burchak tezligida aylantirilishi lozim.
10. Respublikamiz paxta ekadigan boshqa davlatlarga nisbatan shimalroqda joylashganligi uchun paxta hosili to'liq pishib ulgurmeydi. Shu sababli kech kuzda hosil qoldiqlari terish uchun ko'sak terish mashinalaridan ham foydalaniлади.
11. Terilayotgan ko'sakni qisman tozalab, undagi paxta miqdorini oshirib «boyitish» uchun ko'sak terish mashinasiga ko'sak chuviydigan qurilma o'rnatiladi.

12. Ko'sak chuvish mashinasining ish unumi tozalanayotgan mahsulot tarkibiga bog'liq holda o'matiladi.

13. Dalani kasallik tushirgan mikroorganizmlardan tozalash maqsadida g'o'zapoyani ildizi bilan sug'urib yig'ishtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Mashina terimiga tayyorlanayotgan daladagi g'o'za nima uchun defoliatsiya qili-nadi?

2. Qanday sababga ko'ra gorizontall shpindelli mashina bilan terimni boshlash uchun hosilning kamida 85—90% ochilishini kutish kerak?

3. Qanday maqsadda shpindellarni yuvib turish kerak?

4. Nima uchun baraban sirtining chiziqli tezligi mashina tezligidan kattaroq bo'lishi lozim?

5. Vertikal shpindelga o'rалган paxtani yechib olish uchun uni teskari aylantirish talab qilinadimi?

6. Nima sababli vertikal shpindel tishlariga ajratkich qillari kirib turishi ma'qul hisoblanadi?

7. Nega gorizontal shpindelga o'rалган paxtani yechib olish uchun uni teskari aylantirish talab qilinmaydi?

8. Nima uchun terish apparati qabul kamerasining tubi ochiq bo'ladi?

9. Qanday ko'rsatkichi bo'yicha shpindel o'ng va chapga bo'llinadi?

10. Paxta terish apparatidagi ish tirdishining kengligi qanday omillarga moslab qo'yiladi?

11. Mashina bilan terilayotgan paxta chigitlari qanday sabablarga ko'ra shikastlanishi mumkin?

12. Bunkerga uzatilayotgan paxta chigit shikastlanmasligi uchun qanday choralar ko'riladi?

13. Gorizontal shpindelli apparatdagi kassetalar nima uchun o'z o'qi atrofida bir muncha burilishi talab qilinadi?

14. Qanday sababga ko'ra hamma kassetalardagi gorizontal shpindellar bir xil balandlikda o'rnatilishi kerak?

15. Nima sababdan gorizontal shpindellarni yuvish uchun suvg'a maxsus poroshok qo'shiladi?

16. Gorizontal shpindelli apparat texnologik jarayonida paxtani qisman tozalash imkoniyati bormi?

17. Qanday maqsadda bunkerga irg'itilayotgan paxta yo'liga panjarasimon to'siq qo'yiladi?

18. Gorizontal shpindelli apparatdagi singan ajratkich likopchasi qanday tartibda almashtiriladi?

19. Qanday sababga ko'ra gorizontal shpindelli mashina yetaklovchi g'ildiragidagi havo bosimi me'yorida bo'lishi kerak.

## XI беъз.

# KARTOSHKA YIG'ISHTIRISH MASHINALARI

So'nggi vaqtda Respublikamizda kartoshkachilik keskin rivojlanib, abolining sitatlari oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda katta rol o'ynamoqda. Hosihi yig'ishtirish kartoshka yetishtirish texnologiyasining eng sermehmat qismi bo'lganligi sababli uni mashinalar yordamida amalga oshirish jarayonini har bir mutaxassis yaxshi bilishi kerak. Mazkur bobdag'i ma'lumotlар o'quvchilarga kartoshka hosilini yig'ishturishda ishlataladigan kavlagich va kombaynlarning tuzilishi, texnologik jarayoni, ularni sozlash bo'yicha tegishli tasavvur beradi va ular amaliy mashg'ulot orqali ko'nigmaga ega bo'ladi.

### 1-6. KARTOSHKA YIG'ISHTIRISH TEKNOLOGIYASI

Kartoshkani yig'ishtiradigan kombaynlar ishini qiyinlashtiradigan omillardan biri — bu kavlab olinayotgan kartoshka bilan birga tuproqning ko'p miqdorda (98 foizgacha) qo'shilib chiqishidir.

Kartoshka qator oralig'i  $70\text{ sm}$ , uyalar orasi  $30\text{ sm}$  qilib ekiladi. Kartoshka hosilni har xil chuqurlikda joylashadi. Pastki va ustki tugunaklarning joylashish chuqurligi  $h_1=16-21\text{ sm}$ ,  $h_2=1-5\text{ sm}$  bo'lishi kuzatiladi.

Kartoshka hosilini mashinada yig'ishtirishda quyidagi ishlar ketma-ket bajariladi: tugunaklarni kavlash, ularni tuproqdan tozalash (separatsiyalash), tugunaklarni kartoshka palagidan ajratish, ajratilgan palakni chiqarib tashlash, tugunaklarni toshlardan ajratish, tozalangan tugunaklarni to'plab yuklash.

Ba'zan hosilni yig'ishtirishdan oldin palaklar o'rib olinadi va chetga chiqarib tashlanadi.

Kartoshkani mashina bilan yig'ishtirishning uch usuli mavjud:

1. Kartoshka kavlagichlar bilan kavlab olinib, dala yuzasiga chiqarib tashlanadi va qo'lda terib olinadi.
2. Kartoshka kavlagichlarga tozalash stollari bilan jihozlangan tirkalmalar tirkalib, kavlab olingan kartoshka qo'lda tozalanib qoplanadi.
3. Kartoshka kombayn yordamida qo'l mehnatisiz yig'ishtiriladi. Kombayn bilan yig'ishtirish usuli uch bosqichdan iborat: kombayn yordamida bir yo'la yig'ishtirish (kombaynlash); kombayn yordamida bo'laklab (ko'p fazali) yig'ishtirish; qurama usulda kombaynlash.

Kartoshkani bevosita kombayn yordamida yig'ishtirganda mashina bir yo'la kavlab, terib va tozalab to'playdi.

Kombayn yordamida bo'laklab yig'ishtirishda, avvaliga, kartoshka kavlagich yordamida tugunaklar yer yuzasiga uyumlab tashlanadi. Tuproq qisman qurigandan so'ng ular kombayn bilan terib olinadi. Bu usul tuproq namligi me'yorida ortiq bo'lgan yer-

larda qo'llaniladi. Ushbu ishlarni bajarishda oddiy kavlagichlar, kavlab-elagichlar, ishchilar uchun tozalash stollari bilan jihozlangan tirkalma kavlagichlar, kartoshkani kavlab uyumlagichlar va nihoyat kombaynlardan foydalaniadi.

**Yig'ishtirish usuli va ishlataladigan mashina mahalliy tuproq turi, uning namligi, paykal o'chamlari hamda notekisligi, tishlar miqdori, bosildorlik va boshqalarni e'tiborga olgan holda tanlab olinadi.** Masalan, qumloq yerlardagi kartoshka kombayn yordamida yig'ishtirilsa samaraliroq bo'ladi. Oddiy kavlagichlar qo'sh qanotli ariq olgich-larga o'xshash bo'lib, tugunaklarni yer ustiga chiqarib ketadi. Keyin ishchilar ularni qo'lda terib oladi. Bu usulni qo'lllaganda hosilning qariyb 30 foizgacha bo'lgan qismi tuproq ostida qolib ketishi mumkin.

**Agrotexnik talablar.** Kavlagichlar kartoshka qatoriga 22 sm chuqurlikda va 40 sm kenglikda ishlov berishi, hosilning kamida 95 foizini yer betiga chiqarib ketishi kerak. Og'irligi 20 grammidan kam bo'lgan tugunaklar nobudgarchilik ko'rsatkichlariga kiritilmaydi. Shikastlangan tugunaklar hosilning 3 foizidan, jamlangan kartoshkaga aralashgan begona aralashmalar massasi 20 foizdan oshmasligi shart.

Kavlagich lemeklari paykal relefiga moslanib, tayinlangan kavlash chuqurligiga nisbatan  $\pm 2$  sm dan ortiq farq qilmasdan yurishi kerak.


## 2-6. KAVLAGICH TURDASI VA UZATUVCHI TURDASI

Kartoshka hosilini mahalliy sharoitga moslab yig'ishtirishda oddiy kavlagich yoki kombayn ishlataladi. Respublikamiz sharoitida, asosan, kavlagichlardan foydalaniadi.


**Kavlab-elagichlar** kartoshka tupini tagidan kavlab, tugunaklarni tuproq bilan birga ajratuvchi (separatsiyalovchi) qismlarga uzatadi (*107-rasm*). U yerda tuproq may-dalanib, kartoshkadan ajratiladi. Zamonaviy mashinalar ajratuvchi qismlarining chiviqli elevator va tebranuvchi kephchigich kabi turlari mavjud.

Tuproq kavlab-elagich elevatorining chiviqlari (2) orasidan yoki g'alvirsimon kephchigich teshiklaridan yerga to'kiladi. Yirik toshkesaklar aralash tugunaklar va kartoshka palagi mashina orqasidan yerga sochilib tushadi. Keyinchalik kartoshka qo'lda terib olinadi.

Og'ir tuproq sharoitida kartoshkani yetarli darajada tozalash maqsadida kavlab-elagichlarga ikkita yoki uchta kephchigich o'rnatiladi. Transportyor stoli (3) bilan jihozlangan tirkalma pritsep (4) ulangan kavlab-elagich kartoshkani lemez (1) bilan kavlab, kephchigich (2) larga uzatadi (*108-rasm*). Kepchigichlarda qisman tozalangan kartoshka tirkalma pritsep (4) ustida-gi transportyor stoli (3) ga so'nggi tozalash uchun tushadi. Stolning ikki tomonida o'tirgan ishchilar kartoshkani terib, maxsus idishga soladi.



*107-rasm.* Kovlab-elagich sxemasi:  
1—kovlagich lemez; 2—chiviqlar; 3—elevator.



108-rasm. Tozalash stollari o'matilgan pritsepin kovlab-elagich bilan ishlash sxemasi.


1—kovlagich lemex; 2—kepchinglar; 3—transporty oristol; 4—tirkalma pritsep.

**yuklaydi.** Kombaynning turlari ko'p bo'lsada, ularning ishchi qismilari bir-biridan deyarli farq qilmaydi. 109-rasmdagi sxema bo'yicha ishlaydigan kombayn g'altak (1) lar yordamida yerning past-baladligiga moslanib, kavlash chuqurligini o'zgartirmasdan harakaflanadi. Lemex (3) kartoshka tupini tagidan qo'porganda, disksimon lemex (2) lar tugunaklar aralashgan tuproqni chetga to'kmasdan elevator (4) ga uzatadi. Elevatorda tuproqni yumshatish, titish va uning mayda qismini elab ajratish jarayoni boshlanadi. Keyinchalik tozalanayotgan mahsulot kesak ezuvchi ballon (5) lar orasiga tushadi. Bu yerda yirik kesaklar eziladi va palakning bir qismi ajratiladi. Elevator (6) da tugunaklarni tozalash davom etadi. Elevator (6) dan so'ng palak ajratuvchi jo'va (7) o'tayotgan mahsulotdan o'simlik moyalarini ajratib mashina tagiga tashlaydi. Qolgan mahsulot qoziqchali transportyorga tushadi va u yerda poyaning maydalangan qoldiqqlaridan tozalanadi. Asosiy mahsulot ko'taruvchi barabansimon elevator (12) ga tushsa, mayda kesak, tosh va mayda moyalar qiya o'matilgan qoziqchali transportyor bo'ylab mashina orqasiга (erga) tashlanadi. Transportyor (9) yirik moyalarini chiqarib tashlaydi. Barabansimon

tosh-kesaklar esa to'kiladi. Bu usul bilan urug'lik uchun yetishtirilgan kartoshkani yig'ishtirish maqsadga muvoqifdir.

**Kombayn eng murakkab mashina bo'lib, qo'l mehnatini kam sarflab kartoshka hosilini yig'ishtirib olish imkonini beradi (109-rasm).**

**Kombayn bir vaqtning ichida kartoshkani kavlab oladi, uni avvaliga mayda tuproqdan, keyin toshlardan ajratib maxsus transport vositasiga**



109-rasm. Kartoshka yig'ishtiradigan kombayn texnologik ish jarayonining sxemasi:

1—g'altaklar; 2—disksimon lemex; 3—yassi lemex; 4—elevatorli transportyor; 5—kesak ezuvchi ballonlar; 6, 16—elevator; 7—palak ajratuvchi jo'va; 8—qoziqchali transportyor; 9—palak ajratuvchi transportyor; 10—qoziqchali qiya transportyor; 11—transportyor; 12—barabansimon elevator; 13, 14—tosh ajratkich; 15—tozalash stoli; 17—bunker; 18—yuklovchi transportyor.

elevator (12) mahsulotni yuqoriga, ikkinchi qavatga ko'tarib chiqayotib mayda kesaklardan tozalaydi va uni qoziqchali transportyor (10) ga tushiradi. Qoziqchali transportyor (10) keng yasalgan bo'lib, qiyalikka perpendikulyar yo'nalishda harakatlanadi. Shu sababli, u tushayotgan mahsulotni ikkiga bo'ladi. Yirik tugunak va aralashmalar uning ustidan yumalab tushib tozalash stoli (15) ga uzatiladi. Mahsulotning qolgan qismi transportyor (11) yordamida bo'ylama o'rnatilgan qoziqchali transportyor (10) ga o'tadi va mayda aralashmalar ajratilib mashinaning orgasiga (erga) tashlanadi. Tozalangan tugunak va unga aralashgan jismlarning qoldig'i tosh ajratuvchi transportyori moslamaga tushadi. Ularning ustidagi cho'tkalar qolgan tugunaklarni tozalash stoli (15) ga tushiradi, mayda aralashmalar esa yerga tashlanadi. Tozalash stolining ikki tomonida turgan ishchilar yana bir bor tugunaklardan tosh, kesaklarni ajratib tashlaydi. Nihoyat, tozalangan tugunaklar elevator (16) yordamida bunker (17) ga keltiriladi. Yuklovchi transportyor (19) esa kartoshkani bunkerdan transport vositasiga to'kib beradi.

Kombaynni ishga tayyorlashda birinchi navbatda tugunaklarni kavlash chuqurligi sozlanadi. Buning uchun kombayn oldidagi g'altaklarning lemexlarga nisbatan balandligi o'zgartiriladi.

Elevatorlar, barmoqli transportyorlar, tozalash stolining tasmasi, yuklagich transportyori, qismi harakatlanuvchi zanjirli uzatmalar tarangligi ularning tayanch valini siljitis hisobiga sozlanadi. Hamma barmoqli transportyorlarning engashish burchaklari kavlanayotgan kartoshka va ularga aralashgan tosh, kesak miqdori hamda xossalariqa qarab o'rnatiladi.

Kavlagichni mahalliy sharoitda o'stirilgan kartoshka xossalariqa moslab ishlatish muhim hisoblanadi.

### **3-9. TUGUNAKLARNI TUPROQDAN AJRATISH USULLARI**


Kartoshka tugunaklari bilan tuproqning ayrim fizik-mekanik xossalari orasida katta farq bor. Tugunaklar va kesaklarning katta-kichikligi, shakli, ishqafanish koefitsienti, bajmiy massasi (zichligi) va boshqalarga asoslanib mashina ish jarayonining ketma-ketligi aniqlanadi. Tugunaklarni tuproqdan ajratish mashinalarini ikki guruhg'a bo'lish mumkin:

1. G'alvirsimon tuzilmalarda elash hisobiga kartoshkani to'kiluvchan mayda tuproqdan ajratuvchi moslamalar, ya'ni elagichlar.

2. Kartoshka tugunaklarini katta-kichikligi jihatidan o'shash bo'lgan kesak, tosh kabi qattiq jismlardan ajratadigan moslamalar, ya'ni qoziqchali transportyorlar.

Elagichlar har qanday kartoshka yig'ishlituvchi mashinaning eng muhim qismi hisoblanadi. Chunki ular tugunaklarni mayda to'kiluvchan tuproqdan ajratib, keyingi bosqichlarda murakkab moslamalarning samarali ishlashiga zamin tayyorlaydi. Elagichlardan keng tarqalgani chiviq-li elevator va g'alvirsimon kepcchi-gichlardir.

**Chiviqli elevator** chiviqlari 2 ning uchi uzlksiz zanjirga mahkamlangan bo'lib, u bir necha yulduzchalar yordamida ilgarilanma harakatga keltiriladi (*110-a rasm*). Lemex kavlab olgan tugunakli tuproq qatlami elevator ustiga kelib tushib, chiviq bilan birga siljiy boshlaydi. Chiviqlar holati o'zgaruvchan bo'lganligi va ellipssimon yulduzchalar yordamida kuchli silkitilishi sababli tuproq qatlami tez maydalananadi va mayda bo'lak-



110-rasm. Tugunaklarni tuproqdan ajaritish tuzilmalarining sxemasi:

a—chiviqli elevator; b—g'alvirsimon kepcigich; v—jo'vali ajrakich; 1—chiviq; 2—zanjur; 3—qalpoq; 4—ellipsimon yulduzcha; 5—g'alvir; 6—tortqi-ilgak; 7—shatun; 8—krivoship; 9—qovurg'ali jo'va.

- elevator chiviglariga loy yopishib qolishi ehtimoli bor;
- chiviqlar oralig'i (teshikning kengligi)ni mahalliy sharoitga moslab sozlash imkonи yo'q.

**Kepchigich** yassi g'alvir (5) dan iborat bo'lib, uning chetlari tortqi ilgak (6) larga ilib qo'yilgan (110-b rasm). G'alvir krivoship-shatunli yoki vibratsion generator kabi moslamalar yordamida tebranib turadi. Uning ustidagi jismlar B va C yo'nalishida harakatga keltiriladi. Natijada kesaklar maydalaniб elanadi, yirik aralashmalar tugunaklar bilan birgalikda S yo'nalishda siljib, yuqoriga ko'tariladi. Ular g'alvir ustida A yo'nalishlarda harakatlanib, mashinaning boshqa qismiga uzatiladi. G'alvirning engashish burchagi  $b=7^{\circ}-17^{\circ}$  oralig'iда o'zgartirilib, tugunaklarni yuqoriga to'xtovsiz uzatish va elash darajasi sozlanadi. Muayyan sharoitga moslangan ko'zları bo'lgan kepcigich g'alvirini tez almashtirish mumkin. Kepchigichning kamchiligi tebranib ishlashida paydo bo'ladigan inersiya kuchini muvozanatlash lozimligida.

Kartoshkani jo'vali separator yordamida ham tuproqdan tozalash va saralash mumkin (110-v rasm).

lari chiviqlar orasidan o'tib, pastga tushib ketadi (separatsiyalanadi). Tuproq va yirik kesak-toshlar elevatordan navbatdagi tozalovchi qurilmaga uzatiladi. Chiviqli elevator o'ta soddaligiga qaramasdan ish sifati bo'yicha talabga javob bergenligi uchun amaliyotda ko'p qo'llaniladi. U gorizontga nisbatan  $20^{\circ}-25^{\circ}$  gacha qiya о'rnatilib, tozalanayotgan aralashmani yuqoriga bemalol siljita oladi, natijada mashinada uzunlik bazasini kamaytirish imkonи paydo bo'ladi. Dala sharoitida ishlayotgan mashina turli tomonga engashib tursa ham, chiviqli elevatorning ishiga deyarli salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Chiviqli elevatorning quyidagi kamchiliklari bor:

- elevator umumiy uzunligining faqat bir qismigina (40 foizi) tozalashda ishtirok etadi;
- elevator yuzasining faqat 70 foizga yaqin qismini tuproq o'tadigan teshiklar tashkil qilganligi sababli, uning elash imkonи cheklangan;
- ishqalanishga duch keladigan joylari ko'p bo'lganligi sababli tez yeyiladi, ko'p quvvat sarflaydi;

*(Handwritten mark)*

**Mashg'ulotni o'tkazishdan maqsad:** O'quvchilarga respublikamiz korxonalarida tayyorlanib, xo'jaliklarda ko'plab ishlatilayotgan elevatorli kartoshka kavlagichni mahalliy sharoitga moslab ishga tayyorlashni o'rgat va amaliy ko'nikmalar berish.

**Mashg'ulot o'tkaziladigan joyni jihozlash:** Elevatorli kartoshka kavlagich, traktor, kartoshka ekiladigan jo'yaklar olingan  $20 \times 10 \text{ m}$  o'lchamli yer, ruletka, chizg'ich, gayka kalitlarining to'plami.

**Mashg'ulot o'tkazish tartibi:** O'qituvchi o'quvchilarga elevatorli kartoshka kavlagich tuzilishi, ishini eslatib sozlanishlarini ko'rsatadi. Guruh to'rt to'pga bo'linib navbatma-navbat quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1. Kavlagich lemexini tugunaklar joylashgan chuqurlikka moslab o'rnatish.
2. Lemexning tebranish sonini o'zgartirish.
3. Kavlagich elevatorining silkitish darajasini moslash.

O'quvchilar bajarayotgan ishlarini bir-biriga izohlab beradi va tegishli hisobot tayyorlaydi.

**O'qituvchi o'quvchilarga quyidagilarni tushuntiradi:**

Kavlagichning lemexini optimal chuqurlikka o'rnatish uchun avvaliga hosil yig'ishtiriladigan dalada kartoshkaning eng pastki tugunaklari joylashgan chuqurlik aniqlanadi. Lemex ushbu chuqurlikdan 1—2 sm pastroq o'rnatiladi. Kavlash chuqurligini o'zgartirish uchun tayanch g'ildirak yoki traktorni osish moslamasidagi markaziy tortqi ho'lati sozlanadi.

Tebranuvchan lemex tuproqni kuchliroq maydalaydi, nam tuproq unga kamroq yopishadi, kartoshka palagi va tuproq uning oldiga uyilib qoladi. Natijada mashinaning sudrashga qarshiligi bir muncha kamayadi. Lemexning tebranish soni (minutiga 500; 570 va 630 tebranish) tuproqning holatiga moslab qo'yiladi. Uni o'zgartirish uchun harakat yuritmasidagi yulduzcha almashtiriladi.

Tugunaklarni tuproqdan tozalash darajasi elevator chiviqlarini silkitish amplitudasiaga bog'liq bo'lganligi sababli tuproqning holatiga moslab ellipssimon yulduzchalar almashtiriladi.

## **XI BO'B BO'YIGHA XULOSALAR** **(ularni eslab qeling)**

1. Kartoshka hosilini yig'ishtirish sermehnat jarayon bo'lganligi sababli uni mexanizatsiyalash dolzarb muammo hisoblanadi.
2. Kartoshka hosilini yig'ishtirish texnologiyasi mahalliy tuproq holatiga moslab tanlanadi.
3. Kavlagich ishchi qismiga uzatilayotgan tuproq va tugunaklar aralashmasi tarkibining 2% gacha bo'lgan qismi kartoshka bo'ladi.

4. Tuproq va tugunaklar aralashmasini lemexdan qabul qilib oladigan elevator chiviqlarining tezligi agregat tezligidan kattaroq bo'lishi kerak. Aks holda u yerda tuproq uyilib qoladi.
5. Elevator ustiga tushgan aralashmadagi tuproqni to'liqroq ajratish uchun uning chiviqlari uzluksiz silkitilib turiladi.
6. Kartoshka tugunaklarini unga aralashib qolgan tuproqdan tozalashning mexanik usuli keng tarqalgan. Ularda tugunakning ishqalanish burchagi, hajmiy massasi (zichligi) va toshlardan og'irligi bo'yicha farqlanishidan foydalaniлади.

### **NAMUNAVIY TEST SAVOLLARI**

1. Qanday sabablarga ko'ra kartoshka hosilini yig'ishtirishda turli texnologiyalardan foydalaniлади?
2. Kartoshka kavlagich lemexini tuproqqa chuqurlashtirish mezoni nimaga bog'liq?
3. Nega kavlagichga tugunaklar bilan birgalikda ko'p miqdordagi tuproq ham keltiriladi?
4. Tebranuvchan temex qanday afzallikka ega?
5. Qanday maqsadda elevator chiviqlari majburan silkitilib turiladi?
6. Tugunaklarni aralashmadan ajratishda ularning qanday xossalardan foydalaniлади?
7. Rezina qoziqchalar o'rnatilgan transpotyor toshni tugunakdan qanday ajratadi?
8. Qanday maqsadda kavlagich lemexining uchi uchburchaksimon qilinadi?
9. Kartoshka kavlagich bilan kartoshka kombayni orasidagi asosiy farq nimadan iborat?


Respublikamiz iqlim sharoiti bog'dorchilikni rivojlantirishga qulay bo'lganligi sababli, dunyoda ekiladigan mevali daraxt va uzumning deyarli hamma turlari o'stililib, ulardan sifatli va foydali mahsulotlar olinmoqda. Shu sababli bog'dorchilikda ishlataladigan mashinalar bo'yicha dastlabki bilim berish ham kollejlarda bo'lajak mutaxassislarni o'qitish rejasiga kiritilgan.

O'quvchilarga mazkur bobni o'qitishdan maqsad, bog'larda tuproqqa ishlov beradi-gan, mevali daraxt shoxlarini agrotexnika talablariga mos shaklga keltiradigan, meva yig'ishtiradigan mashinalar bo'yicha umumlashtirilgan tushuncha berishdir.

Bog'dorchilikda tuproqqa ishlov berish, ko'chat ekish uchun yerni tayyorlashdan boshlanadi. Chunki ko'chat ildizi rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratilsagina, ular bexato ko'karib ketadi va tez rivojlanib, mo'l hosil beradigan bo'ladi.

Ko'chat ekiladigan qatorlarga 80 sm chuqurlikkacha tishli chuquryum-shatkich, keyin esa 50—65 sm chuqurlikkacha plantatsiyabop pluglar bilan ishlov beriladi. Koo'chat ekiladigan mashinaning jo'yak oladigan qanotlari tuproqni yuqoriga ko'tarib, ikki chetga surish hisobiga ochilgan ariqchaga mashinada o'tirgan ishechi ko'chatni ildizi bilan tushirib, tik holatda ushlab turadi. Jo'yak olgich qanotlari ko'chat yonidan o'tayotganida chetga surilgan tuproqni ariq ichiga qaytarib ko'chat ildizini ko'mib qo'yadi. Maxsus moslama yordamida suv qo'yilib tuproq zichlanadi.

Daraxtlar qator oralig'idagi tuproqqa ishlov beradigan mashinalar (plug, tirma, freza, kultivator) traktorga nisbatan yon tomonga bir mun-



113-rasm. Tok tuplari orasiga ishlov berish moslamasi:  
1—tish; 2—turtkich; 3, 12, 14—tortqilar; 4—richag; 5, 16—prujina; 6—saqlagich klapani; 7—gidrotaqsimgich; 8, 10—shamir; 9, 11—tirkak; 13—dastak; 15—gidrotsilindr; 17—ustun.

cha surilib ulanadi. Shu boisdan ularni daraxtlarga yaqinlashtirib ishlatish imkonи bo'ldi. Bevosita daraxt tanasiga yaqin joydagi tuproqqa 10—12 sm chuqurlikkacha sayoz ishlov berib, ildizlar shikastlanishining oldi olinadi. Tuproqni yumshatish bilan bir vaqtда 15—20 sm chuqurlikka o'g'it solinadi. Tuproqqa ishlov beradigan mashinalardan misot tariqasida tokzor kultivatori to'g'risida qisqa ma'lumot keltirilgan.

**Tokzor kultivatori** qatordagi 'toklar zangini shikastlantirmasdan qator oralarini yumshatish uchun ishlatiladi. Kultivatorning ikki chetidagi tishlarini tok zangiga tegmasdan olib o'tish uchun maxsus moslama xizmat qiladi (*113-rasm*). Moslamaga chetki tish (1) larni zangga nisbatan uzoqlashtirib, zangdan o'tganidan so'ng ishni ilgarigi joyiga qaytaradigan mexanizm o'rnatilgan.

Gidrotaqsimlagich (7) ning zolotnigi neytral holatda bo'lsa, gidrosilindr (15) tishni zanglar qatorida ushlab turadi. Agar ishlayotgan kultivatorning turtkichi (2) tok zangiga yoki so'ri ustumiga borib taqalsa, u 10-sharnir atrofida burilib, tortqi (3) va richag (4) orqali zolotnikni gidrosilindrga moy yuboradigan holatga keltiradi. Ishga tushgan gidrosilindr dastak (13) ni va unga ulangan tishni to'siqdan chetga tortib ketadi.

To'siqdan o'tgan turtkich prujina (5) yordamida o'zining joyiga qayta boshlaydi va zolotnikni gidrosilindrga moy yuboradigan holatga tushiradi. Gidrosilindr esa tishni oldingi joyiga qaytaradi. Tortqi (14) ta'sirida tish bilan bir vaqtда zanglar qatoriga turtkich ham qaytadi. Tortqi (12) tirkak (11) ga tegishi bilan tishning qator tomonga surishi to'xtatiladi.

Tortqi (3) uzunligini o'zgartirib tishning ishlov berish kengligi sozlanadi. Tishning to'siqqa yaqinlashishini vintli tirkak (9) yordamida o'zgartirish mumkin. Turkichni yerga nisbatan kerakli balandlikda o'rnatish uchun ustun (17) ni vertikal yo'nalishda surish kerak.

Kuzda toklarni tuproq bilan ko'madigan, bahorda esa ochadigan mashinalar ham uzumchilikda keng qo'llaniladi.

Bog'ning hosildortligini oshirish uchun daraxt novda va shoxlarini butab, ularni kerakli shaklda rivojlantirish uchun kesib turish lozimligi hammaga ma'lum. Daraxtlarni joriy butash (qurib qolgan, jarohatlangan, daraxtdagi ortiqcha novdalar) ularni kerakli shaklga keltirish uchun amalga oshiriladi. Daraxt shoxlarini yoppasiga kerakli shaklga keltirib kesish, daraxtlar orasiga ishlov beradigan turli mashinalar shoxlarga tegmasdan bermalol yura oladigan yo'laklar ochish imkonini beradi.


**Joriy butash** ishlarini bajarishda qo'llaniladigan agregatga bosim ostida havo haydaydigan kompressor hamda shu havo yordamida ishlaydigan pnevmatik qaychilar o'rnatilgan. Bunday agregat daraxt qator oarlig'iда to'xtab-to'xtab yuritiladi, ishchilar ikki qatordagi daraxtlarga ishlov beradi. Agregat xartumi bilan yuqoriga ko'tariladigan kabinetlardagi ishchilar daraxt ichidagi shoxlarni, narvondagi ishchilar esa o'rta balandlikdagi novda va shoxlarni kesishadi.

**Pnevmatik qaychi** sxemasi 114-rasmda keltirilgan. Qaychi qo'zg'aluvchan (1) va qo'zg'almas (2) pichoqlarga ega. Qo'zg'aluvchan pichoq (1) ni shtok (12) ga kiydirilgan

porshen (6) harakatga keltiradi. Shtutser (10) ga bosim ostidagi havo keladigan naycha ulanadi. Kurok (11) bosilganda zolotnik (9) havo yo'lini yopib qo'yadi. Prujina (3) porshenni o'ng tomonga surib, pichoqlar og'zini ochadi. Shu vaqtida ishchi pichoqlar og'zini kesiladigan novdaga kiydirib, kurok (11) ni qo'yib yuboradi. Zolotnik havo yo'lini bo'shatadi. Bosim ostidagi havo porshenni siljitim shtok orqali qo'zg'aluvchan pichoqni harakatlantiradi va novdani kesadi. Pnevmoqaychi diametri 19 mm gacha bo'lgan, pnevmoshoxkesgich esa diametri 25 mm gacha bo'lgan novdalarni kesa oladi. Tok qaychisining jag'lari orasida har qanday diametrdagi novda siqilib to'xtashi uchun (aks holda kesishning iloji bo'lmaydi) uning tig'lari turli shakldagi egrilikka ega bo'ladi.


Bunday aggregatning yuqoriga ko'tariladigan kabinasi massasi 200 kg gacha bo'lgan yukka mo'ljallangan. Demak, undan daraxtdagi hosilni qo'lda terish uchun ham foydalanish mumkin.

Bog'dagi mevali daraxtlarni kerakli shaklga keltirib kesish uchun ishlataladigan mashinaning namunaviy sxemasi 115-rasmda keltirilgan. U to'rt metr dan kengroq qator oralig'ida ekilgan daraxtlarga ishllov beradi. Uning qirqish apparatlari (1 va 7) kengayuv-




114-rasm. Pnevmatik qaychi:

1—qo'zg'aluvchan pichoq; 2—qo'zg'almas pichoq; 3—qaytaruvchi prujina; 4—silindr; 5—zichlovchi xalqa; 6—porshen; 7—dastak; 8—yo'naltiruvchi gayka; 9—zolotnik; 10—shtutser; 11—kurok; 12—vtulka; 13—shtok.



115-rasm. Daraxt shoxlarini shakllantiruvchi mashina:

1, 7—qirqish apparati; 2—disksimon arra; 3—xartum; 4—kronshteyn; 5—rama; 6, 9—gidrosilindrlar; 8—to'siq; 10—tirkak bolti; 11—fiksator; 12—brus; 13—arralarni harakatlantiruchi tasma.



b

chan brus (12) lar orqali traktordagi xartum (3) ga osilgan. Brus (12) lar rama (5) ning yo'naltiruvchi yo'lakchasiga kiritilgan. Gidrosilindr (6) yordamida bruslarni yon tomon-ga surib, qirqish apparatlari daraxtlar oralig'iga moslantiriladi.


**Qirqish apparati** beshta disksimon arra (115-a rasm)dan tashkil topgan. Arralar tasma (13) lar yordamida gidromotordan harakat oladi. Gidrotsilindr (6) yordamida yon tomondagi qirqish apparatlari tik (rasmdagi III holat) yoki engashtirilgan holatga keltirilib ishlataladi. Qatorlar oralig'i bo'ylab harakatlanayotgan agregatning qirqish apparatlari yon tomondagi ikki qator daraxtlarning bir yonidagi shoxlarni qirqib ketadi. Agregat iziga qaytishida daraxtlarning ikkinchi yoniga ishlov berib o'tadi. Xartumni ko'tarib tushirish hisobiga qirqish apparatlarining balandligi o'zgartiriladi. Brus (12) larni gidrosilindr (9) yordamida surib, daraxtlar orasiga 2,0 m dan 4,0 metrgacha bo'lgan kenglikdagi yo'lakecha ochiladi.

Agar daraxt balandligini cheklash lozim bo'sa, xartum 2,5—5,0 metrgacha tik ko'tarilib, qirqish apparatlari gorizontal (rasmdagi I) holatda ishlataladi.

### 3-6. MEVA YIG'ISHTIRISH MASHINALARI


Bog'dorchilikda yetishtirilgan mevalarning aksariyatini mashinalar yordamida yig'ishtirish iloji yo'q. Chunki meva mashina qismlari ta'sirida zaxm yeb shikastlanishi sababli uni uzoq saqlab bo'lmaydi.

Bizning sharoitda mevalarni faqat mashina yordamida texnik yig'ishtirgandan so'ng zudlik bilan qayta ishlov berish kerak. Xo'raki meva qo'lda, mexanizatsiyalashning



116-rasm. Pnevmatik meva uzgich:

1—tutqich; 2—idish;  
3—naycha; 4—dasta;  
5—so'rgich.



117-rasm. Meva uzishga moslangan platforma:

1—so'ri; 2—konteyner; 3—daraxt; 4—traktor.

kichik vositalari yordamida shikatlantirmasdan terib olinadi.

Bunday vositalarga turli ko'rinishdagi narvon, stol, chelak, savat, xalta, aravacha, meva uzgichlar kiradi.

116-rasmda pnevmatik mevauzgich sxemasi keltirilgan. Trubkasimon dasta (4) ning bir uchiga cho'michsimon rezina idish (2), ikkinchi uchiga esa elastik rezinadan yasalgan so'rg'ich (5) o'matilgan. Idish (2) ning ichiga rezina tutqich (1) tushirilib, naycha (3) yordamida so'rg'ich (5) bilan ulangan. Terilayotgan meva pastidan tutqich (1) kiydirilib, ishchi so'rg'ich (5) ni qo'li bilan qisadi. So'rg'ichdan havo tutqich ichiga bosim bilan o'tib, meva sirtini to'liq qamrab oladi. So'rg'ichni pastga tortib, meva uzib olinadi, keyin so'rg'ich qo'yib yuborilsa meva tutqichdan chiqib ketadi.

Mevani qo'lda terish samarali bo'lishi uchun platformalardan foydalaniлади. Misol uchun 117-rasmда keltirilgan platformaning suriluvchan so'rilari (1) da o'ntacha ishchi turib, 2 m bolandlikdagi mevalarni uzib terishi mumkin. So'rilalar (ishchisi bilan) gidravlika yoki vintli mexanizm yordamida daraxt (3) shoxlari orasiga surilib kiritilishi mumkin. Savatlar to'lgach, ulardagи meva platforma o'rta-sidagi konteyner (2) larga to'kiladi.


Mevani texnik maqsadda qayta ishlash uchun, asosan, vibratsion mashinalardan foydalaniлади. Vibratsion mashinani daraxtlarni silkituvchi va to'kilayotgan mevani tutuvchi qismlarga ajratish mumkin.

Daraxtni silkitish uchun vibrator (og'irlik markazi aylanish o'qidan chetda joylashgan, ya'ni disbalansli aylanuvchan moslama) yoki ismpulslab purkaydigan pnevmoquollar ishlatiladi. Vibrator bevosita daraxt tanasiga bog'langan bo'lib, butun daraxt shoxlarini silkitish orqali mevasini to'kadi. Impulslı pnevmoqurılma faqat shoxlarning bir bo'lagini silkitib, mevasini qoqadi.

Qoqilayotgan mevani tutish uchun daraxt tubini to'liq egallaydigan maxsus elastik matodan tikilgan chodir ishlatiladi.

118-rasmda meva terish mashinasining sxemasi keltirilgan. Uning chap (1) va o'ng (2) chodirlarining alohida o'ziyurar shassisiga o'matilgan vibrator (4) daraxt tanasiga bikir o'rnatiladi. Vibratorga harakat o'ng tomonagi shassi motoridan uzatiladi. Vibratorning tebranishi shassisiga o'tmasligi uchun u elastik qurilma (5) ga osilgan bo'ladi.

Shassi motoridan harakatga keltirilgan vibrator daraxtni 5—10 soniya davomida silkitib, 3—5 soniya dam oladi. Shu tartibda hamma mevalar uzilib chodirga tushma-



118-rasm. Meva terish mashinasi:  
1, 2—chap va o'ng chodirlar; 3, 6—bo'sh konteyner; 4—vibrator; 5—elastik osish qurilmasi;  
7, 8—bo'ylama va ko'ndalang transportyorlar.

guncha daraxt silkitib turiladi. Daraxt tanasiga (popo'stlog'iga) zarar qilmasligi uchun vibrator unga elastik tutqich bilan bog'lanadi.

Chodirga tushgan mevalarni ko'ndalang (8) va bo'ylama (7) transportyor bo'sh konteyner (9) ga keltirib tushiradi. Bo'sh konteyner (6) lar uchun shassida joy ajratilgan.

## XII BOB BO'YLOMA KUL'DORI

(Mashinalardagi qatorlar)

1. Bog'dagi qatorlar oralig'iga ishlov berish chuqurligini belgilashda daraxtlar ildizining joylashish chuqurligini e'tiborga olish lozim.
2. Daraxtlar qatorida ishlov berilmagan yer qolmasligi uchun kultivatorning chetki tishlari tupga tegmay o'tadigan tarzda sozlanadi.
3. Daraxt novdalarini butash uchun pnevmoqaychidan, qatorlar orasidan turli mashinalar o'tishi uchun yo'lakcha ochishda daraxtni shaklga soluvchi mashinadan foydalaniлади.
4. Bog'dorchilik hosili mashinalar bilan faqat texnik maqsadda yig'ishtiriladi. Xo'raki mevani qo'lda terishni yengillashtirish uchun moslamalar ishlataladi.
5. Mevani yig'ishtirishda foydalaniладиган mashina daraxtni maxsus vibrator bilan silkitib hosilini qoqib tushiradi.

## XIII BOB BO'YLOMA KUL'DORI

(Shoxlarning surʼi)

1. Nega bog'larda ko'chat ekishdan oldin tuproqni chuqur yumshatish ma'qul hisoblanadi?
2. Daraxtlar qator oralig'iga ishlov berishda plug (yoki kultivator) nima uchun traktorga nisbatan yon tomonga surib ulanadi?
3. Daraxtlar qatorida ishlov berilmagan yer qoldirmaslik uchun qanday chora ko'rildi?
4. Nima maqsadda daraxtlar shoxlari tegishli shaklda kesilib, ular orasidan yo'lakcha ochiladi?
5. Shoxlarni kerakli shaklga keltirib qirquvchi apparat tik, gorizontal va engashtirilgan holatga keltirilish nima uchun kerak?
6. Nima sababdan bog'dorchilikda hosilni to'liq mashinada yig'ishtirish ma'qul hisoblanmaydi?
7. Bog'dorchilik hosilini qo'lda yig'ishtirishni yengillashtirish uchun qanday vositalardan foydalaniлади?
8. Mevali daraxtlar hosillini qoqish uchun qanday vositalardan foydalaniлади?
9. Daraxtga birkitilgan vibrator uning po'stlog'ini shikastlantirmasligi uchun qanday chora ko'rildi?
10. Nega mevasi qoqilayotgan daraxt tagiga elastik chodir o'rnatiladi?

**A. Н. Карпенко, В. М. Халанский.** Сельскохозяйственные машины. М., «Колос», 1983.  
**И. П. Петров.** Картофелеуборочные машины. М., «Колос», 1986.

**М. Ш. Шоумарова, Т. А. Абдиллаев, Д. М. Мисаев.** Қишлоқ хўжалик машиналари атамаларининг русча-ўзбекча лугати. Т., «Фан», 1994.

**T. A. Абдиллаев, M. Ш. Шоумарова.** Фалла комбайнни ва пахта териш машиналари. Т., «Moliya», 1999.

**M. Ш. Шоумарова, T. A. Абдиллаев.** Қишлоқ хўжалиги машиналари. Т., «Ўқитувчи», 2002.

**Case Corporation.** Зерноуборочный хедер с жестким режимным аппаратом 1010. Rac 6-2980. 1997.

**Case Corporation.** 2344 и 2366 комбайн с центробежной молотилкой. Rac 6-5590. 1998.

**New Holland.** Зерновая жатка для комбайнов AL-MCS INTEGRALE. Viale delle Nazioni, 55-41100 Modena, Italia, 1998.

**Kverneland Kleep AS.** Руководство по вспашке. N-4344 Kverneland Norway. 1998.

**О.А. Сизов.** Энергосберегающие приемы обработки почвы // Механизация и электрификация сельского хозяйства. 2001. № 6.

**Case Corporation.** Хлопкоуборочная машина 2022. RAC 9-79230. 1997.

**CLASS Доминатор 218 Mega II.** «Зерноуборочный комбайн» D-33426 XARZEVIN-KEL, Германия, 1999.

**PETKUS WUTHA.** Семяочистительно-сортировальные машины.

**Г. П. Варламов, А. В. Четвертаков.** Механизация уборки и обработки фруктов. М.: «Колос» 1984.

**Ф. Е. Ниферов.** Машины для садоводства. Л.: «Колос», 1976.

**Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги.** Ўрта маҳсус, қасб-ҳунар таълими маркази. Замонавий ўкув қўлланмаларини яратиш тамойиллари ва баҳолаш мезонлари. 2003.

**Муаллифлар учун қўлланма.** Т. 2002.

<b>Kirish</b>	3
<b>I b o b. Tuproqqa asosiy ishllov berish mashinalari</b>	
1-§. Tuproqqa ishllov berish usullari	4
2-§. Pluglar	6
3-§. Korpus turlari	9
4-§. Korpus qismllari	10
5-§. Plug pichqolqlari	12
6-§. Chimqirqar va burchakkesar	13
7-§. Plugning yordamchi qismllari	14
8-§. Tirkalma pluglar	16
9-§. Osma pluglar	19
10-§. Tirkalma va osma plugni ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot)	(21)
11-§. Maxsus pluglar	26
I b o b bo'yicha xulosalar	30
Namunaviy test savollari	30
<b>II b o b. Tuproqqa sayoz ishllov beradigan mashinalar</b>	
1-§. Tishli tirmalar	33
2-§. Disksimon tirmalar	35
3-§. Faol ishchi qismllari	36
4-§. Kultivatorlar	37
5-§. Chopiq kultivatorlari	40
6-§. Chopiq kultivatorini ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot)	(43)
II b o b bo'yicha xulosalar	48
Namunaviy test savollari	49
<b>III b o b. O'g'itlash mashinalari</b>	
1-§. O'g'it miqdorlagichlar	51
2-§. O'g'it sochish apparatları	52
3-§. O'g'itlash mashinalarining umumiy tuzilishi	53
4-§. O'g'it sochgichni ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot)	(54)
III b o b bo'yicha xulosalar	55
Namunaviy test savollari	55
<b>IV b o b. Ekish mashinalari</b>	
1-§. Urug' ekish usullari	58
2-§. Seyalkalar tasnifi	60
3-§. Miqdortagichlar	61
4-§. Urug' o'tkazgichlar	64
<b>V b o b. O'simliklarni himoyalash mashinalari</b>	
1-§. O'simliklarni himoyalash usullari	89
2-§. Kimyoviy moddalardan foydalanish usullari	90
3-§. Kimyoviy himoyalash mashinasining asosiy qismllari	93
4-§. Kimyoviy himoyalash mashinalarining tuzilishi	96
5-§. Purkagichni ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot)	(99)
V b o b bo'yicha xulosalar	101
Namunaviy test savollari	101
<b>VI b o b. Melioratsiya mashinalari</b>	
1-§. Yer kavlash mashinalari	102
2-§. Dalani sug'orishga tayyorlash mashinalari	104
3-§. Sug'orish mashinalari	106
VI b o b bo'yicha xulosalar	109
Namunaviy test savollari	110
<b>VII b o b. Yem-xashak yig'ishtirish mashinalari</b>	
1-§. Yem-xashak yig'ishtirish va tayyorlash texnologiyalari	111
2-§. Pichan o'rgichlar	112
3-§. Pichan o'rgich-ezgich va pichan o'rgich-maydalagichlar	114
4-§. Pichan presslagichlar	116
5-§. Silosga o'rish kombaynlari	118
6-§. Silosga o'radigan kombaynni ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot)	(120)
VII b o b bo'yicha xulosalar	121
Namunaviy test savollari	122

<b>VIII b o b. G'alla o'rim-yig'im mashinalari</b>	
1-§. G'alla hosilini yig'ishtirish texnologiyasi . . . . .	123
2-§. G'alla kombayning umumiyl tuzilishi . . . . .	125
3-§. Aksial-rotorli kombaynlari . . . . .	132
4-§. «Klass» firmasining kombaynlari . . . . .	137
5-§. Kombayn ishidagi don nobudgarchiligiini kamaytirish. . . . .	139
6-§. O'rim-yig'inni tashkillashtirish . . . . .	142
7-§. G'alla kombaynni ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot). . . . .	144
VIII b o b bo'yicha xulosalar . . . . .	146
Namunaviy test savollari . . . . .	147

#### **IX b o b. Don tozalash mashinalari**

1-§. Don tozalash va saralash usullari . . . . .	148
2-§. Don tozalash mashinalari . . . . .	151
3-§. Don tozalash mashinalarini ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot) . . . . .	152
IX b o b bo'yicha xulosalar . . . . .	153
Namunaviy test savollari . . . . .	154

#### **X b o b. Paxta terish mashinalari**

1-§. Vertikal shpindelli paxta terish mashinasining tuzilishi va ishlashi . . . . .	156
2-§. Gorizontal shpindelli paxta terish mashinasining tuzilishi va ishlashi . . . . .	160

3-§. Gorizontal shpindelli paxta terish mashinasini ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot). . . . .	163
4-§. Ko'sak terish mashinalari . . . . .	166
5-§. Ko'sak chuvish mashinalari . . . . .	170
6-§. G'o'zapoyani yig'ishtirish mashinalari . . . . .	173
X b o b bo'yicha xulosalar . . . . .	174
Namunaviy test savollari . . . . .	175

#### **XI b o b. Kartoshka yig'ishtirish mashinalari**

1-§. Kartoshka yig'ishtirish texnologiyasi . . . . .	176
2-§. Kartoshka yig'ishtirish mashinasining turlari va umumiyl tuzilishi . . . . .	177
3-§. Tugunklarni tuproqdan ajratish usullari. . . . .	179
4-§. Kartoshka kavlagichini ishga tayyorlash (amaliy mashg'ulot). . . . .	181
XI b o b bo'yicha xulosalar . . . . .	181
Namunaviy test savollari . . . . .	182

#### **XII b o b. Bog'dorchilik mashinalari**

1-§. Bog'dorchilikda tuproqqa ishlov berish mashinalari. . . . .	183
2-§. Daraxt novdalarini kesuvchi mashinalar . . . . .	184
3-§. Meva yig'ishtirish mashinalari . . . . .	186
XII b o b bo'yicha xulosalar . . . . .	188
Namunaviy test savollari . . . . .	188

*Foydalaniłgan adabiyotlar . . . . .* 189